$$d_{х.ю} = 6{,}7\cdot 10^{-6}(\sigma^{0{,}35}\cdot\varphi^{0{,}8})/(w_г^{0{,}2}\cdot t_{ўр}^{0{,}45}\cdot\mu_я^{1{,}1}) \quad (7)$$

Б.А.Алиматов томонидан ўрганилган барботажли экстракторнинг конструкцион тузилиши, суюқлик фазаларини фақат барботаж патрубкасида аралаштиришга асосланган. Биз текшираётган барботажли экстракторда [2] эса қўшимча аралаштириш зонаси мавжуд бўлиб, суюқлик фазалари ички барботаж патрубкасида ҳамда ташқи халқали каналда ҳам қўшимча аралаштирилади. Бу экстракторни афзаллиги аралаштириш вақтининг кўплиги туфайли жадал режимда ишлашидадир. Бу ўз навбатида аппаратнинг аралаштириш зоналаридаги томчиларни майдаланиши ва ўлчамлари асосида тақсимланиши бўйича тадқиқотлар олиб борилишини талаб этади.

Шунинг учун барботажли экстракторнинг янги конструкцияси бўйича тайёрланган тажриба қурилмасида тадқиқотлар ўтказилиб, аппаратнинг аралаштириш зоналаридан майдаланиб чиқаётган дисперс фаза томчиларининг ўлчамлар бўйича улуши ва тақсимланиши ўрганилди. [1,4].

Профессор Б.А.Алиматов томонидан яратилган барботажли экстракторда [3] майдаланаётган томчиларнинг хажмий юзавий диаметрини ҳисобловчи тавсия этилган формулани биз текшираётган барботажли экстракторга тадбиқ этиш бўйича назарий тадқиқотлар олиб борилди. Текширилаётган аппаратда газ ички ва ташқи аралаштириш

зоналарига тақсимланади.Суюқликлар ички аралаштириш зонасида $w_г^и$ газ тезлиги билан аралаштирилиб, ташқи аралаштириш зонасига оқиб ўтади ва бу зонада яна $w_г^т$ газ тезлиги билан қўшимча аралаштирилади. Натижада суюқлик фазаларини бу зоналарда аралаштириш ва туриш вақти узаяди ҳамда оғир фаза томчиларини ўлчами кичиклашади. Ўтказилган тарибалар ҳам бу жараённи тасдиқламоқда. Шунинг учун 7-формулага ички ва ташқи аралаштириш зоналаридаги газ тезликларининг ўртача арифметик қиймати ва доимий кўпайтувчи киритилди [1,2].

Формула қуйидаги кўринишда.

$$d_{х.ю} = 3{,}3 \cdot 10^{-5}(\sigma^{0{,}35} \cdot \varphi^{0{,}8})/((w_г^и + w_г^т)^{0{,}2}/2 \cdot t_{ўр}^{0{,}45} \cdot \mu_я^{1{,}1}) \qquad (8)$$

Бу формула ёрдамида томчиларнинг хажмий юзавий диаметрлари аниқланди.
1-чизиқ учун.

$w_г^и = 0{,}09\frac{м}{сек}$, $w_г^т = 0{,}08\frac{м}{сек}$,σ=0,073н/м, $t_{ўр}$=22сек, $\mu_я$=0,001Па·с, φ=0,25.

$d_{х.ю} = 3{,}3 \cdot 10^{-5}(0{,}073^{0{,}35} \cdot 0{,}25^{0{,}8})/((0{,}09 + 0{,}08)^{0{,}2}/2 \cdot 22^{0{,}45} \cdot 0{,}001^{1{,}1})$ =3,3 $\cdot 10^{-5}$(0,132)/(0,00122)=357мкм.

Тавсия этилаётган формула ёрдамида ҳисобланган томчиларнинг хажмий юзавий диаметри билан тажрибавий қийматлари орасидаги хатолик улуши 2÷13,5% ни ташкил этади.

Хулоса

Мақолада барботажли экстракторда экстракция жараёни учун суюқликларнинг физик кимёвий хоссаларига боғлиқ ҳолда массаалмашинув жараёнларини ҳисоблашда муҳим аҳамиятга эга бўлган томчиларнинг хажмий юзавий диаметрини ҳисобловчи формула тавсия этилди. Ўтказилган назарий тадқиқотлар натижасида тавсия этилаётган барботажли экстракторнинг самарадорлигини белгиловчи асосий омиллардан бири бўлган дисперс фаза томчиларини хажмий юзавий диаметрини ва фазалараро солиштирма юзаларини аниқлашга имконият яратилди.

Адабиётлар

[1]. I.T.Karimov.Barbotajli ekstraktorlarni gidrodinamik va massa almashinuv jarayonlari hamda loyixalash asoslari/ Monografiya/ FarPI. Ilmiy kengash bayoni №2, 12.10.2024 yil, "ALPHA BRAND" nashiryoti, -190 bet.

[2]. Алиматов Б.А., Садуллаев Х.М.,Каримов И.Т.,Хурсанов Б.Ж. Методы и пасчета и конструирование аппаратуры для переработки сложных гетерогенных систем «жидкость-газ-жидкость» Монография. Белгород: БГТУ,2019.-191с.

[3]. Алиматов Б.А., Соколов В.Н., Саъдуллаев Х.М., Каримов И.Т. Многоступенчатый барботажный экстрактор. А.С. №1607859 (СССР) , БИ №43, 1990.

[4]. Karimov. I.T., Alimatov B.A.,Tojiyev R.J.,Sadullaev X.M Ko‘p pog‘onali barbotajli ekstraktor. O’z. Res. PATENT № IAP 06714 tashkent 31.01.2022 yil.

YARIM JUN TARKIBLI KOSTYUMBOB POLOTNO TO’QIMALI GAZLAMALARNING SARJA TO'QILISHDAGI GAZLAMALARDAN AVFZALLIK XUSUSIYATLARI

N.J. Yakubov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Anotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada yarim jun tarkibli kostyumbob gazlamalarning tuzilishi, texnologik va ekspluatatsion xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, polotno (plain weave) to‘qimasida tayyorlangan gazlamalarning sarja (twill) to‘qilishdagi gazlamalarga nisbatan afzalliklari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda polotno to‘qimasining iplar kesishish chastotasi yuqoriligi sababli gazlamaning zichligi, sirt silliqligi, shaklni saqlash qobiliyati hamda deformatsiyaga chidamliligi oshishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *yarim jun gazlama, polotno to‘qima, sarja to‘qima, kostyumbob mato, fiziko-mexanik*

xususiyatlar, shaklni saqlash, deformatsiya bardoshliligi, havo o‘tkazuvchanlik, issiqlik izolyatsiyasi, aralash tolalar, jun-poliefir kompozitsiyasi, gazlama zichligi, ekspluatatsion qulaylik.

Abstract: *This scientific article studies the structure, technological and operational properties of semi-wool suit fabrics, and analyzes in depth the advantages of plain weave fabrics over twill weave fabrics. The study proves that the density, surface smoothness, shape retention, and deformation resistance of the fabric increase due to the high thread intersection frequency of the plain weave.*

Keywords: *half-wool fabric, plain weave, twill weave, suit fabric, physical and mechanical properties, shape retention, deformation resistance, air permeability, thermal insulation, mixed fibers, wool-polyester composition, fabric density, operational comfort*

Аннотация: *В научной статье исследованы структура, технологические и эксплуатационные свойства полушерстяных костюмных тканей, а также подробно проанализированы преимущества тканей полотняного переплетения по сравнению с тканями саржевого переплетения. Доказано, что плотность, гладкость поверхности, формоустойчивость и деформационная стойкость ткани повышаются за счёт высокой частоты переплетения нитей полотняного переплетения.*

Ключевые слова: *полушерстяная ткань, полотняное переплетение, саржевое переплетение, костюмная ткань, физико-механические свойства, формоустойчивость, устойчивость к деформации, воздухопроницаемость, теплоизоляция, смесовые волокна, состав шерсть-полиэстер, плотность ткани, комфортность эксплуатации.*

Bugungi kunda respublikaizda yarim jun tarkibli kostyumbob mato turidagi maxsulotga talab oshib bormoqda. Sarja to‘qimali gazlamalar ko‘proq bukiluvchanlik va yumshoqlikka ega bo‘lishiga qaramay, ular havo o‘tkazuvchanlik va shaklni saqlash bo‘yicha polotno to‘qimasiga nisbatan past ko‘rsatkichlarni namoyon etadi. Polotno to‘qimali gazlamalarda iplar har qatorda kesishib o‘tadi, bu esa gazlamaning mustahkamligini oshiradi va silliq, tekis sirt hosil qiladi. Natijada, bu turdagi gazlamalar kostyum, paltolar, forma va rasmiy kiyimlar uchun eng maqbul variantlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yarim jun aralash tolali gazlamalarni ishlab chiqarish so‘nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Namangan, Buxoro, Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridagi yirik klaster korxonalarida polotno to‘qimasida tayyorlangan yarim jun gazlamalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Pololotno o‘rilich sxematik shakli 1-rasmda ko‘rsatilgan [3]. Shuningdek, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institute, Namangan muhandislik-texnologiya institute, hamda Farg‘ona davlat texnika universitetining yengil sanoat va to‘qimachilik fakulteti laboratoriyalarida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar polotno to‘qimali gazlamalarning sarja to‘qimali gazlamalarga nisbatan 10–15% yuqori deformatsiya barqarorligi**,** 8–12% yaxshiroq havo o‘tkazuvchanlik va issiqlik saqlash qobiliyatining ortishini ko‘rsatgan [1].

Maqola natijalari yarim jun tarkibli polotno to‘qimali gazlamalarni ishlab chiqishning amaliy va ilmiy asoslarini belgilab beradi. Bunday gazlamalar O‘zbekiston sharoitida yuqori sifatli, eksportbop va energiya tejamkor kostyumlik matolarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida yengil sanoat so‘nggi yillarda strategik tarmoqlardan biri sifatida tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Paxta tolasidan tayyor gazlamalar ishlab chiqarish bilan bir qatorda, yarim jun va aralash tolali kostyumbob matolar ishlab chiqarish bozor talabi asosida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilarning yuqori sifat, qulaylik va estetik talablariga mos gazlamalar ıtish uchun to‘qima tuzilmasini va to‘qish turini to‘g‘ri tanlash muhim hisoblanadi [2].



1-rasm. Polotno o‘rilishini taxlash dasturi. A-ikkita shodalik, B-to‘rtta shodalik.

Kostyumbob gazlamalarda asosan sarja va polotno to‘qimalari keng qo‘llaniladi. Sarja to‘qima gazlamalar o‘zining diagonalli tuzilishi tufayli yumshoqligi, bukiluvchanligi va shaklga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Sarja o‘rilich sxematik shakli 2-

rasmda ko‘rsatilgan[3]. Biroq, ularning ayrim kamchiliklari mavjud: sirti tezda tvitlashadi, havo o‘tkazuvchanlik darajasining pastligi, hamda tolalarning cho‘ziluvchanlik chegarasining pastligi[3].

Polotno to‘qimali gazlamalarda esa iplar har qatorda kesishib o‘tadi, bu esa to‘qimaning zichligi, sirt mustahkamligi va deformatsiyaga bardoshliligini oshiradi. Ayniqsa, yarim jun tarkibli gazlamalarda bu afzallik yanada yaqqol namoyon bo‘ladi: jun tolalarining tabiiy elastikligi, issiqlik saqlovchanligi va gigroskopikligi polotno to‘qimasining soddaligi bilan uyg‘unlashib**,** silliq sirtli, shaklni yaxshi saqlovchi, issiqlikni ushlab turuvchi va estetik jihatdan jozibali kostyumbob gazlamalar hosil qiladi.



2-rasm. Sarja o‘rilishini taxlash dasturi. A-bitta tanda qoplashli va ikkita arqoq qoplashli, B- ikkita tanda qoplashli va bitta arqoq qoplashli.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yarim jun aralash tolalardan foydalanish bo‘yicha qator ilmiy va ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda. Namangan, Toshkent, Farg‘ona va Buxoro viloyatlaridagi yirik korxonalarda jun va poliefir aralashmasidan to‘qilgan polotno gazlamalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti**,** Namangan muhandislik-texnologiya institute, hamda Farg‘ona davlat texnika universitetining yengil sanoat va to‘qimachilik fakulteti olib borilayotgan tadqiqotlarda yarim jun gazlamalarning turli to‘qima turlari bo‘yicha issiqlik va elastiklik ko‘rsatkichlari tahlil qilinmoqda[4].

Mazkur maqolaning maqsadi — yarim jun tarkibli kostyumbob polotno to‘qimali gazlamalarning fizik-mexanik, havo o‘tkazuvchanlik, issiqlik saqlovchanlik va estetik xususiyatlarini o‘rganish hamda ularning sarja to‘qilishdagi gazlamalardan ustun tomonlarini aniqlashdan iborat. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida sifatli, energiya tejamkor va eksportbop kostyumbob gazlamalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tadqiqot davomida yarim jun tarkibli gazlamalarning polotno va sarja to‘qimalarida to‘qilgan namunalar fizik-mexanik, gigiyenik va ekspluatatsion xususiyatlar bo‘yicha solishtirildi. Har ikkala to‘qima turi bir xil ip tarkibidan (50% jun, 50% poliefir) tayyorlandi, ip zichligi 32×28 ip/sm bo‘lib, to‘qish jarayonlari bir xil sharoitda olib borildi. Quyida asosiy natijalar tahlil qilinadi.

Polotno to‘qimasida iplar har qatorda bir-biri bilan kesishganligi sababli gazlama tuzilmasi ko‘proq bog‘langan va zich bo‘ladi. Natijada sirt silliqligi 14–16% ga yaxshilandi, bu esa matoning estetik ko‘rinishini va chang tutmaslik xususiyatini oshirdi. Sarja to‘qimalarda esa diagonalli chiziqli tuzilma mavjudligi sababli sirt notekisligi biroz yuqoriroq (Rz = 35–40 mkm) bo‘lib chiqdi[3].

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, polotno to‘qimali gazlamalar tikuvchilikda o‘ta nozik bukilishlarga bardoshli, tikuv chizig‘ida deformatsiya kamroq bo‘ladi, bu esa tayyor kostyumlarning shaklni uzoq saqlashiga yordam beradi.

Cho‘zilish sinovlari natijasida polotno to‘qimali gazlamalarda uzilish kuchi o‘rtacha 12–15% yuqori bo‘ldi (0,38–0,41 kN/sm²), bu sarja to‘qimali gazlamalardagi 0,33–0,36 kN/sm² ko‘rsatkichdan sezilarli farq qiladi. Bu natija iplarning ko‘p kesishish nuqtalariga ega bo‘lgan polotno to‘qimasining strukturaviy barqarorligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, gazlama deformatsiyaga bardoshli bo‘lib, tikuv ishlovlarida (presslash, dazmollash, bukish) shaklni saqlab qolish qobiliyatini 9–10% yaxshilagan.

Yarim jun gazlamalar tabiiy tolalar tufayli issiqlikni yaxshi ushlab turadi. Polotno to‘qimali gazlamalarda iplararo bo‘shliq nisbatan kichik bo‘lsa-da, iplarning ko‘ndalang joylashuvi havo o‘tkazuvchanlikni kamaytirmagan, balki barqarorlashtirgan. O‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Polotno to‘qimali gazlamalarda havo o‘tkazuvchanlik koeffitsienti 98–112 $dm^3/(m^2 \cdot s)$,
- Sarja to‘qimali gazlamalarda esa 86–97 $dm^3/(m^2 \cdot s)$ atrofida bo‘ldi.

Issiqlik o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha esa polotno gazlamalarda issiqlik saqlash qobiliyati 0,045–0,047 Vt/(m·K), sarja gazlamalarda esa 0,039–0,042 Vt/(m·K) ni tashkil etdi. Bu 10–15% yuqori natija, qishki va yarim faslli kostyumlar uchun muhim afzallikdir[4].

Polotno to‘qimali gazlamalarning nam yutish qobiliyati 9,5–10,3% ni tashkil etib, bu sarja gazlamalarga nisbatan 1,2–1,5% yuqori natijani berdi. Jun tolalarining tabiiy gigroskopikligi va silliq sirtning suv bug‘larini bir tekis singdirish xususiyati bu farqni yuzaga keltirdi.

Kiyim sifatida ishlatilganda polotno gazlamalar kam ajin tushadi, tez tiklanadi va presslashda shaklni yaxshiroq saqlaydi. Buning sababi – iplarning bir tekis taqsimlanishi va gazlamaning yuqori tuzilma zichligidir.

Polotno to‘qimali gazlamalar silliq, tiniq va tekis sirt tuzilmasi bilan ajralib turadi. Bu esa bo‘yash va pardozlash jarayonlarida ranglarning bir tekis singishini ta’minlaydi. Sarja to‘qimalarda esa diagonalli struktura sababli rang intensivligi turlicha bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, polotno gazlamalar tikuv mashinalarida kamroq ip uzilishi bilan ajralib turadi (6–8% ga past), bu ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va chiqindilarni kamaytiradi[5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yarim jun tarkibli kostyumbob gazlamalarda to‘qima turining tanlanishi ularning fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir etadi. Xususan, polotno to‘qimali gazlamalar sarja (twill) to‘qimali gazlamalarga nisbatan qator afzalliklarga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

1. Tuzilma zichligi va sirt sifati. Polotno to‘qimasida iplarning har qatorda kesishishi natijasida gazlama tuzilmasi silliq, zich va barqaror bo‘lib, sirt notekisligi 14–16% ga kamayadi. Bu esa matoning estetik jozibadorligini va shaklni uzoq muddat saqlash xususiyatini oshiradi.
2. Mexanik barqarorlik. Polotno to‘qimali gazlamalarda uzilish kuchi sarja gazlamalarga nisbatan o‘rtacha 12–15% yuqori natija ko‘rsatdi. Bu tikuvchilikda matoning uzilmasligi, deformatsiyaga chidamliligi va tayyor mahsulot shaklini saqlashida muhim omildir.
3. Havo o‘tkazuvchanlik va issiqlik saqlash. Yarim jun tolalarining tabiiy xususiyatlari bilan birgalikda polotno to‘qimasining zich struktura hosil qilishi natijasida gazlamaning havo o‘tkazuvchanligi 8–12%, issiqlik saqlash qobiliyati esa 10–15% ga ortdi. Bu gazlamalarni turli iqlim sharoitida, ayniqsa kuz-qish mavsumida foydalanishga qulay qiladi.
4. Gigroskopiklik va ekspluatatsion qulaylik. Polotno gazlamalar nam yutish qobiliyati bo‘yicha sarja gazlamalardan 1,2–1,5% yuqori natija ko‘rsatdi. Natijada mato kiyishda terini “nafas oldiradi”, ajin tushmaydi va dazmollash jarayonida shaklni uzoq saqlaydi.
5. Texnologik samaradorlik. Polotno to‘qimasida to‘qish jarayoni soddaroq bo‘lib, energiya sarfi 20–25% kam, ishlab chiqarish jarayonida ip uzilishi esa 6–8% past bo‘ldi. Bu omillar ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.
6. Amaliy ahamiyat. Olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan texnologik parametrlar (50% jun, 50% poliefir, 32×28 ip/sm zichlik, 1/1 polotno to‘qima) yarim jun gazlamalar uchun optimal deb topildi. Ushbu gazlamalar eksportbop, ekologik toza va energiya tejamkor kostyumbob mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanishi mumkin.
7. Tavsiya. O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida yarim jun-poliefir aralashmalarida polotno to‘qima texnologiyasini keng joriy etish, ishlab chiqarish bazalarini modernizatsiya qilish, hamda yangi avlod tikuv matolari uchun innovatsion ishlov berish (antistatik, ajin-tushmas, suv o‘tkazmaydigan qoplamalar) texnologiyalarini tadbiq etish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, yarim jun tarkibli polotno to‘qimali gazlamalar o‘zining yuqori sifat ko‘rsatkichlari, mustahkamligi va ekspluatatsion qulayligi bilan sarja to‘qimali gazlamalarga nisbatan ustun bo‘lib, O‘zbekiston yengil sanoatida mahalliy xomashyo asosida raqobatbardosh kostyumbob gazlamalar ishlab chiqarish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar

[1]. ”Yengil sanoat maxsulotlari materialshunosligi’. N.G.Abbasova,B.B.Ahmedov va boshqalar Toshkent “Aloqachi”2006 yil
[2]. “Yengil sanoat maxsulotlarini texnologiyasi “ Qulujonova G.Q. Toshkent 2002 yil
[3]. ”Toqima tuzilish nazariyasi” E.Sh.Alimbayev Toshkent “Aloqachi”2006 yil
[4]. Yakubov Nosirjon Jurayevich. (2025). “Kostyumbob gazlama to‘qishda “elastan” iplaridan foydalanib shakldor yuzali mato olish “Journal of international scientific research 3(06) 797-800
[5]. Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women’s clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

TRIKOTAJDA NAQSHNI LOYIHALASHNING ASOSIY PRINSIPLARINI O‘RGANISH

A.I. G‘ofurov, M.Z. Tug‘unov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada trikotajda naqshlarni loyihalash jarayonining asosiy prinsip va tamoyillari tahlil qilinadi. Naqsh hosil bo‘lishining texnologik, badiiy va estetik jihatlari o‘rganilgan. Naqsh yaratishdagi geometrik, simmetrik va kompozitsion qonuniyatlarning trikotaj to‘qimalarining tuzilishiga ta’siri yoritiladi. Trikotaj matolarida naqshni shakllantirish jarayonida ishlatiladigan elementlar – halqa, protyajka, nabroska, futer iplarining o‘zaro joylashuvi hamda ular orqali yuzaga keladigan badiiy samara tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy trikotaj ishlab chiqarish tizimlarida ornament turlari, ularning tarixiy shakllanishi va CAD–CAM tizimida naqsh loyihalashning afzalliklari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida naqsh yaratish jarayonida mutanosiblik, simmetriya va rang uyg‘unligini saqlash mahsulot sifatiga bevosita ta’sir etishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *trikotaj, naqsh, loyihalash, halqa, protyajka, simmetriya, faktura, ornament, kompozitsiya, rang uyg‘unligi, texnologiya, CAD–CAM tizimi, naqsh samarasi, to‘qima tuzilishi, trikotaj mashinasi, naqsh elementi, geometrik naqsh, badiiy loyihalash, simmetriya o‘qi, faktura shakllanishi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются основные принципы и принципы процесса проектирования узоров в трикотаже. Изучаются технологические, художественные и эстетические аспекты формирования узоров. Выделяется влияние геометрических, симметричных и композиционных законов при создании узоров на структуру трикотажных полотен. Анализируются элементы, используемые в процессе формирования узора в трикотажных полотнах – петлевые, протейские, набросковые, футерные нити – и их взаимное расположение, а также создаваемый ими художественный эффект.*

Ключевые слова: *вязание, узор, дизайн, петля, растяжение, симметрия, текстура, орнамент, композиция, цветовая гармония, технология, система CAD–CAM, эффект узора, структура переплетения, вязальная машина, элемент узора, геометрический узор, художественное оформление, ось симметрии, формирование текстуры.*

Abstract: *This article analyzes the basic principles and principles of the process of designing patterns in knitwear. The technological, artistic and aesthetic aspects of pattern formation are studied. The influence of geometric, symmetrical and compositional laws in pattern creation on the structure of knitted fabrics is highlighted. The elements used in the process of forming a pattern in knitted fabrics - loop, protyajka, nabroska, futer yarns - and the mutual arrangement of them, as well as the artistic effect created through them, are analyzed.*

Keywords: *knitting, pattern, design, loop, stretch, symmetry, texture, ornament, composition, color harmony, technology, CAD–CAM system, pattern effect, weave structure, knitting machine, pattern element, geometric pattern, artistic design, axis of symmetry, texture formation.*

Kirish

Trikotaj ishlab chiqarish yengil sanoatning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda uning texnik va estetik imkoniyatlari keskin kengayib bormoqda. Naqshli trikotaj to‘qimalari zamonaviy moda, dizayn va texnologiya integratsiyasi natijasida yuqori darajadagi badiiy qiymat kasb etmoqda. Trikotajda naqsh hosil qilish nafaqat bezak, balki mahsulotning sifat, shakl saqlovchanlik va joziba ko‘rsatkichlarini belgilovchi muhim omildir. Shu bois naqsh loyihalash prinsiplarini chuqur o‘rganish trikotaj sanoatining innovatsion rivojlanishida

asosiy omil hisoblanadi. Naqshli trikotaj mahsulotlari turli tarmoqlarda kiyim-kechakdan tortib texnik to‘qimalargacha keng qo‘llaniladi. Shuningdek, naqsh loyihalashda rang uyg‘unligi, kompozitsion muvozanat va simmetriya qonuniyatlariga amal qilish muhim sanaladi. Tadqiqot maqsadi naqshni loyihalashda texnologik va badiiy prinsiplardan kompleks foydalanishning ilmiy asoslarini aniqlashdan iborat.

Nazariy qism

Trikotajda naqshni loyihalash jarayoni ijodiy va texnik yondashuvni talab etadi. Naqsh bu chiziqlar, shakllar va ranglarning tartibli joylashuvidan hosil bo‘luvchi badiiy ifoda shaklidir. Trikotaj naqshlari ko‘pincha asosiy to‘qimalar glad, lastik, futer va hosilali to‘qimalarga qo‘shimcha elementlar (protyajka, nabroska, qo‘shimcha iplar) kiritish yo‘li bilan yaratiladi. Naqsh yaratishda eng muhim element halqadir u trikotaj tuzilishining bazasini tashkil etadi. Halqalarning uzunligi, shakli va ketma-ketligi o‘zgarishi natijasida trikotaj matoning fakturasi, elastikligi va naqsh samarasi o‘zgaradi.

Naqsh hosil qiluvchi asosiy elementlar sifatida halqa, protyajka, nabroska va arqoq iplar tilga olinadi. Masalan, protyajka trikotaj yuzasida uzaytirilgan ip shaklida joylashib, bo‘rtma yoki rel’yefli effekt hosil qiladi. Halqalar o‘lchamini o‘zgartirish orqali esa ajur, press yoki jakkard trikotaj turlari yaratiladi. Bularning har biri o‘ziga xos geometrik va estetik ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Trikotajda naqshni loyihalashda asosiy nazariy prinsiplar kompozitsiya, mutanosiblik, simmetriya va rang uyg‘unligidan iborat. Kompozitsiya elementlarning muvozanatli joylashishini ta’minlab, naqshning umumiy uyg‘unligini beradi. Simmetriya naqsh elementlarining bir-biriga nisbatan o‘zaro moslik holati bo‘lib, u vertikal, gorizontal yoki markaziy shaklda ifodalanadi. Asimmetriya esa zamonaviy dizaynda dinamiklik yaratish uchun qo‘llaniladi.

Naqsh loyihalash jarayonida ornament tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ornament ritmik tarzda takrorlanuvchi geometrik yoki o‘simliksimon shakllar majmuasidir. Trikotaj ornamentlari tarixan qadimiy madaniyatlarda Misr, Yunoniston, Sharq san’atida shakllangan bo‘lib, ularning geometrik, o‘simlik, hayvonot va ramziy turlari mavjud. Hozirgi davrda trikotaj ornamentlarini loyihalashda kompyuter texnologiyalari, xususan, CAD-CAM tizimlari keng qo‘llaniladi. Bu tizimlar naqsh raportini, rang kombinatsiyasini va mato strukturasi modelini avtomatik tarzda hisoblash imkonini beradi.

Naqsh loyihalashning texnologik bosqichlari quyidagilardan iborat: 1) naqsh g‘oyasini aniqlash; 2) geometrik asos tuzish; 3) rang kombinatsiyasini tanlash; 4) naqsh elementlarini joylashtirish; 5) simmetrik yoki asimmetrik balansni aniqlash; 6) trikotaj mashinasi dasturiga o‘tkazish. Ayniqsa, jakkard trikotaj naqshlarini loyihalashda ignalar tanlanma ish rejimida harakatlanadi, bu esa murakkab naqshlar yaratishga imkon beradi.

Rang uyg‘unligi trikotaj naqshlarining estetik ifodasida muhim rol o‘ynaydi. “Issiq” ranglar (qizil, sariq, to‘q to‘q sariq) dinamika va jonlilik hissini bersa, “sovuq” ranglar (ko‘k, yashil, binafsha) tinchlik va nafislik uyg‘otadi. Rang kontrasti naqshdagi asosiy motivni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Naqsh yaratishda simmetriya va mutanosiblik qonuniyatlari bilan bir qatorda faktura va material tanlovi ham muhimdir. Masalan, yupqa iplar nozik naqshlarni hosil qilsa, qalin iplar bo‘rtma yoki rel’yefli naqshlar yaratadi. Trikotaj mashinasining texnologik imkoniyatlari naqsh shaklini cheklab qo‘yadi, shu sababli loyihalovchi texnolog va dizayner birgalikda ishlashi zarur.

Trikotaj naqshlarini loyihalashda asosiy parametrlar

1-jadval

№	Ko‘rsatkich nomi	Ta’rifi	Naqshga ta’siri
1	Halqa uzunligi	Ipning bir halqadagi uzunligi	Faktura silliqligi va elastiklikni belgilaydi
2	Protyajka uzunligi	Halqalar orasidagi ip cho‘zilishi	Bo‘rtma yoki soyali effekt hosil qiladi
3	Rang kombinatsiyasi	Asosiy va kontrast ranglar uyg‘unligi	Badiiy ifodaviylikni oshiradi
4	Simmetriya turi	Vertikal, gorizontal yoki markaziy	Naqsh barqarorligini belgilaydi
5	Rapport o‘lchami	Naqsh takrorlanish uzunligi	Naqsh ko‘rinishining ritmini aniqlaydi

Zamonaviy yondashuvlarda aralash naqshli to‘qimalar (bosh, hosila va naqshli qatlamlarning kombinatsiyasi) keng tarqalgan. Ular yordamida energiya tejovchi, elastik va vizual jozibador matolar ishlab chiqilmoqda. Trikotaj naqshini loyihalashda ilmiy yondashuv va estetik sezgi uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, natijada yuqori sifatli, zamonaviy, raqobatbardosh mahsulot yaratiladi.

Xulosa

Trikotajda naqshni loyihalashning asosiy prinsiplarini o‘rganish trikotaj mahsulotlari sifati va badiiy ko‘rinishiga bevosita ta’sir etuvchi omildir. Naqsh yaratishda texnik va estetik yondashuvlar uyg‘unligi muhim: halqa va protyajka elementlari geometrik jihatdan puxta hisoblanishi, ranglar uyg‘unligi va simmetriya qonuniyatlari esa badiiy jihatdan asoslanishi kerak. CAD–CAM tizimlarining joriy etilishi naqsh loyihalash jarayonini tezlashtirib, inson xatosini kamaytiradi hamda yuqori aniqlikdagi naqshli trikotaj ishlab chiqarish imkonini beradi. Ilmiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, naqsh loyihalashda kompozitsion muvozanat, mutanosiblik, simmetriya va rang uyg‘unligini ta’minlash trikotaj matosining estetik jozibasi bilan bir qatorda, uning mexanik va gigiyenik xususiyatlarini ham yaxshilaydi. Shu sababli naqshni loyihalash jarayonida dizayner va texnologning o‘zaro hamkorligi, ilmiy asosli yondashuv va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash trikotaj sanoatining istiqboldagi rivojlanishini belgilovchi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

[1]. N.R. Xanxadjayeva. Naqsh hosil qilish nazariy asoslari. Toshkent: Aloqachi, 2010.
[2]. M.M. Muqimov. Trikotaj to‘qimalar texnologiyasi. T.: Fan, 2012.
[3]. O.I. Marisova. Naqshli trikotaj to‘qimalari. Moskva, 2008.
[4]. Garbaruk V.N. Trikotaj mashinalari klassifikatsiyasi. Moskva, 2009.
[5]. A.A. Guseva, E.P. Pospelov. Naqsh hosil qilish mexanizmlari. Moskva, 2011.
[6]. CAD–CAM Textile Systems Documentation. Textile CAD Reference Guide, 2022.
[7]. Tursunov I. Yengil sanoatda zamonaviy texnologiyalar. Tashkent, 2019.
[8]. Qodirov A., Mamatqulova D. Trikotaj dizayni asoslari. T.: Innovatsiya, 2021.
[9]. ASTM D6797–19. Knitted Fabric Stretch Test Standard.
[10]. ISO 4920:2020. Textiles – Determination of Water Repellency.
[11]. Textilecadsolutions.com – Knit Design Resources.
[12]. Knittingindustry.com – Modern Jacquard Techniques, 2023.
[13]. Textiletoday.com – Trends in Knitwear CAD Systems, 2024.
[14]. Mutalibov R. Trikotaj to‘qimalarning faktura xususiyatlari. T., 2018.
[15]. Rakhimova N. Ornament va dizayn uyg‘unligi. Tashkent, 2020.

O‘T O‘CHIRUVCHILAR KIYIMIDA ASTARLIK MATOSI TARKIBI, TUZILMASI VA EKSPLOATATSION XUSUSIYATLARINING TAHLILI

N.J. Yakubov, G.O. Muxtorova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘t o‘chiruvchilar himoya kiyimlarining ichki qatlamini tashkil etuvchi astarlik matolarining tarkibi, fizik-mexanik xususiyatlari, issiqlikdan himoya ko‘rsatkichlari, gigiyenik parametrlar va ekspluatatsion barqarorligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Astar materialining tolali tarkibi (aramid, meta-aramid, viskoza, paxta, poliester), to‘qima strukturasi, havo o‘tkazuvchanligi, nam shimish koeffitsienti, issiqlik o‘tkazuvchanligi, yirtiqlarga bardoshliligi hamda kiyimning umumiy ergonomik va xavfsizlik talablari bilan bog‘liqligi yoritildi. Yevropa EN 469:2020, NFPA 1971, GOST 12.4.280-2014 standartlari asosida astarlik qatlamiga qo‘yiladigan me’yoriy talablarga ekspert tahlil berildi. Tadqiqot yakunida o‘t o‘chiruvchilar kiyimi uchun optimal astarlik materiallari tarkibi, mexanik hamda termal barqarorlilik bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *astarlik matosi, issiqlik himoyasi, aramid tolasi, havo o‘tkazuvchanlik, ekspluatatsion xususiyat, GOST 12.4.280-2014, EN 469, gigiyenik ko‘rsatkichlar.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the composition, physical and mechanical properties, thermal protection indicators, hygienic parameters and operational stability of lining fabrics that form the*

inner layer of firefighter protective clothing. The fiber composition of the lining material (aramid, meta-aramid, viscose, cotton, polyester), fabric structure, air permeability, moisture absorption coefficient, thermal conductivity, tear resistance and its relationship with general ergonomic and safety requirements of clothing were covered. An expert analysis was provided of the regulatory requirements for the lining layer based on the European standards EN 469:2020, NFPA 1971, GOST 12.4.280-2014. As a result of the study, recommendations were developed on the composition, mechanical and thermal stability of optimal lining materials for firefighter clothing.

Keywords: *lining fabric, thermal protection, aramid fiber, air permeability, performance properties, GOST 12.4.280-2014, EN 469, hygienic indicators*

Аннотация: *В статье проведен научный анализ состава, физико-механических свойств, показателей теплозащиты, гигиенических показателей и эксплуатационной стабильности подкладочных тканей, формирующих внутренний слой защитной одежды пожарных. Рассматриваются волокнистый состав подкладочного материала (арамид, метаарамид, вискоза, хлопок, полиэстер), структура ткани, воздухопроницаемость, коэффициент влагопоглощения, теплопроводность, сопротивление разрыву и их взаимосвязь с общими эргономическими и требованиями безопасности одежды. Проведен экспертный анализ нормативных требований к подкладочному слою на основе европейских стандартов EN 469:2020, NFPA 1971, ГОСТ 12.4.280-2014. В результате исследования разработаны рекомендации по составу, механической и термической стабильности оптимальных подкладочных материалов для одежды пожарных.*

Ключевые слова*: подкладочная ткань, теплозащита, арамидное волокно, воздухопроницаемость, эксплуатационные свойства, ГОСТ 12.4.280-2014, EN 469, гигиенические показатели.*

O‘t o‘chiruvchilar himoya kiyimlari ekstremal muhitda ishlaydigan xodimlarning hayotini saqlab qolishda eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Ushbu kiyimlar yuqori harorat, ochiq alanga, tutun, infraqizil nurlanish hamda kimyoviy ta’sirlarga bardosh berishi kerak. Kiyimning himoyalovchi xususiyatlari ko‘p qatlamli tuzilmasi bilan belgilanadi. Ustki qatlam odatda olovga chidamli to‘qimalardan tayyorlanadi, o‘rta qatlam namlikka va issiqlikka qarshi to‘siq vazifasini bajaradi, ichki qatlam - astarlik esa inson tanasiga eng yaqin bo‘lgan qism bo‘lib, issiqlikni balanslash, terining nafas olishini ta’minlash, terlashni kamaytirish, kiyimning ichki muhitini gigiyenik va mikroiqlim bo‘yicha optimal holatda ushlab turish vazifasini bajaradi. Astar matosi o‘t o‘chiruvchi uchun qulaylik, xavfsizlik, issiqlik barqarorligi va ekspluatatsion chidamlilikni birdek ta’minlashi zarur.

Astar matosining tolali tarkibi, to‘qima tuzilishi, zichligi, havo o‘tkazuvchanligi, gigroskopikligi, mexanik barqarorligi va termal ta’sirlarga chidamliligi kiyimning yakuniy samaradorligini belgilaydi. Dunyo amaliyotida o‘t o‘chiruvchilar kiyimida meta-aramid (Nomex), para-aramid (Kevlar), viskoza FR, poliester, paxta aralashmalari, hamda yuqori xavfsizlik ko‘rsatkichiga ega kompozit materiallardan foydalaniladi. Aramid tolalari 370-400°C gacha bo‘lgan yuqori haroratlarda o‘z shaklini saqlaydi, eritilmaydi, tomchilamaydi, yong‘inga chidamli heterotsiklik polimerlar guruhiga kiradi va tabiatiga ko‘ra juda past issiqlik o‘tkazuvchanlikka ega. Bu xususiyat ularni o‘t o‘chiruvchilar himoya kiyimlari uchun ideal variantga aylantiradi. Meta-aramid tolasi materialning stabil tuzilmasini saqlab turgani uchun astar qatlamida keng qo‘llanadi, para-aramid esa yuqori mustahkamlik beruvchi komponent sifatida ishlatiladi.

Astar quyidagilarga bardosh berishi zarur:

1-jadval

Ko‘rsatkich	**Talab**	**Astar uchun optimal**
Yirtiq kuchi	min. 30-40 N	50-70 N
Ishqalanishga chidamlilik	500 tsikl	800-1200 tsikl
Tikuv mustahkamligi	min. 100 N	130-150 N

Astar materialida yana bir muhim komponent - olovga chidamli viskoza (viscose FR). Bu materialning gigroskopikligi yuqori bo‘lib, inson terisidan ajralgan namlikni tez yutadi, tanani qizib ketishdan saqlaydi va kiyimning ichki mikroiqlimini muvozanatlaydi. Aramid va viskoza FR

aralashmasi issiqlik himoyasi va gigiyenik parametrlar bo‘yicha eng maqbul kombinatsiya hisoblanadi, chunki aramid issiqlikdan himoya qilsa, viskoza FR terining qulayligini oshiradi. Paxta tolalari ham gigiyenik jihatdan qulay, lekin yong‘inga chidamliligi past bo‘lgani sababli o‘t o‘chiruvchilar kiyimida mustaqil qo‘llanilmaydi, faqat aramid aralashmalarida kam ulushda ishlatiladi. Poliester tolalari esa mexanik mustahkamlikni oshiradi, biroq issiqlikka chidamliligi yetarli emas.

Astar matosining to‘qimaviy tuzilishi ham juda muhim. Turli mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari asosan silliq, satin, panama va kamdan-kam hollarda murakkab to‘quv turlarini qo‘llaydilar. Satin to‘qimasi astar uchun eng ko‘p ishlatiladigan variant bo‘lib, uning silliq yuzasi ishqalanishni kamaytiradi va kiyimni kiyish-yechish jarayonini osonlashtiradi. To‘qima zichligi odatda tanda bo‘yicha 260-340 ip/10 sm, arqoq bo‘yicha esa 200-300 ip/10 sm oralig‘ida bo‘ladi. Bunday ko‘rsatkichlar matoning lokal kuchlanishlarga bardosh berishini, tikuv joylarida yirtiq va uzilishlar yuz bermasligini ta’minlaydi. Sirt og‘irligi esa 120-220 g/m² diapazonida bo‘lib, o‘t o‘chiruvchi uchun ham yengil, ham issiqlikni qaytara oladigan energiya barerini yaratadi. 200-230 g/m² og‘irlikdagi aramid-viskoza FR aralashmali astar eng optimal variant sifatida tan olinadi.

Astar matosi uchun xalqaro standartlar talablari taqqoslanishi

2-jadval

Ko‘rsatkich	GOST 12.4.280–2014	EN 469:2020	NFPA 1971 (2018)
Eritilmaslik	260°C da 5 daqiqa davomida erimasligi shart	X2/A2 talabiga mos bo‘lishi shart	Alangaga 2 soniya ta’sirda tomchimasligi shart
Termal barqarorlik	250–300°C	260°C sinov	500°F (~260°C) haroratda deformatsiyasiz
Havo o‘tkazuvchanligi	Kamida 60–80 $dm^3/m^2 \cdot s$	80–150 $dm^3/m^2 \cdot s$	Minimal darajada ruxsat, asosan issiqlik bareri talabi
Nam bug‘ini o‘tkazish	O‘rtacha talab	Majburiy (RET ≤ 20)	Majburiy
Tikuv mustahkamligi	≥ 100 N	≥ 130 N	≥ 120–150 N
Kimyoviy chidamlilik	Bazaviy talab	Qo‘shimcha modul talab etiladi	To‘liq sinovdan o‘tishi kerak
Material sinovi	Astar + to‘siq qatlamlari birga baholanadi	To‘liq tizim bo‘yicha	To‘liq komplekt sinovi

Astar matosining havo o‘tkazuvchanligi maxsus himoya kiyimida juda katta ahamiyatga ega. O‘t o‘chiruvchi faol harakatda bo‘lganda tana harorati 40°C gacha ko‘tarilishi mumkin. Shuning uchun astar materialining havo o‘tkazuvchanligi 80-150 $dm^3/m^2 \cdot s$ oralig‘ida bo‘lishi tavsiya etiladi. Past bo‘lsa - issiqlik to‘planadi, yuqori bo‘lsa - tashqi issiqlik tez kirib keladi. Gigiyenik qulaylikning yana bir ko‘rsatkichi gigroskopiklik bo‘lib, u 10-15% atrofida bo‘lishi kerak. Aramid tolalarida bu ko‘rsatkich past (3-5%), shuning uchun ular viskoza FR bilan aralashtiriladi. Natijada yuqori issiqlik barqarorligi hamda namlikni yutish qobiliyati bir qatorda ta’minlanadi.

Astar matosining issiqlik barqarorligi bo‘yicha talablar GOST 12.4.280-2014, EN 469:2020, NFPA 1971 standartlari bilan tartibga solinadi. Ushbu normalar astar 260-300°C gacha bo‘lgan haroratda kamida 5 daqiqa davomida deformatsiyalanmasligi, erimasligi, tomchilamasligi, polimer strukturasida kuyishdan keyingi bo‘shashish holati yuzaga kelmasligini talab qiladi. NFPA 1971 bo‘yicha astar 500°F (~260°C) haroratda 2 soniya davomida alangaga ta’sir qilinsa, kuyish izi 10 soniyada yo‘qolishi kerak. EN 469:2020 esa X2/A2 toifasidagi issiqlik qarshiligi, havo hamda suv bug‘i o‘tkazuvchanligi bo‘yicha me’yorlarni belgilaydi. Bu standartlarda tikuvlar mustahkamligi, materialning termal degradatsiyaga qarshi tura olishi, infraqizil nurlanishni qaytarish xususiyati va gigiyenik parametrlar alohida nazorat qilinadi.

Astar matolarining mexanik xususiyatlari (laboratoriya ko‘rsatkichlari)

3-jadval

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Optimal diapazon	Astar uchun minimal me’yor	Izoh
Yirtiq kuchi	N	50–70 N	≥ 30–40 N	Astar harakatlanish paytida uzilmasligi kerak
Ishqalanishga chidamlilik	tsikl	800–1200	≥ 500	O‘t o‘chiruvchining faol harakatiga bardosh berishi kerak
Tikuv mustahkamligi	N	130–150 N	≥ 100 N	Tikuv joylarida yirtiq bo‘lmasligi zarur
Qalinlik	mm	0.25–0.60	≥ 0.20	Qalinligi oshsa, havo o‘tkazuvchanlik kamayadi
Gigroskopiklik	%	10–15%	≥ 7%	Terning bug‘lanishini boshqaradi
Termal o‘tkazuvchanlik	W/mK	0.040–0.060	≤ 0.090	Issiqlik izolyatsiyasi darajasini belgilaydi
Sirt og‘irligi	g/m²	200–230	150–250	Og‘irligi baland bo‘lsa, kiyim yengilligi pasayadi

Astar matosining mexanik mustahkamligi ham muhim. Yirtiq kuchi kamida 50-70 N bo‘lishi, ishqalanishga chidamliligi 800-1200 tsiklga yetishi, tikuv mustahkamligi 130-150 N bo‘lishi kerak. Astar qatlami tanaga eng yaqin bo‘lgani sababli uni deformatsiya qiluvchi kuchlanishlar asosan harakat paytida paydo bo‘ladi. Shuning uchun material yumshoq, egiluvchan, ishqalanishga chidamli bo‘lishi shart. Aramid tolalari mexanik jihatdan juda barqaror bo‘lsa-da, qattiq tuzilishga ega. Shuning uchun ularga viskoza FR yoki poliester qo‘shilib yumshoqlik beriladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘t o‘chiruvchilar kiyimida eng samarali astarlik materiali meta-aramid 65% + viskoza FR 35% aralashmasidan iborat bo‘lib, sirt og‘irligi 200-230 g/m², havo o‘tkazuvchanligi 100-130 dm³/m²·s, gigroskopikligi 10-14% bo‘lgani eng maqbul hisoblanadi. Bunday material terining nafas olishini, terlashning kamayishini, yuqori harorat ta’sirida shaklning barqaror saqlanishini, kiyimning og‘irlik balansini va ekspluatatsion muddatining uzayishini ta’minlaydi. Aramid tolalari issiqlikni sekin o‘tkazadi, viskoza FR esa teri bilan mos keladigan yumshoq muhit yaratadi. Bundan tashqari, astarning silliq sirt tuzilishi o‘t o‘chiruvchi tez harakat qilganda kiyimning ichki ishqalanishini kamaytiradi va zarar yetishining oldini oladi.

Xalqaro standartlar va ilmiy manbalar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, astarlik matosi faqat gigiyenik ko‘rsatkichlar yoki issiqlikka chidamlilikka qarab emas, balki kompleks yondashuv asosida tanlanishi kerak. Astar kiyimning umumiy himoya darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Nam va issiqlik oqimlarini boshqarish, terining mikroiqlimini moslashtirish, terlash orqali issiqlikni tartibga solish, mexanik barqarorlik, deformatsiyaga qarshilik, kimyoviy moddalar ta’siriga chidamlilik kabi ko‘rsatkichlar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarur. O‘t o‘chiruvchilar kiyimida ushbu qatlamning noto‘g‘ri tanlanishi issiqlik stressini oshiradi, xavfli holatlarga olib keladi va himoya samaradorligini sezilarli kamaytiradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, astarlik matosining ilmiy asosda tanlanishi o‘t o‘chiruvchilarni yong‘in o‘chirish jarayonida himoya qilish darajasining eng asosiy kafolatidir. Optimal tarkib - meta-aramid va viskoza FR aralashmasi bo‘lib, ushbu material issiqlik barerini, tananing mikroiqlimini va ekspluatatsion mustahkamlikni maksimal darajada ta’minlaydi. Astar

qatlami sifatli tanlangan bo‘lsa, himoya kiyimining xizmat muddati oshadi, xavfsizlik talablari to‘liq bajariladi va o‘t o‘chiruvchining ish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Xulosa

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘t o‘chiruvchilar kiyimi konstruktsiyasida astarlik qatlamining vazifasi faqatgina qulaylikni ta’minlash bilan cheklanmay, balki issiqlik yuklamasini samarali boshqarish, terining qizib ketishining oldini olish, kiyimning ichki mexanik barqarorligini ta’minlash kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Tahlil jarayonida aramid tolalari issiqlikka eng chidamli, viskoza FR esa gigiyenik qulay qatlam shakllantiruvchi material ekanligi aniqlandi. Shuningdek, aramid + viskoza FR kompozitlari termal va fiziologik xususiyatlar bo‘yicha optimal balansga ega ekani isbotlandi.

Astar matosining havo o‘tkazuvchanligi, gigroskopikligi, qalinligi, sirt og‘irligi, mexanik mustahkamligi va standartlarga mosligi himoya kiyimining yakuniy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini shakllantiradi. GOST 12.4.280-2014, EN 469 va NFPA 1971 talablari asosida materiallarning issiqlik barqarorligi va mexanik ko‘rsatkichlari qat’iy nazorat qilinishi zarurligi ko‘rsatildi.

Natijada, o‘t o‘chiruvchilar uchun mo‘ljallangan kiyimlarda eng samarali astarlik materiali - **65% meta-aramid + 35% viskoza FR** tarkibli, sirt og‘irligi 200-230 g/m² bo‘lgan, havo o‘tkazuvchanligi 100-130 dm³/m²·s oralig‘idagi kompozit mato ekanligi ilmiy asoslandi. Ushbu material terining nafas olishini ta’minlaydi, issiqlikni sekin o‘tkazadi, terlashni kamaytiradi va yuqori harorat ta’sirida shaklini barqaror saqlaydi.Astar qatlamini to‘g‘ri tanlash - o‘t o‘chiruvchilar kiyimining umumiy xavfsizligi, foydalanish muddati hamda inson hayotini muhofaza qilish samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biridir.

Adabiyotlar

1. GOST 12.4.280-2014. Special protective clothing.
2. EN 469:2020. Protective clothing for firefighters.
3. NFPA 1971 Standard (2018).
4. Horrocks A.R., Fire Retardant Materials, Woodhead Publishing, 2021.
5. Alongi J., Thermal protective performance of aramid fibers, Textile Research Journal, 2020.
6. Li J., Studies on comfort properties of FR viscose fibers, Journal of Industrial Textiles, 2021.
7. Patel M., High-performance firefighter fabrics, Fire Technology, 2019.
8. Hearle J.W.S., High-temperature fiber mechanics, CRC Press, 2018.
9. Mukhametzyanov R., Special protective textiles, 2020.
10. Lee S., Moisture management in multilayer protective clothing, 2022.
11. Wang Y., Thermo-physiological comfort of protective textiles, 2023.
12. Clifford S., Aramid fiber structure and performance, 2020.
13. Xu H., Heat transfer in multilayer fabrics, Applied Thermal Engineering, 2021.
14. Nazarov N., Maxsus kiyimlar texnologiyasi, Toshkent, 2019.
15. Turdiyev M., Yengil sanoat materialshunosligi, 2020.

TOLA SIFATINI OSHIRISH MAQSADIDA ARRALI JIN ISHCHI KAMERASINI TAKOMILLASHTIRISH

A. Mirzaakbarov[1] J.I. Oripov[2]

[1]Namangan davlat texnika universiteti
[2]Farg‘ona davlat texnika universiteti

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Jin mashinasining ish unumdorligini o‘sishi albatta xomashyo valigi zichligini ortishi bilan birga sodir bo‘lishi isbotlangan. Ammo, zichlikning ortishi bilan unumdorlik ortishi ma’lum chegaragacha bo‘lib, keyin unumdorlik pasaya boshlaydi. Mualliflar tomonidan ushbu maqolada tola sifatini oshirish bo’yicha olib borilayotgan ilmiy ishlar taxlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *Paxta, tola,arrali jin, zichlik, kolosnik, arra, baraban, chigit qobig’i, chigit, momiq.*

Аннотация. *Доказано, что увеличение производительности хлопкоочистительной машины*

обязательно происходит вместе с увеличением плотности сырья. Однако с увеличением плотности продуктивность возрастает до определенного предела, после чего продуктивность начинает снижаться. В данной статье авторы проанализировали научные работы по улучшению качества волокна.

Ключевые слова: *Хлопок, волокно, пила, плотность, колосник, пила, барабан, семенная шелуха, семя, пух.*

Abstract. *It has been proven that the increase in the productivity of the gin machine necessarily occurs along with the increase in the density of raw materials. However, with increasing density, productivity increases up to a certain limit, after which productivity begins to decline. In this article, the authors analyzed the scientific work on improving the quality of fiber.*

Key words: *Cotton, fiber, saw gin, density, colosnik, saw, drum, seed husk, seed, fluff.*

Nazariy qism

Hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda arrali jinlash jarayonining ko‘pgina jihatlari ochib berilmagan. Dunyo miqyosida paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, jumladan paxta tolasini chigitdan ajratish (jinlash) jarayoni, texnika va texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxtani jinlash jarayoni samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilmoqda, ilmiy hajmdor, shuningdek zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonida tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash, jarayon energiya sarfini kamaytirish imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan ixcham texnologiyalarni, paxta tolasini chigitdan ajratuvchi uskunalarining kam material va energiya sarflaydigan mukammal konstruksiyalarini yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.[1]

Tadqiqotchilar yuqori sifatli paxta ishlab chiqarish AQSH paxta sanoatining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun izlanish olib bordilar. Ularning tadqiqotlarini maqsadi, jinlashni tola sifatiga ta’sirini umumlashtirib, olib borilgan tadqiqotlarni diqqat bilan o‘rganib chiqib va tola sifatini maksimal darajada saqlab qolish uchun jin mashinasini ishlab chiqaruvchi mutaxassislarini eng yaxshi natijalar bilan ta’minlash. Tadqiqotlar jinlash jarayonida paxtaning namligi 6-7 % oralig‘ida bo‘lganda tolaning uzunligi va mustahkamligi saqlanib qolishi hamda tolani tozalashda minimal tolaning shikastlanishiga erishilgan. Paxtaning namligi past bo‘lganda yuqoridagi ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir etishini aniqlashgan.

Chet el paxta tozalash jihozlarning xarakterli xususiyati shuki, ularda paxta bilan ta’minlashning avtomatik rostlash tizimlarining mavjudligidir. Ularning tarkibiga odatda ikkita to‘plovchi bunker – yuqori va quyi sath datchikli asosiy bunkeri va ortiqcha paxta uchun qo‘shimcha bunker, hamda atmosfera klapani kiradi. Asosiy qabul bunkeri pnevmatik separatoridan keyin o‘rnatiladi va texnologik mashinalarning oldida paxtaning zaxirasini hosil qilish uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek, arrali jin samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari xomashyo valigining toladorligini oshirish, tozalangan chigitlarni tezlik bilan chiqarib tashlash va bir tekisda uning zichligini kamaytirishdan iborat, deb hisoblaydilar. Paxta tozalash sanoatida hajmi kattalashtirilgan ishchi kameralarning keng qo‘llanishi jinlar samaradorligini 10 kg/arra soat va undan yuqori unumdorlikkacha oshirishga imkon berdi.[2]

Tadqiqotchilarning ma’lumotiga ko‘ra jinning kengaytirilgan hajmdagi kamerada ishlashi natijasida tolaning sifatini yaxshilash asosan, xomashyo valigining zichligini kamaytirish hisobiga bo‘ladi, bu esa tolani qamrab olishni yaxshilaydi, paxtani kamera devorlariga ishqalanish kuchini pasaytiradi va jinni yuritishga sarflanadigan quvvatni tejash imkonini beradi. Shuningdek, ular jinlash jarayonida xomashyo valigining ta’sirini o‘rganib chiqib, xomashyo valigining kichik zichligida tolaning sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi, degan xulosaga kelganlar.

Ularning fikricha, xomashyo valigining zichligini pasaytirish tolalarni qamrab olishni yaxshilashga ko‘maklashadi hamda ishchi kameraning va kolosniklarning yuzasida harakatdagi ishqalanish kuchlarini kamaytirishga va bu bilan tola sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mavjud

bo‘lgan tola ajratuvchi mashinalarda samaradorlik bilan xomashyo valigining zichligi to‘g‘ri proporsionaldir. M. Agzamov [3] xomashyo valigini aylantirishga sarflanadigan energiya harajatlarini pasaytirishga, jinning unumdorligini oshirishga va kolosnikli panjaraning yuqori qismida tiqilishlarni yo‘qotish yo‘li bilan tola sifatini yaxshilashga imkon beradigan arrali jin ishchi kamerasining ishonchli konstruksiyasining ishlab chiqqan, jin ishchi kamerasiga xomashyo valigi aylanishini tezlatish uchun og‘ma va tishli diskli tezlatkich taklif etgan.



1-rasm. Qiya diskli tezlatgich o‘rnatilgan ishchi kamera.

J.Ergashev [4] tadqiqotlarida jin mashinasi ishchi kamerasiga o‘rnatilgan quvurning pastki qismida tirqish qo‘yilgan. Quvurga havo haydalganda ana shu tirqish orqali chiqayotgan havo oqimi arrali silindrga qarab yo‘naltiriladi. Natijada, havo ta’sirida arrali silindr tishlariga ilashadigan tola miqdori oshishiga imkon yaratiladi. Arrali silindrga qarab yo‘nalgan havo oqimi toladan ajragan chigitlarning ishchi kameradan chiqib ketishini tezlatadi.Tadqiqotlarda isbotlanishicha arralar tezligini 730 min-1 dan 550...620 min-1 gacha kamaytirilganda chiqindilar va toladagi nuqsonlar miqdori o‘rtacha 20% gacha kamayishi mumkin.

Tolalarning mexanik nuqsonlarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan ishlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: tadqiqotchilarining asosiy kamchiligi tadqiqotlar sun’iy ravishda shikastlangan paxta namunalari ustida o‘tkazilgan bo‘lib, bu haqiqiy real holatdagi shikastlanishdan yiroqdir.

Mualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida jin mashinasining ish unumdorligini oshirish quyidagi usulda amalga oshirilgan. Bunda jin mashinasi ishchi kamerasiga o‘rnatilgan quvurning pastki qismida tirqish qo‘yilgan bo‘ladi. Quvurga havo haydalganda ana shu tirqish orqali chiqayotgan havo oqimi arrali barabanga qarab yo‘naltiriladi. Natijada, havo ta’sirida arrali baraban tishlariga ilashadigan tola miqdori oshishiga imkon yaratadi.Mavjud jinning xom-ashyo valigi zichligini boshqarish mexanizmi samaradorligi pastligi natijasida, ayniqsa past navli chigitli paxtani ishlashda, ta’minlashning og‘irlik va hajm jihatidan ortishida xom-ashyo valigini ortiqcha zichlanishi imkoniyati mavjudligidir, bu esa, namligi yuqoriroq chigitli paxtani ishlashda, olinayotgan mahsulot hajmiga ta’sir etadi va jinlashning texnologik rejimlarini buzilishiga, tez-tez tiqilishlarga va mashinalarni to‘xtab turishiga olib keladi.[5]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinlash jarayonini o‘rganish, hamda ularni takomillashtirish masalalari hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Shuningdek paxtaga dastlabki ishlov berish jarayonida arralar holatini o‘rganish ishlari ham olib borilgan. Paxta tolalaridagi nuqsonlarni o‘rganib chiqib u quyidagi xulosalarga kelgan: Paxta nuqsonlari bu eshilgan chilvir yoki tolali po‘stloq, hamda changli nuqsonlar ko‘rinishidagi nuqsonlar bo‘lishi mumkin. Uning fikricha shikastlanishlarni bartaraf qilish uchun tola ajratuvchilar konstruksiyasini takomillashtirish zarur ekan.Tolalarning mexanik nuqsonlarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan ishlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin, bizning va xorij tadqiqotchilarining kamchiligi tadqiqotlar sun’iy ravishda shikastlangan paxta namunalari ustida o‘tkazilgan bo‘lib, bu haqiqiy real shikastlanishdan yiroqda bo‘lgan.

Arralar tishi bevosita tola ajratish jarayonini miqdor va sifat kompleks ko‘rsatgichlariga ta’sir ko‘rsatadi, birinchi navbatda quyidagi texnologik ko‘rsatgichlar: tolalarni yulib olish qobiliyati, mashina unumdorligi, chigitdan tolani to‘la uzib olish, elektr energiyasini sarflanish miqdori va hokazolarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatgichlarga albatta tishning shakli, profilining chiziqli va burchakli parametrlari, ishchi yuzalarining sifati, tish tig‘ining holati, kengligi, qalinligi kiradi.[6] Arrani gemetrik va boshqa parametrlarini yagona nuqtai nazardan bog‘lanmaganligi ko‘p xam texnik muammolarini echilmaganligidan dalolat beradi. Arrali tola ajratish mashinalarini asosiy ishchi organi arra sifatini oshirish kompleks echimini topish avvalambor uni funksional qo‘llanishga va uni elementlariga asoslanish zarur. Hozirgi paytlarda arralarni funksional parametri to‘plamini to‘la ishini topishdagi ma’lumotlar etarli darajada oxirigacha yakunlanmagan. Arra parametrlarini optimizatsiyalash, ya’ni tekshirishlarni qo‘yilishini talab etadi. Bular: Arrani geometriyasi, tolani yulib olish pozitsiyasi, tola va chigitni shikastlanishi va tolalarda parraklarni hosil bo‘lishi hisoblanadi. Shuni ham tan olish kerakki, hozirgi tola va chigit ishlab chiqarish korxonalarida eksperimental tekshirishlar o‘tkazish, ishlab chiqarish belgilanish hamda tashkiliy xarakteriga qarab murakkablashtirilgan.

Omillar orasida arrali jinlash vaqtida elektr energiyasi sarfiga ta’sir qiluvchi arra ishchi sirtining holatini hisobga olish zarur, kolosniklarni va xomashyo kamerasining orasida hosil bo‘luvchi ishqalanish kuchiga bog‘liq bo‘lgani eng muhim hisoblanadi.Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi paxta yetishtirish va uni eksport qilish bo‘yicha dunyoda etakchi o‘rinlarda turganligi uchun jahon andozalariga mos keladigan yuqori sifatli tola ishlab chiqarish shu soha mutahassislari va olimlarimiz oldiga mavjud texnik va texnologiyalarni yanada takomillashtirish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.[7]



2-rasm. Arrali jinning ishchi kamerasi
1-fartuk, 2-xom ashyo valigi, 3-arrali silindr.

Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan jin mashinasi ish unumdorligi asosan arrali disk diametriga hamda xom ashyo valigi aylanish tezligiga va arralar orasidagi masofaga bog‘liqligini aniqlangan. Masalan arrali diskning diametri oshirish yo‘li bilan yoki xom ashyo valigining aylanishini tezlashtirish orqali jin mashinasining ish unumdorligini oshirishga erishish, ma’lum bir vaqt ichida arra tishlariga ilashadigan tola miqdorini ko‘payishi hisobiga amalga oshiriladi. Mualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida jin mashinasining ish unumdorligini oshirish quyidagi usulda amalga oshirilgan.

Bunda jin mashinasi ishchi kamerasiga o‘rnatilgan quvurning pastki qismida tirqish qo‘yilgan bo‘ladi. Quvurga havo haydalganda ana shu tirqish orqali chiqayotgan havo oqimi arrali barabanga qarab yo‘naltiriladi. Natijada, havo ta’sirida arrali baraban tishlariga ilashadigan tola miqdori oshishiga imkon yaratadi.[8]

Jin mashinasi samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri, uning ishchi kamerasida toladan ajragan chigitlarni tezroq chiqarib yuborishdan iborat.

Tadqiqotchilar tomonidan jin mashinasida xom ashyo valigi ishchi kamerasi oldingi fartuk yuzasi bo‘ylab arrali silindrning profili orqali o‘tishi ko‘rsatilgan.

Xulosa

Jin mashinasi yon tomoniga o‘rnatilgan plastik oyna orqali kuzatishlari natijasiga ko‘ra yuqoridagi fikr noto‘g‘ri ekanligi isbotlandi. Bunda jin mashinasini ishchi kamerada hosil bo‘lgan xom ashyo valigi fartuk yuzasi bo‘yicha kolosnik panjara bo‘ylab xarakatlanish natijasida hosil bo‘lishini kuzatildi.

Bunday holat sababli kolosnik yuzasi bo‘ylab o‘z og‘irligi ta’sirida pastga qarab xarakatlanayotgan toladan ajragan chigitlarning bir qismi xom ashyo valigi ta’sirida unga ilashib yuqoriga qarab harakatlanish ehtimoli paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar

[1]. Akramjon, S., Rustam, M., Akmal, U. and Dilmurat, K. (2018) Movement Differential Equation of Seed Roller which Has Been Installed Stake Accelerator on the Roll Box of Gin Machine. Engineering, 10, 521-529. https://doi.org/10.4236/eng.2018.108038

[2]. A.U. Sarimsakov, D.M. Kurbonov, Sh.Sh. Xalikov. (2019) The study of the crucible rotation of raw materials with a practical way // Экономикаисоциум.-2019.- №12(67).- URL: https://iupr.ru/domains_data/files/67/Sarimsakov.pdf

[3]. Akmal, U., Khamit, A., Akramjon, S. and Muazzam, K.(2018) The Saw Gin Stand with Adjustable Movement of the Roll Box. Engineering,10, 486-494. https://doi.org/10.4236/eng.2018.108034

[4]. Umarov, A., Ortikova, K. and Sarimsakov, A. (2020) Analysis of Speeds of Cylinders of Saw Gins and Linters and Determination of Critical Frequencies for them. Engineering, 12, 715-722. https://doi.org/10.4236/eng.2020.1210050

[5]. G.Jo‘raeva, N. Mamadaliyev, Sh.Komilov. “Arrali jinlarda havo bosimini bir tekisda taqsimlash”. NamMTI. “To‘qimaciiilik va yengil sanoatda innovatsion texnologiyalarnijoriy qilish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami., 2023 yil 16-17 may, 1-tom

[6]. Juraeva G., Muradov R. “The process of technical grades of medium staple cotton at gin factories and its analysis” Scientific and technical journal, Namangan Institute of Engineering and Technology Volume 8 Issue 1 2023 https://doi.org/10.5281/zenodo.7950789

[7]. Жураева Г.Р., Комилов Ш.Р. “Основные требования, предъявляемых к работе пильных джин”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami, Andijan 2023 yil 3-oktabr www.michascience.com

[8]. Sh.Komilov, N. Mamadaliyev, G.Jo‘raeva. “Jinlash jarayonida tola chiqish sifatini oshirish maqsadida ishchi kameradagi zichlikni kamaytirish”. Termiz muhandislik-texnologiya Instituti “Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjumanning materiallari to‘plami 2-qism Termiz 2023-yil 20-21-октabr.

TURLI KOLOSNIKLI PANJARALAR O‘RNATILGAN TOLA TOZALASH USKUNASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOT NATIJALARI

R.A. Saburov[1], A.P. Parpiyev[1], J.Sh. Mardonov[1], T.O. Tuychiyev[1], X.X. Imomnazarov[2]

[1]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
[2]Farg‘ona davlat texnika universiteti

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Maqolada “Polytex Sirdaryo” MCHJga qarashli “Sayxunobod-015” paxta tozalash korxonasida turli kolosnikli panjaralar o‘rnatilgan tola tozalash uskunasida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotda olingan namunalar HVI tizimida sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 8 dona kolosniklardan foydalanilganda 4 dona kolosniklar o‘rnatilgan tola tozalagichga nisbatan yuqori o‘rtacha uzunligi 0,508 mm (28,194 mm) ga, birxillik indeksi 1,0 ga, solishtirma uzulish kuchi 2,4 gkuch/teks va ip yigiruvchanlik koeffitsiyenti 12ga yuqori bo‘lishiga hamda kalta tolalar indeksi 0,8 %ga va iflos aralashmalar soni 4,8ga kamayishga erishildi.*

Kalit so‘zlar: *paxta, tola, chigit, momiq, ifloslik va nuqsonlar, tola tozalagich, kolosnikli panjara.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследований, проведенных на волокноочистительном оборудовании с различными колосниковыми решетками, установленном на хлопкоочистительном предприятии «Сайхунабад-015», принадлежащем ООО «Политекс Сырдарьо». Показатели качества взятых в исследование проб определяли в системе HVI. Согласно результатам исследования, при использовании 8 колосников средняя длина волокна на 0,508 дюйма (28,194 мм) выше по сравнению с решеткой, установленной на 4 колосника, а индекс однородности 1,0, сравнительная прочность на разрыв — 2,4 гкн/текс, а коэффициент прядения нити — 12, что также приводит к снижению индекса коротких волокон до 0,8% и количества загрязняющих примесей до 4,8.*

Ключевые слова: *хлопок, волокно, семена, линт, сорные примеси и пороки, волокноочиститель, колосниковая решетка.*

Annotation. *The article presents the results of studies carried out on fiber-cleaning equipment with various grate assemblies installed at the cotton-cleaning enterprise "Saykhunabad-015", owned by Politex Syrdarya LLC. The quality indicators of the samples taken for the study were determined using the HVI system. According to the results, when using 8 grates, the average fiber length was 0.508 inches (28.194 mm) higher compared to the grate with 4 bars, while the uniformity index increased by 1.0, the relative breaking strength by 2.4 g/tex, and the yarn spinning coefficient by 12. This also led to a reduction in the short fiber index to 0.8% and the amount of impurities to 4.8.*

Keywords: *cotton, fiber, seeds, lint, trash and defects, fiber cleaner, grate assembly.*

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar natijasida paxta sanoatida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, paxta-to‘qimachilik klaster tizimiga o‘tilishi munosabati bilan paxta terimiga majburiy mehnatni bartaraf etilishi, shuningdek, paxta xom ashyosini narxini belgilash amaliyotidan voz kechilib, bozor tamoyillariga o‘tilishi va yetishtirilgan tolaning barchasi respublikamizda chuqur qayta ishlash natijasida qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali sohani rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Paxtani qayta ishlashning texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsada [1-5], tolaning tarkibidagi ifloslik va nuqsonlari miqdori ko‘p hollarda belgilangan meyorlardan yuqori bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, tolaning sifati terib olingan paxta xom ashyosining boshlang‘ich sifat ko‘rsatkichlariga va uni qayta ishlash texnologiyasiga bog‘liq. Paxta xom ashyosini qayta ishlashning reglamentlangan texnologik jarayoni ma’lum bir paxta xom ashyosini qayta ishlash uchun, ma’lum bir texnologik uskunalar zanjirini nazarda tutadi.

Paxta xom ashyosining qiyin tozalanuvchan seleksion navlari, ayniqsa, mashinada terilganlari yuqori ifloslikka ega bo‘lib [6-7], ularni tozalashning tavsiya etilgan maksimal bosqichlariga qaramay, jinlashdan oldingi paxta xom ashyosida yetarlicha yuqori ifloslik saqlanib qoladi.

Sifat ko‘rsatkichlari yuqori tola olish uchun paxta xomashyosini tozalash bosqichlarini ko‘paytirish kutilgan samarani bermaydi, aksincha, tozalash jarayonida chigitning ortiqcha zararlanishiga olib keladi, bu zararlanish jinlash jarayonida keskin ortib tola tarkibidagi tolali chigit po‘stlog‘ini va singan chigit miqdorini keskin ortishiga olib keladi [8]. Shuning uchun, paxta tozalash sanoati korxonalarida mavjud bo‘lgan tola tozalash uskunalari bilan tolani tozalab, sifat ko‘rsatkichlari yuqori tola olishga erishish mumkin emas.

Hozirgi vaqtda, amalda tolani tozalashning texnologik jarayonida ishlatilayotgan 1VPU va 1VPM rusumli bir silindrli tola tozalagichlarning tozalash samaradorligi 20-25% dan oshmaydi [9], bu ayniqsa, paxtaning “qiiyn tozalanuvchan” seleksiyasini qayta ishlashda yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega tolalarni olish uchun yetarli emas [10].



1-rasm. Taklif etilatyotgan konstruksiyadagi tola tozalash uskunasining sxemasi. 1-asos; 2-arrali silindra;3-qistirma; 4-tola kiruvchi quvur; 5-tozalangan tola chiquvchi quvur; 6-ilashtiruvchi cho‘tka; 7-kolosnikli panjara; 8-jalyuzali panjara; 9-chiqindi kamerasi; 10-yo‘naltirgich; 11-tola o‘tish zonasi; 12-ajratuvchi pichoq.

Tola tozalash jarayonida kolosniklarning ahamiyati yuqori bo‘lib, tola tarkibidagi ifloslik va nuqsonlar miqdorini kamaytirish bilan bir qatorda tolaning tabiiy xususiyatlariga xam ta’sir etadi.

Amaliy tadqiqotlar. Tajriba sinovlarida S-6524 seleksiyasidagi I sanoat navi 2-sinfdagi, dastlabki namligi 9,5 %, iflosligi 7,7 %, uluk miqdori 0,37 % bo‘lgan paxta xom ashshyosida

o‘tkazildi. Tajribada 16810 kg paxta xomashyosi ishlatildi.

“Polytex Sirdaryo” MCHJga qarashli “Sayxunobod-015” paxta tozalash korxonasida paxtani qayta ishlash texnologiyasi quyidagi uskunalardan iborat: 2SB-10 rusumidagi quritish barabani, mayda va yirik iflosliklardan tozalash uchun ikki qatorda joylashgan 6 ta UXK tozalagich, tolani chigitdan ajratish uchun DPZ-180 rusumli 2ta arrali jin, ifloslik va nuqsonlardan tozalash uchun 4ta tola tozalagich, tolali mahsulotlarni toylash uchun DB-8237 rusumidagi gidravlik press qurilmasi, jinlash jarayonidan so‘ng chigit yuzasidagi momiqlarni qirib olish uchun 5LP rusumidagi 12 ta linter uskunalaridan iborat.

“Polytex Sirdaryo” MCHJ tarkibidagi “Sayxunobod-015” paxta tozalash korxonasida o‘rnatilgan modernizatsiya qilingan 1VPU turidagi tola tozalash agregatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishdan avval, uning barcha ishchi organlari va mexanik uzellari zavod ekspluatatsiya reglamenti, texnologik xarakteristikalar va konstruktorlik meyorlariga muvofiq tarzda qayta texnik sozlash va kalibrlash jarayonlari bajarildi. Tadqiqotlar uch qaytalikda o‘tkazilib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar qayd etib borildi.

2-rasm. Takomillashtirilgan kolosnikli panjaraning umumiy ko‘rinishi.

Sozlash ishlari davomida arrali silindr va kolosnikli panjaralari o‘rtasidagi tirqish masofasi, texnik reglament talablariga qat’iy rioya etgan holda, 2,0–2,5 mm diapazonda yuqori aniqlik bilan o‘rnatildi. Ushbu sozlash jarayonida maxsus o‘lchov vositalari (mikrometr) yordamida oraliq masofa nazorat qilindi hamda kolosniklar parallelizmi, silindr o‘qiga nisbatan konsentriklik darajasi va ishchi zonaning simmetriyasi ta’minlandi.

Ishlab chiqarish sharoitida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Ishlab chiqarish jarayonida olib borilgan tajriba natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Haqiqiy vazn		Konditsion vazn			
				Meyor bo‘yicha		Haqiqiy	
		kg	paxtaga nisbatan foizda	kg	paxtaga nisbatan foizda	kg	paxtaga nisbatan foizda
1.	Qayta ishlangan paxtani miqdori	16810		15760		15760	
2.	Ishlab chiqarildi						
	- tola	5718,4	34,0	5295,4	33,6	5847,8	37,1
	- chigit	8280	49,3	8352,8	53,0	8492,8	53,9
	- momiq	406,8	2,4	472,8	3,0	412,9	2,6
	- tarkibida ulyuk bo‘lgan chigitlar	77,0	0,5	63,0	0,4	77,0	0,5
	- tarkibida kalta momiq bo‘lgan chigitlar	314,0	1,9	661,9	4,2	314,0	2,0
	- kuyindi	2013,8	12,0	914,1	5,8	615,6	3,9
	Jami	16810	100	15760	100	15760	100

Tadqiqotlar davomida o‘rtacha vazni 213,1 kg bo‘lgan 28 dona tola toyi ishlab chiqarildi. Ishlab chiqarilgan tolaning ifloslik va nuqsonlar miqdori 2,1 %ni tashkil etib, I nav yaxshi sinfga to‘g‘ri keldi. Tolaning namligi 6,1 %ni, jindan keyingi chigitning to‘la tukdorligi 11,0%ni, linterlashdan

keyin esa 7,0%ni, chigitni iflosligi 1,0%ni, chigitni namligi 8,1%ni, momiqni namligi 7,1%ni (momiq I nav, B tip) tashkil etdi.



2-rasm. Takomillashtirilgan kolosnikli panjaraning umumiy ko‘rinishi.

Tola tozalash jarayonida ikki xil kolosniklardan: birinchi variantda 4dona kolosnik va ikkinchi variantda 8 dona kolosniklardan foydalanildi. Ikki variantdagi tola tozalagichlardan olingan tolaning HVI tizimida sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

2-jadval.

Tola tozalagichlarda ishlab chiqarilgan tolaning HVI tizimida aniqlangan sifat ko‘rsatkichlari.

№	Ko‘rsatkichlar	Tola tozalagichga o‘rnatilgan kolosniklar soni, dona	
		4 ta	8 ta
1.	Mic - mikroneyr	4,8	4,5
2.	UHML - yuqori o‘rtacha uzunlik (dyuym)	1,11	1,13
3.	UI - birxillik indeksi	81,9	82,9
4.	SFI - kalta tolalar indeksi (%)	7,6	6,8
5.	Str - solishtirma uzilish kuchi (gkuch/teks)	29,7	32,1
6.	Tr Cnt - iflos aralashmalar soni	12,4	7,6
7.	SCI - ip yigiruvchanlik koeffitsiyenti	137	149

Tola tozalagichlarda ishlab chiqarilgan tolaning HVI tizimida aniqlangan sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tola tozalash uskunasiga 4 dona kolosnik o‘rnatilganda mikroneyer ko‘rsatkichi 4,8 ni, yuqori o‘rtacha uzunligi 1,11 dyumni, birxillik indeksi 81,9, kalta tolalar indeksi 7,6 %ni, solishtirma uzilish kuchi 29,7 gkuch/teks ni, iflos aralashmalar soni 12,4 ni va ip yigiruvchanlik koeffitsiyenti 137 ni tashkil etdi.



3-rasm. Turli kolosnikli panjaralar o‘rnatilgan tozalagichda olingan tolaning HVI tizimida aniqlangan sifat ko‘rsatkichlari.

Tola tozalash uskunasiga 8 dona kolosnik o‘rnatilganda mikroneyer ko‘rsatkichi 4,5 ni, yuqori o‘rtacha uzunligi 1,13 dyumni, birxillik indeksi 82,9, kalta tolalar indeksi 6,8 %ni, solishtirma uzilish kuchi 32,1 gkuch/teks ni, iflos aralashmalar soni 7,6 ni va ip yigiruvchanlik koeffitsiyenti 149 ni tashkil etdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, turli konstruksiyadagi kolosnikli panjaralar o‘rnatilgan tola tozalagichlarning samaradorligi sezilarli farq qiladi. Xususan, 8 dona kolosnikli variantda tozalangan tolalarning sifat ko‘rsatkichlari 4 dona kolosnikli uskunaga qaraganda ancha yuqori natija berdi. Jumladan, tolalarning o‘rtacha uzunligi 0,508 dyum (28,194 mm) ga oshdi, bu esa ip yigirish jarayonida barqarorlikni ta’minlab, tayyor ipning sifati va mustahkamligini oshirish imkonini beradi. Birxillik indeksi ham 1,0 birlikka yaxshilanib, tolalarning yanada tekis va barqaror tarkibda shakllanishiga olib keldi. Bundan tashqari, solishtirma uzilish kuchi 2,4 gkuch/teks ga ortishi natijasida ipning mexanik

mustahkamligi oshib, ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar kamayishi ta’minlandi. Ip yigiruvchanlik koeffitsiyentining 12 birlikka ortishi esa yigirish samaradorligini oshirib, ishlab chiqarish unumdorligini ko‘taradi. Shu bilan birga, kalta tolalar indeksi 0,8 % ga kamaydi, bu esa tayyor mahsulot sifati va uning texnologik qayta ishlanish imkoniyatlarini yaxshiladi. Iflos aralashmalar miqdorining 4,8 birlikka qisqarishi tolalarning tozaligini oshirdi va qo‘shimcha tozalash jarayonlariga ehtiyojni kamaytirdi.

Adabiyotlar

[1]. Олимов. О.Т., Бобожонов С.Х., Агзамов М., Юнусов С.З. Очиститель волокнистого материала // Патент, FAP №01232, 2017.

[2]. Турсунов Х.Қ. Теоретические основы очистки хлопкового волокна и совершенствование рабочих органов волокноочистительных машин. Дисс. док. техн. наук.- Ташкент. 1997, 214 с.

[3]. D.D.Christopher, B.M.Vikki, K.S. Martin. Textile industry needs // he Journal of Cotton Science 21:210–219. 2017. 2. D.D.Christopher, B.M.Vikki, K.S. Martin. Textile industry needs // The Journal of Cotton Science 21:210–219. 2017.

[4]. Ruixiu Sui, J.Alex Thomasson. Effect of machine-fiber interaction on cotton fiber quality and foreign-matter particle attachment to fiber// Journal of Cotton Science 14:145–153. 2010.

[5]. Турсунов Х. К., Хакимов Ш. Ш., Жураев Ж. Б. Износ кромки колосников волокноочистителя в процессе очистки волокна от сорных примесей //Национальная ассоциация ученых. – 2022. – №. 78. – С. 50-52.

[6]. Ахмедов М. Х. и др. Исследования эффекта очистки а и определение содержания волокна в отходах на двухбарабанном волокноочистителе 2-ВПМ reseach of cotton cleaning efficiensy and degree of fiber content in wastes on two-dryed cleaner 2-VPM //Современные инженерные проблемы ключевых отраслей промышленности. – 2019. – С. 182.

[7]. Сулаймонов Р. Ш. и др. Анализ работоспособности волокноочистителя с модернизированной колосниковой решеткой //Проблемы механики. Ташкент. – 2014. – №. 3-4. – С. 115.

[8]. Эгамбердиев Ф.О. Машинада терилган пахтанинг толасини самарали тозалаш учун такомиллаштирилган тола тозалагични ишлаб чиқиши. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Жиззах, 2020, 120 б.

[9]. М.Агзамов, М.М.Агзамов, Ж.Ф.Мажидов. Пути снижения содержания пороков в хлопковом волокне в прцессе пильного джинирования // Известия ВУЗов «Технология текстильной промышленности». Иваново. №3, 2007, с.34-37.

[10]. Sulaimonov R. et al. Моделирование процессов взаимодействия волокнистой массы с колосниковой решеткой и выделение из нее сорных примесей //Science and innovative development. – 2019. – Т. 2. – №. 4. – С. 79-87.

AMALDAGI 1ЛБ, ОС VA УЧДМ RUSUMLI MASHINALARDA CHIGITNING ISHCHI ORGANLARGA TUSHISHDAGI NOMUTANOSIBLIK MUAMMOSINI O‘RGANISH

R.K. Djamolov[1], J.G‘. G‘ayratov [2], M.G‘. Aloydinov[2]

[1]Tolali ekinlar ilmiy tadqiqot instituti.
[2]Farg‘ona davlat texnika universiteti

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada amalda keng qo‘llaniladigan 1ЛБ, ОС va УЧДМ rusumli tuksizlantirish mashinalarida chigitning ishchi organlarga notekis tushishi bilan bog‘liq texnologik muammolar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, geometrik cheklanishlar, aerodinamik qarshilik, tebranishlar, granulometrik notekislik, havo almashinuvi va issiqlik taqsimotining nomutanosibligi oqimning barqaror shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bu holatlar yuklamaning simmetrik taqsimlanmasi, chigitning shikastlanishi va tuksizlantirish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oqimni faollik bilan boshqaruvchi maxsus dozator mexanizmi hali ishlab chiqilmagan bo‘lib, mavjud yechimlar asosan passiv tartibga solish usullariga tayanadi. Maqolada yangi avlod tuksizlantirish mashinalari uchun oqimni barqaror, simmetrik va boshqariladigan shaklda ta’minlashga qodir bo‘lgan dozator qurilmasi yaratish zaruriyati ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *chigit oqimi, tuksizlantirish mashinalari, 1ЛБ, ОС, УЧДМ, oqim barqarorligi, yuklama simmetriyasi, aerodinamika, tebranish, granulometrik tarkib, dozator mexanizmi*

Annotation: The article provides an in-depth analysis of technological problems associated with the
uneven feeding of cottonseed into the working units of widely used lint-removal machines of the 1LB, OS, and UChDM types. Research demonstrates that geometric limitations, aerodynamic resistance, vibrations, granulometric heterogeneity, irregular airflow and heat distribution hinder the formation of a stable seed flow. These factors cause load asymmetry, increased seed damage, and reduced lint-removal efficiency. A review of international and local studies shows that no active flow-control dosing mechanism has yet been developed, while existing solutions rely mainly on passive regulation methods. The article scientifically substantiates the need to design a new generation dosing mechanism capable of ensuring stable, symmetric, and controllable seed feeding into the working chamber.

Keywords: *cottonseed flow, lint-removal machines, 1LB, OS, UChDM, flow stability, load symmetry, aerodynamics, vibration, particle size distribution, dosing mechanism*

Аннотация: *В статье подробно проанализированы технологические проблемы, связанные с неравномерной подачей хлопкового семени на рабочие органы широко применяемых машин для удаления пуха марок 1ЛБ, ОС и УЧДМ. Исследования показывают, что геометрические ограничения, аэродинамическое сопротивление, вибрации, гранулометрическая неоднородность, неравномерный воздухообмен и тепловое распределение препятствуют формированию стабильного потока. Эти факторы вызывают нарушение симметрии нагрузки, повышение повреждаемости семян и снижение эффективности процесса тушкирования. Анализ зарубежных и отечественных источников свидетельствует о том, что активное управление потоком отсутствует, а существующие решения основаны преимущественно на пассивных методах регулирования. В статье научно обоснована необходимость создания нового дозирующего устройства, обеспечивающего стабильную, симметричную и управляемую подачу семян в рабочую камеру.*

Ключевые слова: *поток семян, машины для удаления пуха, 1ЛБ, ОС, УЧДМ, стабильность потока, симметрия нагрузки, аэродинамика, вибрации, гранулометрический состав, дозирующее устройство*.

Amaliyotda keng qo‘llanib kelayotgan 1ЛБ, ОС va УЧДМ rusumli tuksizlantirish mashinalarida chigitning ishchi organlarga bir tekis va barqaror tushmasligi jarayonning asosiy texnologik kamchiliklaridan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ushbu nomutanosiblik tuksizlantirish samaradorligini pasaytiradigan, yuklamaning teng taqsimlanishini buzadigan va mexanik shikastlanish darajasini oshiradigan asosiy omil sifatida ko‘riladi. Mazkur mashinalarda chigit odatda gravitatsiya ta’sirida ta’minlovchi moslamadan ishchi kameraga tushadi; ammo ta’minlovchi qutining o‘zgarmas geometriyasi, chiqish bo‘shlig‘ining torligi, devorlarning ishqalanish darajasi, tebranishlar va chigitning tuklilik hamda namlik ko‘rsatkichlarining turlicha bo‘lishi oqimning bir xil shakllanishiga imkon bermaydi. Natijada kameraga kirayotgan chigitning yuqori qatlamlari erkin siljiydi, pastki qatlamlari esa siqilish va to‘planishga moyil bo‘ladi, oqimning umumiy massasi bir maromda emas va yuklama simmetriyasining buzilishi kuzatiladi.

1ЛБ rusumli mashinalarda ta’minlovchi bo‘shliqning yuqori qismi keng, quyi qismi esa nisbatan tor shaklda bo‘lib, chigit oqimi pastga tushgan sari zichlanish ortib boradi; bu esa oqimning “bo‘laklanishi” va ishchi organlarga vaqt bo‘yicha notekis berilishini yuzaga keltiradi. Bunday holatda kameraning markaziy qismiga ko‘proq chigit to‘planadi, yon qismlar esa kam yuklanadi; natijada silindr bo‘ylab ish sharoiti bir xil bo‘lmaydi, tuk ajralishi darajasi ham o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bundan tashqari, 1ЛБ mashinalarida chigitning tuklilik darajasi yuqori bo‘lgan hollarda zarralar o‘zaro ilashib, oqimning “ip holida tortilishi” kuzatiladi; bu esa pastki qatlamlarning to‘planishiga va kameraga birdan tushib ketuvchi massalarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi [38].

OS rusumli mashinalarda esa asosiy muammo ta’minlovchi moslamaning kameraga o‘tish bo‘shlig‘ida aerodinamik qarshilikning keskin oshishi bilan bog‘liq. Mashina ishchi kamerasi ichida hosil bo‘ladigan havo oqimlari ta’minlovchi qutidagi oqimga qarama-qarshi yo‘nalishda harakat qiladi va oqimning kirish tezligini sekinlashtiradi; bu esa oqimning yuqori qatlamlarini orqaga tortadi, pastki qatlamlarni esa bir tomonga siljishga majbur qiladi. Natijada oqim ikki bo‘lakka

bo‘linadi: bir qismining tezligi keskin pasayadi, ikkinchisida esa tezlanish kuzatiladi. Bu holat yuklamaning simmetrik bo‘lmasligiga, chigitning ishchi organlarga bir tomondan ko‘proq, ikkinchi tomondan esa kam berilishiga olib keladi. Natijada tuksizlantirish jarayonida silindrning bir tomonida tuk ajralishi darajasi yuqori bo‘lsa, boshqa tomonida past bo‘ladi; bu esa tuklilik darajasi bo‘yicha farqlarning ortishiga sabab bo‘ladi.

UCHDM rusumli mashinalarda nomutanosiblikning asosiy sababi — ta’minlovchi qurilma bilan kamera orasidagi “keskin o‘tish zonasi”dir. Ushbu zonada konstruktiv burchakning kattaligi oqimning pastki qatlamida tiqilish, yuqori qatlamida esa bo‘shashish holatiga olib keladi. Kuchli tebranishlar oqimning yuqori qismidagi zarralarning sakrab tushishiga, pastki qatlamdagilarning esa yopishib qolishiga sabab bo‘ladi. Bu esa oqimning pulsatsiyalangan ko‘rinishda — ya’ni “to‘lqinli berilish” holatida kameraga kirishiga olib keladi. Yuzaga kelgan to‘lqinli berilish tufayli yuklama vaqt bo‘yicha keskin o‘zgaradi, bu esa ishchi organlar bilan chigitning o‘zaro ta’sir muddatini tartibsizlashtiradi va shikastlanish xavfini oshiradi.

Ushbu mashinalarning barchasida kuzatiladigan yana bir katta muammo — chigit zarralarining granulometrik notekisligidir. Turli kattalikdagi chigitlar oqim shakllanishida turlicha tezlikka ega bo‘lganligi sababli ularning kameraga kirish tartibi ham buziladi: kichik massali chigitlar tezroq tushadi, yiriklari esa yuqorida to‘planadi. Natijada ishchi organlarga yirik chigitlarning birdan tushib ketishi, kichik chigitlarning esa yetarli vaqt davomida ishlov ololmasligi kuzatiladi. Bunday nomutanosiblik tuksizlantirish samaradorligini 12–18% gacha pasaytirishi, shikastlanish darajasini esa 1,5–2 barobar oshirishi ilmiy manbalarda ta’kidlangan [41]. Bundan tashqari, 1ЛБ, ОС va УЧДМ mashinalarida havo almashinuvi va issiqlik taqsimoti ham bir xil emas. Kamera ichidagi issiq havo oqimlari chigitni yuqoriga ko‘tarib, oqimning tabiiy yo‘nalishini o‘zgartiradi; bu esa kirish joyida “aralash oqimlar zonasini” hosil qiladi va oqimning geometriyasini buzadi. Natijada chigitning bir qismi ishchi organlarga zarba tarzida tushadi, boshqa qismi esa kameraga sekin kiradi — bu esa shikastlanish, qizib ketish, tuk ajralishning notekis bo‘lishi kabi salbiy oqibatlarni keskin kuchaytiradi. Shunday qilib, amaldagi 1ЛБ, ОС va УЧДМ rusumli mashinalarda chigitning ishchi organlarga nomutanosib tushishi — konstruktiv, aerodinamik, tebranish, geometrik va fizik-texnologik omillarning kompleks ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayon bo‘lib, aynan ushbu nomutanosiblik tuksizlantirish jarayonidagi eng katta texnologik yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa yangi avlod dozator mexanizmini yaratish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Chigit oqimining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tuksizlantirish jarayonida chigitning ishchi organlarga bir tekis tushishini boshqarish texnologik samaradorlikni belgilovchi eng asosiy omillardan biri bo‘lishiga qaramay, mazkur yo‘nalish amaliyotda va ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Xorijiy manbalarda chigit oqimini boshqaruvchi qurilmalar bo‘yicha ishlanmalar ko‘proq yog‘-moy sanoati va urug‘ saralash liniyalarida qo‘llaniladigan vibratsion taqsimlagichlar, gravitatsion bunkerlar, mexanik ta’minlovchi qopqoqlar va konveyerli uzatgichlarga qaratilgan bo‘lib, ular tuksizlantirish jarayonining o‘ziga xos dinamik xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. AQSh, Hindiston va Xitoy tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan tajribalarda chigit oqimining barqarorligini ta’minlash uchun bunker ichki burchagini o‘zgartirish, sirt materialini optimallashtirish, vibratsion amplitudani boshqarish, ta’minlash bo‘shlig‘ini differensial sozlash kabi konstruktiv yechimlar taklif etilgan bo‘lsa-da, tuksizlantirish mashinasining ishchi kamerasi oldida oqimni aktiv tarzda boshqaradigan maxsus dozator mexanizmi bo‘yicha fundamental ishlanmalar mavjud emas. Ularning ko‘pchiligi oqimni shakllantirishni passiv tartibga soluvchi usullarga tayanadi, bunda oqimning o‘z-o‘zidan siljishi fizik tekislik burchaklari, o‘z-o‘zidan zichlanish va gravitatsiya kuchlariga bog‘langan bo‘ladi.

MDH mamlakatlaridagi ilmiy izlanishlarda chigit oqimini me’yorlash bo‘yicha ayrim konstruktiv takliflar mavjud bo‘lsa-da, ular ham cheklangan doirada bo‘lib, asosan 1ЛБ va ОС mashinalarida ishchi kameraga kirish bo‘shlig‘ini soddalashtirish, qisman tebranishlarni yumshatish yoki bo‘shliqning kengligini mexanik tarzda sozlash bilan cheklanadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi ilmiy maktabi tomonidan taqdim etilgan bir qator ishlarda ta’minlovchi qutiga

o‘rnatilgan qo‘shimcha yo‘naltiruvchi plastinalar oqimning simmetrik tushishini qisman yaxshilashi qayd etilgan, biroq chigitning granulometrik tarkibi, tuklilik darajasi, ichki ishqalanish kuchlari va aerodinamik qarshiliklarning kompleks ta’siri hisobga olinmaydi. Belarus va Qozog‘iston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa chigit oqimini tebranish orqali qo‘zg‘atish oqimning “tiqilish–ochilish” sikllarini kuchaytirishi natijasida oqimning barqarorligi pasayishi aniqlangan; bu esa vibratsion usullar tuksizlantirish mashinalarida oqim barqarorligini ta’minlashga mos emasligini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida chigitning fizik-mexanik xossalari, tukning ildiz qismi bilan po‘stloq orasidagi bog‘lanish kuchini kamaytirish, issiqlik-mexanik rejimlarni optimallashtirish, mexanik shikastlanish darajasini kamaytirish kabi masalalar keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, oqimni shakllantirish va uni dozalanadigan holatda ishchi organga yo‘naltirish masalasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida yetarlicha yoritilmagan. X.Axmedxo‘jayev, B.M. Mardonov, R.G. Maxkamov kabi olimlarning ishlarida tuksizlantirish jarayonining energiya sig‘imi, yuklama taqsimoti, havo almashinuvi, kameradagi zichlanish va chigitning qizib ketish mexanizmlari batafsil o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonlarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan chigitning bir tekis tushmasligi umumiy omil sifatida qayd etilgan, ammo unga qaratilgan maxsus konstruktiv yechimlar taklif etilmagan. Shuningdek, chigit oqimini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalarda ko‘proq don mahsulotlari va urug‘ saralash texnologiyalaridagi oqim taqsimotiga oid ilmiy ishlanmalar qo‘llaniladi. Ammo chigitning o‘ziga xos xususiyatlari — tuklilik, past zichlik, noaniq shakl, po‘stloqning mo‘rtligi va ichki ishqalanishning yuqoriligi — bu turdagi klasterga o‘xshash oqimlarning standart don oqimlaridan tubdan farq qilishiga sabab bo‘ladi. Shu bois don va urug‘ oqimini boshqarish texnologiyalarini chigit oqimiga bevosita qo‘llab bo‘lmaydi, ular chigitning tabiiy strukturasi va mexanik xususiyatlari bilan mos emas.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, tuksizlantirish jarayonidagi texnologik yo‘qotishlarning 60–70% gacha bo‘lgan qismi aynan oqimning bir tekis tushmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, amaldagi mashina konstruktsiyalarida oqimni faol boshqarish uchun maxsus dozator mexanizmi mavjud emas. Ta’minlovchi qutining oddiy geometrik shakli oqimni gravitasion tarzda o‘z-o‘zidan siljishga majbur qiladi; bunday tizim esa chigitning namligi, tukliligi, zarralar o‘lchami, sirt ishqalanishi, tebranishlar va aerodinamik kuchlar kabi o‘zgaruvchan omillarga moslasha olmaydi. Natijada 1ЛБ, ОС va УЧДМ mashinalarida oqimning buzilishi, bo‘laklanishi, tiqilib qolishi, zarbali tushishi va yuklamaning notekis taqsimlanishi muntazam uchrab turadigan holatlardir.

Xorijiy mualliflar tomonidan taklif etilgan ba’zi yechimlarda oqim yo‘nalishini barqarorlashtiruvchi to‘siqlar, yo‘naltiruvchi kanallar, tebranishni yumshatish elementlari yoki bosim ostida ta’minlovchi barabanlar qo‘llangan, ammo ular tuksizlantirish jarayonining o‘ziga xos fizik dinamikasini to‘liq hisobga olmaydi va chigitning tuklilik xususiyatlari bilan mos kelmaydi. Mahalliy amaliyotda esa ayrim korxonalarda ta’minlovchi bo‘shliq kengaytirilgan, devor burchagi o‘zgartirilgan, sirt silliqligi yaxshilangan bo‘lsa-da, bu yechimlar oqimni to‘liq barqarorlashtirishga qodir emas, chunki ular faqat bitta parametrni hisobga oladi, oqimning murakkab ko‘p omilli tabiati esa tizimli yondashuvni talab qiladi

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tuksizlantirish mashinalarida chigit oqimining bir tekis tushmasligi — konstruktiv jihatdan yetishmayotgan eng muhim bo‘g‘in bo‘lib, ushbu jarayonni boshqarish uchun maxsus dozator qurilmasini ishlab chiqish zarurati xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarda bevosita tilga olingan bo‘lsa ham, amalda hali yechimini topmagan. Oqimni dozalash, yo‘naltirish va simmetriklashtirishga qodir bo‘lgan bunday qurilma tuksizlantirish jarayonini tubdan takomillashtirishi, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirishi va final mahsulot sifatini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan [46].

Adabiyotlar

[1]. Mamarasulov, X. (2015). Separatorlar ish rejimlari ta’siri. *TDIU axborotnomasi*, 3, 102–109.
[2]. Turhollow, A., Heid, W., & Anthony, W. (1992). Cotton flow analysis. *ASAE Paper 92–6045*.
[3]. Sodiqov, M. (2022). Tuksizlantirish mashinalarida optimallashtirish. *Toshkent TTU jurnali*, 2, 87–95.

ICHKI YONUV DVIGATELLARI SOVUTISH TIZIMLARINI HISOBLASH VA TAHLIL QILISH

V.O. Oribjonov

Farg‘ona davlat texnika unversiteti
+998913292148, valixonoribjonov75@gmail.com
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada avtomobil dvigatelini sovutish tizimini taxlili ya’ni sovutish tizmini radiatorini hisobi, termostatni ishlash uslubi va sovutish tizmining hisobiy unumdorligini aniqlash metodikasi haqida ko’rsatmalar berib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *Sovutish tizimini turlari, tuzilishi, ishlash jarayoni, thermostat va uning turlari, ochiq va yopiq sovutish tizmi, radiator va uning turlari, suv nasosi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается анализ системы охлаждения автомобильного двигателя, а именно приводятся расчёт радиатора системы охлаждения, принцип работы термостата, а также методика определения расчётной производительности системы охлаждения.*

Ключевые слова: *Типы систем охлаждения, конструкция, принцип работы, термостат и его*
разновидности, открытые и закрытые системы охлаждения, радиатор и его разновидности, водяной насос.

Abstract: *This article presents an analysis of the automobile engine cooling system, including the calculation of the cooling system radiator, the operating principle of the thermostat, and the methodology for determining the calculated performance of the cooling system.*

Keywords: *Types of cooling systems, structure, operation, thermostat and its types, open and closed cooling systems, radiator and its types, water pump.*

Sovitish tizimining vazifasi. Sovitish tarmog‘i dvigatelning qizigan detallaridan issiqlikni majburan tashqimuhitga tarqatib, uning kerakli issiqlik maromida ishlashini ta’minlaydi.Dvigatelda ish siklning o‘rtacha harorati 1070...1200 K (800...1000° C). Bundayharoratda krivoship shatunli va GTM ning detallari qizib ketadi, ishqalanuvchiyuzalar orasida moy kuyib, ishqalanish xaddan tashqari oshib ketadi. Natijada porshen issiqlik ta’sirida kengayib, silindr ichida tiqilib qoladi, podshipniklar esa erib ketishi mumkin. Shu sababli dvigatelning qizigan detallaridan issiqlikniuzluksiz ravishda tashqi muhitga tarqatib turish lozim. Lekin dvigatel xaddantashqari sovitib yuborilsa ham, issiqlik energiyasi bekorga sarf bo‘ladi, moy quyuqlashib, ishqalanishga sarflanadigan quvvat oshadi. Undan tashqari,yonuvchi aralashma qisman tomchiga aylanib, silindrlar devoridagi moyni yuvibtushiradi, natijada silindr-porshen guruhiga kiruvchi detallarning yeyilish ortadi.Demak, dvigatelning juda qizib ketishi yoki xaddan tashqari sovib qolishiuning foydali quvvatini kamaytirib, tejamkorligini yomonlashtiradi. Sovitishtarmog’i esa dvigatelning ishlashi uchun qulay bo’lgan issiqlik marominibelgilangan holda saqlab turadi.

Suyuqlik bilan sovitish tizimi, suyuqlikning harakatnlanish usuli bo‘yicha termosifon, aralash va majburiy tarmoqlar mavjud.

Termosifon usulida suyuqlikning harakati issiq va sovuq suyuqliklar zichligining farqi tufayli tabiiy ravishda o’tadi.

Aralash usulda esa radiatordagi sovitilgan suv nasos yordamida silindrlarningyuqori qismiga yuboriladi, pastki qismiga esa suv o‘z tabiiy oqimi bilan oqib tushadi.

Majburiy usulda tarmoqdagi suyuqlik nasos yordamida uzluksiz harakat qiladi.

Dvigatellar sovitish tizimini hisoblashda sovutuvchi suyuqlik antifrizning rolikatta. Uning issiqlik almashinish darajasi va issiqlik qabul qilgichlardan issiqlikniyutish ko‘rsatkichlari asosida 1–jadval
tuzilgan va bu keying hisoblarimizdaishlatiladi. Agar radiatorda suv o‘rniga antifriz ishlatilsa issiqlik yutish 8-12 % gapasayadi.

Jadval 1.

Sovituvchi suyuqliklar fizik hususiyatlari.

Modda	Xarorat, °C		Zichlik	Issiqlik yutishi
	Muzlash	Qaynash	*ρ, kg/m3*	*kDj/(kg·K)*
Suv	0	100	1000	4,2
Havo	- 213	- 193	0,95…1,2	1,0
Antifriz	- 65 …- 45	102…117	1100...1112	2,5…3,8

Tizimning hisobiy unumdorligi aniqlash metodikasi

Sovutish tizimini hisoblashda boshlang'ich kattalik sifatida dvigateldan tashqi muhitga chiqarib yuoriladigan issiqlik miqdori hisoblanadi. Hisoblar dvtgatelning nominal quvvatidagi N_{en} (kVt) rejimlar uchun olib boriladi.

Olib borilgan sinovlar natijasida olingan xar xil turdagi dvigatellar uchun issiqlikning solishtirma miqdori q_{oxl} quyidagi qiymatlarga teng:

benzin dvigatellarda 2840…5700 kDj/(kVt·s);

dizellarda 2270…2900 kDj/(kVt·s).

Agar moylar sovutish tizimi ishchi elementlarida sovutilsa, q_{oxl} qiymatni 2…4,5% ga oshirish lozim.

$$Q_J = \frac{1}{3,6} q_{oxl} N_{en},\ Dj/s$$

1 sekund ichida sovutish tizimida sovutuvchi suyuqlik sirkulyatsiyasi uchun sarf quyidagicha aniqlanadi:

$$V_j = \frac{Q_j}{C_j \cdot \rho_j \cdot \Delta T_j},\ m^3/s$$

Bu yerda Q_j– Sovutuvchi suyuqlikning solishtirma izobarik issiqlik sig'imi,$D_j/(kg·K)$; 1 – jadvalda keltirilgan; ΔT_j– tizimga kirish va chiqishdagi xaroratning farqi (radiatorga kirish va chiqish); yopiq sirkulyatsiyali tizimlar uchun 6…15 *K* teng qilib olinadi; ρ_j– suyuqlik zichligi, kg/m^3; 1-jadvaldagi qiymatlarga mos olinadi.

Sovutish tizimning radiatorlari.

Shamol ta'sirida sovitishga mo'ljallangan radiatorlar konstruktsiyaga mos ravishda asosiy suyuqlik bilan sovituvchi radiator bilan birga yoyoki avtonom holda o'rnatilishi mumkin. Ko'p xollarda shamol yo'nalishiga mos purkab sovutivchi radiatorlar suv va moy radiatorlariningg oldida o'rnatilib, asosiy ventilyator xavo oqimi bilan purkalishga qulay sharoit yaratiladi. Bunday sxemayuqori gidravlik qarshilikni yengish, tizimni soddalashtirish vaqulaylik yaratishuchun atayin mo'ljallangandir va misol uchun Kobalt avtomobilning avtomatik uzatmalar qutili variantlarida ko'rishimiz mumkin.

Radiator hisobi.

Odatda uning issiqlik almashinuvchi $F_p$yuzasini aniqlashbilan yakunlanadi.

Birinchi bo'lib vaqt mobaynida dvigatelda sovitish uchun hosil bo'lgan issiqlik miqdori qiymati aniqlanadi va yuqoridagi formulaga bir qator o'zgartirishlar kiritiladi.

Radiator issiqlik almashinuvchi yuzasi quyidagicha hisoblanadi:

$$F_P = \frac{Q_j}{k_p \cdot \Delta T_{jl}},\quad m^2$$

Bu yerda k_p– radiatorning issiqlik almashinish yuzasi orqali uzatiladigan issiqlik koeffitsienti (suyuqlikdan havoga); benzin dvigatellar uchun k_p=140…180 Vt/(m2·0S);

dizellar uchun kp =80…100 Vt/(m2·0S);

$DT_{j.v} = T_{jsr.} – T_{v\ sr.}$ – radiator orqali o'tayotgan sovutuvchi suyuqlik va havoning o'rtacha xaroratlari farqi; $T_{j\ sr} = T_{v\ jx} – 0,5 \cdot DT_j = 86…91^0S$;

DT_j – radiatorda suyuqlikni ko'tarilish xarorati (7…9^0S);

T_j – suyuqlikni radiatordan chiqishdagi xarorati 90…95^0S;

T_v sr =0,5·(Tv vx + Tv vых) – radiator orqali o'tayotgan havoni o'rtacha xarorati;

$T_v = T_0 + DTv.vx$ – radiatorga kirayotgan havoni xarorati; suv radiatoriga kirishdagi atmosfera havosini xarorati T_0 radiator jalyuzalari va moy radiatoridan o'tishda isishi $DTv.vx = 3…5^0S$; agar moy radiatori bo'lmasa,

$T_{VX} = T_0$ deb qabul qilish mumkin; atrof muxit xarorati $T_0 = 20^0S$ radiatorga kirishdagi havo xarorati $T_v = 23…25^0S$ ga teng bo'ladi; $T_v = T_{v.vx} + 0,5 \cdot DT$ - suv radiatoridan chiqishdagi xarorat; $DTv.vых = 20…30^0S$ – suyuqlik radiatorining panjarasida havoning isishi; atrof-muhit xarorati $T_0 = 20^0S$ da radiatordan chiqishdagi havoning xarorati

Tv vых= $33…40^0S$ ga teng bo'ladi.

Sovutish tizimi sirkulyatsiya nasoslari.

Juda ko'p avtomobillarda suyuqlikni aylanishini ta'minlash uchun markazdanqochma suv nasoslari qo'llaniladi.

Nasoslari vallari dvigatel tirsakli vali bilan ponasimon kamarlar yordamida bog'lanib ishga tushiriladi. Ba'zida ushbu valga sovutish tizimi ventilyatori xam o'rnatiladi. Ko'pincha nasosning yuritmasi ventilyatordan alohida qilib bajariladi.Suyuqlikni aylanishini ta'minlovchi nasoslar avtomobil dvigatellari sovutishtizimida suyuqlikni 0,06…0,12 *MPa* bosimdagi oqimini ta'minlashi shart.

Sirkulyatsiya nasosi hisobini uning asosiy geometrik parametrlari va iste'mol qiladigan quvvatini aniqlash uchun olib boriladi.

Nasosning unumdorligi hisobi nasosda suyuqlikni korpus va parrak orasida siquvchi yuza va so'ruvchi yuza orasidan *hn* (*hn* = 0,8…0,9) sizib o'tish koeffitsientini e'tiborga olib bajariladi.

$$V_{jr} = \frac{V_j}{h_n} \; yoki \; V_{jr} = \frac{Q_j}{\mu_j \cdot C_j \cdot \rho_j \cdot \Delta T_j}, \qquad \left(\frac{m^3}{s}\right) (2-a)$$

Bu yerda μj – nasosning uzatish koeffitsienti; μj = 0,8…0,9. Nasosning kirish teshigi suyuqlikning hisobiy miqdori yetkaza olishini ta'minlashi shart. Bu quyidagi shart bajarilganda ta'minlanadi:

Vjr /s1 = $\pi \cdot (r_1 – r_2)$, Bu yerda s1 – nasosga kirishdagi suyuqlik tezligi, m/s; s1 = 1…2 m/s; r1 va r0 – mos ravishda parrakning kirish teshigi radiusi va parrak gupchagi radiuslari, m; parrak gupchagi radiusi nasos vali diametri yarmiga teng qilib olinadi va taxminan r0 = 0,01…0,015 m teng qilib olinadi.

Parrakning kirish teshigi radiusi yuqoridagi tenglama yordamida aniqlanadi vaquyidagicha o'zgartiriladi:

$$r_1 = \sqrt{\frac{V_{jr}}{\pi \cdot c_1} + r_0^2}$$

Parrakning chiqishdagi radiusi r_2 quyidagicha:

$r_2 = kr \cdot r_1$, m; bu yerda $kr = r_2 / r_1$– nasosga kirish va chiqishdagi parrak radiuslari nisbati bu qiymat taxminan kr =1,5 qilib olish mumkin.

Sovitish tizimi ventilyatori.

Ventilyatorning o'lchamlari va unumdorligi radiatordagi suyuqlikni keraklidarajada sovutish uchun yetarli bo'lishi kerak. Dvigatelni tezda qizdirish uchun va energiyani tejash uchun ventilyatorlar yuritmasi unumdorligi avtomotik sozlanuvchi yoki sovuq dvigatelda ishlamasdan turadigan qilib tayyorlanadi. Buning uchun avtomotik muftalar, sovitish tizi migaissiqlik sezuvchan datchiklar o'rnatiladi. Ventilyator ishini tavsiflovchi bosim ko'rsatkichidir, ko'rsatkich bu oddiy aksial ventilyatorlarda 0,07 ni tashkil etadi.

Ventilyatorni unumdorligi hisobi radiatordan issiqlikni sovituvchi havo yordamida ketkazishni ta'minlash hisobiy formulasi bilan aniqlanadi.

$$Qj = q_{oxl} \; N_{en}, \; Dj/s.$$

Ventilyator ta'minlaydigan havo sarfi xajmi.

$$V_v = \frac{Q_j}{\rho_v \cdot \Delta T_v \cdot c_v}, \qquad \left(\frac{m^3}{c}\right)$$

C_v – havoning issiqlik sig'imi, Dj/(kg·K); C_V = 1000 Dj/(kg·K);
ρ_v – radiatorning o'rtacha xaroratida havoning zichligi, kg/m^3;
ρ_v = 1,05…1,12kg/m3;
DT-radiator panjarasida havoning isish xarorati:
($DT_v = T_{v.vx.} - T_v.\ V_x.$); $DT_v.$ = 20…300S ;

Ventilyator yuritmasiga sarflanadigan quvvat:

$$N_v = \frac{V_v \cdot \Delta P}{\mu_v}\ ,\ \ (Vt)$$

μ_v – ventilyator FIK; μ_v = 0,32…0,4 parchinlangan ventilyator uchun;
η_v = 0,55…0,65 quyma uchun;
Δr_v – havo trakti qarshiligi (aerodinamik yo'qotishlar);
Δr_v = 600…1000 *Pa*.
Izoh: ventilyator avtonom ravishda ishlaydigan elektryuritmaga ega bo'lishi mumkin, va uning yuritmasi sovitish tizimiga o'rnatilgan issiqlik sezuvchi datchik yordamida ishga tushiriladi.

Suyuqlikli sovutish tizimi hisobi.

90 *kVt* nominal quvvatga ega bo'lgan benzin dvigateli sovitish tizimi uchun hisoblash olib boramiz. Ushbu dvigatelsovutish tizimi - suyuqlikli, berk, sovutuvchi suyuqlikni majburiy sirkulyatsiyasini ta'minlovchi.

Dvigatel ishlash jarayonida qizigan suyuqlik termostat orqali chiqarish patrubkasidan shlanglar yordamida radiatorga yetkaziladi. Termostat orqali o'tayotgan suyuqlikning xarorati 70^0*S* dan past bo'lganda klapan berk turadi. Buning natijasida sovituvchi suyuqlik radiatorga o'tmaydi va silindarlar bloke sovitish ko'ylagi ichida aylanadi. Xarorat ortishi bilan klapan ochila boshlaydi vaqizigan sovituvchi suyuqlik sekin asta radiatorga o'tadi. Xarorat 80...85^0*S* ga yetganda klapan to'liq ochiladi va sovituvchi suyuqlik radiatorga to'la o'tishni boshlaydi. Keyin sovituvchi suyuqlik xaroroti 95^0*S* ga yetganda ventilyator ishga tushadi, xamda qo'shimcha sun'iy havo oqimini hosil qilib radiator trubkalaridan atrof-muhitga issiqlik tarqalishini tezlashtiradi. Radiatorda sovitilgan suyuqlik nasos orqali so'rib olinib, sovitish ko'ylagiga yuboriladi.



1-rasm. Dvigatelning sovitish tizimi funktsional sxemasi.

Sovitish tizimi quyidagilardan tashkil topgan:

1. Markazdan qochma sirkulyatsiya nasosi.
2. Radiator.
3. Kengayish idishi
4. Termostat .
5. Ventilyator.
6. Dvigatel sovitish ko'ylagi.

Radiator. Vaqt birligida dvigateldan sovitish tizimi yordamida ajratilayotgan issiqlik miqdori.

Qj = · q_{oxl} Nen,= ·3780·90 = 94500 Dj/s.

Bu yerda qoxl – suvga nisbiy issiqlik uzatish koeffitsienti; q_{oxl} = 3780 kDj/(kVt·ch);
N_{en} = 90 kVt – dvigatelning nominal quvvati.

Radiatorning sovitish yuzasi

$$F_p = \frac{Q_j}{k_p \cdot \Delta T_p} = \frac{94500}{100 \cdot 35} = 27m^2$$

Bu yerda *kr* = 100 *Vt/(m2·K)* – suyuqlikdan havoga issiqlik uzatish koeffitsienti;

$\Delta Tr = T_j - T_v$ $\Delta Tr = 35K$ – suyuqlik va havoning sovitish radiatordan o'tishdagi o'rtachaxarorati farqi.

Sirkulyatsiya nasosi.

Sirkulyatsiya nasosining hisobiy unumdorligi.

$$V_{jr} = \frac{Q_j}{\mu_n \cdot C_j \cdot \rho_j \cdot \Delta T_j} = \frac{94500}{0.82 \cdot 3800 \cdot 1000 \cdot 9} = 0{,}0031 m^3/sek = 186 l/min,$$

(antifriz) *hn* = 0,82 – nasos uzatish koeffitsienti;

rj = 1000 *kg/m3* – sovituvchi suyuqlik zichligi;

DTj = Tj vx. - Tj вых. = 9*K* – radiatorda suyuqlikning xarorati o'zgarishi.

Sirkulyatsiya nasosiga sarflanadigan quvvati

$$N_n = \frac{V_j \cdot R_n}{\mu_g \cdot \mu_{mex}} = \frac{0{,}0031 \cdot 1 \cdot 100000}{0.7 \cdot 0{,}9} = 378 vt = 0{,}378 kvt$$

Bu yerda *Rn* = 0,1 *MPa* = $1 \cdot 10^5 Pa$ – nasos xosil qiladigan bosim;

μ_g= 0,7 - sirkulyatsiya nasosi gidravlik FIK;

μ_{mex} = 0,9 - sirkulyatsiya nasosi mexanik FIK.

Shunday qilib, dvigatel sovitish tizimidagi sirkulyatsiya nasosi uchun sarflanadigan quvvat N_n dvigatel nominal *Ne* quvvatining 0,42% tashkil etadi.

Adabiyotlar

[1]. A. Muhitdinov, B. Sotvoldiyev, E. Fayzullayev, SH. Hakimov. "Avtomobillar konstruksiyasi asoslari" o'quv qo'llanma Toshkent – 2015y 48bet

[2]. Q.H. Mahkamov, A. Ergashev. " Avtomobillarni ta'mirlash" darslik Toshkent -2008y 304 bet.

[3]. Akilov A.A., Qahorov A.A., Sayidov M.X. Avtomobilning umumiy tuzilishi. Darslik. -Toshkent. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi: 2012y. 142 bet.

[4]. Hamraqulov, Magdiyev avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi. Darslik. -Toshkent. 2005y 223 bet.

Internet saytlari

1. www.google.ru
2. www.ziyonet.uz
3. www.manytransport.ru
4. www.avtomotoprof.ru

MOCHEVINA–FORMALDEGID SMOLASINI GOSSIPOL VA EPIXLORGIDRIN ASOSIDA MODIFIKATSIYALASH ORQALI YELIMLOVCHI KOMPOZIT OLISH TEXNOLOGIYASI.

Sh.G'. Rubidinov[1]., Sh.N. Jalilov[2]

[1]*Farg'ona davlat texnika universiteti,*
[2]*Buxoro davlat universiteti*

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy ishda mochevina–formaldegid (MF) smolasi gossipol va epixlorgidrin bilan kimyoviy modifikatsiyalangan holda yuqori mustahkamlikka ega yelimlovchi kompozit olish texnologiyasi ishlab chiqildi. MF smolasi asosida olingan yangi kompozitning tuzilma–funksional xususiyatlari FTIR (IQ-spektroskopiya), SEM va TGA metodlari orqali baholandi. Modifikatsiyalangan namunaning termik barqarorligi, adgeziya qobiliyati va kimyoviy tarmoq tuzilmasining sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi. Tadqiqot natijalari moddiy resurs sarfini kamaytiruvchi, ekologik toza yelimlovchi kompozit olish imkonini ko'rsatadi.Modifikatsiyalash jarayonida mochevina-formaldegid smolasini organik gossypol,epixlorgidrin asosida kompozitsion yo'g'och plastik materiallarning fizik - mexanik xususiyatlari yaxshilandi,fizik kimyoviy tahlil natijalari natijasida olingan kompozit materiallarning tarkibida bir qancha fuksional guruhlarning bo'lishi kleyning mustahkamlik darajasini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *Mochevina – formaldegid smolasi, gossipol, epixlorgidrin, modifikatsiya, kompozit yelim, TGA, SEM, FTIR (IQ-spektroskopiya), issiqlik, barqarorligi, kondensatsiya,*

polikondensatsiya, spektroskopiya, pH, kompozitsiyalangan, analiyik darajadagi.

Abstract. *This study presents a technology for producing a high-performance adhesive composite through chemical modification of urea–formaldehyde (UF) resin using gossypol and epichlorohydrin. The effect of modifying agents on the formation of a three-dimensional crosslinked network and the resulting performance characteristics of the composite was investigated. Structural and functional properties of the synthesized materials were analyzed using Fourier-transform infrared spectroscopy (FTIR), scanning electron microscopy (SEM), and thermogravimetric analysis (TGA). The modified composites exhibited enhanced thermal stability, improved adhesion strength, and increased chemical resistance compared to the unmodified UF resin. The incorporation of gossypol and epichlorohydrin promotes the formation of additional functional groups and intensifies polycondensation reactions. The results demonstrate the potential of developing environmentally friendly and resource-efficient adhesive composites for wood–polymer materials.*

Keywords. *urea–formaldehyde resin, gossypol, epichlorohydrin, chemical modification, adhesive composite, FTIR, SEM, TGA, thermal stability, polycondensation, adhesion.*

Аннотация. *В работе представана технология получения высокоэффективного клеевого композита путём химической модификации мочевино–формальдегидной (МФ) смолы госсиполом и эпихлоргидрином. Исследовано влияние модифицирующих добавок на формирование пространственной сетчатой структуры и эксплуатационные свойства композита. Структурно-функциональные характеристики полученных материалов изучены методами ИК-Фурье спектроскопии (FTIR), сканирующей электронной микроскопии (SEM) и термогравиметрического анализа (TGA). Установлено повышение термической стабильности, адгезионной прочности и химической стойкости модифицированных образцов по сравнению с немодифицированной МФ-смолой. Показано, что введение госсипола и эпихлоргидрина способствует образованию дополнительных функциональных групп и интенсификации процессов поликонденсации. Полученные результаты подтверждают перспективность разработки экологически безопасных и ресурсосберегающих клеевых композитов для древесно-полимерных материалов.*

Ключевые слова. *мочевино–формальдегидная смола, госсипол, эпихлоргидрин, химическая модификация, клеевой композит, FTIR, SEM, TGA, термическая стабильность, поликонденсация, адгезия.*

KIRISH

Mochevina–formaldegid (MF) smolalari yog‘och-plastik kompozitlar, fanera, DSP, MDF mahsulotlari ishlab chiqarishda eng keng tarqalgan yelimlovchi polimerlardan biri hisoblanadi. Biroq MF smolalarining kamchiligi - suvga chidamliligining pastligi, formaldegid emissiyasining yuqoriligi va issiqlik barqarorligining yetarli emasligidir. Gossipol tabiiy polifenol modda bo‘lib, yuqori reaktiv aldegid va epoksi guruhlarga nisbatan faol hisoblanadi. Epixlorgidrin esa epoksi tugunlar hosil qiluvchi modda bo‘lib, MF smolasida tarmoqlanish darajasini oshiradi. Shu bois MF smolasini gossipol va epixlorgidrin bilan modifikatsiyalash uning: 1) tarmoqlanish darajasini 2) suvga chidamliligini 3) issiqlik barqarorligini, 4) mexanik mustahkamligini keskin oshiradi.

MF smolalarini gossipol va epixlorgidrin asosida modifikatsiyalash, kompozit sifatida qo‘llaniladigan yelimlovchi material olish va uning fizik-kimyoviy xossalarini chuqur tahlil qilishdir.

Mochevina–formaldegid smolalarini gossipol va epixlorgidrin asosida modifikatsiyalashning nazariy va amaliy asoslari.

Hozirgi kunda jahonda qurulish materiallariga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu borada mochevina-formaldegid smolasi asosida modifikatsiyalangan kompozitsion yo‘g‘och plastik materiallariga asoslangan kleylar qurulish va yo‘g‘och sanoatining asosiy manbasi hisoblanadi.Yog‘ochga asoslangan kompozit panellar (DSP, MDF, fanera) ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy bog‘lovchi moddalar mochevina–formaldegid (MF) smolalaridir. Ularning arzonligi, reaktivligi va tez polimerlash,polikondensatsi xususiyatlari ularni qurilish materiallari sanoatida yetakchi o‘ringa olib chiqqan. Biroq MF smolalarining asosiy kamchiligi – suvga chidamlilikning pastligi, mexanik mustahkamlikning yetishmasligi va formaldegid emissiyasining yuqoriligi – hozirgi kunda jiddiy ekologik muammodir.

Gossipol tabiiy polifenol birikma bo‘lib, uning yuqori reaktiv fenolik – OH guruhlari MF smolasining tarmoqlanish darajasini oshirish uchun samarali modifikator sifatida qaralmoqda. Epixlorgidrin esa epoksi tugunlar hosil qiluvchi yuqori faol reaktiv bo‘lib, gossipol bilan birgalikda

MF smolasining: 1)sirt energiyasini, 2)kimyoviy barqarorligini, 3)krosslink darajasini, 4) mexanik kuchlanishga chidamliligini keskin oshiradi.

Shu sababli MF smolasini gossipol va epixlorgidrin bilan modifikatsiyalash orqali yangi avlod yelimlovchi kompozitlarni yaratish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb sanaladi.

lmiy yangiligi ushbu ish doirasida:

1. Birlamchi mochevina–formaldegid smolasining gossipol va epixlorgidrin kombinatsiyasi bilan modifikatsiya usuli yoki polikondensatsiya reaksiyasi ilk bor takomillashtirildi.
2. Reaksiya borish muhitining pH, harorat, reaktivlar va modifikatorlarning nisbati optimallashtirildi.
3. Smola matritsasida epoksi–fenolik–metilen bog‘lanishlari hosil bo‘lish mexanizmi ilmiy asoslab berildi.
4. Modifikatsiyalangan MF smolasining strukturaviy o‘zgarishlari FTIR, SEM va TGA orqali chuqur mexanik va fizik-kimyoviy tahlil qilindi.
5. Yelimlovchi kompozitning adgeziya, termik barqarorlik va ekologik xavfsizlik ko‘rsatkichlari amaliy jihatdan isbotlandi.
6. Gossipolning polimer matritsa bilan o‘zaro ta’sir mexanizmi yangi kimyoviy model orqali yoritildi.
7. Ushbu natijalar O‘zbekiston va xalqaro ilmiy adabiyotlarda kam o‘rganilgan bo‘lib, mavzuning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

MF smolalarini modifikatsiyalashning ilmiy asoslari

MF smolalarining asosiy strukturasi metilen $–CH_2–$ va metilenglikol $–CH_2–O–CH_2–$ bog‘lari bilan tarmoqlangan poliamid tarmoqqa ega.

Gossipol va epixlorgidrin qo‘shilishi quyidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi:

1) Fenolik –OH guruhlari MF smolasidagi $–CH_2OH$ guruhlari bilan kondensatsiyalanadi;
2) Epixlorgidrin esa epoksi halqa orqali C–O–C va C–N tarmoqlanish tugunlarini hosil qiladi;
3) Smola ichida yangi uch o‘lchamli (3D) bog‘lanishlar yuzaga keladi.

Bu esa MF smolasining asosiy kamchiliklari – past gidrofoblik va past mexanik mustahkamlikni bartaraf qiladi.

Xom ashyolar: Mochevina–formaldegid smolasi (55–60% qattiq modda), gossipol (99.2% tozalikdagi paxta shrotidan ajratilgan), epixlorgidrin (analitik darajadagi), NaOH – katalizator, distillangan suv.

Modifikatsiya jarayonining borishi:

1-bosqich: MF smolasini 40–45 °C da faollashtirish,
2-bosqich: Gossipolni 5–15% kontsentratsiyada qo‘shish.
3-bosqich: pH qiymatini 8,2 ± 0,1 ga yetkazish.
4-bosqich: Epixlorgidrinni 3–10% qo‘shib, 55 °C da 40–60 daqiqa reaksiyani olib borish.
5-bosqich: Polimerlanishni nazorat qilish va sovitish.
6-bosqich: Olingan kompozit smolani sovitish.

Olingan natijalari va ularning tahlili

FTIR (IQ) spektral tahlil: Modifikatsiyadan oldingi va keyingi MF smolalarining asosiy chastotalari taqqoslandi. Asosiy signal o‘zgarishlari:

Asosiy signal o‘zgarishlari

1-jadval

t/r	Chastota (cm^{-1})	Tavsifi	O‘zgarish
1	3350	N–H cho‘zilish	intensivlik kamaygan
2	1210–1260	–C–O– fenolik tebranish	gossipol qo‘shilgach kuchaydi
3	915	epoksi halqa cho‘zilishi	epixlorgidrin tufayli paydo bo‘lgan
4	1540	aromatik tebranish	kuchaygan
5	1385	C–N–C tarmoqlanish	aniq ko‘ringan
6	1100–1150 cm^{-1}	C-O-C	Epeksid bog‘i o‘rtasida



1-rasm: Epixlorgidrin IQ spektri.



2-rasm. Gossipol IQ spektri.

3350 cm^{-1} N–H cho‘zilish intensivlik kamaygan, 1210–1260 cm^{-1} –C–O– fenolik tebranish, gossipol qo‘shilgach kuchaydi, 915 cm^{-1} epoksi halqa cho‘zilishi epixlorgidrin tufayli paydo bo‘lgan, 1540 cm^{-1} C–N–C tarmoqlanish aniq ko‘ringan, 1100–1150 cm^{-1} C-O-C Epeksid bog‘i o‘rtasida.

SEM tahlili

2-jadval

t/r	MF smolasi	Modifikatsiyalangan MF smolasi
1	Sirt nozik, ammo yoriqli, Fazalararo bo‘shliqlar ko‘p; Strukturaviy nosimmetriya mavjud.	Yadro–matritsa tizimi bir xil taqsimlangan; Sirt zichlashgan, yoriqlar yo‘q; Zich tarmoqli tuzilma hosil bo‘lgan; Polimer matritsa sirtida klasterlar kamaygan

MF smolasi: sirt nozik ammo yoriqli, fazalararo bo‘shliqlar ko‘p, strukturaviy nosimmetriya mavjud.

Modifikatsiyalangan MF smolasi:
- Yadro–matritsa tizimi bir xil taqsimlangan, sirt zichlashgan, yoriqlar yo‘q.
- Zich tarmoqli tuzilma hosil bo‘lgan, polimer matritsa sirtida klasterlar kamaygan.
Natija: Tarmoqlanish darajasi oshgan, mexanik mustahkamlik yaxshilangan.

TGA tahlili.

Isitish tezligi: 10 °C/min
Atmosfera: Inert (N_2)
Asosiy parametrlari:

Modifikatsiyalangan Gossipol va Epixlorgidrinning TGA tahlili

3-jadval

t/r	Namuna	Dastlabki parchalanish	Asosiy mass yo‘qotish	Yakuniy qoldiq
1	MF	180–200 °C	300–320 °C	9%
2	MF + gossipol	210–240 °C	330–350 °C	17%
3	MF + gossipol + ECH	235–260 °C	380–400 °C	24%
4	Namuna	Dastlabki parchalanish	Asosiy mass yo‘qotish	Yakuniy qoldiq

3.1-jadval

Namuna	5% yo‘qotish (°C)	50% yo‘qotish (°C)	Qoldiq (%)
Sof MF	180 °C	315 °C	9%
MF + gossipol	210 °C	345 °C	17%
MF + gossipol + epixlorgidrin	235 °C	390 °C	24%

Izoh: Epixlorgidrin bilan tarmoqlanish MF smolasining parchalanish temperaturalarini 70–80 °C ga oshirildi. Bu kompozitning termik barqarorligini keskin yaxshilaganligidan dalolat beradi.

Fizik–mexanik xossalar tahlili

Yelimlovchi xossalar tahlili

4-jadval

t/r	Yog‘och-yog‘och bog‘lanish kuchi	Namuna MF	Modifikatsiyalangan kompozit	Suvga chidamlilik	Modifikatsiyalangan MF smolasi	Formaldegid emissiyasi
1	Juda kuchli boglanish	Funksional guruh o‘rtasida	Modifikatsiyalash natijasida kuchli bog‘ hosil bo‘ladi	Gidrofob	Modifikatsiyalangan bog‘lararo kuchli intensiv guruhlar o‘rtasida	Karbonil guruhi va Amid guruhi o‘rtasida bog‘lanish
2	Bosim MPa	1,8 MPa	3,4–3,7 MPa	52%	87–90%	MF: 2,1 mg/m³

4.1-jadval

Ko‘rsatkich	Sof MF	Modifikatsiyalangan kompozit
Qotish vaqti	42 min	31 min
Suvga chidamlilik (24 soat)	52%	87%
Yog‘och–yog‘och adgeziya mustahkamligi	1,8 MPa	3,4 MPa
Formaldegid emissiyasi	2,1 mg/m³	0,9 mg/m³

Izoh: Yog‘och–yog‘och bog‘lanish kuchi: Namuna MF: 1,8 MPa, modifikatsiyalangan kompozit: 3,4–3,7 MPa, suvga chidamlilik: MF: 52%, modifikatsiyalangan: 87–90% Formaldegid emissiyasi:MF: 2,1 mg/m³, modifikatsiyalangan: 0,9 mg/m³ (E1 sinfiga mos).

Ilmiy natijalar asosida texnologik tavsiyalar

Optimal reaktivlar nisbati: gossipol: 10 ± 2%, epixlorgidrin: 6–8%, pH: 8,2–8,5, harorat: 50–55 °C

Sanoat miqyosida tavsiya etiladigan texnologik sxema:



3-rasm. Sanoat miqyosida tavsiya etiladigan texnologik sxema.
MF smolasini isitish → Gossipol qo‘shish → Epixlorgidrin bilan epoksid tugunlar hosil qilish → pH va viskozitetni nazorat qilish → Sovitish va saqlash.

Xulosa:

MF smolasini gossipol va epixlorgidrin bilan modifikatsiyalashning optimal shartlari aniqlanib, yangi tarmoqlangan polimer-kompozit yaratildi.

FTIR natijalari C–O–C, C–N–C va epoksi tugunlarning shakllanganini isbotladi.

SEM tahlil polimer matritsaning zichlashishini va yelim sifatining yaxshilanganini ko‘rsatdi.

TGA bo‘yicha modifikatsiyalangan MF smolasining issiqlik barqarorligi sezilarli darajada oshdi.

Adgeziya ko‘rsatkichlari 1,8 MPa dan 3,4–3,7 MPa ga ko‘tarildi.

Formaldegid emissiyasi sanitariya me’yorlariga mos (E1 sinfi).

Modifikatsiyalangan yelimlovchi kompozit DSP, MDF va fanera ishlab chiqarishda qo‘llashga tavsiya etildi.

Adabiyotlar

[1]. Pizzi A., Mittal K. Handbook of Adhesive Technology. 3rd Edition. CRC Press, 2017.
[2]. Umemura K., Kawai S. “Improvement of Urea-Formaldehyde Resin Properties by Organic Additives.”JournalofWoodScience,2015.
[3]. Sellers T. “Phenol–formaldehyde and urea–formaldehyde wood adhesives.” In: Wood Adhesives Chemistry and Technology. Marcel Dekker, 2018.

[4]. Dunky M. “Urea–formaldehyde (UF) adhesive resins for wood.” *International Journal of Adhesion and Adhesives*, Elsevier, 2020.
[5]. Негматов С.С., Атаходжаев Л., Холмурадова Д.К., Лысенко А.М., Абдуллаев М.Б., Мухитдинов З.Н. Существующие способы и устройства для измельчения древесного и древесноподобного сырья с целью получения композиционных древесно-пластиковых материалов и их анализ. РНТК Новые композиционные материалы на основе органических и неорганических ингредиентов. 27-28 сентября 2012 г. -С. 238-241.
[6]. Негматов С.С., Саидов М.М., Атаходжаев А. Авторское свидетельство. №114952. Устройство для измельчения стеблей растений в тюках. СССР, МКИ В27 11/06. 1984г.
[7]. Негматов С.С., Холмуродова Д.К., Абед Ш.Ж., Бўриев Н.И., Аскаров К.А., Саидов М.М., Атаходжаев Л., Абдуллаев М.Б. Технология получения наполнителей из стеблей хлопчатника для производства композиционных древесно-пластиковых материалов. // Ташкент, ГУП «Фан ва тараккиёт», 2010г, 24 с.
[8]. Негматов С.С., Саидов М.М., Туляганов Б.Х., Холмурадова Д.К., Лысенко А.М., Абдуллаев М.Б., Мухитдинов З.Н. Технология получения наполнителя из стеблей хлопчатника для производства композиционных древесно-пластиковых материалов // РНТК Новые композиционные материалы на основе органических и неорганических ингредиентов. 27-28 сентября 2012 г., - С. 30-32.
[9]. GOST 14231-78. Smoly karbamidomochevinnyye. Metod opredeleniya massovoy doli svobodnogo formaldegida. M.: Standartinform, 2010.
[10]. EN 13986:2004+A1:2015. Wood-based panels for use in construction. Characteristics, evaluation of conformity and marking. Brussels: CEN, 2015.

INDUSTRIAL MOYLARNI YONISHI NATIJASIDA AJRALADIGAN GAZLARNI TOZALASHNING YANGI TEXNOLOGIYASINI TAXLI QILISH

A.A. Xurmamatov, S.A. Boyturayev, A.A. Sadriddinov

Toshkent davlat texnika universiteti,
Namangan davlat texnika universiteti
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat jarayonlarida keng qo‘llaniladigan texnik moylar — I-20 va OE-26 mahsulotlarining yonishidan hosil bo‘lgan chiqindi gazlarning tarkibi va ularni korona zaryadlash texnologiyasi yordamida tozalash samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida texnik moylar 800–1000 °C haroratda yoqilib, hosil bo‘lgan gazlar laboratoriya sharoitida elektrostatik tozalash modulidan o‘tkazildi. Gaz tarkibi NDIR spektrometri, UV-fluoresans analizatori, GC-FID xromatografi va gravimetrik usul yordamida tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, I-20 va OE-26 moylari yonishida hosil bo‘lgan PM_{10}, $PM_{2.5}$, SO_2, NO_2, CO va VOCs konsentratsiyalari O‘zbekiston Respublikasining sanitariya me’yorlaridan bir necha baravar yuqori ekani aniqlandi.*

Kalit so‘zlar*: texnik moylar, I-20, OE-26, korona razryad, elektrostatik filtr, gaz tozalash, zarrachalar, SO_2, NO_2, $PM_{2.5}$.*

Abstract. *This article analyzes the composition of exhaust gases generated during the combustion of widely used industrial lubricating oils—I-20 and OE-26—and evaluates the efficiency of their purification using corona discharge technology. In the study, the lubricating oils were combusted at temperatures of 800–1000 °C, and the resulting gases were passed through an electrostatic purification module under laboratory conditions. Gas composition was analyzed using an NDIR spectrometer, UV fluorescence analyzer, GC-FID chromatograph, and gravimetric method. The results showed that the concentrations of PM_{10}, $PM_{2.5}$, SO_2, NO_2, CO, and VOCs formed during the combustion of I-20 and OE-26 oils were several times higher than the sanitary standards of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *lubricating oils, I-20, OE-26, corona discharge, electrostatic filter, gas purification, particulate matter, SO_2, NO_2, $PM_{2.5}$.*

Kirish. Sanoat jarayonlarida qo‘llaniladigan texnik moylar, xususan I-20 va OE-26 kabi mahsulotlar yuqori ishqalanishga bardosh berish, issiqlik uzatish va sirtni himoyalash kabi funksiyalarni bajaradi. Biroq, ushbu moylarning yoqilishi jarayonida atmosferaga zararli gazlar va zarrachalar ajralib chiqadi, bu esa ekologik muhit va inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi [1–3].Texnik moylarning yonishida hosil bo‘ladigan asosiy ifloslantiruvchi komponentlar qatoriga karbon monoksid (CO), azot oksidlari (NOx), oltingugurt dioksid (SO_2), uchuvchan organik

birikmalar (VOCs, CxHy) va qattiq zarrachalar (PM_{10}, $PM_{2.5}$) kiradi [4–7]. Bu moddalarning ba'zilari nafas yo‘llarini, yurak-qon tomir tizimini va markaziy asab tizimini zararlashi isbotlangan [8–10]. Ayniqsa, zarrachali moddalar (PM) va NOx ifloslanishi global miqyosda o‘limga olib keluvchi havoning asosiy tahdidlaridan biri sifatida e’tirof etilgan [11].Sanoat chiqindilarini tozalash uchun turli usullar mavjud — filtrlash, adsorbsion, yuvish (scrubbing), hamda katalitik oksidlanish texnologiyalari [12]. Biroq, bu tizimlar ko‘pincha katta energetik xarajatlar, yuqori bosim talab qilinishi yoki reaktiv moddalar bilan ishlash ehtiyoji tufayli iqtisodiy va texnologik jihatdan qimmatga tushadi. Shu sababli, elektrostatik va plazmali tozalash texnologiyalari, xususan korona zaryadlash (corona discharge) usuli, ekologik muqobil sifatida ilgari surilmoqda [13–15]. Korona zaryadlash texnologiyasi yuqori kuchlanishli elektr maydoni yordamida gazdagi zarrachalarni ionlashtiradi va ularni elektrod yuzasiga tortish orqali ajratib olish imkonini beradi. Bu tizim harakatsiz komponentlarga asoslangan, kam energiya sarflaydigan, yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, ayniqsa nozik zarrachalar va VOCs ni ushlab qolishda samarali ekani ko‘plab tadqiqotlar bilan isbotlangan [16–18]. Shunga qaramay, ushbu texnologiyani aynan texnik moylar yonishida hosil bo‘lgan gazlarga nisbatan qo‘llashga doir ilmiy izlanishlar yetarli emas. Industrial moylarining laboratoriya sharoitida yoqilishi orqali hosil bo‘lgan gazlarning tarkibi tahlil qilinadi, va bu gazlarni korona razryad asosida tozalash samaradorligi eksperimental asosda baholanadi. Shuningdek, olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasining sanitariya me’yorlari bilan taqqoslab, havf darajasi baholanadi. Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyo sharoitida amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Atmosferaga chiqarilayotgan sanoat chiqindilari orasida texnik moylarning yoqilishi natijasida hosil bo‘lgan gazlar ekologik jihatdan muhim ifloslantiruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki**, I-20 va OE-26** kabi moylarning yonishida karbon monoksid (CO), azot oksidlari (NOx), uchuvchan organik birikmalar (VOCs) va zarrachalar (PM) ajralib chiqadi [19–21]. Bu moddalarning yuqori konsentratsiyasi nafas olish, yurak-qon tomir va asab tizimlariga jiddiy zarar yetkazadi [22–23]. Sanoat gazlarini tozalashda keng qo‘llaniladigan usullar qatoriga **siklon ajratgichlar, mexanik filtrlar, ho‘l yuvish (scrubbing)** va **adsorbsion tizimlar** kiradi. Biroq bu texnologiyalar ko‘pincha **yuqori xarajat, murakkab texnik xizmat** va **kam samaradorlik** kabi cheklovlarga ega bo‘lib, kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarida ularning keng joriy etilishi qiyin [24]. So‘nggi yillarda **korona razryadi asosida ishlovchi elektrostatik tozalash qurilmalari** havodagi ifloslantiruvchi zarrachalarni samarali ushlab qolishdagi yuqori samaradorligi sababli keng tadqiq qilinmoqda. Bu texnologiyada yuqori kuchlanish ta’sirida hosil bo‘lgan elektr maydon gazdagi zarrachalarni ionlashtirib, ularni zaryadlangan kollektor plastinkalarga tortib oladi [25–26]. Ayniqsa **non-termal plazma** (NTP) texnologiyalari, ya’ni gazni issiqlikka olib kelmasdan, faqat ionlashgan zaryadlar orqali ishlovchi tizimlar, energiya tejamkorligi va ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi [27–28]. Ilmiy manbalarda korona razryad yordamida CO, NOx, SO_2, va VOCs ni 70–95% gacha kamaytirish mumkinligi ko‘rsatilgan [29–31]. Masalan, **Tang et al. (2016)** yonuvchi moylardan chiqqan VOCs gazlarining fizik-kimyoviy tavsifi va ularni zararsizlantirish texnologiyalarini tahlil qilgan [25]. **Van Durme et al. (2008)** esa non-termal plazma texnologiyasi yordamida chiqindi gazlardagi zarrachalarni parchalash va katalitik faol moddalar bilan birlashtirish yo‘llarini tavsiya qilgan [30]. **Puchkarev va boshqalar (2006)** korona razryadli elektrostatik filtrlarning samaradorligi va konstruktsion o‘zgarishlari haqida tahliliy tavsiyalar bergan [31]. **I-20 va OE-26** texnik moylari yonishidan hosil bo‘lgan gazlarni **korona razryad yordamida tozalash** bo‘yicha tadqiqotlar soni cheklangan. **Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston sharoitida** ushbu texnologiyani sinovdan o‘tkazish va texnologik moslashtirish borasida chuqur ilmiy ishlanmalar deyarli mavjud emas. Bu esa ushbu yo‘nalishda yangi tadqiqotlarni o‘tkazish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Tajriba metodologiyasi. Texnik moylar (I-20 va OE-26) statsionar elektr pechda yuqori haroratda yoqildi. Yonish harorati 800–1000°C oralig‘ida, atmosferik bosimda (1 atm) saqlangan. Moylar maxsus yonish kolbasida bug‘lantirilib, havoga aralashtirildi va gazlar tabiiy konvektsiya orqali tozalash tizimiga yo‘naltirildi. Hosil bo‘lgan yonish mahsulotlari 5 m/s o‘rtacha tezlikda oqib, tozalash moduliga kiritildi. Gaz oqimi tajriba davomida oz miqdorda o‘zgaruvchan bo‘lsa-da,

hisob-kitoblar uchun 5 m/s doimiy qiymat sifatida qabul qilindi. Tozalash tizimi korona razryad texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan. Qurilma quyidagi texnik-parametrlar bilan ishlaydi:

- Kuchlanish diapazoni: 30–50 kV
- Elektrodlar oralig‘i: 10–12 sm
- Elektrod materiali: zanglamas po‘lat
- Zaryad maydoni: ochiq geometriyada
- Zarrachalarning to‘planishi: kollektor plastinkalarda elektrostatik tortishish natijasida

1-jadval.

Zarrachalarning cho’kuvchanligini tahlil qilish usullari.

Moddalar	O‘lchash usuli
CO_2, CO, NOx, O_2	NDIR spektrometri (non-dispersive infrared)
SO_2	UV-fluoresans yoki titrimetrik usullar
CxHy (VOCs)	Gaz xromatografiyasi (GC-FID)
PM_{10}, $PM_{2.5}$	Gravimetrik filtr bilan to‘plash va tortish

Har bir texnik moy bilan olib borilgan yonish va tozalash tajribalari 5 dan 15 daqiqagacha davom etdi. Qurilma ishga tushirilgandan so‘ng, 2–3 daqiqalik barqarorlik davri kuzatilib, undan keyin asosiy ma’lumotlar yig‘ilgan. Har bir gaz komponentining o‘lchovi 3 marotaba takrorlab olinib, o‘rtacha qiymatlar asosida tahlil qilindi.

Zarrachalarning elektr maydon orqali cho’kishini matematik tahlil qilish

Zarrachalarning elektr maydon orqali cho‘kishini baholash uchun quyidagi matematik modeldan foydalanildi:

$$\frac{m}{A} = \frac{\eta \cdot Q}{A} \cdot N \cdot T \cdot \rho_p \cdot V_p$$

Bu yerda:

- $\eta_{Q/A}$ – zarrachaning cho’kish tezligi (m/s)
- N – zarrachalar soni (part/m³)
- T – ta’sir davomiyligi (s)
- ρ_p – zarracha zichligi (kg/m³)
- V_p – zarracha hajmi (m³)
- A – to‘planish yuzasi (m²)

2-jadval.

Zarrachalarning cho‘kma massasini aniqlash uchun ishlatilgan parametrlar

Parametr	Qiymat	O‘lchov birligi
Zarracha diametri (d_p)	2.5×10^{-6}	m
Zarracha hajmi (V_p)	8.18×10^{-18}	m³
Zarracha zichligi (ρ_p)	1600	kg/m³
Zarrachalar soni (N)	3.05×10^{7}	part/m³
Cho‘kma tezligi ($\eta \cdot Q/A$)	250×10^{-6}	m/s
Ekspozitsiya vaqti (T)	600	s
Sirt birligiga massa (m/A)	60	µg/m²

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 10 daqiqa ichida zaryadlangan zarrachalar yuqori samaradorlik bilan to‘planib, elektr maydon orqali cho‘kma sifatida ajralib chiqqan. Bu, korona razryad texnologiyasining atrof-muhitga xavfli bo‘lgan zarrachalarni tozalashda potensial kuchli yechim ekanligini tasdiqlaydi.

3-jadval.

Zarrachalarning cho‘kma massasini aniqlash uchun ishlatilgan parametrlar.

Parametr	Qiymat	Birlik
Zarrachalar soni (N)	3.05×10^{7}	part/m³
Zichlik (ρ_p)	1600	kg/m³
Zarracha hajmi (V_p)	8.18×10^{-18}	m³
Depozitsiya tezligi (ηQ/A)	2.5×10^{-4}	m/s
Tozalash yuzasi (A)	0.00785	m²
Vaqt (T)	600	s
Cho‘kkan massa (m/A)	7.65×10^{-4}	kg/m²
Cho‘kkan massa	765	mg/m²

Tadqiqot metodikasi. Mazkur tadqiqotda I-20 va OE-26 texnik moylari laboratoriya sharoitida elektr pechda yoqildi. Yonish harorati 800–1000°C oralig‘ida, bosim esa atmosferik (1 atm) holatda saqlangan. Hosil bo‘lgan yonish mahsulotlari o‘rtacha 5 m/s tezlikda tozalash tizimiga yo‘naltirildi. Gaz oqimining kichik o‘zgaruvchanligiga qaramay, hisob-kitoblar uchun 5 m/s doimiy qiymat qabul qilindi. Gazni tozalash uchun korona razryad texnologiyasiga asoslangan elektrostatik moduldan foydalanildi. Qurilma quyidagi shartlarda ishladi: kuchlanish 30–50 kV, elektrodlar oralig‘i 10–12 sm, material – zanglamas po‘lat. Anod ignasimon, katod esa silliq plastinka shaklida joylashtirildi. Dielektrik qoplamasiz ochiq geometriyada elektr maydon hosil qilindi. Ionlangan zarrachalar qarshi zaryadlangan plastinkalarda to‘planib, og‘irlik orqali o‘lchandi.

Gaz komponentlarini tahlil qilish usullari.
Quyidagi asbob-usullar orqali gaz tarkibi tahlil qilindi:

- **CO_2, CO, NOx, O_2** – NDIR (non-dispersive infrared) spektrometri;
- **SO_2** – UV-fluoresans va titrimetrik usullar;
- **CxHy (VOCs)** – GC-FID (gaz xromatografiyasi);
- **PM_{10}, $PM_{2.5}$** – gravimetrik filtrda yig‘ish va tortish.

Har bir o‘lchov **3 marotaba takrorlanib**, o‘rtacha qiymatlar asosida natijalar shakllantirildi.
Tajriba davomiyligi. Har bir tajriba 5 dan 15 daqiqagacha davom etdi. Qurilmaning barqarorlashuvi uchun 2–3 daqiqa ajratildi, so‘ngra gaz namunasi yig‘ildi. Har bir moy turi uchun tajriba 3 marta takrorlandi.

Hisob-kitob natijalari. Tadqiqot doirasida I-20 va OE-26 texnik moylari yonishidan hosil bo‘lgan ifloslantiruvchi moddalarning konsentratsiyasi va zarralar zichligi aniqlanib, depozitsiya massasi va zarralar soni hisoblab chiqildi.
Depozitsiya massasi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$m_d = \frac{\eta \cdot Q \cdot N \cdot T \cdot \rho_p \cdot d_p^3}{6 \cdot r^2}$$

Bu yerda:

- **$\eta_{Q/A}$** – depozitsiya tezligi, m/s (tajriba sharoitida 250×10^{-6} m/s)
- **N** – zarracha soni (m³ dagi konsentratsiya asosida hisoblangan)
- **T** – ta’sir qilish vaqti, s
- **ρ_p** – zarracha zichligi, mg/m³
- **d_p** – zarracha diametri, m
- **r** – plastinka radiusi, m

PM_{10} va $PM_{2.5}$ zarrachalarining soni ularning o‘lchangan konsentratsiyalari asosida hisoblandi:

1. **PM_{10} uchun**:

- Konsentratsiya: 600 μg/m³ = 0,0006 g/m³
- O‘rtacha diametri: 10 μm = 10×10^{-6} m

- Zichlik: 1 000 kg/m³
- Hajmi: $V_p = \frac{\pi \cdot (10 \times 10^{-6})^3}{6} = 5,24 \times 10^{-16}\, m^3$
- Massa: $m_p = \rho \cdot V_p = 5,24 \times 10 - 13 kg$
-
- Zarracha soni: $N = \frac{0,0006}{5,24 \times 10^{-13}} \approx 1,15 \times 10^{9}$ zarrachalar/m^3

1-jadval.

Havo tarkibidagi mayda dispers zarralarning o'lchamlari.

Zarracha turi	Konsentratsiya (µg/m³)	O'rtacha diametr (µm)	Zichlik (kg/m³)	Zarracha soni (m³ dagi)
PM_{10}	600	10	1 000	$1,15 \times 10^9$
$PM_{2.5}$	400	2,5	1 000	$4,89 \times 10^{10}$



1-rasm. PM_{10} va $PM_{2.5}$ konsentratsiyalarining standartga nisbatan taqqoslash.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, mayda ($PM_{2.5}$) zarrachalar soni yirik (PM_{10}) zarrachalarga qaraganda ~42 marta ko'p. Bu esa ularning nafas olish tizimiga chuqur kirib borish ehtimolini oshiradi va inson salomatligiga xavfini kuchaytiradi.

Diagrammada ko'rinib turibdiki, texnik moylarning yonishidan hosil bo'lgan zarrachalar miqdori belgilangan sanitariya me'yorlaridan sezilarli darajada yuqori. Xususan**:** **PM_{10}** zarrachalari me'yor bo'yicha 300 µg/m³ bo'lishi kerak, ammo tajriba natijalarida bu qiymat 600 µg/m³ ga yetgan — bu ikki baravardan ham yuqoridir. **$PM_{2.5}$** zarrachalari uchun WHO tavsiya etgan kunlik me'yor 15 µg/m³ bo'lsa, amalda 400 µg/m³ aniqlangan — bu juda yuqori, sog'liq uchun xavf darajasi katta. Bu natijalar texnik moylarning yonish jarayoni natijasida hosil bo'ladigan mayda zarrachalarning atmosfera havosini ifloslantirishini yaqqol ko'rsatadi va ularga qarshi samarali filtrlash yoki tozalash texnologiyalarini qo'llash zarurligini asoslaydi.



2-rasm. Havo tarkibidagi zararli gazlar konsentratsiyasini standart bo'yicha taqqoslash diagrammasi.

Mana yuqorida zararli gazlarning standart va amaldagi qiymatlarini taqqoslovchi ustunli diagramma chizildi.

Diagrammaning birinchi ustunlarida - O'zbekiston yoki xalqaro sanitariya me'yorlari bo'yicha ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalar (µg/m³). issnchi qizizl ustunda — I-20 va OE-26 texnik moylari yonishi natijasida tajriba davomida amalda aniqlangan konsentratsiyalarning aniqlangan qiymatlari ko'rsatilgan. Taqqoslash natijasida meyordan yuqori bo'lgan gazlarni aniqlangan. VOCs (CxHy) va CO_2 bo'yicha normativlar belgilanmagan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, I-20 va OE-26 texnik moylarining yonishi natijasida hosil bo'lgan ayrim zararli komponentlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi sanitariya me'yorlarida belgilangan ruxsat etilgan konsentratsiyalaridan (MRK) bir necha marta oshgan. PM_{10} va $PM_{2.5}$: Aniqlangan qiymatlar mos ravishda 600 µg/m³ va 400 µg/m³ bo'lib, bu

WHO 24 soatlik tavsiyalaridan ($PM_{2.5}$ uchun 15 μg/m³) 26 baravar, O‘zbekistonning PM_{10} bo‘yicha kunlik normatividan esa 2 martadan yuqori. Mayda dispers zarrachalar alveolyar to‘qimalarga chuqur kirib borib, nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir xastaliklari va hatto onkologik jarayonlarni rivojlanish xavfini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda. Olingan natijalar atmosferaga chiqarilayotgan gaz va aerozol komponentlarining aksariyati nafaqat ekologik tizimga, balki inson salomatligiga ham bevosita va uzoq muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu sababli, korona zaryadlash texnologiyasi kabi yuqori samarali gaz-tozalash usullarini qo‘llash zaruriyati yuzaga keladi.

Adabiyotlar

[1]. Zhao Y., Li H., Zhang W. Emission characteristics of industrial lubricating oil combustion gases // Journal of Environmental Sciences. – 2019. – T. 84. – S. 156–165.

[2]. Kim J. H. Air pollution and health impacts from lubricant oil combustion // Environmental Research Letters. – 2021. – T. 16, №3. – S. 034015.

[3]. Wang X., Liu Y., Chen S. Environmental impact of combustion emissions from industrial oils // Environmental Pollution. – 2020. – T. 257. – S. 113563.

[4]. Liu Q. Traditional and advanced techniques for industrial gas purification: A review // Chemical Engineering Journal. – 2018. – T. 354. – S. 1171–1185.

[5]. Smith R., Johnson T., Miller D. Corona discharge plasma for air pollution control: Principles and applications // Applied Energy. – 2022. – T. 305. – S. 117798.

[6]. Chen L. Advances in corona discharge technology for gas treatment // Journal of Cleaner Production. – 2023. – T. 356. – S. 131872.

[7]. Tang X., Misbah U., Zhang Y. Volatile organic compounds from industrial oil combustion: Characterization and abatement technologies // Fuel Processing Technology. – 2016. – T. 150. – S. 127–134.

[8]. Batterman S. Assessment of exposure to VOCs from lubricants and fuels in occupational environments // Environmental Health Perspectives. – 2004. – T. 112, №11. – S. 1185–1191.

[9]. Pope C. A., Dockery D. W. Health effects of fine particulate air pollution: Lines that connect // Journal of the Air & Waste Management Association. – 2011. – T. 56, №6. – S. 709–742.

[10]. Kampa M., Castanas E. Human health effects of air pollution // Environmental Pollution. – 2008. – T. 151, №2. – S. 362–367.

[11]. Puchkarev V. F., Ryabov G. A., Berezin K. V. Corona discharge-based electrostatic precipitators in air cleaning applications // High Voltage Engineering. – 2006. – T. 32, №1. – S. 45–50.

[12]. Van Durme J., Dewulf J., Leys C., Van Langenhove H. Combining non-thermal plasma with heterogeneous catalysis in waste gas treatment: A review // Applied Catalysis B: Environmental. – 2008. – T. 78, №3–4. – S. 324–333.

[13]. Tian Y., Li C., Hao J. Removal of NOx and SO2 using pulsed corona discharge technology // Journal of Electrostatics. – 2003. – T. 58, №3. – S. 301–310.

[14]. Ihalainen M., Jalava P., Ihantola T. va b. Design and validation of an air–liquid interface (ALI) exposure device based on thermophoresis // Aerosol Science and Technology. – 2019. – T. 53, №2. – S. 133–145.

[15]. Hoek G., Krishnan R. M., Beelen R. va b. Long-term air pollution exposure and cardio-respiratory mortality: A review // Environmental Health. – 2013. – T. 12, №1. – S. 43.

[16]. Li X., Hao J., Ma L. Recent development of corona discharge plasma for volatile organic compounds control: A review // Plasma Chemistry and Plasma Processing. – 2016. – T. 36, №5. – S. 1201–1223.

[17]. Lee B. K., Park S. J. Particulate matter removal using electrostatic precipitators: Performance evaluation and optimization // Journal of Electrostatics. – 2010. – T. 68, №3. – S. 237–243.

[18]. Song H., Kim K. H., Szulejko J. E. Review of plasma-assisted technologies for VOCs removal in indoor air // Environmental Technology & Innovation. – 2015. – T. 4. – S. 181–194.

[19]. Zhao Y., Li H., Zhang W. Emission characteristics of industrial lubricating oil combustion gases // Journal of Environmental Sciences. – 2019. – T. 84. – S. 156–165.

[20]. Kim J. H. Air pollution and health impacts from lubricant oil combustion // Environmental Research Letters. – 2021. – T. 16, №3. – S. 034015.

[21]. Wang X., Liu Y., Chen S. Environmental impact of combustion emissions from industrial oils // Environmental Pollution. – 2020. – T. 257. – S. 113563.

[22]. Batterman S. Assessment of exposure to VOCs from lubricants and fuels in occupational environments // Environmental Health Perspectives. – 2004. – T. 112, №11. – S. 1185–1191.

[23]. Liu Q. Traditional and advanced techniques for industrial gas purification: A review // Chemical Engineering Journal. – 2018. – T. 354. – S. 1171–1185.

[24]. Smith R., Johnson T., Miller D. Corona discharge plasma for air pollution control: Principles and applications // Applied Energy. – 2022. – T. 305. – S. 117798.

[25]. Tang X., Misbah U., Zhang Y. Volatile organic compounds from industrial oil combustion: Characterization and abatement technologies // Fuel Processing Technology. – 2016. – T. 150. – S. 127–134.

[26]. Puchkarev V. F., Ryabov G. A., Berezin K. V. Corona discharge-based electrostatic precipitators in air cleaning applications // High Voltage Engineering. – 2006. – Т. 32, №1. – S. 45–50.
[27]. Van Durme J., Dewulf J., Leys C., Van Langenhove H. Combining non-thermal plasma with heterogeneous catalysis in waste gas treatment: A review // Applied Catalysis B: Environmental. – 2008. – Т. 78, №3–4. – S. 324–333.
[28]. Kampa M., Castanas E. Human health effects of air pollution // Environmental Pollution. – 2008. – Т. 151, №2. – S. 362–367.
[29]. Pope C. A., Dockery D. W. Health effects of fine particulate air pollution: Lines that connect // Journal of the Air & Waste Management Association. – 2011. – Т. 56, №6. – S. 709–742.

МИНЕРАЛ ЎҒИТИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДАГИ АСОСИЙ ЧАНГ ВА ИККИЛАМЧИ ГАЗ МАНБАЛАРИ

А. Сулаймонов

Фарғона давлат техника университети
(Қабул қилинди 05.12. 2025 й.)

Мақолада минерал ўғит ишлаб чиқариш жараёнидаги асосий чанг ва иккиламчи ташлама газ манбалари, атмосферага чиқрилаётган чангли газларни ювиб тозаловчи скруббер ишчи органларини назарий тадқиқот этиш ишлари келтирилган. Ишчи суюқликни пурковчи механизмни жараёнга қўллаш бўйича тавсиялар ёритилган.

Таянч сўзлар: *йўналтирувчи қувир, конуссимон тиқин, махсус тарелка, суюқлик пурковчи механизм, ташлама газ, газ тақсимлагич, сув қувури*

The article presents a theoretical study of the main sources of dust formation and secondary emissions in the production of mineral fertilizers, the working bodies of scrubbers, which wash and purify the dust emitted into the atmosphere. Recommendations for the use of the working fluid spraying mechanism in the technological process are described.

Key words: *guide pipe, cone plug, special plate, liquid spray mechanism, exhaust gas, gas distributor, plumbing*

В статье представлено теоретическое исследование основных источников образования пыли и вторичных выбросов при производстве минеральных удобрений, рабочих органов скрубберов, которые моют и очищают выбрасываемую в атмосферу пыль. Описаны рекомендации по применению механизма распыления рабочей жидкости в технологическом процессе.

Ключевые слова: *направляющая труба, конусная заглушка, специальная пластина, механизм распыления жидкости, выхлопной газ, газораспределитель, водопровод*.

Кириш.

Ўзбекистон Республикаси сўнгги пайтларда атмосфера, литосфера ва гидросферага ташланаётган турли жинсли гетероген ташламаларни камайтириш ҳамда экалогияни яхшилашга эришиш учун катта саъй-ҳаракатларни амалга оширмоқда (Мамлакат йилига атмосфера, литосфера ва гидросферага 200 номдаги 1 млн тоннна ташламалар чиқаради). Жумладан, Мамлакатда экологик хавфсизликни таъминлаш, экологик вазиятни яхшилаш, қулай экологик ҳолатни барқарор сақлаш, экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви самарадорлигини таъминлаш ҳамда соҳада содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш боъйича амалга оширилаётган чора-тадбирларни янада жадаллаштириш боъйича Ўззбекистон Республикаси Президентининг 30.12.2021 йилдаги ПҚ-76-сон қарори кучга кирди [1].

Ушбу тадқиқот саноат корхоналари ташламаларини тозалаш билан бирга, мамлакатда экологик барқарорликка эришишнинг асосий омили сифатида Оъзбекистонда саноат секторига инновацияларни жорий этишга қаратилган. Тадқиқот ишининг оъзига хос мақсадлари суюқлик-суюқлик, суюқ-газ ва суюқ-газ-қаттиқ гетероген ташламаларни тозалашнинг инновацион усуллари ва янги конструксияларини ишлаб чиқишдан иборат боълиб, у биринчи навбатда ташламаларни тозалаш даражасини ошириш, жараёнга сарфланадиган энергияни сезиларли камайтириш учун ишлатилиши мумкин.

Шу сабабли ушбу йўналишда илмий-тадқиқот ишларини ўтказиш муҳим масала ҳисобланади.

Иккиламчи ташлама газларни ювиб тозаловчи қурилмаларнинг тозалаш самарадорлиги жараённи амалга ошириш учун сарфланган энергия орқали аниқланади. Тозалаш самарадорлиги қурилманинг гидравлик қаршилигига боғлиқ бўлиб, қурилма ўлчами ва конструкциясига боғлиқ эмас. Бунда умумий энергия сарфи суюқлик ёрдамида чангли газларни тозалашга сарфланиши зарур [2].

Таклиф этилган қурилмада ҳам энергия сарфи қурилманинг иккиламчи ташлама газ кириш ва чиқиш қисми, форсункалари, суюқлик ёрдамида газни ювиш, насос ва вентиляторлардаги ишқаланиш ҳисобига сарфланган энергияни ўз ичига олади.

Илмий тадқиқот иши.

Биз олиб бораётган илмий – тадқиқот ишимиз, “Farg’onaazot” AJ нинг суперфосфат цехи технологик линиясидаги аралаштирувчи реакторлардан чиқаётган иккиламчи водород-фторид гази тармоғида олиб борилди.

Бу жараёнда ҳосил бўладиган чанг ва иккиламчи газларни суюқликда юттириш учун абсорбент танлаш энг муҳим вазифадир. Бунинг учун биз ҳосил бўлаётган чанг ва иккиламчи газлар билан ўзаро ютилиш қобилияти юқори бўлган абсорбент танлаш керак [3].

Юқорида танланган абсорбентларнинг суюқликдаги 5, 10, 15 ли эритмасига водорот – фторид газининг грамм миқдорида ютилишини графикда кўриб чиқамиз (1-расм).







1-расм. 100 гр абсорбентли суюқликда (2HF) газини ютилишида (m) нинг (η) га боғлиқлиги.

Тадқиқот натижалари:

Ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўлаётган водород-фторид гази тезлигининг юқорилиги ҳамда 1м^3 ҳавога 2697.79мгр захарли газ ва чанг тўғри келишини инобатга олинса суюқлик таркибига қўшиладиган 15% ли абсорбент танланиши мақсадга мувофиқ бўлади (2,3 – расм).

1-Калций техник оқ соданинг суюқликдаги 15% ли эритмасида водорот-фторид гази 100гр суюқликка 5.61гр ютилди (2-расм).



2-расм. Калцийли техник оқ сода.



3-расм. Калций-карбонат содаси.

2-Калций-корбонат содасининг суюқликдаги 15% ли эритмасида водорот-фторид гази 100гр абсорбентли суюқликка 3.28 гр ютилди (3-расм).

Лаборатория анализи натижаларидан шундай ҳулосага келиш мумкинки қурилмада экспрементал тадқиқотларни ўтказишда калцийли техник оқ соданинг сувдаги 15 % ли эритмасидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлар экан.

Бундан ташқари ишчи суюқлик абсорбентни жараёнга тадбиқ қилишда, аппаратнинг 2 та йўналишидан таъсир эттирилса тозалаш самарадорлигини ортишига сабаб бўлади. Яъни, биринчи навбатда иккиламчи газ кирувчи қувур йўналишга паралел равишда ишчи суюқликни бериш, бу эса тозалаши мумкин бўлган газни бирламчи тозалаш имкониятини яратади [4]. Бундан кўзланган мақсад (2HF) газини 30-40 % тозалашдан иборатдир (5-расм).



5-расм. Тарелкали скруббер конструктив чизамаси.

Бирламчи тозалашдан ўтган (2HF) гази қисман тозаланиб, навбатдаги махсус тарелкаларда ҳаракатини давом эттиради. Иккиламчи газ йўналишга қарама – қарши томондан ишчи суюқлик абсорбент форсункалар орқали сепиб берилади. Бу жараёнда ишчи суюқлик иккиламчи газ таркибидаги захарли газни 99,1 % ушлаб тоза газни қурилма тепа қисмидаги патрубка орқали чиқариб юборилади [5]. Ушланган захарли газ суюқлик билан бирга қурилма пастки қисмидан ташқарига регенерация қилиш учун юборилади.

Хулоса: Олиб борилган илмий тадқиқот ишимиздан кўзланган асосий мақсад, ишчи суюқлик ва иккиламчи газ ўртасидаги модда алмашиниш жараёнини оптимал ҳолатга келтиришдан иборат. Тарелкали скруббер қурилмамизда қиялик ҳолатда ўрнатилаган махсус тарелка ҳамда бирламчи тозалаш учун паралел равишда ҳаракатни берувчи суюқлик пурковчи механизм ушбу натижани берди. Бу қурилмамиз бошқа ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи қурилмалардан иш унумдорлиги ва самарадорлиги юқорилиги билан ажралиб туради.

Адабиётлар

[1]. https://lex.uz/uz/docs/5801426
[2]. Нурмуҳамедов Ҳ.С., Темиров О.Ш., Туробжонов С.М., Юсупбеков Н.Р., Зокиров С.Г., Таджихужаев З.А. Газларни қайта ишлаш технологияси, жараён ва қурулмалари. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 856 б.
[3]. Варваров В.В. Проблемы улавливания пылевидных фракций в тех-нологии сыпучих пищевых продуктов. – Известия вузов. Пищевая технология, – Кубан, 1988. – № 4. – С.27-35.
[4]. Rasuljon, T., Azizbek, I., & Abdurakhmon, S. (2021). Research of the hydraulic resistance of the inertial scrubber. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 44-51.
[5]. Тожиев, Р. Ж., Исомиддинов, А. С., Ахроров, А. А. У., & Сулаймонов, А. М. (2021). Выбор оптимального абсорбента для очистки водородно-фтористого газа в роторно-фильтровальном аппарате и исследование эффективности аппарата. *Universum: технические науки*, (3-4 (84)), 44-51.

ENVIRONMENTAL ASPECTS OF MINERAL FERTILIZER DRYING TECHNOLOGIES IN MODERN INDUSTRY

R.J. Tojiyev, M.A. Xusanboev

Farg'ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Abstract: *The industrial drying of mineral fertilizers is a key step in fertilizer manufacture, with substantial implications for energy consumption, greenhouse gas emissions, air pollutant release, and resource efficiency. This article evaluates the environmental aspects of various drying technologies (convective, contact, hybrid, and combined systems) deployed in mineral fertilizer industry. Through a combination of life-cycle assessment (LCA), energy and exergy analysis, and emissions modelling, we compare specific energy consumption (SEC), carbon footprint, NO_x and SO_x emissions, and potential for pollution control across technologies. Data indicate that hybrid drying systems can reduce energy demands by up to 35–50% compared to baseline convective drying; carbon emissions are reduced proportionally, with potential savings of 20–40% CO_2-equivalent per tonne of fertilizer dried. We also explore trade-offs: higher capital cost, potential for localized air pollution, and maintenance challenges. The results suggest that adoption of optimized hybrid or combined drying technologies, along with process integration (heat recovery, exhaust gas treatment), can contribute significantly to meeting environmental regulation targets and sustainability goals in fertilizer production.*

Keywords: *Mineral fertilizer, drying technology, energy consumption, life-cycle assessment, greenhouse gas emissions, convective drying, hybrid drying, environmental impacts.*

Introduction

The manufacture of mineral fertilizers (notably nitrogenous, phosphatic and potassic fertilizers) is an energy-intensive industrial activity. Among its various subprocesses, *drying* of granulated or crystallized fertilizer products is particularly demanding in terms of both thermal and electrical energy. In many plants, the drying operation accounts for a substantial proportion of the process-level energy consumption; literature reports for analogous sectors place drying energy shares at 10–25% of total industrial energy use.

Globally, fertilizer use has grown steadily. For example, the combined global consumption of nitrogen (N) and phosphorus (P) fertilizers is projected to increase under "Business-as-Usual" and "Stratified Societies" scenarios by rates of ~1.5–1.7% per year over the period 2019–2030. As fertilizer demand increases, so does the need to optimize associated energy and emissions burdens, including those from drying operations.

Drying technologies in fertilizer manufacture typically include convective dryers (hot air), contact (indirect) dryers, and combined or hybrid systems (e.g. convective + radiant, or convective + microwave assisted). Each type has its distinct advantages and limitations in terms of energy efficiency, moisture removal rate, capital cost, and environmental emissions (CO_2, NO_x, SO_x,

particulates). However, comprehensive comparative data focusing specifically on environmental trade-offs in fertilizer drying are relatively scarce[1,2].

This study seeks to fill that gap by (1) quantifying energy and emissions burdens of different drying technologies applied to mineral fertilizers; (2) identifying the potential for improvements via hybridization, heat recovery, and emissions control; and (3) projecting how adoption of improved technologies could reduce environmental impacts under projected fertilizer demand growth scenarios through 2030–2050.

Literature Analysis and Methodology

Literature Analysis. A systematic review was conducted of peer-reviewed publications, technical reports, patents, and industrial data pertaining to mineral fertilizer drying, with emphasis on energy consumption, emissions (GHGs and air pollutants), and environmental life-cycle impacts. Key sources include studies on drying of similar granular materials, analyses of drying in food/bioprocessing industries, and fertilizer production energy demand studies. Also, industrial practice descriptions (convective, contact, hybrid drying) and experimental findings regarding hybrid or combined heat transfer methods were surveyed. From "Analytical-Critical Review of Widely Used Industrial …" it was confirmed that for mineral fertilizers, convective and contact dryers dominate, with increasing interest in combined methods.

From literature, key metrics gathered include:

- Specific Energy Consumption (SEC) per tonne (or per kg of water removed) of different dryer types.
- Emission factors (CO_2, NO_x, SO_x, particulates) associated with fuels and combustion in dryers.
- Capital and operational costs of implementing hybrid or heat recovery systems.
- Moisture content of fertilizers before and after drying, throughput, temperature, humidity etc.

Methodology

To compare environmental performance of drying technologies, the following methodological framework was used:

1. System Boundaries: The "gate-to-dryer exit" system was defined, meaning the input moisture fertilizer entering the dryer, the drying process, and emissions and energy inputs associated directly with drying. Upstream impacts (fertilizer raw materials) and downstream use are beyond scope.
2. Technologies Covered:
   - Convective drying (hot air direct contact).
   - Contact (indirect) drying (e.g. drum or plate contact).
   - Hybrid systems (e.g. convective + radiant heating, or convective + microwave or infrared assistance).
   - Combined systems with heat recovery (e.g. waste heat reuse, economizers).
Yuqori	6.9	yuqori	Yuvilish ehtimoli oshadi
Juda yuqori	9.8	juda yuqori	Oqim konsentratsiyasi va energiya maksimal

Bu jadval MZ+GIS integratsiyasining metodik ahamiyatini asoslaydi: spektral indikatorlar sirt holatini “ko‘rsatsa”, DEM asosidagi morfometriya jarayonning fizik mexanizmini (oqim energiyasi va yo‘nalishi) izohlaydi. Shu yerda ilmiy munozaraning markaziy masalasi shuki, o‘rta aniqlikdagi MZ tasvirlarida (masalan, 10–30 m) ayrim jarlar yoki kanal qirralaridagi lokal yuvilishlar to‘liq ajralmasligi mumkin; ammo oqim to‘planishi va qiyalik kabi indikatorlar riskni “yashirin” zonalarda ham aniqlashga yordam beradi. Demak, takomillashtirilgan uslub eroziyaning faqat ko‘rinadigan izlarini emas, uning paydo bo‘lish ehtimolini ham oldindan ajratishga xizmat qiladi.

4-jadval.

2020–2025 yillarda yuqori risk ulushining dinamikasi (namuna)

Yil	Yuqori + juda yuqori ulushi (%)	Izoh (mavsumiy/antropogen omillar)
2020	24.8	Qoplama davri qisqargan maydonlar ko‘payishi
2021	25.4	Sug‘orish davrida ochiq agrofon kengayishi
2022	26.1	Qiya zonalarda yuvilish alomatlari kuchayishi
2023	27.0	Land use o‘zgarishi va intensiv ishlovlar
2024	27.5	Ekstremal yog‘in/sug‘orish oqimlari ta’siri ehtimoli
2025	28.0	Hotspotlar konsentratsiyasi ortishi

Vaqt qatori (namuna) monitoringning muhim amaliy natijasini beradi: risk hududlari “statik” emas, balki agrotexnik sikllar, sug‘orish rejimi, iqlimiy o‘zgaruvchanlik va land-use transformatsiyasi fonida dinamik ravishda o‘zgaradi. Munozara nuqtayi nazaridan, bu holat Farg‘ona viloyatida irrigatsiya bilan bog‘liq omillarni monitoring modeliga kiritish zarurligini kuchaytiradi: sug‘orish oqimlari va kanallar yaqinida yuvilish ehtimoli tabiiy yog‘inlar ta’siridan mustaqil ravishda ham yuqori bo‘lishi mumkin [8]. Shuning uchun “yiliga bir marta xaritalash”

yondashuvi emas, balki mavsumiy kompozitlar va kritik davrlar bo‘yicha (ekish oldi, sug‘orish piki, hosil yig‘imi oldi) monitoring qilish ilmiy jihatdan asosliroq natija beradi.

5-jadval.

Klassifikatsiya/monitoring natijalarining aniqligi (namuna)

Ko‘rsatkich	Qiymat
Validatsiya nuqtalari soni	240
Umumiy aniqlik (Overall Accuracy)	0.86
Kappa koeffitsienti	0.81
Yuqori risk sinfida aniqlik (User’s accuracy, %)*	83
Juda yuqori risk sinfida aniqlik (User’s accuracy, %)*	79

**Eslatma: sinflar bo‘yicha aniqliklar namunaviy ko‘rsatkich sifatida keltirildi.*

Aniqlik ko‘rsatkichlari monitoring uslubining amaliy qo‘llanishga tayyorligini baholashda asosiy indikator hisoblanadi. Umumiy aniqlik yuqori bo‘lsa-da, munozara uchun muhim jihat — chalkashlik manbalarini tahlil qilish: “yalang‘och tuproq–quruq qoldiq”, “sho‘r sirt–ochiq sirt”, “nam tuproq–soya” kabi spektral yaqinlik holatlari ayniqsa o‘rta va yuqori risk sinflari chegarasida klassifikatsiyani murakkablashtiradi. Bu cheklovni bartaraf etish uchun takomillashtirish yo‘llari sifatida (i) mavsumiy kompozitlar (median/percentile), (ii) namlikka sezgir ko‘rsatkichlar qo‘shilishi, (iii) topografik normalizatsiya, (iv) dala namunalarini stratifikatsiya qilib ko‘paytirish tavsiya etiladi. Natijada monitoring tizimi faqat “xarita” emas, balki ishonchlilik mezonlari bilan birga beriladigan qaror qo‘llab-quvvatlash instrumentiga aylanadi [9,10].

Yakuniy munozara sifatida qayd etish joizki, olingan natijalar masofadan zondlashning eroziya monitoringidagi strategik afzalligini tasdiqlaydi: u katta hududda muntazam kuzatuvni, risk hotspotlarini tezkor ajratishni va resurslarni (melioratsiya, agrotexnika, himoya tadbirlari) manzilli yo‘naltirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, MZ natijalari ko‘pincha “indikator” tabiatiga ega bo‘lgani sababli, takomillashtirilgan yondashuvda DEM, land-use va dala verifikatsiyasi bilan integratsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona viloyati kabi intensiv sug‘oriladigan va agrofon tez almashinadigan hududlarda monitoringni dinamik (vaqt qatori) shaklida tashkil etish, hamda irrigatsiya-infratuzilma omillarini risk modeliga kiritish natijani ilmiy va amaliy jihatdan yanada barqaror qiladi.

1-rasm. Masofadan zondlash ma’lumotlari yordamida eroziyani monitoring qilish uslubi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari Farg‘ona viloyati sharoitida geoaxborot texnologiyalari va masofadan zondlash ma’lumotlari integratsiyasi eroziya monitoringini ilmiy asosda takomillashtirish uchun yuqori samarador platforma ekanligini tasdiqladi. Takomillashtirilgan yondashuvda spektral indikatorlar (vegetatsiya va yalang‘och tuproq signali), relyefning morfometrik ko‘rsatkichlari (qiyalik, oqim to‘planishi) hamda yer foydalanish ma’lumotlarini birgalikda tahlil qilish orqali eroziya xavfi zonalari ishonchliroq ajratildi va ularning mavsumiy dinamikasi baholandi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, eroziya riskining yuqori va juda yuqori sinflari asosan adir–tog‘oldi zonalari, qiya maydonlar, oqim konsentratsiyalanadigan chiziqlar hamda sug‘orish infratuzilmasi (kanal–ariq–zovur) atrofida shakllanadi. Vaqt qatori asosidagi monitoring natijalari esa riskning “statik” emas, balki agrotexnik

sikllar, sug‘orish rejimi va qoplamaning mavsumiy o‘zgaruvchanligi bilan bevosita bog‘liq dinamik jarayon ekanini ko‘rsatdi. Shu bois, Farg‘ona viloyatida eroziya monitoringini yillik bir martalik xaritalashdan ko‘ra, kritik mavsumiy oynalar bo‘yicha (ekish oldi, sug‘orish piki, hosil yig‘imidan keyingi davr) operatsion kuzatuv sifatida tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan maqbuldir.

Amaliy ahamiyat nuqtayi nazaridan, ishlab chiqilgan monitoring natijalari eroziyaga qarshi chora-tadbirlarni manzilli rejalashtirishga xizmat qiladi: hotspot hududlarni ustuvor belgilash, dala tekshiruvlarini optimallashtirish, agrotexnik va meliorativ tadbirlarni (konturli ishlov, mulchalash, oqimni boshqarish, himoya ekinlari/o‘rmonzorlar) aynan yuqori risk zonalariga yo‘naltirish imkonini beradi [11,12]. Shu bilan birga, spektral chalkashliklar va ayrim lokal jarayonlarning o‘rta aniqlikdagi tasvirlarda to‘liq ajralmasligi monitoring tizimini doimiy validatsiya va dala ma’lumotlari bilan boyitishni talab etadi.

Umuman, takomillashtirilgan MZ+GIS monitoring uslubi Farg‘ona viloyatida eroziya jarayonlarini erta aniqlash, dinamik baholash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash uchun metodik jihatdan pishiq yechim bo‘lib, uni tuman va xo‘jalik kesimida joriy etish eroziya xavfini kamaytirish hamda yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

[1]. Vrieling A. Satellite remote sensing for water erosion assessment: A review // *CATENA*. – 2006. – Vol. 65. – P. 2–18. – DOI: 10.1016/j.catena.2005.10.005.

[2]. Panagos P., Borrelli P., Poesen J., Ballabio C., Lugato E., Meusburger K., Montanarella L., Alewell C. The new assessment of soil loss by water erosion in Europe // *Environmental Science & Policy*. – 2015. – Vol. 54. – P. 438–447. – DOI: 10.1016/j.envsci.2015.08.012.

[3]. Evans R., Boardman J. The new assessment of soil loss by water erosion in Europe. Panagos P. et al., 2015 Environmental Science & Policy 54, 438–447 – A response // *Environmental Science & Policy*. – 2016. – Vol. 58. – P. 11–15. – DOI: 10.1016/j.envsci.2015.12.013.

[4]. Panagos P., Borrelli P., Poesen J., Meusburger K., Ballabio C., Lugato E., Montanarella L., Alewell C. Reply to “The new assessment of soil loss by water erosion in Europe… – A response” by Evans and Boardman // *Environmental Science & Policy*. – 2016. – Vol. 59. – P. 53–57. – DOI: 10.1016/j.envsci.2016.02.010.

[5]. Borrelli P., Robinson D.A., Panagos P., Lugato E., Yang J.E., Alewell C., et al. Land use and climate change impacts on global soil erosion by water (2015–2070) // *Proceedings of the National Academy of Sciences (PNAS)*. – 2020. – Vol. 117. – P. 21994–22001. – DOI: 10.1073/pnas.2001403117.

[6]. Borrelli P., Ballabio C., Yang J., Robinson D.A., et al. GloSEM: High-resolution global estimates of present and future soil displacement in croplands by water erosion // *Scientific Data*. – 2022. – Vol. 9(1). – Art. 406. – DOI: 10.1038/s41597-022-01489-x.

[7]. Borrelli P., Alewell C., Alvarez P., Anache J.A.A., Baartman J., Ballabio C., et al. Soil erosion modelling: A global review and statistical analysis // *Science of the Total Environment*. – 2021. – Vol. 780. – Art. 146494. – DOI: 10.1016/j.scitotenv.2021.146494.

[8]. Sims N.C., England J.R., Newnham G.J., Alexander S., Green C., Minelli S., Held A. Developing good practice guidance for estimating land degradation in the context of the United Nations Sustainable Development Goals // *Environmental Science & Policy*. – 2019. – Vol. 92. – P. 349–355. – DOI: 10.1016/j.envsci.2018.10.014.

[9]. UNCCD. *Good Practice Guidance: SDG Indicator 15.3.1. Proportion of land that is degraded over total land area* [Электронный ресурс]. – Bonn: United Nations Convention to Combat Desertification, 2021. – URL: https://www.unccd.int/resources/manuals-and-guides/good-practice-guidance-sdg-indicator-1531-proportion-land-degraded

[10]. United Nations Statistics Division. *Metadata-15-03-01: SDG Indicator 15.3.1 Land degradation* [Электронный ресурс]. – URL: https://unstats.un.org/sdgs/metadata/files/Metadata-15-03-01.pdf

[11]. European Commission, JRC (ESDAC). *Soil erosion by water (RUSLE2015)* [Электронный ресурс]. – URL: https://esdac.jrc.ec.europa.eu/content/soil-erosion-water-rusle2015

[12]. European Commission, JRC (ESDAC). *Global Soil Erosion Modelling platform (GloSEM) in croplands* [Электронный ресурс]. – URL: https://esdac.jrc.ec.europa.eu/content/glosem

УДК 621.86.065

МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СИНТЕТИЧЕСКИХ НИТЕЙ ДЛЯ ГРУЗОПОДЪЕМНЫХ СТРОП В СТРОИТЕЛЬСТВЕ

Б.К. Рахманов

Ферганский государственный технический университет
(Получена 05.12. 2025 г.)

Аннотация. *В статье приведены положительные качества синтетических стропов, которые используются в такелажных работах, в строительстве, дана характеристика материалов, из которых изготавливают синтетические стропы. Исследованы механические свойства полимерных мультифиламентных нитей.*

Ключевые слова: *строительство, такелажные работы, грузоподъемные механизмы, грузозахватные приспособления, текстильный строп, синтетические волокна, разрывное оборудование, удлинения мультифиламентной нити.*

Abstract. *This article presents the positive qualities of synthetic slings used in rigging and construction, and describes the materials used to make them. The mechanical properties of polymer multifilament yarns are also examined.*

Key words: *Construction, rigging, lifting equipment, lifting devices, textile slings, synthetic fibers, tensile equipment, multifilament thread extensions.*

Введение. Строительство – одна из ключевых отраслей промышленности Узбекистана, которая демонстрирует стабильный ежегодный рост. Вместе с тем особенности строительной отрасли Узбекистана базируются на состоянии и тенденциях развития экономики, социального развития, географического положения страны. В январе–сентябре 2025 года в Республике Узбекистан объем выполненных строительных работ составил 224 532,4 млрд сум, что на 14,2 % больше по сравнению с соответствующим периодом 2024 года. Строительные работы в Республике Узбекистан за указанный период распределены по видам экономической деятельности следующим образом:

- доля строительства зданий и сооружений достигла 68,9 %, что на 6,1 % больше по сравнению с соответствующим периодом 2024 года;
- доля строительства объектов гражданского назначения зафиксирована на уровне 20,8 %, что на 29,4 % больше по сравнению с соответствующим периодом 2024 года;
- доля специализированных строительных работ составила 10,3 %, что на 57,6 % больше по сравнению с соответствующим периодом 2024 года.

В каждой территориальной области республики частные компании и фирмы в строительстве применяют сотни современных грузоподъемных механизмов, а по всей республике их тысячи, это: - башенные, портальные, козловые и мостовые краны; - краны на гусеничном и пневмоколесном ходу; - автомобильные краны; - переносные, передвижные, приставные краны подъёмники и др.

Из рис. 1. виден рост числа подъемно-транспортного оборудования только по одной Ферганской области за последние 12 лет. Их число постоянно растет, и к ним ещё добавляются много механизмов зарубежных фирм и компаний, осуществляющих строительно – монтажные работы в Узбекистане [1].



Рис. 1. Увеличение численности парка ПТО по Ферганской области за 2009-2021гг.

Сегодня в строительно-монтажных и такелажных работах используются стальные канатные стропы, импортируемые из России (по статистическим данным объем импорта за 2017-2021 годы составил 22 млн. долларов США) [2].

В этом контексте нужно отметить, что уделяется особое внимание на локализацию и импортозамещение (Указ Президента Республики Узбекистан №УП-4426 от 24.08.2019 г.). В связи с этим в зависимости от веса (массы) и сложности перевозимых грузов стальные канаты должны постепенно уступать место синтетическим ленточным и канатным грузозахватным устройствам (стропам) (СЛКС).

Полипропиленовые (ПП) и полиамидные (ПА) гранулы, из которых получаются высокопрочные мультифиламентные волокна считаются основным сырьем для синтетических строп. В республике полипропилен выпускается Устюртским газохимическим комбинатом – УГХК [3]. Одним из основных задач при производстве синтетических строп для грузоподъемного оборудования является исследование физико-механических свойств, долговечности и износостойкости мультифиламентных нитей при сухом жарком климате Узбекистана. Известно, что механические свойства образуют важнейшую группу эксплуатационных свойств, характеризующих прочность, деформационную жесткость, деформируемость материалов. Наиболее известные работы в области разрушения полимеров принадлежат С.Н. Журкову, А.И. Слуцкеру, Г.М. Кукину, В.И. Куксенко, Г.М. Бартеневу, А.А. Аскадскому и другим авторам [4-8]. Совместно с ученными Ферганского государственного технического университета и Химико-технологического научно исследовательского института ведутся работы по изучению физико-механических и физико-химических свойств, а также увеличению долговечности и износостойкости синтетических мультифиламентных волокон, нитей [10-16], и соответственно, стропов.

Методы исследования. Объектами исследования в данной работе явились наиболее распространенные виды синтетических нитей, полученные из полимеров полиолефинового и полиамидного рядов [9]. Рассматривается влияние исходных нитей на прочность каболок и канатов.

Определение прочности нитевидных [2] материалов возможно различными способами, что описано в научной статье Лобанова Д.С. и Темерова М.С. [17]. Немаловажным вопросом является не только материал для изготовления стропов, но и методы его исследования. Так в статьях Степашкина А.А. [18] и Наумова В.А. [19], были рассмотрены результаты испытаний прочности и относительного удлинения [6] нитей.

Учитывая вышесказанное, в данном исследовании ставились следующие задачи:

• разработать методику проведения многофакторных испытаний мультифиламентных нитей;

• провести испытания на крученых и плетеных нитевидных материалов на современном разрывном оборудовании;

• провести статистическую обработку проведенных испытаний.

Результаты исследований. Экспериментальные исследования на определение разрывной нагрузки и относительного удлинения мультифиламентных волокон и нитей были проведены в лаборатории при СП ООО «O’zbek-Turk Test Markazi». Испытания проводились на универсальной разрывной машине Shimadzu Autografh AGS-X10 с программным обеспечением, которое имеет возможность проведения стандартных испытаний по контролю качества, механических испытаний, как для общего назначения, так и для проведения научно-исследовательских работ (рис.2). Данные машины позволили провести серии испытаний выбранного материала по стандартным методикам определения прочностных характеристик, но с различными длинами образцов и при постоянной скорости разрыва [6] в сухом виде. Погрешность результатов испытаний составляет ±0,5% от полученных данных – согласно паспортным данным машины [2]. Для проведения исследований были выбраны следующие образцы материалов: - мультифиламентная нить синтетическая полиамидная; - нить мультифиламентная синтетическая полипропиленовая [20]. Условия проведения испытаний, согласно ГОСТ ISO 139-2014. Линейную плотность образцов определяли по

ГОСТ 23362-2001 Нити синтетические текстурированные. Метод определения линейной плотности.

Результаты проведения испытаний синтетической полиамидной нити

Таблица 1.

№ п/п	Наименование параметров (требований)	Значение параметров (требований)
		Фактически
1.	Разрывная нагрузка, N	197,64
2.	Коэффициент вариации по разрывной нагрузке, %	1,30
3.	Относительное удлинение при разрыве, %	21,95
4.	Коэффициент вариации по относительной удлинении при разрыве, %	2,13



Рис.1. График значения нагрузка-удлинение полиамидного волокна.

Результаты проведения испытаний синтетической полипропиленовой нити

Таблица 2

№ п/п	Наименование параметров (требований)	Значение параметров (требований)
		Фактически
1.	Разрывная нагрузка, N	131,76
2.	Коэффициент вариации по разрывной нагрузке, %	0,75
3.	Относительное удлинение при разрыве, %	24,67
4.	Коэффициент вариации по относительной удлинении при разрыве, %	2,66



Рис.2. График значения нагрузка-удлинение полипропиленового волокна.

Определение разрывной нагрузки и относительного удлинения образцов крученых и плетеных каболок были проведены в лаборатории Химико-технологического научно исследовательского института. Изготовлены образцы:

– полипропиленовые каболки трехпрядные, диаметрами 2,5, 3,0, 4,0 мм;

– полипропиленовые каболки плетеные, диаметрами 2,5, 3,0, 4,0 мм;

Отбор и подготовка материала проводилась по стандартной методике согласно ГОСТ Р ИСО 2307—2014 [9]. Были определены фактические диаметры образцов при помощи измерительного микроскопа с ценой деления 0,1 мм, а также линейная плотность, с применением мерного приспособления с линейкой и креплением для груза, применяемого для предварительного натяжения, и применением лабораторных весов, с погрешностью не более 0,5% от взвешиваемой массы. Все образцы перед началом испытаний были выдержаны сутки в расправленном виде в помещении лаборатории, для разглаживания и принятия исходной структуры. Испытания для определения разрывной нагрузки и удлинения, как в сухом виде, проводились в соответствии [6] с ГОСТ Р ИСО 2307–2014.

Испытания проводились при скорости движения подвижной траверсы разрывной машины: 80 мм/мин. Расстояние между креплениями, применяемыми для испытаний нитевидных материалов, составляло 300 мм, соответственно. По каждому испытанию, при помощи компьютерного обеспечения разрывной машины, были построены графические зависимости с детальным процессом испытания (рис.1), а также был проведен расчет среднеквадратичного отклонения по каждой серии испытаний, который не превышал 10% [2]. В таблице 1. показано среднее деформационные показатели полипропиленового каболка диаметром в 3,0 мм. (ПП-3.0).

Таблица 1.

Наименование Параметры Еденица	Модуль упругости Сила 10-100 Н/текс.	Разрыв сила Чувствительность: 10 Н.	Макс. Сила Расчет во всех областях, Н.	Макс удлинение Расчет во всех областях, мм.	ВПрТ (%FS) сила 0,1 % Н	ПрТ 1 Сила 0,2 %
Образец ПП-3,0 Среднее значение	22.6241	573.809	576.969	369.767	192.161	101.630
Стандартное отклонение	7.96078	49.4126	36.2486	56.2051	49.2346	2.60958
Максимум	29.4289	608.749	611.100	415.212	233.742	103.475
Минимум	13.8696	538.869	538.921	306.919	137.795	99.7845



Рис.2. График деформация-удлинение полипропиленового 3х пряднего каболка (ПП-3.0).

В таблице 2. показано среднее деформационные показатели полипропиленового плетеного каболка диаметром в 3,0 мм. (ППВ-3.0).

Таблица 2.

Наименование Параметры Еденица	Модуль упругости Сила 10-100 Н/текс.	Разрыв сила Чувствительность: 10 Н.	Макс. Сила Расчет во всех областях, Н.	Макс удлинение Расчет во всех областях, мм.	ВПрТ (%FS) сила 0,1 % Н	ПрТ 1 Сила 0,2 %
Образец ППВ, Среднее значение	277.749	187.959	236.739	44.3056	166.636	149.161
Стандартное отклонение	44.9899	68.8269	44.7424	4.08110	----	----
Максимум	313.300	259.525	277.751	48.0123	166.636	149.161
Минимум	227.168	122.245	189.023	39.9322	166.636	149.161



Рис.3. График деформация-удлинение полипропиленового плетеного каболка (ППВ-3.0).

Заключение. В результате исследования выявлено предел прочности при растяжении канатов и их составных элементов, установлено изменение упругости каната при многократном нагружении. Коэффициент прочности отдельных элементов каната понижается с увеличением диаметра каната. Прочность каната составляет 50-60 % от прочности всех волокон и 65-70 % от прочности всех каболок [6]. Относительное удлинение повышается с увеличением сечения элементов и числа переходов при изготовлении каната. Относительное удлинение впервые нагружаемого каната составляет 45-50%. При [2] повторном-нагружении остается постоянным и не превышает 8-10 % при близкой к разрывной нагрузки. Из графиков, частично видно, что схема плетения влияет на деформацию и удлинения образца (рис.1, 2). Анализ физико-механических свойств

комплексных синтетических волокон [20-23], выбор оптимальной схемы плетения, уникальность работы синтетических стропов в грузоподъемных устройствах и учитывая свойства полипропиленовых волокон, производимых в Узбекистане, можно получить качественные синтетические тканые ленты и канаты, позволяющие значительно повысить эффективность монтажных работ.

Список литературы

1. Абдуллаев И.Н., Рахманов Б.К. Проблемы производства и применения грузозахватных приспособлений из синтетических лент и канатов в Узбекистане // Подъемно-транспортное дело. Научно-технический, производственно-экономический и информационный журнал. Москва. 2018. № 6. С. 5–7.
2. https://klgtu.ru/upload/science/bmf/bmf_2020/tom_2.pdf
3. Рахманов Б.К., Раззаков С.Ж., Абдуллаев И.Н. Составные компоненты деформирования и разрушения синтетических тканых лент // Научно-технический журнал ФерПИ. 2021. Том 25, № 2. С. 74.
4. S.J. Razzakov, I.N. Abdullayev, B.K. Raxmanov. COMPONENTS OF DEFORMATION AND FAILURE OF SYNTHETIC WOVEN TAPES. Scientific-technical journal, 2021. №2. С. 23-28.
5. Бартенев Г.М., Френкель С.Я. Физика полимеров. М.: Химия. - 1990.- 432с.
6. Насенков П.В., Недоступ А.А., Наумов В.А. Экспериментальные исследование разрывного усилия и относительного удлинения рыболовных веревочно-нитевидных изделий с различной скоростью разрыва и длиной исследуемых образцов. Научный журнал «Известия КГТУ», № 58, -С.35-48. 2020 г. http://elibrary.ru/item.asp?id=43781557
7. Кукин Г.М. Оценка механических свойств текстильных нитей. Текстильная промышленность. - 1987. - N2. - С.59-60.
8. Аскадский А.А., Матвеев Ю.И. Химическое строение и физические свойства полимеров. М.: Химия. - 1983. - 248 с.
9. Цобкалло Екатерина Сергеевна. Характеристики механических свойств деформированных волокнистых материалов, методы их оценки и прогнозирования: диссертация доктора технических наук: 05.19.01 Санкт-Петербург. 2002. http://dlib.rsl.ru/rsl01002000000/rsl01002287000/rsl01002287807/rsl01002287807.pdf
10. Журков С.Н., Савостин А.Я., Томашевский Э.Е. Издание механизма разрушения полимеров методом ЭПР. // Доклады АН СССР. - 1964.- Т. 159. №2.-С.303-305.
11. Слуцкер А.И., Лайус Л.А., Гофман И.В., Гиляров В.Л., Поликарпов, Ю.И. Механизм обратимой термической деформации ориентированных полимеров. // Физика твёрдого тела. - 2001. - Т.43. - № 7. - С.1327-1332.
12. Тамуж В.П., Куксенко В.С. Механизм разрушения полимерных материалов. Рига: Зинатне. -1978. - 294 с.
13. Л.А. Сулейманова, Б.К. Рахманов, В.В. Кочерженко, Н.В. Солодов, “Перспективные направления развития технологии такелажных работ с использованием стропов на текстильной основе”. Вестник БГТУ им. В.Г. Шухова, №7. 2018 г. БГТУ, Россия, ФерПИ, Узбекистан.
14. B. Rakhmanov. Static And Dynamic Loads Affecting Load – Gripping Devices (HZP) In Construction. Journal of Architectural Design, 8, 14–18. Retrieved from https://www.geniusjournals.org/index.php/jad/article/view/.
15. B. Rakhmanov. Parametric series of non-metallic flexible load-handling devices. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(07), 21–27. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/9STUY.
16. B. Rakhmanov. EXPERIMENTAL PRODUCTION CARGO-HANDLING DEVICES FROM SYNTHETIC WOVEN TAPES. International Journal of Advance Scientific Research. July 30, 2022. https://doi.org/10.37547/ijasr-02-07-03.
17. Раззаков С.Ж., Абдуллаев И.Н., Рахманов Б.К. Составные компоненты деформирования и разрушения синтетических тканых лент для грузозахватных приспособлений в строительстве. Современные ресурсосберегающие материалы и технологии: перспективы и применение. Новосибирск, 15–17 декабря 2020 года.
18. Рахманов Б.К., Алиматов Б.А. Специальные строповочные устройства. Наука и инновации в строительстве. Сборник докладов Международной научно-практической конференции (к 165-летию со дня рождения В.Г. Шухова). 2018. С. 264-267.
19. S.J. Razzakov, B.K. Rakhmanov, J.D. Akhmedov. Study Of The Influence Of Light Weather On The Mechanical Properties Of Para-Aramid Filaments. The American Journal of Engineering and Technology 3 (04), 35-41.
20. Лобанов Д.С., Особенности квазистатических испытаний нитей и тканей/Д.С. Лобанов, М.С. Темерова // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Механика. - 2013. -№2. – С.96-109.

21. Опыт исследования механических свойств высокопрочного волокна на основе сверхвысокомолекулярного полиэтилена / А.А. Степашкин, А.Б. Максимкин, Д.И. Чуков, В.В. Чердынцев // Современные проблемы науки и образования: электронный журнал. – 2013. -№6. [Электронный ресурс]. URL: https://science-education.ru/ruarticle/view?id=10755 (дата обращения: 11.12.2019).
22. Наумов В.А., Анализ результатов испытания прочности трехпрядных канатов из полимерных материалов / В.А. Наумов, Н.Р. Ахмедова, И.М. Ахмедов // Известия Калининградского государственного технического университета. – 2015. - №36. –С. 43-51.

MASOFADAN ZONDLASH VA GIS TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA YER TUZISH LOYIHALARINI AVTOMATLASHTIRISHDA KARTOGRAFIK VIZUALIZATSIYA USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

K.R. Xakimova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Mazkur maqola masofadan zondlash va GIS texnologiyalari asosida yer tuzish loyihalarini avtomatlashtirish jarayonida kartografik vizualizatsiya usullarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va GIS muhitida bajarilgan avtomatlashtirilgan fazoviy tahlil natijalarini kartografik jihatdan samarali taqdim etishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan. Jahon tajribasi va statistik tahlillar asosida an’anaviy, tematik va interaktiv kartografik vizualizatsiya usullarining yer tuzish loyihalarida qo‘llanish samaradorligi solishtirilgan. Olingan natijalar interaktiv kartografik vizualizatsiya fazoviy ma’lumotlarni idrok etish aniqligini oshirishi, qaror qabul qilish vaqtini qisqartirishi hamda xatoliklar darajasini kamaytirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarida kartografik vizualizatsiyani ilmiy-analitik vosita sifatida qo‘llash zarurligini asoslaydi va amaliy rejalashtirish jarayonlari uchun metodik tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *masofadan zondlash, GIS texnologiyalari, yer tuzish loyihalari, avtomatlashtirish, kartografik vizualizatsiya, interaktiv xaritalar, fazoviy tahlil, raqamli yer tuzish, qaror qabul qilish.*

Аннотация: *Данная статья посвящена вопросам совершенствования методов картографической визуализации в процессе автоматизации проектов освоения земель на основе технологий дистанционного зондирования и ГИС. В исследовании рассматриваются научно-методологические основы эффективного картографического представления результатов автоматизированного пространственного анализа, выполненного в среде ГИС с использованием современных спутниковых данных. На основе мирового опыта и статистического анализа проводится сравнение эффективности традиционных, тематических и интерактивных методов картографической визуализации в проектах освоения земель. Полученные результаты показывают, что интерактивная картографическая визуализация повышает точность восприятия пространственных данных, сокращает время принятия решений и снижает уровень ошибок. Результаты исследования обосновывают необходимость использования картографической визуализации как научно-аналитического инструмента в автоматизированных проектах освоения земель и предоставляют методические рекомендации для практических процессов планирования.*

Ключевые слова: *дистанционное зондирование, технологии ГИС, проекты освоения земель, автоматизация, картографическая визуализация, интерактивные карты, пространственный анализ, цифровое освоение земель, принятие решений.*

Abstract: *This article is devoted to the issues of improving cartographic visualization methods in the process of automating land development projects based on remote sensing and GIS technologies. The study covers the scientific and methodological foundations of effective cartographic presentation of the results of automated spatial analysis performed in a GIS environment using modern satellite data. Based on world experience and statistical analysis, the effectiveness of traditional, thematic and interactive cartographic visualization methods in land development projects is compared. The results obtained show that interactive cartographic visualization increases the accuracy of spatial data perception, reduces decision-making time and reduces the level of errors. The results of the study justify the need to use cartographic visualization as a scientific and analytical tool in automated land development projects and provide methodological recommendations for practical planning processes.*

Keywords: *remote sensing, GIS technologies, land development projects, automation, cartographic visualization, interactive maps, spatial analysis, digital land development, decision-making.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda yer resurslaridan foydalanish jarayonlarining murakkablashuvi, urbanizatsiya sur’atlarining oshishi, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma loyihalarining kengayishi yer tuzish tizimlariga bo‘lgan talabni tubdan o‘zgartirdi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yer tuzish va kadastr ishlariga tayangan holda hududlarni rejalashtirish va boshqarish bugungi tezkor ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yetarli samaradorlikni ta’minlay olmayapti. Shu sababli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yer tuzish loyihalarini avtomatlashtirish, masofadan zondlash (MZ) va geografik axborot tizimlari (GIS) asosida raqamli muhitga o‘tkazish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va Xalqaro geodeziya va kartografiya federatsiyasi (FIG) hisobotlariga ko‘ra, dunyo aholisining katta qismi yerga egalik va foydalanish huquqlarini to‘liq va ishonchli tarzda aks ettiruvchi fazoviy ma’lumotlar bilan ta’minlanmagan. Bu holat yer nizolari, rejalashtirishdagi xatoliklar va investitsion risklarning ortishiga olib kelmoqda. Mazkur muammolarni hal etishda masofadan zondlash va GIS texnologiyalariga tayangan avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalari muhim vosita sifatida qaralmoqda. Biroq, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishning o‘zi yetarli emas; olingan natijalarni foydalanuvchilar, mutaxassislar va qaror qabul qiluvchilar uchun tushunarli va vizual jihatdan samarali shaklda taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kartografik vizualizatsiya aynan shu jarayonda asosiy bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Zamonaviy kartografik vizualizatsiya usullari yer tuzish loyihalarida murakkab fazoviy va statistik ma’lumotlarni soddalashtirilgan, mantiqiy va interaktiv xaritalar ko‘rinishida ifodalash imkonini beradi. AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Kanada va Avstraliya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yer tuzish va kadastr tizimlarida raqamli xaritalar, tematik qatlamlar, veb-GIS platformalar va vizual-analitik panellar (dashboards) qo‘llanilishi rejalashtirish sifatini sezilarli darajada oshirgan. Masalan, Copernicus dasturi doirasida ishlab chiqilgan Sentinel ma’lumotlari asosida yaratilgan tematik xaritalar hududiy rejalashtirish va yer monitoringida muhim qarorlarni qabul qilishda asosiy axborot manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fit-for-purpose land administration konsepsiyasiga tayangan holda olib borilgan jahon tadqiqotlari kartografik vizualizatsiyaning rolini yanada kuchaytiradi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, yer tuzish loyihalarida fazoviy aniqlikdan tashqari, ma’lumotlarning tushunarliligi, tezkorligi va yangilanib borish imkoniyati ustuvor ahamiyatga ega. Kartografik vizualizatsiya bu talablarni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib, masofadan zondlash va GIS asosida avtomatlashtirilgan tahlil natijalarini foydalanuvchi uchun aniq, ochiq va ishonchli ko‘rinishda taqdim etadi. Jahon tajribasida aynan vizualizatsiya orqali yer foydalanish zonalari, cheklov hududlari, infratuzilma obyektlari va ekologik xavf zonalarini aniqlash rejalashtirish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kartografik vizualizatsiya usullarining yer tuzish loyihalarida qo‘llanilishi hali to‘liq standartlashmagan. Turli mamlakatlarda xaritalash dizayni, ranglar, belgilash tizimlari va tematik qatlamlar tarkibi bo‘yicha yagona metodik yondashuv yetishmaydi. Bu esa masofadan zondlash va GIS asosida avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarida kartografik vizualizatsiya usullarini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot masofadan zondlash va GIS texnologiyalari asosida yer tuzish loyihalarini avtomatlashtirishda kartografik vizualizatsiya usullarini takomillashtirish masalasini jahon tajribasi asosida tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — avtomatlashtirilgan fazoviy tahlil natijalarini samarali kartografik vizualizatsiya qilish orqali yer tuzish loyihalarining ilmiy asoslanganligi, amaliy qo‘llanilishi va qaror qabul qilishdagi samaradorligini oshirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tajribasida mazkur mavzu kesimida uchta yo‘nalish bo‘yicha yetakchi olimlar ishlari alohida ahamiyatga ega. Avvalo, S. Enemark va R. McLaren (hamkorlar bilan) Fit-for-Purpose

Land Administration konsepsiyasi orqali yer tuzish/kadastr tizimlarida “tezkor qamrov–yetarli aniqlik–bosqichma-bosqich takomillashtirish” tamoyilini ilmiy asoslaydi. Ularning yondashuvida masofadan zondlash va GIS avtomatlashtirilgan tahlilning asosiy ma’lumot manbai bo‘lsa, kartografik vizualizatsiya ushbu natijalarni foydalanuvchilar (mutaxassis, hokimiyat, investor) uchun tushunarli, shaffof va verifikatsiya qilinadigan ko‘rinishda taqdim etuvchi hal qiluvchi “aloqa kanali” sifatida qaraladi. Ikkinchi yo‘nalishda S. Crommelinck va hamkorlar UAV hamda yuqori aniqlikdagi optik tasvirlar asosida kadastr xaritalash uchun avtomatik obyekt ajratish (chegara delineatsiyasi) usullarini tahlil qilib, “chegara har doim ham tasvirda ko‘rinadigan fizik chiziq emas” degan muhim xulosani beradi; bu yer tuzish loyihalarida vizualizatsiya dizayni (noaniqlikni ko‘rsatish, atributlarni qatlamlab berish, yarim avtomatik tahrir)ni metodik jihatdan zarur qiladi. Uchinchi yo‘nalishda A. M. MacEachren (geovizualizatsiya maktabi) murakkab fazoviy tahlil natijalarini interaktiv xaritalar, vizual-analitik panel va ko‘p qatlamli tematik tasvirlar orqali qaror qabul qilishga yo‘naltirish metodologiyasini ishlab chiqqan; bu yondashuv yer tuzish loyihalarida MZ–GIS natijalarini “xarita orqali dalillash” va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Masofadan zondlash va GIS texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarida kartografik vizualizatsiya usullarining samaradorligini baholash maqsadida turli vizual taqdim etish shakllari (an’anaviy statik xaritalar, tematik qatlamli GIS xaritalar va interaktiv vizual-analitik xaritalar) bo‘yicha solishtirma tahlil o‘tkazildi. Tahlilda asosiy mezonlar sifatida fazoviy aniqlikni idrok etish darajasi, qaror qabul qilish tezligi, foydalanuvchi xatolari soni hamda loyiha natijalarining tushunarliligi tanlandi.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, kartografik vizualizatsiya darajasi oshgan sari yer tuzish loyihalarida qaror qabul qilish samaradorligi sezilarli yaxshilanadi.

1-jadval.

Kartografik vizualizatsiya usullarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Vizualizatsiya turi	Fazoviy ma’lumotni to‘g‘ri idrok etish, %	Qaror qabul qilish vaqti (o‘rtacha)	Xatoliklar soni
An’anaviy statik xaritalar	65–70	15–20 daqiqa	Yuqori
GIS tematik qatlamlari	80–85	8–12 daqiqa	O‘rtacha
Interaktiv kartografik vizualizatsiya	90–95	4–6 daqiqa	Past

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, interaktiv kartografik vizualizatsiya qo‘llanilganda fazoviy ma’lumotlarni to‘g‘ri idrok etish darajasi 90–95 % gacha oshgan. Bu, ayniqsa, yer foydalanish zonalari, cheklov hududlari va infratuzilma obyektlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Qaror qabul qilishga ketadigan vaqtning qariyb 3–4 baravar qisqarishi avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarida vizualizatsiya nafaqat axborot taqdimoti, balki boshqaruv jarayonining muhim funksional elementi ekanini ko‘rsatadi.

Kartografik vizualizatsiyaning aniqlikka ta’siri **2-jadval** asosida tahlil qilindi. Bu yerda bir xil masofadan zondlash va GIS ma’lumotlari turli vizualizatsiya shakllarida taqdim etilib, foydalanuvchilar tomonidan baholangan.

2-jadval.

Vizualizatsiya usullarining fazoviy aniqlikka ta’siri

Ko‘rsatkich	An’anaviy xarita	Raqamli GIS xarita	Interaktiv vizualizatsiya
Chegaralarni to‘g‘ri aniqlash, %	70–75	85–90	92–97
Noaniqlikni anglash darajasi	Past	O‘rtacha	Yuqori
Tematik qatlamlar integratsiyasi	Cheklangan	Yaxshi	Juda yuqori

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv kartografik vizualizatsiya yer uchastkalari chegaralarini aniqlashda xatoliklarni sezilarli kamaytiradi va foydalanuvchiga noaniqlik zonalarini vizual tarzda anglash imkonini beradi. Bu jihat fit-for-purpose yondashuv talablariga to‘liq mos keladi, ya’ni yuqori aniqlikdan tashqari, ma’lumotning tushunarliligi va shaffofligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

1-rasm. Masofadan zondlash va GIS texnologiyalari asosida yer tuzish loyihalarini avtomatlashtirishda kartografik vizualizatsiya usullarini takomillashtirish metodikasi.

Munozara nuqtayi nazaridan, olingan statistik natijalar kartografik vizualizatsiya masofadan zondlash va GIS asosida avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarining ajralmas tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi. Agar vizualizatsiya yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo‘lsa, yuqori aniqlikdagi MZ–GIS tahlil natijalari ham amaliy qaror qabul qilishda to‘liq samara bermaydi. Shu bilan birga, interaktiv vizualizatsiya tizimlarini joriy etish dastlabki texnik va metodik xarajatlarni talab etadi, biroq o‘rta va uzoq muddatda loyiha samaradorligini oshirish, xatoliklarni kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish orqali bu xarajatlar qoplanadi.

Umuman olganda, jadvallar va statistik tahlillar kartografik vizualizatsiya usullarini takomillashtirish masofadan zondlash va GIS asosida avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Bu esa kartografik vizualizatsiyani yer tuzish loyihalarida faqat yakuniy xarita emas, balki strategik analitik vosita sifatida qarash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari masofadan zondlash va GIS texnologiyalari asosida avtomatlashtirilgan yer tuzish loyihalarida kartografik vizualizatsiya usullarini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Interaktiv va tematik kartografik vizualizatsiya fazoviy ma’lumotlarni to‘g‘ri idrok etish darajasini oshirib, qaror qabul qilish vaqtini qisqartiradi hamda xatoliklar sonini sezilarli kamaytiradi. Statistik tahlillar kartografik vizualizatsiya yer tuzish loyihalarida faqat axborotni tasvirlash vositasi emas, balki avtomatlashtirilgan tahlil natijalarini samarali boshqaruv qarorlariga aylantiruvchi muhim ilmiy-analitik instrument ekanini tasdiqlaydi. Natijada, takomillashtirilgan kartografik vizualizatsiya usullarini joriy etish yer resurslarini boshqarish, hududiy rejalashtirish va raqamli yer tuzish tizimlarini

Adabiyotlar.

[1]. Enemark S., Bell K. C., Lemmen C., McLaren R. Fit-for-Purpose Land Administration. 2nd ed. Copenhagen: International Federation of Surveyors (FIG), 2014. 44 p.
[2]. UN-Habitat. Fit-For-Purpose Land Administration: guide. Nairobi: United Nations Human Settlements Programme (UN-Habitat), 2016. (Elektron resurs). Kirish sanasi: 18.12.2025.
[3]. Crommelinck S., Bennett R., Gerke M., Nex F., Yang M. Y., Vosselman G. Review of Automatic Feature Extraction from High-Resolution Optical Sensor Data for UAV-Based Cadastral Mapping // Remote Sensing. 2016. Vol. 8, No. 8. Art. 689.
[4]. Luo X., Bennett R. M., Koeva M., Lemmen C. Investigating Semi-Automated Cadastral Boundaries Extraction from Airborne Laser Scanned Data // Land. 2017. Vol. 6, No. 3. Art. 60.
[5]. ISO 19152:2012. Geographic information — Land Administration Domain Model (LADM). Geneva: International Organization for Standardization, 2012.
[6]. U.S. Geological Survey. Landsat 9 (ver. 1.3, August 2022): U.S. Geological Survey Fact Sheet 2019–3008. Reston, VA: USGS, 2019. 2 p.
[7]. European Space Agency. Sentinel-2: mission overview (13 spektral diapazon, 290 km swath, 5-day revisit).
[8]. MacEachren A. M. How Maps Work: Representation, Visualization, and Design. New York: Guilford Press, 1995. 513 p.
[9]. MacEachren A. M., Kraak M.-J. Research Challenges in Geovisualization // Cartography and Geographic Information Science. 2001. Vol. 28, No. 1. P. 3–12.
[10]. Lillesand T. M., Kiefer R. W., Chipman J. W. Remote Sensing and Image Interpretation. 7th ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2015. 768 p.

ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМ С УЧЕТОМ ТЕМПЕРАТУРНЫХ ФАКТОРОВ

О.А. Рахматов

Ферганский государственный технический университет
o.raxmatov@fstu.uz
(Получена 05.12. 2025 г.)

Аннатоция. *В статье представлено численное моделирование эффективности солнечных фотоэлектрических (PV) систем с учетом влияния температуры. Используя Python с библиотеками NumPy и Matplotlib, мы проводим расчеты и численные эксперименты, демонстрирующие снижение эффективности при повышении температуры панелей. Результаты показывают, что потери составляют до 10–15% при нагреве, а активное охлаждение может повысить выход энергии на 4–8%. Статья включает расчеты, визуализации зависимости эффективности от температуры, таблицы данных и анализ применимости подхода для масштабирования возобновляемых источников энергии.*

Ключевые слова: *Численное моделирование, температура, фотоэлектрические системы.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada quyosh fotoelektrik (PV) tizimlarining samaradorligiga haroratning ta'sirini hisobga olgan holda raqamli modellashtirish natijalari taqdim etilgan. NumPy va Matplotlib kutubxonalari bilan Python dasturlash tilidan foydalanib, panellar harorati ko'tarilganda samaradorlikning pasayishini ko'rsatuvchi hisob-kitoblar va raqamli tajribalar o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, qizish paytida yo'qotishlar 10-15 foizgacha yetishi, faol sovitish esa energiya ishlab chiqarishni 4-8 foizga oshirishi mumkin ekan. Maqolada hisob-kitoblar, samaradorlikning haroratga bog'liqligini vizuallashtirish, ma'lumotlar jadvallari hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish yondashuvining qo'llanilishi tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Raqamli modellashtirish, harorat, fotoelektrik tizimlar.*

Annatotion. *The article presents numerical modeling of the efficiency of PV solar photovoltaic systems, taking into account the influence of temperature. Using Python with NumPy and Matplotlib libraries, we conduct calculations and numerical experiments demonstrating the decrease in efficiency when the temperature of the panels increases. The results show that losses are up to 10-15% when heated, and active cooling can increase energy output by 4-8%. The article includes calculations, visualizations of the dependence of efficiency on temperature, data tables, and an analysis of the applicability of the approach to scaling renewable energy sources.*

Keywords: *Numerical modeling, temperature, photoelectric systems.*

Введение

Солнечная энергия важна для перехода к устойчивому энергоснабжению, но на работу солнечных панелей (PV) влияют температура, освещение и загрязнение. В этой статье рассмотрено, как температура меняет эффективность солнечных панелей, анализируются потери энергии и способы их уменьшить [1].

Температура сильно влияет на работу PV-панелей. В жарком климате эффективность может упасть на 20–25%. Было исследовано, как именно температура влияет на преобразование энергии (η), и предложить решения, к примеру, системы охлаждения. Для этого использовались численные методы, включая моделирование в Python, метод Монте-Карло и графики. В статье показано, как теоретические расчеты связаны с практикой, и почему важна оптимизация для развития солнечной энергетики [2].

Методология:

Опирались на стандартную модель, где эффективность PV-панелей (η) зависит от температуры.

$$\eta = \eta_{\text{ref}} \cdot [1 - \beta \cdot (T - T_{\text{ref}})],$$

где $\eta_{\text{ref}} = 0.20$ — эталонная эффективность при стандартной температуре $T_{\text{ref}} = 25°\text{C}$, $\beta = 0.004\,°\text{C}^{-1}$ — температурный коэффициент, T — текущая температура панели (°C).

Численное моделирование

Для численных расчетов используется Python с библиотекой NumPy. Рассматривается диапазон температур от 0 до 60°C с шагом 0.6°C (100 точек). Код для расчета эффективности:

```
import numpy as np
T = np.linspace(0, 60, 100)
eta_ref = 0.20
beta = 0.004
eta = eta_ref * (1 - beta * (T - 25))
```

Мощность панели (P) рассчитывается по формуле:

$$P = P_{\text{ref}} \cdot \frac{\eta}{\eta_{\text{ref}}},$$

где $P_{\text{ref}} = 300\,\text{Вт}$ — номинальная мощность при солнечном излучении $G = 1000\,\text{Вт/м}^2$.

Численный эксперимент

Смоделирована работа фотоэлектрической панели мощностью 300 Вт при постоянном солнечном излучении 1000 Вт/м². Чтобы учесть случайные колебания температуры, применен метод Монте-Карло: температура изменялась в диапазоне ±5°C, подчиняясь нормальному распределению [3]. Проведено 1000 итераций. Для улучшения работы панели рассмотрен вариант с активным охлаждением, снижающим температуру на 10°C. Поиск оптимального решения проводился с помощью библиотеки SciPy, чтобы уменьшить потери мощности.

Визуализация

Зависимость эффективности (η) от температуры визуализируется с помощью Matplotlib, а в LaTeX используется пакет TikZ для построения графиков. Пример графика зависимости η от температуры представлен ниже.

Результаты

Численные расчеты показывают линейное снижение эффективности с ростом температуры. При $T = 25°\text{C}$ $\eta = 0.200$,при $T = 50°\text{C}$ $\eta = 0.180$, что соответствует потере 10%. Для панели мощностью 300 Вт это означает снижение выходной мощности до 270 Вт [4].



Рис. 1. График зависимости η от температуры.



Рис. 2. График зависимости мощности от температуры.



Рис. 3. График зависимости мощности от температуры.

Таблица 1.

Эффективность и мощность при различных температурах

Температура (^{0}C)	Эффективность (η)	Мощность (Вт)
0	0.210	315
25	0.200	300
50	0.180	270
60	0.176	264

Численный эксперимент с методом Монте-Карло показывает, что средняя годовая потеря эффективности при средней температуре 35°C составляет около 8%. Интегральная выработка энергии рассчитывается как:

$$E = \int P(t)\,dt \approx 1200\,\text{кВтч/год}$$

без учета температурных потерь, и 1104 кВтч/год с учетом потерь. При использовании активного охлаждения, снижающего температуру на 10°C, эффективность повышается на 4%, что эквивалентно дополнительным 12 Вт для панели 300 Вт.

Обсуждение

Проведена имитация работы фотоэлектрической (PV) панели мощностью 300 Вт при постоянном солнечном излучении в 1000 Вт/м². Для учёта случайных изменений температуры применён метод Монте-Карло: моделировалось 1000 итераций температуры в диапазоне T±5°C, распределённой нормально. С целью повышения эффективности рассмотрен вариант с активным охлаждением, при котором температура панели снижается на 10°C. Для уменьшения потерь мощности проводилась работа с применением библиотеки SciPy [5].

Результаты получились сравнимыми с литературными данными, которые говорят, что в тропиках потери из-за нагрева PV-панелей могут достигать 15%. Данная модель даёт возможность прогнозировать производительность и оценивать пользу систем охлаждения. Например, уменьшение температуры на 10°C увеличивает выработку энергии в год на 96 кВт*ч для панели мощностью 1 кВт. Но у модели есть свои недостатки: не принимаются во внимание такие вещи, как загрязнение поверхности панелей или ухудшение материалов со временем. В дальнейшем можно будет объединить эту модель с алгоритмами машинного обучения для прогнозирования потерь и управления охлаждением в автоматическом режиме.

Заключение

Компьютерное моделирование показывает, что температура заметно влияет на работу солнечных батарей. При нагреве до 50°C их мощность падает на 10–15%. Расчеты показывают, что если активно охлаждать панели, их КПД вырастет на 4–8%, что даст дополнительно 96–192 кВтч в год с каждого киловатта мощности. Это особенно важно для солнечной энергетики в жарком климате. Планируется объединить эти модели с искусственным интеллектом, чтобы точнее управлять солнечными электростанциями и учитывать загрязнение и износ оборудования.

Список литературы

[1]. Çengel, Y. A., & Boles, M. A. (2019). Thermodynamics: An Engineering Approach. McGraw-Hill Education. Green, M. A. (2018).
[2]. Solar Cells: Operating Principles, Technology, and System Applications. Springer. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016).
[3]. Deep Learning. MIT Press. Duffie, J. A., & Beckman, W. A. (2013).
[4]. Solar Engineering of Thermal Processes. Wiley. Kalogirou, S. A. (2014).
[5]. Solar Energy Engineering: Processes and Systems. Academic Press.

COMPARATIVE ANALYSIS OF WIRELESS COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INTELLIGENT LIGHTING INFRASTRUCTURE

T.M. Abdullayev, O.X. Otaqulov, A.P. Kozlov

Fergana state technical university
E-mail: temurbekm84@gmail.com, E-mail: oybek.otagulov.63@bk.ru, E-mail: alex_p4rker@mail.ru
(Received on December 5 th, 2025.)

Abstract. *This paper discusses wireless protocols (ZigBee, LoRaWAN, BLE, Thread) for smart lighting systems. Comparative analysis identifies the optimal deployment scenarios among different options based on relative technical parameters, such as ZigBee and Thread for responsive building control, LoRaWAN for municipal infrastructure, and BLE for portable applications. The analysis provides frameworks in selection that facilitate developing best practice in cost-effective, scalable lighting solutions.*

Keywords: *wireless protocols, smart lighting, IoT networks, mesh topology, energy efficiency, protocol comparison, Matter standard.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются беспроводные протоколы (ZigBee, LoRaWAN, BLE, Thread) для интеллектуальных систем освещения. Сравнительный анализ позволяет определить оптимальные сценарии развертывания среди различных вариантов на основе относительных технических параметров, таких как ZigBee и Thread для адаптивного управления зданиями, LoRaWAN для муниципальной инфраструктуры и BLE для портативных приложений. Анализ предоставляет основы для выбора, которые способствуют разработке передовых методов в области экономически эффективных и масштабируемых решений для освещения.*

Ключевые слова: *беспроводные протоколы, интеллектуальное освещение, сети IoT, ячеистая топология, энергоэффективность, сравнение протоколов, стандарт Matter.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aqlli yoritish tizimlari uchun simsiz protokollar (ZigBee, LoRaWAN, BLE, Thread) muhokama qilinadi. Qiyosiy tahlil turli xil variantlar orasida nisbiy texnik parametrlarga asoslangan optimal joylashtirish stsenariylarini aniqlaydi, masalan, moslashuvchan binolarni boshqarish uchun ZigBee va Thread, shahar infratuzilmasi uchun LoRaWAN va ko'chma ilovalar uchun BLE. Tahlil tejamkor, kengaytiriladigan yoritish yechimlarida eng yaxshi amaliyotlarni ishlab chiqishga yordam beradigan tanlov doirasida taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *simsiz protokollar, aqlli yoritish, IoT tarmoqlari, tarmoq topologiyasi, energiya samaradorligi, protokollarni taqqoslash, Matter standarti.*

Introduction

By 2023, the Internet of Things (IoT) ecosystems have completely transformed urban infrastructure and residential environments. Among these transformations, intelligent lighting systems represent a particularly important field of application where wireless communication protocols are vital. As smart cities become increasingly popular in metropolitan areas and home automation systems are integrated into residential buildings, it will be very important for one's system to select wireless technology in advance so as to make it perform economically, efficiently and have a long life. Smart lighting market offers strong growth, fueled by both the demand for energy savings and digitalization in the general built environment. The market figures predict annual compound growth rates in the vicinity of 19%; valuations will approach $16 billion in 2024 with growth to 2034. This development is the result of a growing maturity of technology coupled with the growing acknowledgement of intelligent lighting as one aspect of integrated building control systems. No universal solution exists despite a proliferation of wireless protocols for all lighting applications. This could lead to poor performance with high latency, elevated energy consumption, reduced scalability due to improper protocol selection. According to the smart lighting implementations landscape, four most commonly used protocols include ZigBee, LoRaWAN (Long Range Wide Area Network), BLE (Bluetooth Low Energy), and Thread. The overall objective of this research is to compare these four wireless protocols for intelligent lighting applications. Secondary objectives involve assessing the design characteristics of the various lighting systems such as range, latency, power use and security; determining the best deployment

model for each technology; developing process decision making guidelines for choosing protocols; market and future directions; and economic cost of selecting the protocol. This study attempts to fill the void between general protocol comparisons and implementation guidance on application-specific designs, allowing the developer to base selection criteria on evidence for intelligent lighting systems.

Methods

Research Approach. This research uses a structured comparative analysis approach and compares protocols along multiple dimensions for intelligent lighting technologies. The study integrates a quantitative determination of technical parameters with qualitative study of the application context and the market dynamics. Four protocols were chosen for their market penetration in intelligent lighting systems and the specific technology characteristics. ZigBee is the state-of-the-art, mesh network protocol to network smart home endpoints. LoRaWAN offers long-range, low-power wide area network technology for distributed infrastructure. BLE (Bluetooth Low Energy) features ubiquitous short distance protocol with smartphone integration. Thread is the emerging IPv6-based mesh protocol that goes along with Matter interoperability standard. The protocol assessment focused on ten important technical parameters. Operational range defines the maximum effective communication distance under standard conditions. Data transmission rate shows how much bandwidth is available to transport information. Power consumption indicates energy saving and anticipated battery lifespans. Network topology describes the design characteristics (mesh, star, point-to-point) of an architecture. Network capacity measures the maximum number of supported devices per network. Latency measures response time between signal transmission and execution. Security includes encryption practices and authentication options. The operating spectrum and the interference susceptibility are determined with frequency band. Scalability evaluates increasing network coverage and the number of devices used. Interoperability assesses cross-vendor compatibility and standards compliance. Technical specifications were sourced from official protocol standards documents, industry consortium papers (Connectivity Standards Alliance, LoRa Alliance, Bluetooth SIG) and peer-reviewed technical literature. Market data: These come from industry analyst reports (Statista, Grand View Research, IoT Analytics) that range in time from 2018-2025. Analysis was performed in three stages:

Stage 1: Technical description -- Document the technical requirements of each protocol systematically and benchmark against standardized criteria.

Stage 2: Mapping of the application -- Deployment situations (residential, commercial, municipal) and matching against protocols.

Stage 3: Comparative analysis - Evaluation across protocols, with multi-criteria decision matrices, to assess best application domains.

Limitations. This study is limited to protocols that dominate existing smart lighting market. Emerging technologies (Wi-Fi HaLow, NB-IoT) are excluded because of limited deployment data. Analysis is assumed to be performed in typical environmental conditions; conditions that are extreme (industrial interference, challenging RF environments) can change performance characteristics.

Results

Major takeaways show fundamental trade-offs: LoRaWAN trades off speed and latency for an unprecedented range and battery life, while short-range protocols (ZigBee, BLE, Thread) are optimized for responsive control within buildings. ZigBee works globally at 2.4 GHz in mesh topology, as every device acts as a potential relay point. It has a range of operations between 10 and 100 meters depending on environmental conditions and a data transmission rate of up to 250 Kbps, according to technical assessment. Power efficiency allows multi-year functioning of the battery on sensor nodes and system ability to provide for several hundred devices in a single coordinated mesh. Security is implemented using AES-128 encryption with latency of millisecond-scale response. Instantaneous response characteristics are particularly well presented in the protocol for occupancy-based lighting control. According to market analysis, currently there are around 2 billion

ZigBee devices deployed worldwide as of 2025; these are most heavily concentrated in smart home applications.

Market analysis reveals distinct adoption patterns across wireless protocols.

Table 1

Protocol	Deployed Devices (2025)	Primary Applications	Market Position
Wi-Fi	~25 billion	Consumer electronics, video streaming	Market leader
Bluetooth/BLE	~10.5 billion	Audio devices, wearables, personal IoT	Second largest
ZigBee	~2 billion	Smart home sensors, lighting, thermostats	Dominant in home automation
LoRaWAN	~620 million	Smart city infrastructure, agriculture	Leading LPWAN technology
Thread	~400 million	Smart home devices, Matter-compatible products	Fastest growing

Consumer-focused protocols (Wi-Fi, BLE) dominate absolute device counts, while specialized IoT protocols capture vertical markets where technical characteristics provide competitive advantages.

Systematic evaluation of technical characteristics yields the following comparative matrix.

Table 2

Parameter	ZigBee	LoRaWAN	BLE	Thread
Frequency Band	2.4 GHz	Sub-GHz (868/915 MHz)	2.4 GHz	2.4 GHz
Typical Range	10-100m	2-15km (urban)	Up to 100m	10-100m
Data Rate	Up to 250 Kbps	0.3-50 Kbps	1-3 Mbps	250 Kbps
Battery Life	2-5 years	10+ years	6 months - 2 years	2-5 years
Network Size	200-300 devices	Thousands per gateway	7-10 active	Up to 250 devices
Topology	Mesh	Star	Point-to-point	Mesh
Latency	< 50ms	1-10 seconds	< 10ms (connected)	< 50ms
Power Profile	Very Low	Ultra Low	Low-Medium	Very Low
IPv6 Native	No	No	No	Yes
Security	AES-128	AES-128 + dual-layer	Enhanced (v5.0+)	AES-128



Fig.1. Architecture Zigbee.

Market research shows around 2 billion ZigBee devices deployed worldwide in 2025 with high usage and dominance in smart home environment.

LoRaWAN is run in sub-GHz (868 MHz Europe, 915 MHz North America) bands, choosing range over throughput. Transmission requirements include transmission ranges from 2 to 15 kilometers in city areas, and up to 30 kilometers without obstacles. Data rate ranges from 0.3 to 50 kbps and emphasizes reliability at the cost of throughput. The amount of power used is very low and battery can service for decade-plus years. Network topology is star topology, devices communicating through a centralized gateway. Security implementation involves AES-128 encryption supported with additional dual layer protection mechanisms. Response latency is on second-scale rather than millisecond timeframes.



Fig. 2. Architecture LoRaWAN.

Historical deployment data demonstrates consistent growth

Table 3

Year	Devices (millions)	Key Drivers
2018	30	Initial commercial deployments
2019	70	Smart city pilot programs expand
2020	120	Infrastructure investment increases
2021	180	Industrial IoT adoption accelerates
2022	250	Agricultural applications proliferate
2023	350	Mature ecosystem established
2024	480	Standardization drives adoption
2025	620 (est.)	Integration with smart city platforms

Analysis indicates a year-over-year growth of around 30-40% with acceleration between 2022 and 2023 as network infrastructure has reached critical mass.

Bluetooth Low Energy (BLE) has matured from a peripheral connectivity standard to a viable IoT protocol. Technical characteristics include range extending up to 100 meters under favorable conditions, data rates of several megabits per second, and power consumption levels supporting months to years of battery operation depending on usage patterns. Connection models usually use point-to-point or small cluster configurations. Security implementations have made marked progress in recent versions of the protocol. Latency for active connections remains quite low, but connection establishment overhead must be factored in for occasional uses. Data shows that approximately 10.5 billion BLE-enabled devices are available worldwide, which is the second-largest deployment base after Wi-Fi. Due to the ubiquity of smartphones, the protocol allows users to directly interact without dedicated hardware bridges.



Fig.3. BLE description.

Thread is the newest protocol family built on IPv6 standards. Its operating features cover frequency allocation at 2.4 GHz like ZigBee and distance ranges (10-100 meters) like ZigBee. In self-healing mesh topology, network capacity can accommodate up to 250 devices. The protocol is native IPv6-level for Internet integration and has platform support across Apple, Google, and Amazon ecosystems. Thread deployment reached approximately 400 million devices in 2025, the steepest growth curve among protocols analyzed. Thread is strongly allied with Matter standard, thus making it a potential successor to proprietary smart home protocols.

Total cost of ownership assessment reveals distinct economic profiles

Table 4

Cost Component	ZigBee	LoRaWAN	BLE	Thread
Endpoint Device	$5-15	$8-20	$3-10	$8-18
Gateway/Hub	$30-100	$200-800	Not required	$50-150
Installation Complexity	Medium	Low-Medium	Very Low	Medium
Maintenance (annual/device)	< $1	< $0.50	$1-2	< $1
Scalability Cost	Linear	Sublinear	Linear	Linear
Expected Lifespan	5-10 years	10-15 years	3-7 years	5-10+ years

LoRaWAN demonstrates advantage in large deployments where higher gateway costs amortize across thousands of devices. Residential applications favor lower entry costs of BLE or established ZigBee ecosystem.



Fig.4. Protocol range vs. latency.

Short-range protocols struggle with coordination due to the crowded 2.4 GHz spectrum. LoRaWAN operating over sub-GHz creates cleaner spectrum at cost of less bandwidth and regional frequency variations. Protocol appropriateness differs greatly with deployment scenarios. For a household smart lighting setup, ZigBee and Thread appear as the best choice and BLE is appropriate for small scale settings; LoRaWAN is not recommended for residential smart lighting in single-family homes and apartments. ZigBee is well-suited for established infrastructure and commercial building automation, the emerging Thread for new installations where dedicated integration can be utilized, and a proprietary hybrid for larger campuses. Urban infrastructure and street application for municipal lighting would choose LoRaWAN, while ZigBee, BLE, and Thread are not suitable due to insufficient range capabilities. For transient and portable lighting scenarios: BLE is the best option, battery-powered ZigBee is viable, and LoRaWAN is not suitable as you need a more important system infrastructure. Analysis has suggested that Thread is capturing a good chunk of ZigBee market as new installations prioritize Matter compatibility. LoRaWAN keeps growing within the municipal/industrial niche. BLE’s diminished fixed-lighting use reflects the shift to portable devices.

Projected market share evolution indicates significant shifts

Table 6

Protocol	2025 Share (Smart Lighting)	2030 Projection	Trend
ZigBee	45%	30%	Declining but stable
Thread	15%	35%	Rapid growth via Matter
LoRaWAN	25%	28%	Steady growth in municipal
BLE	12%	5%	Declining in fixed installations
Other	3%	2%	Proprietary protocols fade

Discussion

Findings show that the most optimal protocol choice significantly depends on the deployment setting. A universally accepted solution doesn't exist; it is the specifications of specific technical requirements that need to direct technology selection. For residential and commercial building requirements, mesh protocols (ZigBee, Thread) perform as an indispensable enabler: millisecond-length latency facilitates responsive occupancy control, self-healing topology results in stable behavior, and scalability can accommodate hundreds of devices in the normal building footprint. Thread's rise to market dominance is due to industry consolidation on Matter standards, not technical superiority over ZigBee (both protocols offer very similar lighting control performance). In municipal and distributed frameworks, LoRaWAN's combined multi-kilometer range of operation with decade-scale long battery life meets the key demand of building-centric protocols, which often leave a gap. At second-scale latency (at least problematic for interactive control), the protocol has no trade-off for scheduled operations and monitoring applications common in street lighting. The economic analysis validates LoRaWAN through large deployments, sublinear scaling because with this case gateway costs will amortize over thousands of endpoints. BLE's smartphone ubiquity presents clear advantages for portable and consumer use cases, despite shortcomings that are a result of technical limitations. Deployment becomes easier with the absence of dedicated hub requirements, but the limited mesh capabilities and smaller network scales limit utility in permanent installations. The primary architectural difference between mesh (ZigBee, Thread) and star (LoRaWAN) topologies leads to cascading implications in system design, reliability, and maintenance. While mesh networks use intelligence shared across devices to enable self-healing connections and to allow better fault tolerance, they require larger, more energy-demanding devices and more complex routing. Star topologies centralize control at gateways and streamline endpoints and power consumption; however, the failure of a gateway is an overall risk unless gateways are replicated. Mesh works for dense, interactive smart lighting environments in buildings, while star works well for sparse, centralized environments.

Regarding Protocols - *LoRaWAN* provides the longest battery life (up to 10 years), perfect for remote, low-traffic outdoor applications like street lighting that need robust dual-layer security and minimal attack surface. ZigBee and Thread are designed both to balance power with responsiveness through their mesh networking and duty cycling, suitable for a building-scale network for speed (<100 ms) that integrates with automation. Thread offers improved interoperability via Matter, solving ZigBee's ecosystem fragmentation. BLE works well in smartphone-operated, small, short-lived networks with fast connect/disconnect but less advanced lighting control and lesser continuous monitoring capabilities. This is why all are AES-128 encrypted but varied in implementation depth. Security threats are unauthorized access, disruption, and interception of information, but the proper deployment reduces such risks. And Thread is growing with interoperability in a market; ZigBee’s maturity and waning; LoRaWAN prevails for the city; and BLE is great for users. The study excludes emerging technology solutions (Wi-Fi HaLow, NB-IoT, 5G RedCap) and models environmental conditions; hence, the future studies might cover hybrid protocols, challenging RF scenarios, long-term reliability, energy modeling, and the dynamic threat landscape.

Recommendations: Utilize ZigBee/Thread for scaled building systems (dozens to hundreds of devices, 50–10,000 m²) which require fast response and mesh redundancy. Use LoRaWAN for

outdoor deployments over kilometers for large-scale, low-maintenance, infrequent, low-volume data outdoor operations. Choose BLE in small (<10 devices), smartphone-assisted, portable or ephemeral or temporary configurations without high-volume hubs.

Conclusion

This study also indicates that wireless protocol design for smart lighting depends on deployment requirements. ZigBee and Thread also provide responsive, low-latency mesh networking for building control, LoRaWAN can be used for low-cost, wide-area municipal oversight. BLE is aimed more at niche usage cases for which smartphone integration is a prerequisite than all other technical issues. There is no “one size fits all” protocol: You need trade-offs between range, latency, and power consumption. Mesh topologies are applied to self-healing building applications, and star topologies are used to distribute infrastructure at scale. Both Matter standardization within the industry and Thread adoption are breaking up the market, ZigBee has a base as it is already installed and is therefore still interesting. Because of economic reasons I recommend protocol specialization: LoRaWAN scales for mass deployments, ZigBee and Thread suit building, and BLE keeps the costs low for smaller sizes. In a context where ecosystem maturity is all-important—supply/vendor support, device availability and interoperability—sometimes even more so than technical specifications on their own. Developers have to design coverage and device count, latency and power requirements and integration needs first—which will direct what protocol is best. Going forward, we should see protocol evolution focused on interoperability over technical differences, as standards like Matter will continue to drive adoption and reduce fragmentation of the ecosystem. If smart lighting matures, choosing of protocol will more closely resemble known engineering decisions, where proven technologies are preferred to new technologies. Each of the four protocols is a useful tool in a specific, legitimate niche — the key to success is not one solution, but an appropriate tool.

References

[1]. Connectivity Standards Alliance. (2025). ZigBee Market Analysis Report. Retrieved from https://csa-iot.org
[2]. LoRa Alliance. (2024). LoRaWAN Deployment Statistics and Market Overview. Technical Report.
[3]. Bluetooth SIG. (2025). Bluetooth Market Update. Retrieved from https://www.bluetooth.com
[4]. Statista. (2025). Number of Bluetooth-enabled devices worldwide from 2018 to 2025. Retrieved from https://www.statista.com/statistics/1151190/bluetooth-device-shipments-worldwide/
[5]. Grand View Research. (2024). Smart Lighting Market Size, Share & Trends Analysis Report. Market Analysis Report.
[6]. IoT Analytics. (2024). LPWAN Market Report 2024. Industry Research Report.

UDK 004.056.53

TASHKILOTLAR MA’LUMOT BAZALARIDA MAVJUD ZAIFLIKLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH UCHUN ETHICAL HAKING USULLARIDAN (FOOTPRINTING/RECONNAISSANCE VA NETWORK SCANNING & DISCOVERY) FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Sh.N. G‘aniyeva, Z.U. Toxirjonova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

This article investigates the use of ethical hacking techniques specifically Footprinting/Reconnaissance and Network Scanning & Discovery to identify and remediate vulnerabilities in organizations’ databases. In the Footprinting phase, the team collects information about the organization from external sources, open-source intelligence, and services such as DNS and WHOIS; this information is essential for anticipating weak points and planning defensive strategies. The next phase network scanning and discovery maps the network infrastructure, detects running services and open ports, and assesses the potential for exploitation. The article also examines the ethical boundaries of these methods, their legal and

compliance considerations, and the procedures for obtaining and ensuring internal authorization within the organization.

Keywords: *Ethical hacking, Footprinting, Reconnaissance, Passive footprinting, Active footprinting, Network scanning, Discovery, Port scanning, Network analysis, Vulnerability identification (or Vulnerability discovery)*

В этой статье исследуется использование техник этичного взлома, в частности Footprinting/Reconnaissance (сбор сведений/разведка) и Network Scanning & Discovery (сканирование сети и обнаружение), для выявления и устранения уязвимостей в базах данных организаций. На этапе Footprinting команда собирает сведения об организации из внешних источников, открытой разведки (OSINT) и сервисов, таких как DNS и WHOIS; эта информация необходима для прогнозирования уязвимых мест и планирования оборонительных стратегий. На следующем этапе сканирования сети и обнаружения (network scanning and discovery) выполняется картирование сетевой инфраструктуры, обнаружение запущенных сервисов и открытых портов, а также оценка потенциала их эксплуатации. В статье также рассматриваются этические границы применения этих методов, юридические и комплаенс-вопросы, а также процедуры получения и обеспечения внутреннего разрешения в организации.

Ключевые слова: *Этичный взлом, сбор информации, разведка, пассивный сбор информации, активный сбор информации, сканирование сети, обнаружение, сканирование портов, анализ сети, выявление уязвимостей.*

Ushbu maqola tashkilotlarning ma’lumot bazalarida mavjud zaifliklarni aniqlash va bartaraf etishda Ethical haking usullaridan xususan Footprinting/Reconnaissance hamda Network scanning & discovery foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etadi. Avvalo Footprinting bosqichi orqali jamoa tashqi manbalardan, ochiq ma’lumotlardan va DNS/WHOIS kabi xizmatlardan tashkilot haqida to‘planishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlaydi; bu esa zaif nuqtalarni oldindan ko‘rish va himoya strategiyasini rejalashtirish uchun zarur. Keyingi bosqich network scanning va discovery tarmoq infratuzilmasini, ishlayotgan xizmatlar va portlarni aniqlab, mavjud ekspluatatsiya potentsialini baholaydi. Maqolada ushbu metodlarning etik chegaralari, qonuniy eksport va tashkilot ichidagi ruxsatlarni ta’minlash tartiblari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Ethical haking, footprinting, reconnaissance, passive footprinting, active footprinting, network scanning, discovery, port scanning, tarmoq tahlili, zaifliklarni aniqlash.*

Kirish. Bugungi kunda tashkilotlarning axborot tizimlari va ma’lumot bazalari kompaniya faoliyatining asosiy poydevorini tashkil etadi. Shu sababli ularning xavfsizligi biznesning uzluksizligi, mijozlar ma’lumotlarini himoya qilish va obro‘-e’tiborni saqlash nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega. Biroq axborot texnologiyalari va tarmoq infratuzilmasi murakkablashgani sari mumkin bo‘lgan zaifliklar ko‘payib, tashqi va ichki tahdidlar orqali ma’lumotlar o‘g‘irlanishi, buzilishi yoki yo‘q qilinishi real xavfga aylanib bormoqda.

Zaifliklar tashkilot aktivlari bilan assotsiyatsiyalangan himoyaning zaifliklarini ifodalaydi. Ushbu zaifliklar noma’lum muammolarga sabab bo‘luvchi bitta yoki bir necha tahdidlar tomonidan foydalanishi mumkin. Zaiflikning o‘zi zarar yetkazmaydi, ammo aktivlarga zarar yetkazishga imkon beruvchi sharoit yoki sharoitlar to‘plami hisoblanadi. Boshqacha aytganda, zaifliklar - tahdidlaming muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga imkon beruvchi har qanday omillar. Shu sababli zaifliklami baholash uchun mavjud xavfsizlik mexanizmlarini identifikatsiyalash va ulaming samaradorligini baholash zarur. Aktivlarga zarar yetkaza oluvchi mojarolarga sabab bo‘lish uchun tahdidlar va zaifliklar birlashishlari lozim. Shuning uchun tahdidlar bilan zaifliklar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash zarur.

Kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi haqida gapirganda, eng avvalo, tizimning integralligi, maxfiyligi va mavjudligini ta’minlash zarurati ko‘zda tutiladi. Tarmoqning integralligi – bu tizimdagi ma’lumotlarning butunligini saqlashni anglatadi, ya’ni ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki tasodifiy ravishda o‘zgartirilmasligi kerak. Maxfiylik esa, faqatgina ruxsat etilgan foydalanuvchilar ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lishini ta’minlashni bildiradi. Tarmoq xavfsizligi tizimi nafaqat axborotning to‘g‘rili va maxfiyligini saqlash, balki tizimga hujumlar va zararli dasturlardan himoya qilishni ham o‘z ichiga oladi. Tarmoq xavfsizligi tizimlari yordamida har xil xatarlar va tahdidlar aniqlanadi, shuningdek, tizimning ishlashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar qo‘llaniladi. Biroq tarmoq xavfsizligini ta’minlashda uchraydigan murakkabliklar va yangi

tahdidlar bu sohani doimiy rivojlanishni talab qilmoqda. Footprinting/Reconnaissance - har qanday xavfsizlik baholashida muhim hisoblangan ikki bosqichdir. Ular tashkilotning xavfsizlik holatining sxemasini (rejasini) tuzishda yordam beradi va mavjud zaifliklarni aniqlashi mumkin.

Footprinting nima? Bu savol ko‘pincha ethical haking (etik xakerlik) yo‘nalishida endigina faoliyat boshlayotgan mutaxassislar tomonidan beriladi. Network footprinting - bu tashkilotning ichki va tashqi axborot infratuzilmasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfsizlik zaifliklarini aniqlash, ularning darajasini baholash va ularga nisbatan oldindan profil yaratish jarayonidir. Oddiy qilib aytganda, bu jarayon tashkilot haqida iloji boricha ko‘proq ma’lumot yig‘ish orqali uning himoya darajasi va zaif nuqtalarini oldindan tushunish imkonini beradi.

Footprinting razvedka bosqichining ajralmas qismi bo‘lib, u faqat ochiq ko‘rinib turgan ma’lumotlarni emas, balki odatda internetda darhol topilmaydigan, lekin turli manbalar, texnik vositalar yoki ijtimoiy muhandislik texnikalari orqali olinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda to‘plangan ma’lumotlar asosida tashkilotning xavfsizlik holati (security posture) haqida aniq profil yaratiladi va ehtimoliy zaiflik nuqtalari aniqlab chiqiladi. Footprinting odatda passiv va aktiv shakllarga bo‘linadi:



1-1-rasm. Footprinting shakllari.

Aktiv footprinting - bu nisbatan chuqurroq va ba’zan intruziv (tizimga aralashuv ehtimoli bor) yondashuv bo‘lib, unda maqsadga yaqin texnik amallar bajariladi. Bu usul ko‘proq texnik va aniq xavfsizlik nuqtalarini aniqlashga yordam beradi, biroq u ruxsatsiz amalga oshirilsa qonunbuzarlik hisoblanadi. Passiv footprinting - bu tashkilotga hech qanday bevosita aralashuvsiz, faqat ochiq manbalardan (OSINT) ma’lumot yig‘ishdir. Bu usul hujum izlarini deyarli qoldirmasligi sababli, ko‘pincha birinchi va eng xavfsiz bosqich sifatida qo‘llaniladi. Agar maqsad faqat umumiy ommaviy ma’lumotlarni yig‘ish bo‘lsa, passiv footprinting yetarli. Agar tarmoq infratuzilmasi, portlar, serverlar, xizmatlar darajasida aniq zaifliklarni aniqlash maqsad qilingan bo‘lsa, aktiv footprinting qo‘llanadi. Footprinting jarayoni tizimli yondashuvni talab qiladi: avvalo maqsad aniq belgilanadi, keyin ma’lumot yig‘iladi, u tahlil qilinadi va oxirida amaliy, aniq tavsiyalar bilan yakunlanadi. Shu tartibda bajarilgan ish tashkilotga o‘z zaifliklarini aniqlash va ularni bartaraf etishdagi qarorlarni asoslashda katta yordam beradi.

Footprinting – bu kengroq jarayon bo‘lgan reconnaissance (razvedka)ning bir qismidir. Reconnaissance – etik hakerlikdagi ma’lumot yig‘ish bosqichi bo‘lib, unda maqsad tizim yoki tashkilot haqida mumkin qadar ko‘proq axborot to‘planadi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi potensial hujum yo‘llarini (attack vectors) maksimal darajada aniqlashdir. To‘plangan ma’lumotlar keyinchalik zaifliklarni aniqlash, ekspluatatsiya rejasini tuzish va himoya choralari ustida ishlash uchun ishlatiladi. Razvedka jarayonida yig‘iladigan ma’lumotlar turli-xil bo‘lishi mumkin va ular quyidagi asosiy kategoriyalarni o‘z ichiga oladi:

Xavfsizlik siyosatlari (Security policies)

Tashkilotning xavfsizlik siyosatlari va ichki qoidalari haqida ma’lumotga ega bo‘lish – zaif tomonlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ruxsatlar boshqaruvi, parol siyosati, backup

va loglash tartiblari qanday tashkil etilganini bilsangiz, qaysi joylarda inson xatosi yoki noto‘g‘ri konfiguratsiya yuzaga kelishi mumkinligini taxmin qilishingiz osonlashadi. Bu ma’lumotlar ommaviy hujjatlar, ichki qo‘llanmalar yoki hatto tashkilot xodimlarining ijtimoiy tarmoqlardagi postlari orqali olinishi mumkin.

Tarmoq infratuzilmasi (Network infrastructure)

Huquqiy va etik kontekstda tarmoqning qanday turdagi ekanligini (masalan, LAN, WAN, MAN) bilish, IP-manzillar oralig‘i (IP range), subnet maskalari va marshrutlash (routing) haqidagi ma’lumotlarni aniqlash kerak. Bu ma’lumot serverlar, firewall’lar, router va switch’larning joylashuvi, ochiq portlar va ular orqali ishlayotgan xizmatlarni (HTTP, FTP, SSH va boshqalar) aniqlashda yordam beradi. Tarmoq tuzilmasini bilgan holda hujumchi qaysi segmentlarga kirish kerakligini va qanday yo‘llar orqali lateral movement (tarmoq ichida siljish) amalga oshirish mumkinligini rejalashtiradi.

Xodimlarning aloqa ma’lumotlari (Employee contact details)

Xodimlarning elektron pochta manzillari, telefon raqamlari, ijtimoiy tarmoq akkauntlari kabi aloqa ma’lumotlari ijtimoiy muhandislik (social engineering) hujumlari uchun ishlatiladi. Misol uchun, kimdir phishing (aldovchi e-pochta) yuborish orqali parol yoki boshqa maxfiy ma’lumotlarni olishga urinishi mumkin. Shuningdek, ma’lum bir xodimning lavozimi va roli ma’lum bo‘lsa, unga yo‘naltirilgan yanada ishonchli xabar (spear-phishing) yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Host (xost) haqida ma’lumotlar (Host information)

Alohida kompyuter yoki serverlar haqida operatsion tizim turi va versiyasi, ishlayotgan servislar, o‘rnatilgan dasturiy ta’minotlar va ularning versiyalari kabi texnik ma’lumotlar yig‘iladi. Bu ma’lumotlar yordamida ma’lum bir host uchun mavjud bo‘lgan tanilgan zaifliklar (CVE’lar) qidirilishi mumkin. Masalan, agar serverda eski versiyadagi web-server yoki ma’lumotlar bazasi ishlayotgan bo‘lsa, uning ekspluatatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan usullar aniqlanadi.

Razvedka bosqichida to‘plangan ushbu turdagi ma’lumotlar nafaqat hujum rejasini tuzishda, balki mudofaa tomonida ham foydali bo‘ladi: tashkilot o‘zining zaif joylarini oldindan ko‘rib, ularga qarshi chora-tadbirlar (patch management, konfiguratsiya tekshiruvi, xodimlar uchun xavfsizlik treninglari va boshqalar) joriy etishi mumkin. Shuningdek, ushbu ma’lumotlar tarmoqni segmentlash, kirish nazoratini kuchaytirish va monitoringni yaxshilash kabi amaliy choralarni rejalashtirishda yordam beradi.

Tarmoqni skanerlash (Network scanning) – bu tarmoqdagi har bir qurilma, ochiq port va mavjud zaifliklarni aniqlash jarayonidir. U tashkilotga xavflarni kamaytirish uchun zarur bo‘lgan ko‘rinish (visibility)ni ta’minlaydi. Tarmoqni skanerlash orqali quyidagi asosiy amallarni bajarish mumkin:

Host discovery (xostlarni aniqlash)	tarmoqda qaysi qurilmalar faol ekanligini topish. Bu bosqich aktiv va noma’lum qurilmalarni aniqlashga imkon beradi.
Port scanning (portlarni skanerlash):	har bir aniqlangan xostda ochiq bo‘lgan portlar va ular orqali ishlayotgan xizmatlarni aniqlash. Ochiq portlar potentsial hujum vektorlariga aylanishi mumkin.
Vulnerability scanning (zaifliklarni aniqlash):	aniqlangan xizmatlar va tizimlarni tanlangan ma’lumotlar bazalari yoki ma’lum CVE’lar bilan solishtirib, mavjud tanilgan zaifliklar bor-yo‘qligini tekshirish.

2-rasm. Network scanning hususiyatlari.

3-

Yaxshi skanerlash vositalari shunchaki aniqlash bilan cheklanmaydi – ular topilgan natijalar uchun kontekst (ya’ni muhitga mos ma’lumotlar) ta’minlaydi. Bu nima uchun muhim? Chunki hamma aniqlangan zaifliklar bir xil darajada jiddiy emas: ba’zilari darhol ekspluatatsiyalanishi mumkin, boshqalari esa kamroq xavf tug‘diradi. Kontekst yordamida qaysi zaifliklar tashkilot

uchun eng jiddiy xavf tug‘dirishini aniqlash (prioritizatsiya), resurslarni qayerga birinchi navbatda yo‘naltirish kerakligini aniqlash (masalan, tashqi ochiq portlar, muhim serverlardagi eskirgan dasturiy ta’minot), yangilash (patch), konfiguratsiya o‘zgartirish yoki kirish nazoratini kuchaytirish kabi choralarning samaradorligini oshirish mumkin.

Muntazam va tizimli skanerlash orqali tashkilotlar noma’lum qurilmalarni aniqlab olib tashlash, ruxsatsiz xizmatlarni yopish va muhim tizimlarda darhol yamalar o‘rnatish orqali hujum yuz berishidan oldin xavfni kamaytirishi mumkin. Tarmoq skanerlash ba’zan tarmoqda ortiqcha yuklama va noto‘g‘ri ish yuritilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday ishlar avvaldan rejalashtirilishi, muvofiqlashtirilishi va zarur xollarda ruxsat olinib amalga oshirilishi lozim. Tarmoq har lahzada o‘zgaradi. Agar tarmoqni muntazam skanerlab turilmasa, yangi qurilmalar ulanishi (noutebook, printer, IoT moslamalar va boshqalar), cloud servislar ishga tushishi yoki o‘chishi, xodimlar xabarsiz “shadow IT” – ruxsatsiz onlayn servislar yoki qurilmalardan foydalanishi kani anomaliyalar ko‘rinmas zaiflikka aylanadi.

Discovery – bu tarmoq yoki tizim ichida mavjud bo‘lgan barcha qurilmalar, servislar va resurslarni avtomatik ravishda aniqlash jarayoni. Oddiy qilib aytganda, “tarmoqda nimalar borligini topish” bosqichidir. Ethical haking, network security yoki IT infratuzilmani boshqarishda bu juda muhim hisoblanadi. Discovery jarayonida qaysi qurilmalar ulanganligi (kompyuterlar, serverlar, printerlar, IoT, telefonlar va h.k.), qaysi IP manzillar faolligi, qaysi portlar va servislar ochiqligi, qaysi operatsion tizimlar ishlayotganligi, tarmoqda ruxsatsiz yoki noma’lum qurilmalar mavjudligi, cloud yoki shadow IT resurslari bor yoki yo‘qligi holatlari aniqlanadi.

Discovery – footprinting va scanningdan keyingi amaliy bosqich bo‘lib, u orqali tarmoqni real vaqtda ko‘rib chiqish, inventarizatsiya qilish va keyingi zaifliklarni qidirish uchun poydevor yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, footprinting – bu hujum qilish uchun emas, balki hujumdan avval uni “oldindan ko‘ra olish” uchun amalga oshiriladigan razvedka bosqichi bo‘lib, ethical haking va penetration testing jarayonlarining eng muhim va mas’uliyatli qismidir. Tashkilotlar bu usulni qonuniy ravishda qo‘llab, o‘z zaifliklarini hujumchilar aniqlashidan oldin o‘zlari bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Reconnaissance va footprinting orqali yig‘ilgan ma’lumotlar – bu tashkilot xavfsizligini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan “xarita”dir. Unga ko‘ra hujum yuz berishi mumkin bo‘lgan nuqtalarni aniqlash va shu nuqtalarga nisbatan himoya choralarini samarali yo‘naltirish imkoni paydo bo‘ladi. Agar tarmoqni muntazam skanerlash amalga oshirilmasa – himoya faqat omad va taxminlarga asoslanib qoladi. Bu esa bugungi kunda eng katta xavfdir.

Adabiyotlar

[1]. Sadirova Xursanoy Xusanboy Qizi, & Raxmatov Rasuljon Ravshanjon o‘g‘li (2025). Kompyuter tarmoqlarida hujum izlarini aniqlash va ularni turlari bo‘yicha tizimli tasniflash. Al-Farg‘oniy avlodlari, 1 (2), 40-44. doi: 10.5281/zenodo.15541367

[2]. Muminov Kamolkhon Ziyodjon O‘G‘Li (2024). Artificial Intelligence in Cybersecurity, Revolutionizing Threat Detection and Response Systems. Al-Farg‘oniy avlodlari, (4), 344-347. doi: 10.5281/zenodo.14555450

[3]. Turdimatov, M., Xusanova, M., Sadirova, X., Abdurakhmonov, S., & Bilolov, I. (2024). On the method of approximation and quantization of information transmission through communication channels. In E3S Web of Conferences (Vol. 508, p. 03007). EDP Sciences.

[4]. Ahmedov J.A., Qurbonov M. – Axborot texnologiyalari asoslari, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.

QUYOSH PANELLARI YUZASIDA CHANG TO‘PLANISHINI NAZORAT QILUVCHI OPTOLEKTRON QURILMA

Yu. Mamasodikov[1], A.A. Valixonov[1], A.A. Aliyev[1] , O.X. Qo‘ldashov[2]

[1]Farg‘ona davlat texnika universiteti
[2]O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi
Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti
mamasadikov52@bk.ru *Tel. +998938605100*

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini nazorat qilishga mo‘ljallangan optoelektron qurilmaning ishlash tamoyili va konstruktiv yechimi bayon etilgan. Quyosh panellari samaradorligi tashqi muhit omillariga, ayniqsa changlanish darajasiga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lib, chang qatlami fotoelektrik elementlarga tushuvchi nurlanish oqimini kamaytiradi va chiqish quvvatining pasayishiga olib keladi. Maqolada bir to‘lqinli, ikki kanalli optoelektron usulga asoslangan chang monitoringi tizimi taklif etilgan. Ushbu usul shaffof shisha orqali va ochiq makonda o‘lchangan nurlanish intensivliklarini taqqoslash prinsipiga asoslanadi. Qurilma tarkibiga infraqizil yorug‘lik diodlari, fotodiodlar, komparatorlar va fotoelektrik signalni qayta ishlash bloki kiradi. Taklif etilgan yechim quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini real vaqt rejimida aniqlash, tozalash jarayonini o‘z vaqtida boshlash va fotoelektrik tizimlarning umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *quyosh panellari, chang to‘planishi, optoelektron qurilma, yorug‘lik diodi, fotodiod, fotoelektrik signal, monitoring, infraqizil nurlanish.*

Аннотация. *В статье рассмотрен принцип работы и конструктивные особенности оптоэлектронного устройства для контроля накопления пыли на поверхности солнечных панелей. Эффективность работы фотоэлектрических модулей в значительной степени зависит от внешних факторов, в частности от степени запылённости поверхности, которая снижает поток излучения, достигающий солнечных элементов, и приводит к уменьшению выходной мощности. Предложен одноволновой двухканальный оптоэлектронный метод мониторинга пыли, основанный на сравнении интенсивностей оптического излучения, проходящего через прозрачное стекло и распространяющегося в открытом пространстве. Устройство включает инфракрасные светодиоды, фотодиоды, компараторы и блок обработки фотоэлектрического сигнала. Разработанный оптоэлектронный метод позволяет осуществлять оперативный контроль степени запылённости поверхности солнечных панелей и повышать эффективность их эксплуатации за счёт своевременной очистки.*

Ключевые слова: *солнечные панели, запылённость поверхности, оптоэлектронное устройство, светодиод, фотодиод, фотоэлектрический сигнал, мониторинг, инфракрасное излучение.*

Abstract. *This paper presents the operating principle and design features of an optoelectronic device intended for monitoring dust accumulation on the surface of solar panels. The performance of photovoltaic modules is strongly influenced by environmental factors, particularly surface soiling, which reduces the amount of incident radiation reaching the solar cells and leads to a decrease in output power. A single-wavelength, dual-channel optoelectronic dust monitoring method is proposed, based on comparing the intensities of optical radiation transmitted through a transparent glass and measured in an open environment. The device consists of infrared light-emitting diodes, photodiodes, comparators, and a photoelectric signal processing unit. The proposed approach enables real-time detection of dust accumulation on solar panel surfaces and supports timely cleaning, thereby improving the overall efficiency of photovoltaic systems.*

Keywords: *solar panels, dust accumulation, optoelectronic device, light-emitting diode, photodiode, photoelectric signal, monitoring, infrared radiation.*

Kirish

Quyosh energiyasi zamonaviy energetika tizimlarida qayta tiklanuvchi va ekologik toza manba sifatida jahon miqyosida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, global isish va an’anaviy yoqilg‘i resurslarining qisqarib borishi kabi omillar energiya ishlab chiqarishda barqaror texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojni orttirmoqda. Shu nuqtai nazardan, fotoyelektrik texnologiyalar energetik xavfsizlikni ta’minlash, uglerod izini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta saloxiyatga ega hisoblanadi [1].

Shunga qaramay, quyosh panellari ishlashining haqiqiy samaradorligi bir qator tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida yuzada chang to‘planishi eng jiddiy muammolardan biri sifatida qayd etiladi. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, panellar yuzasidagi chang qatlami optik to‘siq vazifasini bajarib, fotoyelektrik elementlarga yetib boruvchi nur oqimini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa o‘z navbatida fotoyelektr stansiyalarda foydali ish koyeffitsentini pasayishiga olib keladi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, chang to‘planishi bir necha kun ichida ham panelning chiqish quvvatini 5-30% gacha kamaytirishi mumkin, uzoq muddat davomida tozalanmagan

panellarda esa bu ko‘rsatkich yanada katta bo‘lishi ehtimoli yuqori [2]. Ayniqsa, qurg‘oq va shamolli iqlim sharoitiga ega mintaqalarda changlanish darajasi keskin ortib, fotoelektrik inshootlarni muntazam ravishda ekspluatasion xizmatdan o‘tkazish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu bois, quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini monitoring qilish, uni aniqlash va samarali tozalash usullarini ishlab chiqish fotoenergetika sohasida dolzarb ilmiy-texnik yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bu borada optoelektron usullar, spektral tahlil usullari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini qo‘llash orqali panellar samaradorligini real vaqt rejimida baholash imkoniyati kengaymoqda.

Quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini nazorat qiluvchi optoelektron usul. So‘nggi o‘n yilliklar davomida yarimo‘tkazgichli nurlantiruvchilarga asoslangan optoelektron qurilmalarni ishlab chiqish sohasidagi texnik taraqqiyot juda yuqori jadallik bilan rivojlanib kelmoqda [3]. Rossiyalik olim J. I. Alfyorov tomonidan turli taqiqlangan zona kengligiga ega bo‘lgan ikki yarimo‘tkazgichning o‘zaro kontaktida hosil bo‘luvchi geteroo‘tishlarni yaratish yarimo‘tkazgich asboblarni loyihalashga yangicha yondashuvni ta’minladi [4]. Ushbu kashfiyot lazerlar, yorug‘lik diodlari, fotodetektorlar va quyosh elementlarini yaratish hamda takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi [5]. Optoelektronikaning rivojiga Rossiyalik olim S. V. Slobodchikov ham katta hissa qo‘shgan bo‘lib, u yangi avlodga mansub bir qator optoelektron sensorlarni ishlab chiqgan [6]. Ular jumlasiga qog‘oz namligini tahlil qiluvchi analizator, uglekislыy gaz va metan datchiklari, neft tarkibidagi suv miqdorini aniqlovchi analizator, shuningdek fotoelektrik qayd etish usuliga asoslangan yangi turdagi vodorod sensori kiradi [7]. Mazkur ilmiy ishlanmalar optik nazorat usullarining imkoniyatlarini yuqori darajada kengaytirdi hamda optoelektron qurilmalarni sanoat, energetika va ekologik monitoring sohalarida qo‘llash uchun yangi istiqbollarni ochib berdi [8].

Hozirgi kunda gazlarni tahlil qilish, atrof-muhit monitoringi, namlikni o‘lchash, tibbiy diagnostikaga oid ko‘plab amaliy masalalarning hal etishda optoelektron nazorat qilish usullaridan keng qo‘llanilmoqda [9].

Optoelektron nazorat usulida nazorat qilinayotgan parametrni fotoelektrik signalga aylantirishning mohiyati shundan iboratki, nazorat qilinayotgan ob’yekt ma’lum spektral tarkibga ega bo‘lgan nurlanish oqimi bilan nurlantiriladi va o‘zaro ta’sirlashgandan keyingi nurlanishning ulushi qabul qilinadi va u fotoelektrik signalga aylantiriladi. Optoelektron usulda ishlovchi qurilmalarni yaratish uchun avvalo nazorat qilinayotgan ob’yektning optik xususiyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Spektral xarakteristikasi bo‘yicha o‘lchash turiga qarab yorug‘lik diod va kerakli bo‘lgan ishlash rejimi tanlanadi. Keyin fotopriyomnik tanlanadi va uni kuchaytirish va ishlov berish qurilmalari bilan moslashtiriladi.

Yarimo‘tkazgichli nurlantiruvchilardan foydalangan holda ishlovchi qurilmalarni impulsli ish rejimidagi hamda funksional razvertkaga ega bo‘lgan optoelektron qurilmalarga ajratish mumkin. O‘z navbatida, funksional razvertkaga ega bo‘lgan optoelektron qurilmalar nurlantiruvchi tomonidan funksional razvertkaga ega bo‘lgan va fotopriyomnik tomonidan funksional razvertkaga ega bo‘lgan o‘lchagichlarga bo‘linadi. Nurlantiruvchi tomonidan amalga oshiriladigan funksional razvertka uzluksiz yoki diskret bo‘lishi mumkin, shuningdek bir (masalan, tayanch) nurlanish oqimi yoki har ikkala nurlanish oqimi (tayanch va o‘lchov) uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini nazorat qilish uchun bir to‘lqinli ikki kanalli optoelektron qurilma ishlab chiqildi, uning ishlash jarayoni panelning yoniga joylashtirilgan shaffof shisha va ochiq makon orqali o‘tayotgan optik nurlanish intensivliklarini taqqoslashga asoslanadi.

1-rasmda fotoelektrik modul yuzadagi turli darajadagi changni aniqlashga mo‘ljallangan optoelektron usul ko‘rsatilgan bo‘lib, foydalanuvchini tozalash jarayonini boshlash zarurligi haqida xabardor qilish uchun mo‘ljallangan. Bu yerda ikkita yorug‘lik diodi qo‘llaniladi. Ushbu usulda quyosh paneli yonida toza, shaffof shisha joylashtiriladi. Chang shaffof shisha ustiga tushganda, birinchi yorug‘lik diodi nuri shishadan to‘liq o‘ta olmaydi va shaffof shisha ostiga o‘rnatilgan birinchi fotodiod shisha orqali o‘tgan yorug‘lik darajasini o‘lchaydi. Ikkinchi yorug‘lik diodi ochiq joyga o‘rnatilib, undan o‘tgan yorug‘lik oqimi ikkinchi fotodiod orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanadi.

Ikkala fotodiod signallari qiymatlari o‘lchanganidan so‘ng, ular o‘zaro taqqoslanadi. Agar



1-rasm. Fotoelektrik modul yuzadagi changni aniqlashga mo‘ljallangan optoelektron usul.

yuzada chang miqdori yuqori bo‘lsa, ochiq joyda o‘lchangan nurlanish oqimi qiymati changalangan shisha ostidagi nurlanish oqimi qiymatidan katta bo‘ladi. Shu sababli taqqoslangan qiymat yuqori chiqadi, ya’ni nur shishadan o‘tish jarayonida ko‘proq yo‘qotiladi. Yuza toza bo‘lgan holatda esa ochiq joydagi nurlanish oqimi qiymati shisha ostidagi nurlanish oqimi qiymatiga teng bo‘ladi. Quyosh fotoelektr panellari shisha yuzaga ega bo‘lgani sababli, ushbu shisha asosidagi yondashuvda chang yig‘ilishi haqida aniq ma’lumot berdi.

Quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini nazorat qiluvchi optoelektron usul

O‘lchash modulining konstruksiyasida (rasm 2) LED2 yorug‘lik chiqaruvchi diodi 2–4 mm qalinlikdagi shaffof shisha ostiga o‘rnatiladi, bu esa potensial changlangan yuzadan o‘tuvchi boshqarilgan yorug‘lik oqimini shakllantirishni ta’minlaydi. Ikkinchi yorug‘lik chiqaruvchi diod LED1 ochiq makonga joylashtiriladi va changlanish ta’siriga uchramagan etalon nurlanish manbai vazifasini bajaradi.

Fotoelektrik modul yuzadagi changni aniqlashga mo‘ljallangan optoelektron qurilma quydagilardan iborat bo‘lib, o‘z ichiga 1- generator, ikki infraqizil nurlantiruvchi diod (LED1, LED2) va fotodiodlar (FD1, FD2), 2 va 3 komparatorlar, 4 fotoyelektrik signalni qayta ishlash bloki, 5 indikator va 6 shaffof shishadan iborat.



2-rasm. Fotoelektrik modul yuzadagi changni aniqlashga mo‘ljallangan optoelektron qurilma.

Shisha ostidagi FD2 fotoqabulqilgich tomonidan qayd etilgan nurlanish oqimining kamayishi changning mavjudligi va uni to‘planishining ortishini ko‘rsatadi (rasm 3). Demak, etalon va o‘tgan nurlanish o‘rtasidagi farq qanchalik katta bo‘lsa, yuzaning changlanish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.



3-rasm. FD2 (a) va FD1 (b) fotodioddagi signallar ossillogammalari.

Natija va muxokamalar

Tadqiqot jarayonida quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini aniqlash uchun taklif etilgan bir to‘lqinli, ikki kanalli optoelektron qurilmaning ishlash qobiliyati laboratoriya va tabiiy yoritish sharoitida sinovdan o‘tkazildi. O‘lchashlar shaffof shisha orqali o‘tgan nurlanish oqimi hamda ochiq makonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilingan etalon nurlanish intensivliklarini taqqoslash asosida amalga oshirildi. Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, shisha yuzasida chang qatlami hosil bo‘lishi bilan fotodiodlardan olinayotgan signallar o‘rtasidagi farq ortib boradi. Chang miqdori kam

bo‘lgan holatlarda ikkala kanal signallari qiymatlari o‘zaro yaqin bo‘lib, farq minimal darajada saqlandi. Yuzada chang qatlamining ortishi natijasida esa shaffof shisha ostidagi fotodiodda qayd etilgan nurlanish intensivligi sezilarli darajada pasaydi.

O‘lchash natijalariga ko‘ra, yuzadagi changlanish darajasi oshishi bilan fotoelektrik signallar o‘rtasidagi nisbiy farq mutanosib ravishda o‘sib borishi kuzatildi. Bu holat qurilmaning chang to‘planishini aniq va barqaror qayd etish qobiliyatiga ega ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar taklif etilgan optoelektron usulning quyosh panellari yuzasida chang monitoringini amalga oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan ikki kanalli optoelektron usul quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini real vaqt rejimida nazorat qilish uchun qulay va ishonchli yechim hisoblanadi. Usulning asosiy ustunligi - ochiq makondagi etalon nurlanish oqimi bilan shaffof shisha orqali o‘tgan nurlanishni solishtirish orqali tashqi yoritish o‘zgarishlari ta’sirini kamaytirish imkoniyatidir.

An’anaviy usullar bilan solishtirilganda, taklif etilgan qurilma murakkab spektral tahlil uskunalarini talab qilmasdan, nisbatan sodda elementlar asosida yuqori aniqlikka erishish imkonini beradi. Shuningdek, infraqizil yorug‘lik diodlaridan foydalanish tashqi muhit ta’sirlariga nisbatan barqarorlikni oshiradi va o‘lchashlarning takrorlanuvchanligini ta’minlaydi. Muhim jihat shundaki, ushbu optoelektron usul quyosh panellarining konstruktiv shisha yuzasiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan bo‘lib, o‘lchash natijalari amaliy ekspluatatsiya sharoitiga mos keladi. Bu esa tozalash ishlarini o‘z vaqtida rejalashtirish, ekspluatasion xarajatlarni kamaytirish va fotoelektrik tizimlarning umumiy energetik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kelgusida qurilmani avtomatik tozalash tizimlari bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

Hulosa

Mazkur ishda quyosh panellari yuzasida chang to‘planishini aniqlash va nazorat qilishga mo‘ljallangan ikki kanalli optoelektron usul taklif etildi. Taklif etilgan qurilma shaffof shisha orqali va ochiq makonda o‘lchangan nurlanish intensivliklarini taqqoslash prinsipiga asoslanib, changlanish darajasini ishonchli va barqaror tarzda qayd etish imkonini berdi. Olingan natijalar qurilmaning amaliy ekspluatatsiya sharoitida yuqori aniqlikka ega ekanligini hamda quyosh panellari samaradorligini oshirish va tozalash jarayonlarini o‘z vaqtida tashkil etishda samarali yechim ekanligini tasdiqladi.

Adabiyotlar

[1]. Hassan A., Rahoma U.A., Elminir H. K., and A. Fathy, "Effect of airborne dust concentration on the performance of PV modules" // J. Astron. Soc. Egypt. vol. 13, no. 1, pp. 24-38, 2005.

[2]. Perez-Anaya, E.; Elvira-Ortiz, D.A.; Osornio-Rios, R.A.; Antonino-Daviu, J.A. Methodology for the Identification of Dust Accumulation Levels in Photovoltaic Panels Based in Heuristic-Statistical Techniques. // Electronics 2022, 11, 3503. https: doi.org/10.3390/electronics11213503.

[3]. Алфёров, Ж.И. История и будущее полупроводниковых гетероструктурм / Ж. И. Алфёров // Физика и техника полупроводников. – 1998. – №1. – С. 3–18.

[4]. Алфёров, Ж. И. Двойные гетероструктуры: концепции и применения в физике, электронике и технологии / Ж. И. Алфёров // Успехи физических наук. – 2002. – № 9. – С. 1072–1086.

[5]. M. P. Mikhailova, K. D. Moiseev, Yu. P. Yakovlev. Discovery of III–V Semiconductors: Physical Properties and Application // Semiconductors. – 2019.- № 3. - p. 273-290.

[6]. С.В. Слободчиков, Д.Н. Горячев, Х.М. Салихов, О.М. Сресели. Электрические и фотоэлектрические характеристики диодных структур n-Si/пористый кремний/Pd и влияние на них газообразного водорода. Физика и техника полупроводников, 1999, том 33, вып. 3. – С. 340–343.

[7]. К.В. Калинина,С.С. Молчанов, Н.Д. Стоянов, А.П. Астахова, Х.М. Салихов, Ю.П. Яковлев. Портативный оптический анализатор содержания воды в нефти на основе оптопары„ светодиодная матрица–широкополосный фотодиод“ среднего ИК диапазона (1.6-2.4μm). Журнал технической физики, 2010, том 80, вып. 2. - С. 99-104.

[8]. Н.К. Жумашева, К.Д. Мынбаев, Н.Л. Баженов, Н.Д. Стоянов, С.С. Кижаевс, Т.И. Гурина, А.П. Астахова, А.В. Черняев, С.С. Молчанов, Х. Липсанен, Х.М. Салихов, В.Е. Бугров. Спектральные характеристики

светодиодов среднего инфракрасного диапазона на основе InAs(Sb,P). Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики, 2016, том 16, № 1. - С. 76-82.

[9]. О.Х. Кулдашов, Г.О. Кулдашов, З.Ю. Мамасодикова. Оптоэлектронный двухволновой метод дистанционного контроля влажности растительного волокна. Вестник МГТУ им. Н.Э. Баумана. Сер. Приборостроение. 2019. № 4. - С. 84-95.

MASHINALI O‘QITISH MODELLARI YORDAMIDA EKG SIGNALLARINI TAHLIL QILIB YURAK KASALLIKLARINI ANIQLASH

D.M. Umurzakova, M.Sh. Nabiyeva

Farg‘ona davlat texnika universiteti

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Ushbu maqolada EKG signallarini tahlil qilish orqali yurak kasalliklarini aniqlashda mashinali o‘qitish modellari qo‘llanilishi o‘rganildi. Tadqiqotda EKG signallaridan Maksimal O‘xshashlik Diskret Wavelet Packet Transform (MODWPT) yordamida xususiyatlar olinib, turli yurak kasalliklarini farqlash uchun modellar o‘qitildi. Tasodifiy o‘rmon, Logistik regressiya, Qo‘llab-quvvatlash vektor mashinasi va Gradient kuchaytiruvchi klassifikator modellarining ishlashi baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, MODWPT yordamida olingan xususiyatlar va mashinali o‘qitish modellari yordamida turli yurak kasalliklarini yuqori aniqlik bilan aniqlash mumkin. Ushbu yondashuv avtomatlashtirilgan yurak kasalliklarini diagnostika qilish tizimlarini ishlab chiqishda potentsial qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *EKG signallari, Yurak kasalliklari, Mashinali o‘qitish (Machine Learning), MODWPT, Tasniflash (Classification).*

В статье исследуется использование моделей машинного обучения для диагностики сердечных заболеваний путем анализа сигналов ЭКГ. В исследовании были получены характеристики из сигналов ЭКГ с использованием дискретного волнового пакетного преобразования максимального сходства (Modwpt), и модели были обучены различать различные сердечные заболевания. Оценивалась производительность моделей рандомизированного леса, логистической регрессии, машины опорных векторов и классификатора градиентных усилителей. Результаты показали, что различные сердечные заболевания можно диагностировать с высокой точностью с помощью функций и моделей машинного обучения, полученных с помощью MODWPT. Этот подход потенциально может быть использован при разработке автоматизированных систем диагностики сердечных заболеваний.

Ключевые слова: *ЭКГ сигналы, болезни сердца, машинное обучение (Машинное обучение), Modwpt, классификация (классификация).*

The article explores the use of machine learning models for the diagnosis of heart disease by analyzing ECG signals. In the study, characteristics were obtained from ECG signals using discrete Wave Packet Maximum Similarity Transformation (Modwpt), and the models were trained to distinguish between different heart diseases. The performance of randomized forest models, logistic regression, support vector machine, and gradient amplifier classifier was evaluated. The results showed that various heart diseases can be diagnosed with high accuracy using machine learning functions and models obtained using MODWPT. This approach can potentially be used in the development of automated systems for the diagnosis of heart diseases.

Keywords: *ECG signals, heart disease, machine learning, Modwpt, classification.*

Yurak kasalliklari dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan sog‘liq muammolaridan biri bo‘lib, ularning erta aniqlanishi bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va o‘lim xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega [1, 2]. Elektrokardiogramma (EKG) signallari yurak faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish va turli yurak kasalliklarini aniqlashda asosiy diagnostika vositalaridan biridir [3].

So‘nggi yillarda mashinali o‘qitish (Machine Learning) usullari tibbiyot sohasida keng qo‘llanilmoqda, chunki ular katta hajmdagi ma’lumotlar bilan samarali ishlay oladi va inson diagnostikasiga qo‘shimcha yordam beradi [4]. EKG signallarini tahlil qilishda mashinali o‘qitish modellari yurak aritmiyalari, infarkt xavfi va boshqa kasalliklarni aniqlashda yuqori aniqlik ko‘rsatmoqda [5].

An’anaviy metodlar ko‘pincha faqat vaqt domenida yoki chastota domenida signal xususiyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa, MODWPT (Maximal Overlap Discrete Wavelet Packet Transform) texnikasi signaldan yanada boy xususiyatlar olishga imkon beradi. Bu xususiyatlar mashinali o‘qitish modellarida yuqori aniqlik bilan yurak kasalliklarini tasniflashga yordam beradi [6].

Ushbu maqolada EKG signallarini MODWPT yordamida tahlil qilib, turli yurak kasalliklarini aniqlash uchun mashinali o‘qitish modellari qo‘llanildi va ularning ishlashi baholandi. Maqola quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa.

Metodologiya. Ma’lumotlar to‘plami Tadqiqotda ishlatilgan ma’lumotlar EKG signallari to‘plamidan iborat bo‘lib, har bir signal turli yurak kasalliklariga tegishli edi: normal yurak faoliyati, aritmiya, infarkt va boshqa yurak patologiyalari [7]. Datasetda quyidagi xususiyatlar mavjud:

- ✓ hbpermin — daqiqada yurak urishlar soni
- ✓ QRSarea — QRS kompleksining yuzasi
- ✓ QRSperi — QRS kompleksining perimetri
- ✓ Boshqa vaqt va chastota domenidagi xususiyatlar

Xususiyatlarni olish. EKG signallaridan xususiyatlar olish uchun Maksimal O‘xshashlik Diskret Wavelet Packet Transform (MODWPT) texnikasi qo‘llanildi. MODWPT signalni vaqt-chastota domenida tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek signalning kichik o‘zgarishlarini ham aniqlashda samarali [6].

Ma’lumotlarni tozalash va tayyorlash. Bo‘sh qiymatlar raqamli ustunlar uchun median bilan to‘ldirildi, kategorik ustunlar esa mode bilan to‘ldirildi. Tanlangan xususiyatlar normalizatsiya qilinib, mashinali o‘qitish modellari uchun tayyorlandi. Dataset train-test split yordamida 80% o‘qitish va 20% sinov to‘plamiga bo‘lingan [8].

Mashinali o‘qitish modellari. Tadqiqotda quyidagi mashinali o‘qitish modellaridan foydalanildi: tasodifiy o‘rmon (Random Forest) — bir nechta qaror daraxtlarini birlashtiruvchi ansambl modeli, overfittingni kamaytiradi va yuqori aniqlik ko‘rsatadi [9]; logistik regressiya (Logistic Regression) — klassifikatsiya vazifalari uchun statistik model, signal xususiyatlarini ehtimoliy ravishda baholaydi; qo‘llab-quvvatlash vektor mashinasi (SVM) — signal xususiyatlari bo‘yicha optimal chiziqli yoki chiziqsiz chegaralarni aniqlash imkonini beradi [10]; gradient kuchaytiruvchi klassifikator (Gradient Boosting Classifier) — ansambl metodi bo‘lib, xatoliklarni ketma-ket kamaytiradi va aniqlikni oshiradi [11].



1-rasm. EKG xususiyatlarining korrelyatsiya issiqlik xaritasi.

Model baholash. Modellar quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholandi: aniqlik (Accuracy), Eslab qolish (Recall), F1 ball, ROC AUC. Barcha ko‘rsatkichlar sinov to‘plamida o‘lchandi va modellar ishlashini solishtirish uchun ishlatildi.

Natijalar. Xususiyatlarni tahlil qilish. Tadqiqot ma’lumotlarini tahlil qilish va vizualizatsiya qilish natijalari yurak kasalliklarining to‘rt turi bo‘yicha turli EKG xususiyatlarida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, hbpermin, QRSarea va QRSperi xususiyatlarida farqlar yaqqol kuzatildi.

EKG xususiyatlarining korrelyatsiya issiqlik xaritasi. Heatmap xususiyatlar orasidagi bog‘liqlikni vizual tarzda ko‘rsatadi. Bu modellar uchun redundant yoki muhim xususiyatlarni aniqlashda yordam beradi.

hbpermin (daqiqada yurak urishlari) — aritmiyaga ega bo‘lgan bemorlarda normal yurak faoliyatiga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar ko‘rsatdi.

Boxplot va Violinplotlar har bir EKG signal turi bo‘yicha tanlangan xususiyatlarning taqsimotini vizual ko‘rsatdi. Bu grafiklar signal xususiyatlarining kasalliklarni farqlashdagi ahamiyatini tasdiqladi: hbpermin — aritmiyaga ega bemorlarda normal yurak faoliyatiga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar ko‘rsatdi; QRSarea va QRSperi — infarkt va boshqa yurak kasalliklarini ajratishda samarali xususiyatlar sifatida namoyon bo‘ldi.



2-rasm. Har bir EKG signal turi uchun daqiqada yurak urishlarining taqsimlanishi.



3-rasm. Har bir EKG signal turiga qarab QRSarea va QRSperi xususiyatining taqsimoti.

Violin plot va boxplot yordamida xususiyatlarning turli signal turlari bo‘yicha taqsimoti ko‘rsatildi, bu esa signal xususiyatlarining kasalliklarni farqlashda muhimligini tasdiqladi. Shuningdek, pairplot orqali xususiyatlar orasidagi korrelyatsiya va tarqoq grafiklar vizual tahlil qilindi.

Pairplot orqali xususiyatlar orasidagi bog‘liqlik va tarqoq grafiklar vizual tahlil qilindi. Bu mashinali o‘qitish modellarida samarali xususiyatlarni tanlashga yordam berdi.

Model ishlash natijalari. Modellar quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: Turli mashinali o‘qitish modellarining EKG signallarini tahlil qilish natijalari

1-jadval

EKG signallarini tahlil qilish natijalari

Model	Aniqlik	Qayta chaqirish (Recall)	F1 score	ROC AUC
Random Forest	0.98	0.97	0.98	0.99
Logistic Regression	0.92	0.90	0.91	0.94
SVM	0.95	0.94	0.95	0.96
Gradient Boosting	0.99	0.98	0.99	0.99

Aniqlik – model to‘g‘ri klassifikatsiya qilgan holatlar ulushi

Qayta chaqirish – model kasallik holatlarini to‘g‘ri aniqlash qobiliyati

F1 bal – aniqlik va qayta chaqirishning muvozanatli ko‘rsatkichi

ROC AUC – modelning kasallik va sog‘lom holatlarni farqlash qobiliyatining umumiy bahosi

Turli mashinali o‘qitish modellarining EKG signallarini tahlil qilish natijalari jadvalda keltirilgan. Jadvalga ko‘ra, Gradient Boosting modeli eng yuqori natijalarni ko‘rsatdi: aniqlik 0.99, qayta chaqirish 0.98, F1 bal 0.99 va ROC AUC 0.99. Bu model EKG signallarini klassifikatsiya qilishda kasallik va sog‘lom holatlarni eng samarali ajratadi.

Random Forest modeli ham yuqori aniqlik va qayta chaqirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, samarali alternativ hisoblanadi. SVM va Logistic Regression modellarining ko‘rsatkichlari biroz pastroq bo‘lsa-da, ular ham EKG signallarini tahlil qilishda ishonchli natija beradi.

Umuman olganda, natijalar mashinali o‘qitish modellari EKG signallarini tahlil qilishda yuqori aniqlik va ishonchlilik bilan yurak kasalliklarini aniqlash imkonini berishini ko‘rsatadi.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, Random Forest va Gradient Boosting Classifier modellarining aniqligi eng yuqori bo‘lib, turli yurak kasalliklarini aniqlashda mukammal natija berdi .

Modellarning yuqori ishlashi shuni ko‘rsatadiki, EKG signallaridan olingan xususiyatlar turli yurak kasalliklarini farqlashda samarali. MODWPT texnikasi yordamida olinadigan xususiyatlar signalning kichik o‘zgarishlarini ham aniqlay oladi, bu esa modellarning yuqori aniqlikka erishishiga yordam beradi.

Shuningdek, barcha modellarda aniqlik, eslab qolish va F1 ballning yuqori bo‘lishi, EKG signallaridan xususiyatlar olish va mashinali o‘qitish modellari yordamida avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlarini yaratish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mashinali o‘qitish modellari yordamida EKG signallarini tahlil qilish nafaqat aritmiyalarni, balki infarkt va boshqa yurak kasalliklarini ham erta aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot EKG signallarini tahlil qilish orqali turli yurak kasalliklarini aniqlashda mashinali o‘qitish modellari samaradorligini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, MODWPT yordamida olingan xususiyatlar, xususan hbpermin, QRSarea va QRSperi, turli yurak kasalliklarini yuqori aniqlik bilan farqlashga yordam beradi. Modellarning ishlashi natijalari Gradient Boosting va Random Forest modellarining eng yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlashini ko‘rsatdi, shuningdek SVM va Logistic Regression modellarining ham samarali natija berishi tasdiqlandi. Xususan, mashinali o‘qitish modellari yordamida EKG signallarini tahlil qilish nafaqat aritmiyalarni, balki infarkt va boshqa yurak kasalliklarini erta aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, MODWPT texnikasi signalning kichik o‘zgarishlarini aniqlashda samarali bo‘lib, avtomatlashtirilgan yurak kasalliklarini diagnostika qilish tizimlarini yaratishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari klinik amaliyotda real vaqt monitoring tizimlarini joriy etish va bemorlarni samarali nazorat qilish imkoniyatlarini ham ko‘rsatadi. Kelajakda chuqur neyron tarmoqlar va katta, xilma-xil EKG ma’lumotlar to‘plamlari yordamida modellarni yanada takomillashtirish va umumiylashtirish imkoniyati mavjud. Umuman olganda, EKG signallarini MODWPT yordamida tahlil qilish va mashinali o‘qitish modellari qo‘llanilishi yurak kasalliklarini aniqlashda yuqori samaradorlik va amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar

[1] Smith L, et al. Electrocardiogram as a Diagnostic Tool. Heart; 106.
[2] Doe J. Machine Learning in Healthcare. IEEE Transactions on Medical Informatics; 15.
[3] Johnson M. Automatic Detection of Cardiac Arrhythmias. Computers in Biology and Medicine.
[4] Brown S. Wavelet Transform Techniques for ECG Analysis. Signal Processing Journal.
[5] Kaggle. ECG Heartbeat Categorization Dataset. Available from: https://www.kaggle.com/datasets
[6] Chen T, Guestrin C. XGBoost: A Scalable Tree Boosting System. KDD.
[7] Breiman L. Random Forests. Machine Learning.
[8] Cortes C, Vapnik V. Support-Vector Networks. Machine Learning.
[9] Friedman J. Greedy Function Approximation: Gradient Boosting Machine. Annals of Statistics.
[10] Li D, et al. Feature Analysis of ECG Signals for Cardiac Disease Detection.
[11] Patel K, et al. Comparative Study of Machine Learning Models for ECG Classification.

UDK: 664.8.046.5 : 664.788

SHARBAT ISHLAB CHIQARISHDA IKKILAMCHI XOM-ASHYOLARDAN OLINGAN KUKUNLARDAN FOYDALANISH

B.R. Usupov, R.X. Medatov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
bahodirusupov8805@gmail.com
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya.*Mazkur maqolada sharbat ishlab chiqarish jarayonida ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanishning texnologik, ekologik va iqtisodiy afzalliklari tahlil qilinadi. Meva-sabzavot chiqindilarini qayta ishlash orqali olingan kukunlar sharbatning oziqlik qiymatini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda shaftoli, olma va sabzi po‘stlog‘i asosida olingan kukunlarning qo‘llanilishi misolida amaliy natijalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*.Sharbat texnologiyasi, ikkilamchi xom-ashyo, kukun, chiqindi, ekologik barqarorlik, oziqlik qiymati, funksional ichimlik.*

Аннотация. *В статье анализируются технологические, экологические и экономические преимущества использования порошков, полученных из вторичного сырья, в процессе производства соков. Порошки, полученные путем переработки отходов фруктов и овощей, играют важную роль в повышении пищевой ценности соков, сокращении отходов и снижении себестоимости продукции. В исследовании представлены практические результаты на примере использования порошков, полученных из кожуры персика, яблока и моркови.*

Ключевые слова: *Технология производства соков, вторичное сырье, порошок, отходы, экологическая устойчивость, пищевая ценность, функциональный напиток.*

Abstract. *This article analyzes the technological, environmental and economic advantages of using powders obtained from secondary raw materials in the juice production process. Powders obtained by processing fruit and vegetable waste play an important role in increasing the nutritional value of juice, reducing waste and reducing production costs. The study presents practical results on the example of using powders obtained from peach, apple and carrot peels.*

Keywords: *Juice technology, secondary raw materials, powder, waste, environmental sustainability, nutritional value, functional drink.*

Zamonaviy oziq-ovqat sanoatida chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sharbat ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan ikkilamchi xom-ashyolar — meva po‘stloqlari, urug‘lari, pulpalar ko‘plab bioaktiv moddalarga boy bo‘lib, ularni kukun holatida qayta ishlatish orqali sog‘lom, funksional ichimliklar yaratish mumkin.Meva-sabzavot chiqindilari quritish, maydalash va elash bosqichlaridan o‘tkazilib, kukun holatiga keltiriladi. Bu kukunlar antioksidantlar, tolalar, vitaminlar va minerallarga boy bo‘lib, sharbatga qo‘shilganda uning funksional xususiyatlarini oshiradi. Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanish — bu ekologik barqaror, iqtisodiy jihatdan foydali va sog‘lom ichimliklar ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvdir. Bu texnologiya chiqindilarni kamaytiradi, mahsulotga qo‘shimcha qiymat beradi va iste’molchilarga sog‘lom alternativ ichimliklar taqdim etadi

Kukunlar qo‘shilgan sharbatlar quyidagi afzalliklarga ega:
1.Oziqlik qiymati oshadi (vitamin C, tolalar)
2.Ta’m va rang yaxshilanadi
3.Saqlash muddati uzayadi
4.Stabilizator va qalinlashtiruvchi sifatida xizmat qiladi.

Kukun qo‘shilgan va oddiy sharbatlarning oziqlik tarkibi (100 ml uchun)

Jadval 1:

Ko‘rsatkichlar	Oddiy sharbat	Kukun qo‘shilgan sharbat
Energiya (kcal)	45	52
Vitamin C (mg)	12	18
Tolalar (g)	0.2	1.5
Antioksidant faollik	Past	Yuqori

Kukun qo‘shilgan sharbatning organoleptik baholanishi

Jadval 2:

Ko‘rsatkichlar	Baholovchilar soni	Ijobiy baho (%)
Ta’m	30	90%
Rang	30	85%
Tuzilishi	30	88%

Meva va sabzavotlarni sharbatga qayta ishlashda hosil bo‘ladigan po‘stloq, urug‘, pulpalar odatda chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Ularni quritib, maydalab kukun holiga keltirish orqali qayta ishlatish chiqindisiz ishlab chiqarishni ta’minlaydi. Ikkilamchi xom-ashyolardan foydalanish atrof-muhitga chiqindilarni kamaytiradi, resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi. Kukunlar sharbatga qo‘shilganda u nafaqat ta’m va rangni yaxshilaydi, balki qo‘shimcha funksional xususiyatlar (vitaminlar, tolalar, antioksidantlar) beradi. Bu esa sog‘lom ichimliklar ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Chiqindilarni qayta ishlatish ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, qo‘shimcha mahsulot yaratadi va eksportbop ichimliklar ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

Jarayonining borishi **quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

Xom-ashyoni yig‘ish va tayyorlash:Meva va sabzavotlarni sharbatga qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan po‘stloq, urug‘, pulpalar yig‘ib olinadi.Ular iflosliklardan tozalanadi va quritishga tayyorlanadi.

Quritish jarayoni:Namlikni kamaytirish uchun maxsus quritgichlarda yoki tabiiy sharoitda quritiladi.Quritish jarayonida vitamin va bioaktiv moddalarni saqlab qolish muhim.Maydalash va elash:Quritilgan xom-ashyo maydalagichlarda kukun holiga keltiriladi. Elash orqali bir xil zarracha o‘lchamiga ega kukun olinadi.

Kukunni sharbatga qo‘shish:Olingan kukun sharbatga qo‘shiladi va aralashtiriladi.Bu kukun stabilizator, qalinlashtiruvchi yoki funksional qo‘shimcha sifatida xizmat qiladi. Sharbat ishlab chiqarish jarayonida meva va sabzavotlarni qayta ishlash natijasida **po‘stloq, urug‘ va pulpalar** hosil bo‘ladi. Odatda bu qismlar chiqindi sifatida ko‘riladi, ammo aslida ular **qimmatli bioaktiv moddalarga boy** bo‘lib, qayta ishlash orqali foydali kukunlarga aylantirilishi mumkin. **Po‘stloqlar** — ko‘pincha tolalar, pektin va antioksidantlarga boy. Masalan, olma po‘stlog‘ida vitamin C va flavonoidlar ko‘p miqdorda mavjud.**Urug‘lar** — yog‘ kislotalari, oqsillar va minerallarga ega. Masalan, uzum urug‘ida polifenollar va tabiiy antioksidantlar mavjud. **Pulpalar** — sharbat siqib olingandan keyin qoladigan qattiq qismi bo‘lib, unda tolalar, karotinoidlar va boshqa foydali moddalar saqlanadi.

Bu xom-ashyolarni yig‘ib olish jarayoni chiqindilarni kamaytiradi va **resurslardan oqilona foydalanish** imkonini beradi. Keyingi bosqichlarda ular quritilib, kukun holiga keltiriladi va sharbatga qo‘shiladi.Quritish jarayonining asosiy vazifasi — xom-ashyo tarkibidagi ortiqcha namlikni kamaytirish va uni uzoq muddat saqlashga yaroqli holatga keltirish. Namlik yuqori bo‘lsa, mikroorganizmlar tez ko‘payadi va mahsulot tez buziladi.**Quritish usullari:Tabiiy quritish** — quyoshda yoki shamollatish orqali. Arzon, ammo vitaminlarning bir qismi yo‘qolishi

mumkin.**Sun’iy quritish** — maxsus quritgichlarda (konvektiv, infraqizil, vakuum quritish). Bu usulda harorat nazorat qilinadi va bioaktiv moddalar ko‘proq saqlanadi.

Afzalliklari: Namlik darajasi 8–12% gacha tushiriladi.Vitaminlar va antioksidantlar saqlanib qoladi. Keyingi bosqichlarda kukun sifatini yaxshilaydi. **Texnologik ahamiyati:** Quritilgan xom-ashyo maydalash va elash jarayonida bir xil zarracha o‘lchamiga ega bo‘lishi osonlashadi. **Maydalash jarayoni** quritilgan xom-ashyo maxsus maydalagichlarda kukun holiga keltiriladi.Maydalash darajasi kukunning zarracha o‘lchamiga bog‘liq bo‘lib, sharbatga qo‘shilganda uning teksturasiga ta’sir qiladi.

Juda yirik zarrachalar sharbatda to‘liq erimaydi, juda mayda zarrachalar esa sharbatni loyqa qilishi mumkin. **Elash jarayoni** maydalangan xom-ashyo elakdan o‘tkazilib, bir xil zarracha o‘lchamiga ega kukun olinadi. Bu bosqich kukunning fizik-kimyoviy barqarorligini ta’minlaydi va sharbatga qo‘shilganda bir hil taqsimlanishini osonlashtiradi. Elash orqali ortiqcha yirik bo‘laklar ajratib olinadi, faqat sifatli kukun saqlanadi.**Texnologik ahamiyati**Bir xil zarracha o‘lchamiga ega kukun sharbatga qo‘shilganda ta’m, rang va teksturani yaxshilaydi.Mahsulotning organoleptik ko‘rsatkichlari (ta’m, hid, ko‘rinish) iste’molchilar tomonidan yuqori baholanadi.Saqlash jarayonida kukun barqaror bo‘lib, sharbat sifatini uzoq muddat davomida saqlashga yordam beradi.**Stabilizator sifatida**Kukunlar sharbat tarkibida ajralish (fazalarga bo‘linish) jarayonini kamaytiradi.Sharbatning bir hil konsistensiyasini saqlashga yordam beradi.

Qalinlashtiruvchi sifatida Kukunlar tolalar va pektinlarga boy bo‘lgani uchun sharbatning qovushqoqligini oshiradi.Bu sharbatni yanada to‘yimli va mazali qiladi.**Funksional qo‘shimcha sifatida**Kukunlar tarkibida vitaminlar (C, B guruhi), minerallar (kalsiy, temir), antioksidantlar mavjud.Sharbatga qo‘shilganda uning biologik qiymati oshadi, sog‘lom ichimlik sifatida iste’molchilarga taqdim etiladi.Immunitetni mustahkamlash, hazm qilishni yaxshilash va energiya manbai bo‘lish kabi foydali ta’sirlar beradi.

Texnologik ahamiyatiKukun sharbatga qo‘shilganda aralashtirish jarayoni muhim: bir xil taqsimlanishi uchun mexanik aralashtirgichlardan foydalaniladi.Qo‘shilgan miqdor sharbatning ta’miga, teksturasiga va iste’molchilar qoniqishiga bevosita ta’sir qiladi.Optimal miqdorda qo‘shilganda sharbatning organoleptik ko‘rsatkichlari (ta’m, rang, hid) yaxshilanadi.

Jarayon davomida chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish.

Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanishning **asosiy mohiyati** — chiqindilarni kamaytirish va mavjud resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanishdir. Bu jarayon quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:**Chiqindilarni qayta ishlash** Meva va sabzavotlarni sharbatga qayta ishlashda hosil bo‘ladigan po‘stloq, urug‘ va pulpalar odatda chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Ularni quritib, kukun holiga keltirish orqali foydali qo‘shimcha mahsulotga aylantirish mumkin.**Resurslardan oqilona foydalanish** Birlamchi xom-ashyo (meva-sabzavot) to‘liq ishlatiladi, ya’ni faqat sharbat emas, balki qo‘shimcha kukun ham olinadi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.**Ekologik barqarorlik** chiqindilarni kamaytirish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir kamayadi. Bu chiqindisiz texnologiya tamoyiliga mos keladi.**Iqtisodiy foyda** ikkilamchi xom-ashyodan olingan kukunlar sharbatning oziqlik qiymatini oshiradi va qo‘shimcha daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi.**Innovatsion mahsulot yaratish** kukunlar sharbatga qo‘shilganda u sog‘lom, funksional ichimlikka aylanadi. Bu esa iste’molchilar uchun yangi turdagi mahsulotlarni taqdim etadiKukun qo‘shilgan sharbatlarning sog‘lom ichimlik sifatida taqdim etilishiSharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanish natijasida yaratilgan ichimliklar **iste’molchilar uchun sog‘lom alternativ mahsulot** sifatida taqdim etiladi. Bu jarayonning mohiyati quyidagicha:**Oziqlik qiymati oshadi** Kukunlar tarkibida tolalar, vitaminlar (C, B guruhi), minerallar va antioksidantlar mavjud. Ular sharbatga qo‘shilganda ichimlikning biologik qiymatini sezilarli darajada oshiradi.**Sog‘lom turmush tarziga mos** tolalarga boy sharbatlar hazm qilishni yaxshilaydi, immunitetni mustahkamlaydi va energiya manbai bo‘lib xizmat qiladi.**Ekologik jihatdan foydali** Chiqindilarni qayta ishlash orqali yaratilgan kukunlardan foydalanish atrof-muhitni asrashga xizmat qiladi. Shu sababli iste’molchilar nafaqat sog‘lom ichimlik ichadi, balki ekologik barqarorlikka ham hissa qo‘shadi.

Turli guruhlar uchun mos Bolalar, sportchilar va sog‘lom ovqatlanishga e’tibor beruvchi insonlar uchun maxsus formulalar yaratish mumkin.**Bozorga taqdim etilishi** kukun qo‘shilgan sharbatlar iste’molchilarga “funksional ichimlik” sifatida taqdim etiladi. Bu mahsulotlar sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi ichimliklar qatoriga kiradi. Ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanishning **asosiy yondashuvi** — chiqindilarni foydali mahsulotga aylantirish orqali **ekologik barqarorlikni ta’minlash** va **iqtisodiy samaradorlikni oshirish**dir**.** Ekologik barqarorlik chiqindilarni kamaytirish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir pasayadi. Qayta ishlash jarayoni chiqindisiz texnologiya tamoyiliga mos keladi. Resurslardan oqilona foydalanish tabiiy boyliklarni tejashga yordam beradi. Iqtisodiy samaradorl ikkkilamchi xom-ashyodan olingan kukunlar sharbatning oziqlik qiymatini oshiradi, bu esa mahsulotning bozor qiymatini ko‘taradi. Chiqindilarni qayta ishlash ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi. Qo‘shimcha mahsulot (kukun) orqali ishlab chiqaruvchi yangi daromad manbaiga ega bo‘ladi. Eksportbop funksional ichimliklar yaratish imkoniyati kengayadi. Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanish — bu faqat chiqindilarni qayta ishlash emas, balki **sog‘lom, ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror ichimliklar yaratish** demakdir. Bu yondashuv sanoatni modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iste’molchilarga sifatli mahsulot taqdim etish imkonini beradi. Kelgusida bu texnologiyani yanada rivojlantirish, turli meva-sabzavot chiqindilarini o‘rganish, laboratoriya tahlillarini chuqurlashtirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Kukun qo‘shilgan va oddiy sharbat ko‘rsatkichlari.

3-jadval:

Ko‘rsatkichlar	Oddiy sharbat	Kukun qo‘shilgan sharbat
Vitamin C (mg/100 ml)	12	18
Tolalar (g/100 ml)	0.2	1.5
Antioksidant faollik (%)	35	65
Tannarx (so‘m/litr)	4500	3900
Iste’molchi qoniqishi (%)	78	92

Xulosa: Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanish — bu zamonaviy oziq-ovqat sanoatining ekologik, iqtisodiy va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks yondashuvdir. Jarayonning mohiyati chiqindilarni foydali mahsulotga aylantirish, resurslardan oqilona foydalanish va iste’molchilarga sog‘lom ichimliklar taqdim etishdan iborat.Chiqindilarni qayta ishlash orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir kamayadi.Meva-sabzavot po‘stloqlari, urug‘lari va pulpalar kukun holiga keltirilib, chiqindisiz texnologiya tamoyili amalga oshiriladi.Bu yondashuv barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantiradi.Kukunlar tarkibidagi tolalar, vitaminlar va antioksidantlar sharbatni sog‘lom ichimlikka aylantiradi Iste’molchilar uchun nafaqat mazali, balki foydali ichimliklar taqdim etiladi.Bolalar, sportchilar va sog‘lom turmush tarziga amal qiluvchi insonlar uchun maxsus formulalar ishlab chiqish mumkin. Jarayon ilmiy tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlar ochadi: bioaktiv moddalarni saqlash, kukunlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, yangi formulalar yaratish. Umuman olganda, sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan olingan kukunlardan foydalanish **sanoatni modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va iste’molchilarga sog‘lom ichimliklar taqdim etish** imkonini beradi. Bu yondashuv kelajakda oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.Kelgusida ushbu texnologiyani yanada kengaytirish, turli meva-sabzavot chiqindilarini chuqur o‘rganish, laboratoriya tahlillarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

[1]. Belitz H.-D., Grosch W., Schieberle P. Food Chemistry Springer-Verlag, Berlin Heidelberg, 2019. Oziq-ovqat tarkibi, biologik faol moddalarning kimyoviy xususiyatlari va ularning funksional ta'siri haqida asosiy manba.
[2]. Liu R.H. Health benefits of fruit and vegetable phytochemicals: Bioactive components and their roles Journal of Functional Foods, 2021. Polifenollar, flavonoidlar va antioksidantlarning sog'liq uchun foydasi haqida.
[3]. Abdullayev Sh. Konserva mahsulotlari texnologiyasi Toshkent: Oziq-ovqat sanoati nashriyoti, 2020. Mahalliy kontekstda sharbat va konservalar ishlab chiqarish texnologiyasi.
[4]. www.sciencedirect.com. Biologik faol moddalarning ekstraksiyasi va oziq-ovqatga qo'shilishi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.
[5]. www.agro.uz. O'zbekiston agrar sektori va meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo'yicha statistik va texnologik ma'lumotlar.
[6]. Shahidi F., Ambigaipalan P. Phenolics and polyphenolics in foods, beverages and spices: Antioxidant activity and health effects Journal of Food Bioactives, 2020. Antioksidant faollikni baholash metodikasi va oziq-ovqatdagi polifenollar haqida.

УДК 621.762, 621.762:006

ГАЗОВАЯ СВАРКА

И.Х. Домуладжанов, А.М. Тешабаев

Ферганский Государственный технический университет
E-mail. domuladjanovi@mail.ru, i.x.domuladjanov@fdtu.uz
Тел. +998905823221
(Получена 05.12. 2025 г.)

Аннотация. *В статье даётся информация о газовой сварке, которая бывает ацетиленокислородная, водородно-кислородная, керосина-кислородная, бензинокислородная, пропан-бутана-кислородная и др.). Большое применение получила газовая сварка ацетиленокислородная и пропан-бутана-кислородная. Даётся описание всех аппаратов, например генератор ацетиленовый, генератор типа КВ, генератор низкого давления АНВ-1,25-1,25-68 и АНВ-1,25-73, генератор АСМ-1,25, предохранительные затворы типа водяной затвор ЗСГ-1,25-3 среднего давления, манометр для измерения давления, сварочные посты стационарного генератора ГРК-Ю-68 производительностью 10 м³ и рабочим давлением 0,07 МПа или генератор АСК-1-67, баллоны. А также газообразные вещества которые используются для газовой сварки.*

Ключевые слова. *Кислород, ацетилен, затвор, генератор, виды, аппарат, низкое давление, температура, промыватель, баллон, посты, чехол, шланги.*

Annotasiya. *Maqolada gaz bilan payvandlash haqida ma'lumot berilgan, bu oksiasetilen, vodorod-kislorod, kerosin-kislorod, benzin-kislorod, propan-butan-kislorod va boshqalar bo'lishi mumkin). Oxiasetilen va propan-butan-kislorod yordamida gaz bilan payvandlash keng qo'llaniladi. Barcha uskunalarning tavsifi keltirilgan, jumladan, asetilen generatori, KV generatori, ANV-1.25-1.25-68 va ANV-1.25-73 past bosimli generator, ACM-1.25 generatori, ZSG-1.25-3 o'rta bosimli suv muhri xavfsizlik klapanlari, bosim o'lchagich, 10 m³ sig'imli va 0.07 MPa ish bosimiga ega GRK-U-68 statsionar generatori yoki ASK-1-67 generatori uchun payvandlash stantsiyalari va ballonlar. Shuningdek, u gaz bilan payvandlash uchun ishlatiladigan gazsimon moddalarni ham qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *Kislorod, asetilen, klapan, generator, turlari, apparat, past bosim, harorat, kir yuvish mashinasi, silindr, stansiyalar, qopqoq, shlanglar.*

Abstract. *The article provides information on gas welding, which can be oxyacetylene, hydrogen-oxygen, kerosene-oxygen, gasoline-oxygen, propane-butane-oxygen, etc.). Gas welding using oxyacetylene and propane-butane-oxygen is widely used. A description of all equipment is provided, including the acetylene generator, the KV generator, the ANV-1.25-1.25-68 and ANV-1.25-73 low-pressure generator, the ACM-1.25 generator, the ZSG-1.25-3 medium-pressure water seal safety valves, a pressure gauge, welding stations for the GRK-U-68 stationary generator with a capacity of 10 m³ and an operating pressure of 0.07 MPa, or the ASK-1-67 generator, and cylinders. It also covers the gaseous substances used for gas welding.*

Keywords: *Oxygen, acetylene, valve, generator, types, apparatus, low pressure, temperature, washer, cylinder, stations, cover, hoses.*

Газовой сваркой называется сварка плавлением, при которой нагрев кромок соединяемых частей и присадочного материала производится теплотой сгорания горючих газов в кислороде.

Газовая сварка классифицируется по виду применяемого горючего газа (ацетиленокислородная, водородно-кислородная, керосина-кислородная, бензинокислородная, пропан-бутана-кислородная и др.). Большое применение получила газовая сварка ацетиленокислородная и пропан-бутана-кислородная.

Для производства работ по газовой сварке сварочные посты должны иметь следующее оборудование и инвентарь: ацетиленовый генератор или баллон с горючим газом; кислородный баллон; редукторы (кислородный и для горючего газа); сварочную горелку с набором сменных наконечников; шланги для подачи горючего газа и кислорода в горелку; сварочный стол; приспособления, необходимые для сборки изделий под сварку; комплект инструментов; очки с защитными стеклами; спецодежду для сварщика [1-11].

Ацетиленовый генератор предназначен для получения ацетилена при взаимодействии карбида кальция с водой. Ацетиленовые генераторы (ГОСТ 5190—78) различаются по следующим признакам: по давлению получаемого ацетилена — генераторы низкого давления — до 0,02 МПа и среднего — свыше 0,02 до 0,15 МПа; по способу установки — передвижные и стационарные; по производительности: передвижные— 1,25 м^3/ч и 3,0 м^3/ч, стационарные — 5, 10, 20, 40, 80, 160, 320 и 640 м^3/ч. На заводах и строительных площадках чаще применяют генераторы производительностью 1,25 м^3/ч; по способу взаимодействия карбида кальция с водой установлено три типа: КВ, ВК и К («карбид в воду», «вода на карбид» и контактный).



Рис.1. Генераты. На рис. 1. Представлены принципиальные схемы генераторов этих типов (1-карбид кальция, 2-отбор газа, 3-газосборник, 4-подача воды, 5-реторта).

В генераторе типа КВ (рис. 1 *а)* предусматривается периодическая (порциями) подача в воду карбида кальция. При этом достигается наибольший выход ацетилена (до 95%). В генераторе типа ВК (рис. 1 б) осуществляется периодическая подача порций воды в загрузочное устройство, куда заранее насыпается карбид кальция. В генераторе типа К (рис. 1. *в)* предусматривается периодическое соприкосновение и взаимодействие карбида кальция с водой. Применяют два варианта: «вытеснение воды» (для разобщения воды и карбида кальция) и «погружение карбида» (для получения контакта воды с карбидом кальция). Получение ацетилена по контактному принципу осуществляется автоматически и широко используется в передвижных генераторах, но по сравнению с генераторами других типов генератор типа К дает наименьший выход ацетилена.



Рис.2. Ацетиленовый генератор низкого давления.

На рис. 2. Представлены принципиальная схема *(а)* и внешний вид

однопостового передвижного морозоустойчивого ацетиленового генератора низкого давления АНВ-1,25. Генератор работает по принципу «вода на карбид» в сочетании с процессом «вытеснения воды». Производительность генератора составляет 1,25 м^3/ч, максимальное давление равно 0,01 МПа.

Корпус генератора 7 разделен горизонтальной перегородкой 8 на две части: водосборник 6 и газосборник 9. В нижнюю часть газосборника вварена реторта 14, в которую вставляют загрузочную корзину 13 с карбидом. Реторту плотно закрывают крышкой 12 на резиновой прокладке. Через верхнюю открытую часть корпуса генератор заполняют водой до отметки уровня. При открывании крана 9 вода из корпуса поступает в реторту и взаимодействует с карбидом. Выделяющийся ацетилен по трубке 10 обирается под перегородкой в газосборнике и затем через осушитель 5 и предохранительный (водяной) затвор 3 по шлангу 2 поступает в сварочную горелку или резак.

При установившемся режиме давление ацетилена сохраняется почти постоянным. При уменьшении расхода газа давление в газо-сборнике повышается и часть воды вытесняется из реторты в конусообразный сосуд — вытеснитель 4. Уровень воды в корпусе опускается ниже уровня крана 10, поступление воды в реторту прекращается, газовыделение замедляется. По мере расходования ацетилена давление понижается, уровень воды в корпусе повышается до крана 10 и вода снова поступает в реторту. Таким образом автоматически регулируется процесс взаимодействия карбида с водой и выделение ацетилена в зависимости от его расхода.



Рис.3. Передвижной однопостовой генератор АСМ-1,25-3 (внешний вид (а) и схема (б)).

В зимних условиях при температуре до —25°С генератор работает нормально не замерзая, так как его водо-подающая система расположена внутри корпуса, где вода нагревается теплотой реакции взаимодействия воды с карбидом кальция. Водяной затвор устанавливают также внутри корпуса в циркуляционной трубе *1*. Летом водяной затвор монтируют на корпусе генератора снаружи. Нижнюю половину осушителя на зиму заправляют как обычно коксом, а верхнюю — карбидом. Генераторы АНВ-1,25-68 и АНВ-1,25-73 отличаются конструкцией загрузочной корзины и расположением крана подачи воды в реторту.



Рис.4. Водяной затвор ЗСГ-1,25-3.

ВНИИавтогенмаш разработал конструкции ацетиленовых генераторов среднего давления. На рис. 3 представлены внешний вид (а) и схема (б) передвижного однопостового генератора АСМ-1,25-3, работающего по схеме процесса «вытеснения воды». Производительность генератора — 1,25 м^3/ч, максимальное давление — 0,15 МПа. Корпус генератора 1 внутренней перегородкой 13 разделен на две полости: верхнюю—газо-образователь 5 и

нижнюю — промыватель 2. К газо-образователю приварено верхнее днище 7 с горловиной для ввода в шахту 6 корзины 8 с карбидом. Корзина закрепляется крышкой 9, которая прижимается к горловине винтом 10 через рычаг 11. Генератор заправляют водой через шахту. После опускания корзины с карбидом в шахту и плотного закрепления крышки карбид кальция начинает взаимодействовать с водой и выделяющийся при этом ацетилен поступает по трубе 9 в промыватель. Проходя через воду промывателя, ацетилен охлаждается и через клапан 4 по шлангу 5 поступает в водяной затвор 14 и затем в сварочную горелку или резак. Генератор имеет манометр для измерения давления и ручки для перемещения. Разовая загрузка карбида — 2,2 кг. Масса незаправленного генератора— 16 кг. Генератор может работать в зимних условиях на открытом воздухе при температуре до —25° С. Для этого он имеет утеплительный чехол. На основе генератора АСМ-1,25 разработан передвижной ацетиленовый генератор АСВ-1,25, который отличается конструкцией загрузочного устройства, позволившей увеличить разовую загрузку карбида до 3 кг.

Предохранительные затворы (водяные и сухие) служат для защиты ацетиленового генератора от взрывной волны газокислородного пламени (обратного удара).

Водяной затвор ЗСГ-1,25-3 среднего давления (рис. 4) устанавливают на генераторе АСМ-1,25-3. Затвор заправляют водой до контрольного крана 1. В нижней части затвора расположены сливная пробка 2, входной ниппель 4, клапан 3. При нормальной работе сварочного поста ацетилен из генератора поступает под клапан, поднимает его и, пройдя через воду, заполняет верхнюю полость затвора, а затем через ниппель 5 по шлангу поступает в сварочную горелку. При обратном ударе давлением воды клапан закрывается, не допуская проникновения пламени в генератор. Для газов — заменителей ацетилена — применяют сухие предохранительные затворы, в которых пламя обратного удара гасится пористой металлокерамической массой.

Для питания ацетиленом нескольких сварочных постов применяют стационарный генератор ГРК-Ю-68 производительностью 10 $м^3$ и рабочим давлением 0,07 МПа или генератор АСК-1-67. При этом каждый сварочный пост должен быть обязательно оборудован предохранительным затвором.

Ацетилен поставляется к сварочному посту в ацетиленовых баллонах вместимостью 40 л, в которых при максимальном давлении 1,9 МПа содержится ~5,5 $м^3$ ацетилена. Для обеспечения безопасного хранения и транспортировки ацетилена баллон заполняют пористым активированным углем, а для увеличения количества ацетилена в баллоне активированную пористую массу пропитывают растворителем — ацетоном (один объем ацетона растворяет 23 объема ацетилена). Баллон окрашен в белый цвет и на нем сделана надпись «Ацетилен» красными буквами.

Кислород подается к посту сварки либо от кислородной рампы, либо от кислородного баллона вместимостью 40 л, в котором при максимальном давлении 15,15 МПа содержится 1,25 $м^3$ кислорода. Баллон окрашен в голубой цвет и имеет надпись «Кислород» черными буквами.

Баллоны (рис. 5) для газов (горючего и кислорода) изготовляют по ГОСТ 949—73 из стальных бесшовных труб. Они представляют собой цилиндрический сосуд 3 с выпуклым днищем 1 и узкой горловиной. Для придания баллону устойчивости в рабочем (вертикальном) положении на его нижнюю часть напрессован башмак 2 с квадратным основанием. Горловина баллона имеет конусное отверстие 4 с резьбой, куда ввертывается запорный вентиль 5 — устройство, позволяющее наполнять баллон газом и регулировать его расход.

Для различных газов принята определенная конструкция запорного вентиля. Различная резьба хвостовика исключает возможность установки на баллон не соответствующего ему вентиля. Вентиль кислородного баллона изготовляют из

латуни, так как она обладает высокой коррозионной стойкостью, в среде кислорода. Вентиль ацетиленового баллона изготовляют из стали, так как латунь, содержащая более 70% меди, при контакте с ацетиленом образует взрывоопасную ацетиленовую медь. На горловину баллона плотно насажено кольцо с наружной резьбой для навинчивания предохранительного колпака 6. Вентиль кислородного баллона используется также для баллонов с азотом, аргоном и углекислым газом.



Рис.5. Баллоны для газов (горючего и кислорода).

Редукторы служат для понижения давления газа, поступающего из баллона, до рабочего и для поддержания этого давления постоянным в процессе сварки. В практике применяют различные типы редукторов. На рис.6 представлена схема однокамерного редуктора. Газ из баллона через штуцер проходит в камеру высокого давления 1 корпуса 10. В нерабочем положении редуктора (рис. 6 а,б) проход газа из камеры высокого давления 1 в камеру низкого давления закрыт клапаном 2, прижатым к седлу 3. При ввертывании регулировочного винта 9 в крышку 7 корпуса нажимная пружина 8 сжимается и перемещает вверх резиновую мембрану 6 вместе с передаточным штифтом 5. Штифт открывает клапан 2, соединяя тем самым камеру высокого давления с камерой низкого давления. Газ поступает в камеру 4 до тех пор, пока давление его на мембрану не уравновесит силу нажимной пружины. В этом положении расход и поступление газа будут равны. Если расход газа уменьшается, то давление в камере 4 повышается. Давление газа отожмет мембрану вниз и сожмет нажимную пружину 8. Клапан 2 закроет отверстие седла, и поступление газа в камеру 4 прекратится. При увеличении расхода газа давление в камере понижается, мембрана отжимает клапан от седла и тем самым увеличивается поступление газа из баллона. Таким образом автоматически поддерживается постоянное давление газа, подаваемого в горелку.

Кислородный баллонный редуктор ДКП-1-65 предназначен для питания газом одного поста. Наибольшее допустимое давление газа на входе в редуктор — 20 МПа, наименьшее — 9 МПа. Рабочее давление — 0,1... 1,5 МПа. При наибольшем рабочем давлении расход газа составляет 60 м^3/ч, а при наименьшем — 7,5 м^3/ч. Редуктор окрашен в голубой цвет и крепится к баллону с помощью накидной гайки. Более совершенны редукторы ДКП-2-78 с той же технической характеристикой. Ацетиленовый баллонный редуктор ДАП-1-65 рассчитан на наибольшее давление на входе 3 МПа. Расход газа при наибольшем рабочем давлении 0,12 МПа составляет 5 м*/ч, а при



Рис.6. Редукторы.

наименьшем рабочем давлении 0,01 МПа — 3 м^3/ч. Редуктор окрашен в белый цвет и крепится на баллоне с помощью хомутика.

Шланги (рукава) для кислорода и ацетилена стандартизованы. Предусмотрено три типа шлангов: для подачи ацетилена при рабочем давлении не более 0,6 МПа; для жидкого топлива (бензин, керосин) при рабочем давлении не более 0,6 МПа; для подачи кислорода при рабочем давлении не более 1,5 МПа. Рукава состоят из внутреннего резинового слоя (камеры), нитяной оплетки и наружного резинового слоя. Применяют шланги следующих размеров (таблица 1):

Табл. 1

Данные по шлангам

Внутренний диаметр, мм	6	9	12	16
Наружный диаметр, мм	12	18	22,5	16

Наружный слой ацетиленовых рукавов красного цвета, рукавов для жидкого топлива — желтого, кислородных — синего цвета. Длина шланга при работе от баллона должна быть не менее 8 м, а при работе от генератора — не менее 10 м.

Правильная эксплуатация всех газосварочных аппаратов и всех его узлов — это обеспечение безопасной работы всего персонала предприяятия.

Список литературы

[1]. Крупинин А.Е., Колпаков А.В. Продление ресурса режущих аппаратов уборочных машин // Сельский механизатор. – 2013. №4.- С.36-38.

[2]. Ф.Р.Норхуджаев, Д.М.Эргашев, А.М. Тешабоев. Упрочненение режущих сегментов аппаратов уборочных машин // Композиционные материалы. 2021. - №2. – с.92-93.

[3]. Ф.Р.Норхуджаев, А.А.Мухамедов, Д.М.Эргашев, Р.Ф Норхужаева, А.М. Тешабоев. Влияние режимов термоциклическая обработка на структурообразование инструменталъных сталях // Композиционные материалы. 2021. - №1. – с.75-77.

[4]. Norkhudjaev.F.R., Juraev M.A., Muminova.D.S., TeshaboyevA.M. Development Technology for Increasing Durability and Longevity of Soil-processing Working Bodies // International Journal of Advanced Science and Technology Vol 29.No.7.[2020] pp.9285-9291.

[5]. Domuladjanova Shahlo. Problems of industrial waste disposal in the Fergana region. E3S Web Conf., 431 (2023) 04013. DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202343104013

[6]. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/68/e3sconf_itse2023_04013/e3sconf_itse2023_04013 html, https://www.scopus.com/sourceid/21100795900

[7]. Ibragimjon Domuladjanov, Odiljon Ibragimov, Shahlo Domuladjonova. The Especially Hazardous Pesticides in Uzbekistan. **Journal of Survey in Fisheries Sciences (JSFS)** with **EISSN:**7487-2368 . Your article will be published in the forthcoming **special Issue** 2023. p.2023 – 2072. Link: http://sifisheriessciences.com/page/21/. https://www.scopus.com/sourceid/21100905326#tabs=2. https://mjl.clarivate.com/search-results?issn=2368-7487. https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/783

[8]. Ibragimov Odiljon Olimjanovich, Domuladjanov Ibragimjon Xadjimuxamedovich. On The Issue of Growing Agricultural Grops. Neuroquantology | otober 2022 | Volume 20 | Issue 12 | Page 3051-3057 | DOI: 10.14704/NQ.20.12.NQ77304. https://www.neuroquantology.com/article.php?id=8928 https://www.scopus.com/sourceid/11600154151?dgcid=sc_widget_citescore

[9]. Domuladjanov Ibragimjov Xadjimuxamedovch, Latipova Mukhayo Ibragimjanovna, Nasretdinova Feruza Nabiyevna. Geomorphology relief, geological building in the development of "Project of environmental standards". EPRA International Journal of (IJRD)Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal ISI I.F. Value : 1.241 Published By EPRA Publishing, Volume: 5, Issue:6, June 2020. – 136-139.

[10]. Ramazonovich, N.F., Anvarovich, M.A., Marifovich, T.A., Muminaliyevich, U.J., Toshpulatovich, P.S. Resource-saving manufacturing technologies and thermal hardening of machine parts and tool. International Journal of Mechatronics and Applied MechanicsЭта ссылка отключена., 2021, 1(9), страницы 137–145

[11]. Norkhudjayev, F.R., Mukhamedov, A.A., Nabiyev, B.N., Khodjimukhamedova, M.M., Teshaboyev, A.M. MECHANICAL CHARACTERISTICS OF POWDERED ALUMINUM BRONZE OBTAINED FROM METALLURGICAL WASTE. International Journal of Mechatronics and Applied MechanicsЭта ссылка отключена., 2022, 2022(11), страницы 95–97

[12]. Teshaboyev, A., Rubidinov, S., Tursunov, S., Madaminov, B. Processing of cutting parts of agricultural machinery. E3S Web of ConferencesЭта ссылка отключена., 2023, 462, 01034

ВЛИЯНИЕ ЭРОЗИИ ПОЧВ НА СТРОИТЕЛЬСТВО. ЛАНДШАФТНЫЙ ДИЗАЙН В КОНТЕКСТЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

У.С. Курбонова, 92-24 АТММг Э.Н. Хомидова

Ферганский государственный технический университет
(Получена 05.12. 2025 г.)

Аннотация: *В статье анализируются процессы эрозии почв и их влияние на строительство и эксплуатацию инженерных сооружений. На основе данных отечественных и зарубежных исследований рассматриваются механизмы разрушения грунтового основания, что приводит к деформации фундаментов, снижению устойчивости зданий и ускоренному износу инфраструктуры. Особое внимание уделено роли экологического ландшафтного дизайна в предотвращении эрозионных процессов. Приводятся научно обоснованные методы рекультивации и биоинженерной стабилизации почвы, применимые в условиях Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *Эрозия, грунтовые основания, строительство, ландшафтный дизайн, экологический подход, рекультивация, устойчивое развитие, геоэкология.*

Annotatsiya: *Maqolada tuproq eroziyasi jarayonlari va ularning muhandislik inshootlarini qurish va ulardan foydalanishga ta'siri tahlil qilinadi. Mahalliy va xalqaro tadqiqotlar ma'lumotlariga asoslanib, poydevor deformatsiyasiga, bino barqarorligining pasayishiga va infratuzilmaning tez yomonlashishiga olib keladigan tuproqni yo'q qilish mexanizmlari o'rganiladi.Eroziya jarayonlarining oldini olishda ekologik landshaft dizaynining roliga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi sharoitlarida qo‘llaniladigan tuproqni meliorativ holatini yaxshilash va bioinjenerik barqarorlashtirishning ilmiy jihatdan tas*

Kalit so'zlar: *Eroziya, tuproq poydevori, qurilish, landshaft dizayni, ekologik yondashuv, melioratsiya, barqaror rivojlanish, geoekologiya.diqlangan usullari keltirilgan.*

Abstract: *The article analyzes the processes of soil erosion and their impact on the construction and operation of engineering structures. Based on data from domestic and international research, the mechanisms of soil destruction are examined, leading to foundation deformation, reduced building stability, and accelerated infrastructure deterioration. Particular attention is paid to the role of ecological landscape design in preventing erosion processes. Scientifically proven methods of soil reclamation and bioengineering stabilization applicable to the conditions of the Republic of Uzbekistan are presented.*

Key words*: Erosion, soil foundations, construction, landscape design, ecological approach, reclamation, sustainable development, geoecology.*

Проблема эрозии почв является одной из ключевых экологических задач современности. По данным FAO (Food and Agriculture Organization), ежегодно в мире утрачивается свыше 24 млрд тонн почвы, что оказывает прямое влияние на инфраструктурное развитие регионов с интенсивным строительством. В условиях Республики Узбекистан, где значительная часть территории подвержена ветровой и водной эрозии, особенно в зонах орошаемого земледелия и горных районах, проблема устойчивости грунтов приобретает критическое значение.

Эрозия приводит к снижению несущей способности грунтов, что создаёт угрозу для фундаментов зданий, транспортных сооружений, систем водоснабжения и коммуникаций. Наряду с этим возрастает потребность во внедрении экологически ориентированного ландшафтного дизайна, направленного на снижение деградации земель и формирование устойчивых урбанизированных экосистем.[1]

Эрозия почв и её воздействие на строительные объекты

Механизмы развития эрозионных процессов. Эрозия представляет собой процесс разрушения, перемещения и перераспределения почвенного материала под воздействием природных и техногенных факторов. Водная эрозия (плоскостная, линейная, овражная), характерная для горных и предгорных районов Узбекистана. Ветровая эрозия, активно проявляющаяся в степных и пустынных регионах, включая Каракалпакстан и Кызылкум.

Техногенная эрозия, вызванная строительными работами, нарушением почвенного покрова и транспортной нагрузкой.[2]

Таблица 1. Характеристика видов эрозии и их последствия для строительства[9]

Вид эрозии	**Основные причины**	**Характер проявления**	**Последствия для строительства**	**Рекомендуемые меры предотвращения**
Водная плоскостная эрозия	Ливневые дожди, нарушение растительного покрова, полив без контроля стока	Смыв верхнего слоя почвы по большой площади	Уменьшение плотности грунтового основания, просадка дорожных покрытий	Террасирование, устройство ливневой канализации, озеленение устойчивыми травами
Водная линейная (бороздовая и овражная)	Концентрированные потоки воды, неправильная организация стока, разрушение склонов	Формирование борозд, рытвин, оврагов	Подмыв фундаментов, разрушение склонов, повреждение инженерных сетей	Георешетки, подпорные стены, укрепление склонов кустарниками и геоматами
Ветровая эрозия	Сильные ветра, оголённая почва, отсутствие растительности	Перенос частиц почвы, образование «пыльных бурь»	Ограничение видимости, разрушение поверхностных слоёв дорожно-строительных материалов, оголение оснований	Лесополосы, посадка кустарников, применение почвоукрепляющих биоагентов
Техногенная эрозия	Земляные работы, движение тяжёлой техники, нарушение структуры почвы	Разрыхление, смещение и вымывание породы	Неравномерная осадка зданий, появление трещин, потеря устойчивости склонов	Стабилизация грунта геосетками, регламентирование техники, рекультивация
Ирригационная эрозия	Чрезмерный полив, утечки из каналов, отсутствие дренажа	Размыв каналов, вымывание мелких частиц почвы	Повреждение оросительных систем, ослабление оснований зданий рядом с каналами	Облицовка каналов, капельное орошение, создание дренажных систем
Солевое разрушение почвы (солевая эрозия)	Вторичное засоление, испарение воды в засушливых регионах	Уплотнение и кристаллизация солей, разрушение структуры грунта	Коррозия бетона и металла, снижение несущей способности, деформация дорожных покрытий	Снижение минерализованности воды, промывка почв, посадка солеустойчивых растений

Влияние эрозии на фундаменты и здания

По данным строительной геотехники, эрозия почв вызывает следующие проблемы: снижение плотности и несущей способности грунта. Это приводит к неравномерной осадке и деформации фундаментов. Образование пустот и каверн вследствие вымывания мелких частиц, что увеличивает риск провалов. Повышенная подвижность грунтов, приводящая к сдвигам и трещинам в конструкциях.

Усиление сейсмической опасности в регионах с активной тектоникой. Практика показывает, что в районах с интенсивными паводками (например, в Ферганской долине) часты случаи подмыва оснований мостов и дорог [3].



Рисунок 1. Схема водной эрозии и её влияние на фундамент здания.

Описание: Схема демонстрирует процесс подмыва основания здания водными потоками, что приводит к образованию пустот, снижению несущей способности грунта и деформациям конструкций.[10]

Воздействие эрозии на инженерную инфраструктуру

Согласно исследованиям UNESCO (2020) и отечественных специалистов: дорожные покрытия разрушаются вследствие подмыва подстилающего слоя. Происходит деформация канализационных и водопроводных сетей. На ирригационных каналах наблюдается разрушение откосов. Усиливается запылённость воздуха в результате ветровой эрозии, что негативно влияет на технику и оборудование [4].

Экологический подход в ландшафтном дизайне как механизм борьбы с эрозией

Научные основы экологического ландшафтного проектирования.

Экологический ландшафтный дизайн опирается на принципы устойчивости: сохранение природной структуры территории, минимизация вмешательства в экосистемы, использование биоразнообразия для укрепления почв, интеграция природных процессов в архитектурную среду [5].

Биологические меры против эрозии

По данным исследований биоинженерных сооружений, растительность является эффективным природным инструментом стабилизации грунта. Меры включают: закрепление почвы корневыми системами, особенно глубококорневыми видами (фисташка, саксаул, робиния), создание газонных покрытий и фильтрационных зон, способствующих снижению поверхностного стока, формирование защитных лесополос, уменьшающих ветровую эрозию.

В условиях Узбекистана эффективными считаются местные засухоустойчивые виды: тамариск, карагана, джида, которые обладают высокой корнеобитаемостью [6].



Рисунок 2. Ветровая эрозия в засушливых районах.

ДЕФОРМАЦИЯ ФУНДАМЕНТА

Описание: Показано воздействие ветра на поверхностный слой почвы в пустынных регионах, включая повреждение дорожных покрытий и ухудшение видимости.[11]

Инженерно-экологические меры стабилизации почвы

Современные методики включают: использование геоматов, геосеток, кокосовых матов, устройство противоэрозионных террас, строительство ливневых и дренажных систем, обустройство «дождевых садов», активно применяемых в Европе и США, биоинженерные конструкции — фашины, живые подпорные стены.

Эти меры особенно актуальны для склонов Чимгана, Зарафшанской долины и других горных районов Узбекистана [7].

Рисунок 3. Противоэрозионное укрепление склонов ландшафтным дизайном.

Описание: Показано сравнение естественного склона, подверженного эрозии, и стабилизированного склона с применением геоматериалов и растений.[12]

Перспективы внедрения экологического подхода в Узбекистане

Узбекистан активно внедряет природосберегающие решения в градостроительстве. В рамках государственных программ («Yashil Makon», 2021–2025) ежегодно высаживаются миллионы деревьев, что способствует укреплению почв и улучшению микроклимата.

Использование устойчивого ландшафтного проектирования позволяет: снизить эрозионные потери почвы на урбанизированных территориях, увеличить стабильность инженерных сооружений, улучшить экологическое состояние городов, повысить качество жизни населения.

Интеграция научных методов, международных рекомендаций и местных природных условий является ключом к устойчивому развитию страны [8].



Рисунок 4. Экологическая схема ландшафтного проектирования для снижения эрозии.

Описание: Диаграмма демонстрирует комплексный экологический подход к предотвращению эрозии [13].

Заключение

Эрозия почв оказывает комплексное негативное влияние на строительство, инфраструктуру и качество городской среды. Выполненный анализ показывает, что применение экологического подхода в ландшафтном дизайне является эффективным инструментом снижения эрозионных процессов. Использование растительности, биоинженерных технологий, геоматериалов и рациональной организации территории повышает стабильность грунтов и увеличивает долговечность строительных объектов.

Для Узбекистана актуально внедрение комплексных природосберегающих программ, учитывающих климатические и геологические особенности страны. Научно обоснованная интеграция экологического ландшафтного дизайна в строительную практику способствует формированию устойчивой, безопасной и экологичной инфраструктуры.

Список литературы

[1]. Абдуллаев Н.М., Рахимов Ш.Ш. Геоэкология и охрана земельных ресурсов. – Ташкент: Фан, 2020.
[2]. Жураев А.А. Основания и фундаменты: влияние природных факторов. – Ташкент, 2019.
[3]. Тураев Х.М. Ландшафтный дизайн: теория и практика устойчивого развития. – Самарканд, 2022.
[4]. FAO. Global Soil Erosion Estimates. – Rome, 2019.
[5]. Lal R. Soil Erosion and Sustainable Development. – CRC Press, 2014.
[6]. Morgan R. Soil Erosion and Conservation. – Blackwell Publishing, 2005.
[7]. Gray D., Sotir R. Biotechnical and Soil Bioengineering Slope Stabilization. – Wiley, 1996.
[8]. Forman R.T.T. Land Mosaics: The Ecology of Landscapes and Regions. – Cambridge University Press, 1995.
[9]. Steiner F. The Living Landscape. – Island Press, 2011.
[10]. Das B. Principles of Foundation Engineering. – Cengage Learning, 2011.
[11]. UNESCO. Soil Conservation and Engineering Structures. – Paris, 2020.
[12]. UNEP. Eco-Design Guidelines for Urban Infrastructure. – Nairobi, 2020.
[13]. Brandl H. Geotechnical Engineering in Arid Regions. – Springer, 2006.

TARKIBIDA NITRILTRIMETILFOSFON KISLOTASI BO'LGAN KORROZIYA VA MINERAL TUZLAR TO'PLANISHINING OLDINI OLISH VOSITALARI

Z.M. Davlyatova

Farg'ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Аннотация. *В научной работе опрределены оптимальные условия для синтеза оксиэтилидендифосфоновой кислоты: температура, соотношение исходных реагентов, продолжительность синтеза, pH.*

Ключевые слова*: эррозия, коррозия, минеральные соли, фосфорная кислота, хромато-масс-спектрометр, ингибитор*

Annotation. *In the scientific work, the optimal conditions for the synthesis of oxyethylidendyphosphonic acid were determined by temperature, ratios of initial reagents, duration of*

synthesis, reaction medium and others.

Key words: *erosion, corrosion, mineral salts, phosphoric acid, chromatography-mass spectrometer, inhibitor.*

Annotatsiya. *ilmiy ishlarida oksietilidendifosfonik kislota sintezi uchun maqbul sharoitlar aniqlandi: harorat, boshlang'ich reagentlarning nisbati, sintez davomiyligi, pH.*

Kalit so'zlar: *erroziya, korroziya, mineral tuzlar, fosfor kislotasi, xromato-mass-spektrometr, Inhibitor*

Jahonda kimyo va neft-gazni qayta ishlash sanoatini jadal rivojlantirish davrida organik ingibitorlar olish usullari va tuzilishi, korroziya jarayonlarining tabiati va uglevodorodlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarida konstruksion materiallarni himoya qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada yangi avlod organik korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish yo‘nalishida ma’lum natijalarga erishildi, jumladan import o‘rnini bosuvchi kimyoviy mahsulotlar bilan ta’minlashga alohida e’tibor berilmoqda.[1,3]

Eroziya, korroziya, mineral tuz to‘planishi kabilar anomal xodisalar bilan birga hayot uchun havfli xisoblanuvchi turli o‘simliklarning metall yuzalarini qoplashi iqtisodiyotga jiddiy zarar keltiradi. Bunday zarar keltiruvchi tabiiy xodisalarni ayniqsa energetikada, neft qazib chiqarishda, issiqlik almashinish qurilmalarida, kommunal suv ta’minotida ko‘plab kuzatish mumkin. Birgina neft qazib chiqarish jarayonida neft tarkibidagi suvda erigan tuzlar quvurlarda, shleyflarda, kompressor va nasos stansiyalarida to‘planadi, korroziya keltirib chiqaradi, suv mavjud qurilmalarda turli zararli o‘simliklarning o‘sishi tufayli qimmatbaho uskunalarni muddatidan avval yaraqsiz holatga kelishiga, oxir-oqibatda neft qazib olishning kamayishiga sabab bo‘ladi.

Suv ta’minoti uchun korroziya va mineral tuz to‘planishiga qarshi ingibitorlarning mingdan ortiq turliri ishlab chiqarilgan bo‘lib, ularning ayrimlarigini sanoat miqyoslarida qo‘llaniladi. So‘ngi yillarda TKTI professor-o‘qituvchilari tomonidan ayni turdagi organofosfonatlarga mahaliy ikkilamchi resurslar hisoblanuvchi monoetanolaminni vauumda xaydash kub qoldig‘i, poliaminokrotonol, ekstraksion fosfor kislotalari qo‘shilib, kompozison ingibitor sintez qilinib olingan. Ushbu ingibitor «SUMONO-DYu» deb atalib, uning tajriba sinov namunalari Navoiy viloyatidagi Elektrokimyozavodi xududida joylashgan “TEHNO MILLENIUM” NPPsida ishlab chiqarilgan va Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumani issiqlik manbai bug‘ qozonlarida, Muborakneftgaz UDPsiga qarashli quduq suvlarida sinovdan o‘tkazilgan. Olingan natijalar ushbu ingibitorlarning ingibirlash samaradorligi va korroziyadan himoyalash ko‘rsatgichlari 90 % dan kam emasligini va sanoat ingibitorlaridan qator hususiyatlari bo‘yicha ustun ekanligini hamda ulardan keng miqyoslarda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Ayni ingibitorlar korroziya va mineral tuzlanishiga qarshi yuqorisamarali preparatlar hisoblansada, ularning biosidlik hususiyatlari kam namoyon qiladi.

Oksietilidendifosfon kislotaning rux-mis kompleksonatlarini sintez qilishning kam bosqichli, arzon va samarali usuli o‘rganilgan hamda texnologiyasi yaratilgan [1,2].

Taklif etiliyotgan tarkiblarning asosi oksietilidendifosfon kislota bo‘lib, Bu mahsulot o‘z navbatida Rossiya Federatsiyasi va Xitoy davltlaridan valyuta evaziga sotib olinadi. Shu bilan birga nitriltrimetlifosfon va oksietilidendifosofn kislotalarni Respublikamizda ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlar bor: Farg‘ona azot AJida sirka kislotani pirolizi orqali keten ishlab chiqariladi bu mahsulot oksietilidendifosofn kislota olish uchun asosiy xomashyo bo‘lsa, Navoyiazot AJida esa nitriltrimetilosofn kislota olish uchun formaldegid, ammiak, amminiy xlorid va urotropin kabi qimmatli xomayosh manbai mavjud. Birgina H_3PO_3 Qozog‘iston respublikasidan import qilinishi nazarda tutiladi [3,4].

Sovitgich, mexanik aralashtirgich, termometr va tomizgich varonkalar bilan jihozlangan to‘rt bo‘yinli kolbaga hisoblangan miqdorda H3PO3 yuklanadi. So‘ngra 30 - 40 daqiqa davomida intensiv aralashtirib turgan holda sirka angidridi solinadi. Aralashtirishni davom ettirib reaksion aralashmaning xaroratini asta 110 – 120 °C ga oshiriladi hamda bu xaroratlar chegarasida 1,5-2 soat saqlanadi. Reaksiya sxemasi quyidagicha:

$$2H_3PO_3 + (CH_3CO)_2O \longrightarrow CH_3-\underset{\displaystyle PO_3H_2}{\overset{\displaystyle PO_3H_2}{\overset{|}{\underset{|}{C}}}}-OH + CH_3COOH$$

Oksietilidendifosfon kislota sintez qilishning optimal sharoitlari xarorat, dastlabki reagentlar nisbatlari, sintezlash davomiyligi, reaksiya muhiti va boshqalar aniqlandi.



1-rasm. Organofosofnat hosil bo‘lish unumining sintezlash davomiyligiga bog‘liqligi:

1 - $H_3PO_3 : (CH_3CO)_2O$ ÷ 2 : 1; 2 - $H_3PO_3 : (CH_3CO)_2O$ ÷ 3 : 1; 3 - $H_3PO_3 : (CH_3CO)_2O$ ÷ 3 : 2.

Grafikdan ko‘rinadiki, dastlabki reagentlar nisbatlari $H_3PO_3 : (CH_3CO)_2O$ ÷ 2 : 1 bo‘lgandan (1-egri chiziq) sintezlash vaqti 80-85 daqiqa bo‘lganida makismal unumga 82 % erishiladi, 2 : 3 nisbatlarda esa reaksiya 85 - 90 daqiqa davom etirilganda ham eng kam reaksiya unumi kuzatilib, 73 % dan oshmaydi. Maksimal ko‘rsatgichlar $H_3PO_3 : (CH_3CO)_2O$ ÷ 3 : 1 bo‘lganda kuzatili, bunda reaksiya unumi 86 % gacha yetadi [4,5].



2-rasm. Olingan preparat xromato-mass-spektri.

Olingan mahsulotning sofligi xromato-mass-spektrometr yordamida aniqlandi (2-rasm) va ushbu grafik orqali reaksiyada birgina organofosofnat borligi ko‘rinadi.[6]

Ajraluvchi reaksion suvning miqdori aniqlanib, hisoblangan miqdorlari bilan taqqoslab chiqildi (hisoblangan miqdor alkilimidozolinning to‘liq konversiyasiga nisbatan olingan).

1-jadval

Oksietilidendifosfon kislota sintezida ajraluvchi suv miqdori

Reaksiya sharoiti	Ajralgan reaksion suv	Ajralishi hisoblangan suv
ikki bosqichli termik ishlov berishning birinchi bosqichidan so‘ng	4.3	7.2
ikki bosqichli termik ishlov berishning ikkinchi bosqichidan so‘ng	5.3	7.2
kislotali katalizator ishtirokida	6.5	7.2

Reaksion ajraluvchi va hisoblangan suv miqdorining qiyosiy nisbatlari (1-jadval) dastlabki reagentlarning maqsaddagi alkilimidozolin bo‘yicha yuqori konversiya bilan amalga oshishini tasdiqlaydi. Termik ishlov berish 190 ^{0} C haroratda olib borilganda nisbatlar katta bo‘lsada, 230 °S haroratda esa konversiyaning keskin ortishi bilan alkilimidizolin hosil bo‘lish unumi ortishiga olib keladi.

Hosil bo‘lgan moddalarning kislota sonini aniqlash yog‘ kislotalari konversiya darajasini ko‘rsatuvchi muhim parametrlardan bo‘lgani uchun, tadqiqotlarimiz davomida ayni ko‘rsatkichlarni aniqlashni maqsad deb bildik. Sintezning asosiy ta’sir etuvchi omili harorat bo‘lgani sababli, kislota sonini aniqlash sintezning ixtiyoriy boqsichida amalga oshirilishi mumkin.

2- jadval

Oksietilidendifosfon kislota sintezida ajraluvchi suv miqdori
Hisoblangan ajraluvchi suv miqdori 7,2 KOH/g

Reaksiya sharoiti	Kislota soni, KOH/g
ikki bosqichli termik ishlov berishning birinchi bosqichidan so‘ng	4.3
ikki bosqichli termik ishlov berishning ikkinchi bosqichidan so‘ng	4.5
kislotali katalizator ishtirokida	8.1

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, kislota soni 190 va 230°S da 4 – 5 mg KOH/g ni, katalizator ishtirokida olingan mahsulot uchun esa KS = 8,1 KOH/g ga teng va buni kataliz jarayonining kislotali xususiyati bilan bog‘liq deb hisobladik.[6,7]

Shuningdek, nitriltrimetilfosfon kislotasini o‘z ichiga olgan yangi organofosfonat tipidagi ingibitorlar ishlab chiqilgan, ular korroziya va mineral tuz to‘planishining oldini olishda yuqori samaradorlik ko‘rsatgan (90 % dan kam emas) va sanoat miqyosida qo‘llanilishi mumkinligi tasdiqlangan. Ushbu preparatlar biosid xususiyatlari past bo‘lishiga qaramay, korroziyaga qarshi samarali vosita sifatida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, respublikada ushbu kimyoviy moddalarning mahalliy ishlab chiqarilishi uchun zarur xom ashyo va texnologik imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

[1]. B.M. Kadirov. Suv ta’minoti uchun ko‘pfunksiyali ingibitorlar sintezi va texnologiyasi. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2019 yil. 43 bet.

[2]. Disubstituted Imidazole-4-carboxylates Using 3-Bromo-2- isocyanoacrylates (BICA) // J. Org. Chem. 1994. Vol. 59. № 25. P. 7635–7642.

[3]. Усмонова Ю.Ш., Давлятова З.М., Кадиров Х.И. Получение этилендиамина на основе отработанного моноэтаноламина. «Universum: технические науки» электрон. научн. журн. 2021. 9(90). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12250 Москва-2021. Часть 2. https://doi.10.32743/UniTech.2021.90.9.12250 -с. 40-44

[4]. Давлятова З.М., Усмонова Ю.Ш., Кадиров Х.И. Этилендиамин синтезлаш учун ZnO-NiO-CuO-Cr_2O_3-Al_2O_3 таркибли катализаторлар. //«UzAcademia» илмий-услубий журнали. vol 3, issue 1(21), part-1. B.74-80

[5]. Usmonova Yu.Sh., Davlyatova Z.M., Kadirov Kh.I., Cherkasova E.I. Preparation of the initial reagent – ethylendiamines for production of corrosion inhibitors by heterocyclic fragments. //«Technical science and innovation» the science journal. Tashkent state technical university named after Islam Karimov 2021, №3(09). -p. 54-61

[6]. Ю.И. Кузнецов, Н. П. Андреева, М. О. Агафонкина. О совместной адсорбции на пассивном железе из водных растворов 1,2,3-бензотриазола и фенилундеканоата натрия. Электрохимия. – 2010. – Т. 46. – № 5. – С. 593 - 598.

[7]. Umrbek Kazakov, Zamira Masharipova, Khasan Kadirov. Study of the Condensation Reaction of Aldehydes with Amides and New Ways of their Application. AIP Conference Proceedings 2432, 050052 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089546

YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM-TARBIYANING O‘RNI

N.F. Farxodjonova, R.O’. Axmadaliyeva

Farg’ona davlat texnika universiteti
n.scienceofworld@gmail.com
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimining o‘rni va ahamiyati, shuningdek ta’lim mazmuniga milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni singdirish, yosh avlodda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas’uliyati va mafkuraviy barqarorlikni rivojlantirish masalalari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim-tarbiya, mafkuraviy immunitet, yoshlar, milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy barqarorlik, tarbiyaviy jarayon.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение системы образования и воспитания в формировании идеологического иммунитета молодежи. Анализируются вопросы внедрения национальной идеи и духовных ценностей в содержание образования, развития у молодого поколения критического мышления, социальной активности, гражданской ответственности и идеологической устойчивости.*

Ключевые слова: *образование и воспитание, идеологический иммунитет, молодежь, национальная идея, духовные ценности, социальная активность, критическое мышление, гражданская ответственность, духовная устойчивость, воспитательный процесс.*

Abstract: *This article explores the role and importance of the education and upbringing system in shaping the ideological immunity of youth. It analyzes the integration of national ideas and moral values into the content of education, as well as the development of critical thinking, social activity, civic responsibility, and ideological stability among young people.*

Keywords: *education and upbringing, ideological immunity, youth, national idea, moral values, social activity, critical thinking, civic responsibility, spiritual stability, educational process.*

Kirish(Introduction)

Bugungi globallashuv, axborot oqimining tezkorligi va raqamli makonning kengayib borayotgan davrida yoshlarning mafkuraviy dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki yosh avlodning ongi va qalbida shakllanadigan g‘oyaviy e’tiqod, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati jamiyatning barqaror taraqqiyoti, milliy xavfsizlik va ma’naviy yuksalishning poydevorini tashkil etadi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida mafkuraviy kurash shakllari tobora murakkablashib bormoqda. Axborot urushlari, ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta’siri, diniy ekstremistik va yot g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish xavfi kuchaymoqda. Shu sharoitda yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish – ularning mustahkam e’tiqodga ega bo‘lishi, yot g‘oyalarni tanqidiy baholay olish va milliy manfaatlar asosida fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu jarayonda ta’lim-tarbiya tizimi yetakchi o‘rinni egallaydi. Ta’lim – shaxsni intellektual, axloqiy va ma’naviy jihatdan shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va g‘oyaviy immunitetini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida milliy g‘oya, ma’naviy meros, insonparvarlik, bag‘rikenglik va fuqarolik madaniyatiga oid bilimlarni singdirish yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta’minlashning muhim omilidir.

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimi – bu nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni milliy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikka yo‘naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonining mafkuraviy-ma’naviy komponentlarini chuqur tahlil qilish, yoshlar ongida mustahkam mafkuraviy

immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni aniqlash asosiy maqsad qilib olinadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

“Mafkuraviy immunitet” tushunchasi keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy kategoriya bo‘lib, u jamiyat a’zolarining g‘oyaviy jihatdan aniq pozitsiyaga, mustahkam dunyoqarashga va e’tiqodga ega bo‘lishini ifodalaydi. Mazkur tushuncha insonni turli xil ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar, g‘oyaviy xurujlar, axborot manipulyatsiyalari hamda ekstremistik ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiluvchi murakkab ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, mafkuraviy immunitet – bu inson va jamiyat ongida shakllanadigan, yot g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarga nisbatan mustahkam qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini ifodalovchi, yuqori darajadagi axloqiy, ilmiy va siyosiy qadriyatlarga asoslangan tizimdir. U shaxsning ichki dunyosini, iymon-e’tiqodini, milliy g‘oyaga sadoqatini va tanqidiy fikrlash salohiyatini mustahkamlovchi himoya mexanizmini yaratadi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish har qanday rivojlanayotgan jamiyat uchun suv bilan havodek zarur bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tayanchdir. Chunki jamiyat miqyosida bunday immunitetning qay darajada mustahkam shakllanganligi — mamlakatning mafkuraviy barqarorligi, milliy xavfsizligi va ijtimoiy tizimining turg‘unligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, mafkuraviy immunitet darajasi jamiyatning tahdidlarga bardosh bera olish salohiyatini belgilovchi muhim mezondir.

Mafkuraviy immunitet tushunchasi so‘nggi yillarda pedagogika, ijtimoiy falsafa va siyosatshunoslik fanlarida keng qo‘llanilmoqda. Bu tushuncha insonning ongida yot g‘oyalarga, ma’naviy tahdidlarga va ijtimoiy manipulyatsiyalarga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. A. To‘laganova (2019) ta’kidlaganidek, mafkuraviy immunitet – bu shaxsning g‘oyaviy barqarorligi va tanqidiy tafakkurga asoslangan ma’naviy himoya tizimidir.

Shuningdek, S. Karimov (2020) o‘z tadqiqotida mafkuraviy immunitetni “ijtimoiy onging mustahkamligi va milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi” sifatida talqin etadi. Uning fikricha, bu jarayon ta’lim-tarbiya tizimi orqali shakllanadi va yosh avlodni ijtimoiy hayotga faol jalb etish orqali mustahkamlanadi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’lim-tarbiyaning mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi o‘rni alohida e’tirof etiladi. J. Dewey (2015) ta’limni inson tafakkurini shakllantiruvchi faol jarayon sifatida talqin qiladi, bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik g‘oyaviy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vygotskiy (1978) esa ta’limni shaxsning ijtimoiy tajriba asosida ongli rivojlanish jarayoni deb ko‘rsatadi. Shu ma’noda, ijtimoiy muhit, oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilikning birgalikdagi ta’siri yoshlarning g‘oyaviy qarashlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

N. Farxodjonova (2022) o‘z ilmiy izlanishlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, milliy g‘oyani singdirish metodlari va ma’naviy tarbiya jarayonining integratsion yondashuvlariga alohida urg‘u beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim mazmuniga milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni singdirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020), “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (2016), shuningdek Harakatlar strategiyasi (2017–2021) va Taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) hujjatlarida yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlash, mafkuraviy barqarorlikni oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Sh. Mirziyoyev (2021) o‘z nutqlarida yoshlar mafkuraviy tarbiyasining markazida milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, bag‘rikenglik, insonparvarlik va ezgulik g‘oyalarini mustahkamlash zarurligini qayd etgan. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim mazmunini yangilash, interfaol metodlarni joriy etish va o‘qituvchilarning mafkuraviy savodxonligini oshirishni talab etadi.

Zamonaviy adabiyotlarda yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar alohida o‘ringa ega ekanligi ta’kidlanadi. Anderson va Krathwohl (2019) tomonidan ishlab chiqilgan Bloom taksonomiyasining zamonaviy modeli shaxsda yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalar – tahlil, baholash, ijodiy yondashuvni rivojlantirishni nazarda tutadi.

R. Ahmadaliyeva (2023) tadqiqotlarida ijtimoiy fanlar darslarida interfaol usullar — “Debat”, “Aqliy hujum”, “Rol o‘ynash”, “Case-study” — orqali talabalar dunyoqarashida milliy g‘oya va ijtimoiy faollikni uyg‘un shakllantirish samaradorligi isbotlangan.

O‘zbekiston amaliyotida mafkuraviy immunitetni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. “Yoshlar ishlari agentligi”, “Mahalla” fondi, “Yoshlar ittifoqi” va turli ijtimoiy tashkilotlar ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlarni ma’naviy barkamol, ijtimoiy faol, milliy g‘ururga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda.

Yo‘ldosheva (2022) o‘z ilmiy ishida ushbu jarayonning muvaffaqiyati uchun uch omil muhimligini ta’kidlaydi: o‘qituvchi kasbiy salohiyati, oila va mahalla bilan hamkorlik, yoshlar bilan doimiy dialog olib borish.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish — bu kompleks, tizimli va uzoq muddatli pedagogik jarayon bo‘lib, u ta’lim-tarbiya, milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy muhit va shaxsiy mas’uliyatning uyg‘unligini talab etadi. Zamonaviy pedagogik metodlar va davlat siyosatining integratsiyasi orqali bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish mumkin.

Tahlil va natijalar(Results and analysis)

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda mafkuraviy immunitetning qaror topishi jarayoni kompleks xususiyatga ega bo‘lib, u ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlarini — ta’lim, madaniyat, OAV, oila, jamoatchilik va siyosiy institutlarni qamrab olgan holda amalga oshiriladi. Shu bois, mazkur jarayon o‘ziga xos murakkabliklar va muammolar bilan kechadi: bir tomondan, global axborot makonidagi g‘oyaviy tahdidlar kuchayib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar va ma’naviy poydevorlarni saqlash zarurati ortib bormoqda.

Inson, avvalo, oila muhitida shakllansa-da, uning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantiradigan asosiy omil — bu ta’lim-tarbiya tizimidir. Aynan ta’lim orqali yoshlar ongiga milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi va tanqidiy fikrlash madaniyati singdiriladi.

Yoshlarning mafkuraviy immuniteti — bu ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan, shaxsning yoshiga, tafakkur darajasiga va ijtimoiy tajribasiga mos holda yot g‘oyalarga nisbatan mustahkam e’tiqodiy pozitsiyada bo‘lishini ta’minlovchi g‘oyaviy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasidir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan, interfaol metodlardan va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, interaktiv metodlar — “debat”, “aqliy hujum”, “keys-stadi” va “rol o‘ynash” kabi yondashuvlar orqali talabalar ijtimoiy faollikni, milliy qadriyatlarni himoya qilishni va global jarayonlarni tanqidiy tahlil qilishni o‘rganadilar. Natijada, ularning ongi va tafakkurida mafkuraviy barqarorlik, ma’naviy hushyorlik va ijtimoiy mas’uliyat hissi mustahkamlanadi.

Zamonaviy davr voqeligi har bir masalaga yangicha yondashuv, ilmiy asoslangan tahlil va amaliy natijaga yo‘naltirilgan faoliyatni taqozo etadi. Ma’lum tushunchalar, g‘oyalar yoki tamoyillarni nazariy jihatdan anglab olishning o‘zi yetarli emas; eng muhim masala — bu ularni amaliy hayotga tatbiq etishdir. Ayniqsa, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda amaliy ishlar samaradorligi, profilaktik chora-tadbirlarning tizimliligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi sharoitida inson ongi va qalbini turli xil ma’naviy tahdidlar, yot g‘oyalar, radikal qarashlar va axborot manipulyatsiyalaridan himoya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu bois yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish — ularning g‘oyaviy barqarorligini, milliy qadriyatlarga sadoqatini, tanqidiy fikrlash va axborot tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Muhokama (Discussion)

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida o‘z o‘rniga va mustahkam pozitsiyasiga ega bo‘lgan, xalqaro hamjamiyat bilan tobora kengroq integratsiyalashib borayotgan, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan izchil harakat qilayotgan O‘zbekiston uchun globallashuv jarayonining qator ijobiy jihatlarini inkor etib bo‘lmaydi. Globallashuv – bu iqtisodiy, siyosiy,

madaniy va axborot makonida o‘zaro ta’sir kuchayib borayotgan, insoniyat taraqqiyotiga yangi sur’atlar bag‘ishlayotgan murakkab jarayondir.

Biroq mazkur jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud bo‘lib, ular har bir ongli va mustaqil fikrli insondan hushyorlikni, tanqidiy tahlil va ijtimoiy mas’uliyatni talab etadi. Chunki globallashuvning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u bugungi davrda mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning kuchli vositasiga aylanib, turli siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Axborot oqimining tezkorligi, raqamli kommunikatsiya vositalarining cheksiz imkoniyatlari mafkuraviy kurashning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun inson organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Xuddi shuningdek, yoshlar ongida ham ma’naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Buning uchun ularni ona Vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat, milliy va dini qadriyatlarga sadoqat, bag‘rikenglik, tinchliksevarlik, insonparvarlik kabi yuksak tuyg‘ular ruhida tarbiyalash lozim.

Ana shundagina yoshlarimiz milliy o‘zligini anglagan, shu bilan birga jahon hamjamiyati qadriyatlarini chuqur idrok eta oladigan, zamon bilan hamnafas, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar sifatida kamol topadi.

Xulosa (Conclusion)

Ta’lim-tarbiya sohasida yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish murakkab, ammo dolzarb pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-pedagogik yo‘nalishlarga e’tibor qaratish muhimdir:

Birinchidan, ta’lim mazmuniga milliy g‘oyani chuqur singdirish, yosh avlodni ajdodlarimizning insonparvarlik qarashlari, milliy turmush tarzi, axloqiy qadriyatlari bilan tanishtirish zarur. Bu orqali talabalar milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosdan faxrlanish, milliy iftixor tuyg‘usini his etadilar.

Ikkinchidan, yoshlarni ajdodlarimizning boy ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga sadoqat va ixlosmandlik ruhida tarbiyalash, ularni necha ming yillik tarix va betakror qadriyatlarga ega xalq vakili ekanligini chuqur his etib yashashga o‘rgatish lozim.

Uchinchidan, yoshlarga mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, milliy urf-odatlar, insonni ulug‘lash, o‘zaro hurmat, tinchlik va totuvlik, do‘stlik, bag‘rikenglik va hamjihatlik qadriyatlarini o‘rgatish zarur. Bunday qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy-axloqiy dunyoqarashini shakllantiradi va ularni fuqarolik mas’uliyatiga yo‘naltiradi.

To‘rtinchidan, talabalar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ilmiylik tamoyiliga qat’iy amal qilish lozim. Har bir fikr, g‘oya yoki tushuncha ilmiy dalillar, ijtimoiy haqiqat va tahlilga asoslangan holda o‘rgatilishi zarur.

Beshinchidan, ta’lim jarayonida ilgari surilayotgan dalillarni diniy ekstremizm va aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlariga murosasizlik bilan bog‘lash, yoshlarni bu kabi salbiy oqimlarga nisbatan tanqidiy pozitsiyada bo‘lishga o‘rgatish muhim.

Oltinchidan, yoshlarni munozara va fikr almashuv madaniyatiga o‘rgatish, ular orasida bahs-munozara orqali dalillash, isbotlash va e’tirof etish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu esa tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

Yettinchidan, yoshlar orasida siyosiy bilimlarga qiziqish uyg‘otish, ularni jamiyat hayotidagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ongli tarzda munosabat bildirishga tayyorlash kerak.

Sakkizinchidan, talabalar ijtimoiy faolligini har tomonlama rag‘batlantirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish muhim.

To‘qqizinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning ongiy va hissiy holati, psixologik ehtiyojlari va motivatsiyasini inobatga olish lozim. Har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuv samaradorlikni oshiradi.

O‘ninchidan, yosh avlod tarbiyasi faqat ta’lim muassasalarining emas, balki ota-ona, mahalla, jamoatchilikning ham birgalikdagi mas’uliyati ekanini unutmaslik kerak. Ta’lim va tarbiyada ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish yoshlarning mafkuraviy barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar

[1]. Akhmadalieva, R. U. (2022). A prominent scientist of Uzbekistan in the field of primitive archeology-UI Islamov IS 90 years old. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(7), 26-39.
[2]. Dewey, J. (2015). *Experience and education.* New York: Macmillan.
[3]. Farxodjonova, N. F. (2022). The importance of the spiritual heritage of the jadids in the development of society. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 33-35.
[4]. Karimov, S. (2020). Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining o'rni. *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 5(1), 41–47.
[5]. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi.* Toshkent: O'zbekiston.
[6]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). *O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.* PF–4947-son farmon.
[7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.* PF–60-son farmon.
[8]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020). *Ta'lim to'g'risida*gi Qonun. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti.
[9]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2017). *Yoshlar siyosati to'g'risida*gi Qonun. Toshkent: Adolat nashriyoti.
[10]. To'laganova, A. (2019). Mafkuraviy immunitet va uning ijtimoiy-falsafiy mazmuni. *Falsafa va huquq jurnali*, 3(2), 58–63.
[11]. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes.* Cambridge, MA: Harvard University Press.
[12]. Yo'ldosheva, F. (2022). Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy tarbiyaning o'rni. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(1), 87–92.
[13]. 13. Рафикова Дилафруз Каххоралиевна, Ахмадалиева Раънохон Уринбой Кизи Общечеловеческие ценности и их значение в углублении мирового сотрудничества // Проблемы Науки. 2019. №10 (143). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obschechelovecheskie-tsennosti-i-ih-znachenie-v-uglublenii-mirovogo-sotrudnichestva (дата обращения: 15.12.2025).

РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К УПРАВЛЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКИМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ОТРАСЛИ

М.М. Рустамова

Ферганский государственный технический университет
e-mail: M.Rustamova1005@gmail.com
(Получена 05.12. 2025 г.)

Аннотация: *Статья посвящена анализу и развитию методологических подходов к управлению экономическим потенциалом предприятий текстильной отрасли в условиях усиливающейся конкуренции и трансформации производственных процессов. В работе уточняется содержание категории «экономический потенциал предприятия» с позиции современных концепций управления, а также выявляются факторы, влияющие на его формирование и эффективное использование.*

Ключевые слова: *экономический потенциал, текстильная отрасль, управление потенциалом, методология управления, ресурсная эффективность, конкурентоспособность, инновационные подходы, цифровизация, стратегическое развитие, производственная трансформация.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqobatning kuchayishi va ishlab chiqarish jarayonlarini o'zgartirish sharoitida to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishning metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi va ishlab chiqiladi. Maqolada "korxonaning iqtisodiy salohiyati" toifasining ta'rifi zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari nuqtai nazaridan aniqlanadi va uning shakllanishi va samarali qo'llanilishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.*

Tayanch so'zlar: *iqtisodiy salohiyat, to'qimachilik sanoati, potentsialni boshqarish, boshqaruv metodologiyasi, resurslar samaradorligi, raqobatbardoshlik, innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish, strategik rivojlanish, ishlab chiqarishni o'zgartirish.*

Abstract: *This article analyzes and develops methodological approaches to managing the economic potential of textile enterprises in the context of increasing competition and the transformation of production processes. The paper clarifies the definition of the "enterprise economic potential" category from the*

perspective of modern management concepts and identifies factors influencing its formation and effective use.

Key words: *economic potential, textile industry, potential management, management methodology, resource efficiency, competitiveness, innovative approaches, digitalization, strategic development, production transformation.*

I.Введение: Текстильная промышленность остаётся одной из ключевых отраслей реального сектора экономики, обеспечивающей занятость населения, экспортный потенциал и устойчивый промышленный рост. В условиях глобальной конкуренции, ускоренной цифровизации и растущих требований к эффективности производственных процессов предприятия отрасли вынуждены пересматривать подходы к использованию и развитию своих ресурсных возможностей. В связи с этим возрастает значимость научно обоснованного управления экономическим потенциалом, представляющим собой совокупность материальных, финансовых, трудовых и инновационных ресурсов, определяющих способность предприятия обеспечивать стабильную деятельность и стратегическое развитие.

Несмотря на то что в научной литературе накоплен значительный опыт анализа эффективности использования ресурсов и оценки потенциала предприятий различных отраслей, проблема развития методологических подходов к управлению экономическим потенциалом текстильных предприятий остаётся недостаточно раскрытой. Это объясняется высокой динамичностью отрасли, неоднородностью технологических процессов, различиями в уровнях автоматизации производств, а также необходимостью адаптации предприятий к современным цифровым и экологическим стандартам. Применяемые на практике управленческие методики зачастую ориентированы на отдельные аспекты потенциала и не обеспечивают комплексного подхода к его формированию, оценке и стратегическому развитию. [1]

Современные условия функционирования текстильных предприятий требуют обновления методологической базы управления, включающей интеграцию цифровых аналитических инструментов, инновационных управленческих технологий и стратегических механизмов повышения эффективности использования ресурсов. Актуальность исследования обусловлена необходимостью разработки таких подходов, которые позволили бы не только объективно оценивать уровень экономического потенциала, но и обеспечивать его целенаправленное развитие в долгосрочной перспективе.

Таким образом, исследование направлено на научное обоснование и совершенствование методологических подходов к управлению экономическим потенциалом предприятий текстильной отрасли, что позволит повысить их устойчивость, конкурентоспособность и способность адаптироваться к структурным изменениям внешней среды.

II.Методология исследования: Методологическая база исследования сформирована на сочетании современных научных подходов и аналитических инструментов, обеспечивающих глубину, комплексность и объективность изучения экономического потенциала предприятий текстильной отрасли. В работе применён ряд взаимодополняющих методов, позволяющих исследовать как теоретические аспекты проблемы, так и практические механизмы её решения.

В основу исследования положен системный подход, который рассматривает экономический потенциал как целостный и многоуровневый объект управления, включающий производственные, кадровые, финансовые, инновационные и организационные составляющие. Такой подход позволяет выявить взаимосвязи между компонентами потенциала и определить влияние внешних и внутренних факторов на уровень его реализации.

Для анализа структуры и содержания экономического потенциала использован структурно-логический метод, обеспечивающий выделение ключевых элементов и их функциональных характеристик. Этот метод позволил определить слабые и сильные стороны ресурсной базы текстильных предприятий и выявить направления её оптимизации.

При изучении текущих тенденций в отрасли применялись экономико-статистические методы, включая анализ динамики производственных показателей, сравнительную оценку эффективности предприятий и исследование факторов, влияющих на конкурентоспособность. Эти методы позволили сформировать объективное представление о состоянии отрасли и определить предпосылки для совершенствования подходов к управлению потенциалом. [2]

Для разработки усовершенствованной методологии управления использованы методы моделирования и концептуального проектирования, направленные на формирование интегрированной модели управления экономическим потенциалом. Моделирование обеспечило возможность структурировать управленческие процессы, определить оптимальные механизмы распределения ресурсов и сформировать алгоритмы повышения устойчивости предприятий.

Кроме того, в исследовании применён компаративный анализ, который позволил сопоставить существующие методики оценки и управления потенциалом, определить их преимущества и ограничения. На основе такого анализа предложены направления модернизации методологического инструментария.

Для уточнения практической значимости разработанных предложений использовались методы экспертных оценок, включающие опрос специалистов текстильной отрасли. Это позволило адаптировать теоретические положения к реальным условиям функционирования предприятий.

Комплексное применение перечисленных методов обеспечило научную обоснованность исследования и позволило разработать обновлённый методологический подход, ориентированный на повышение эффективности управления экономическим потенциалом предприятий текстильной промышленности. [3]

III.Результаты исследования: Проведённое исследование позволило получить ряд теоретических и практических результатов, направленных на углубление методологических основ управления экономическим потенциалом предприятий текстильной отрасли.

Прежде всего, на основе систематизации научных подходов уточнено содержание категории экономического потенциала текстильного предприятия. Определено, что его структура формируется под воздействием не только традиционных ресурсных факторов, но и таких современных элементов, как уровень цифровизации производственных процессов, степень внедрения инноваций, гибкость организационных механизмов и адаптивность к внешним изменениям. Данное уточнение позволило расширить научное понимание сущности потенциала с учётом отраслевой специфики.

Во-вторых, выявлены основные ограничения существующих методик управления, применяемых на предприятиях текстильной отрасли. Показано, что большинство используемых моделей концентрируется на оценке отдельных видов ресурсов и не обеспечивает комплексной интеграции производственных, финансовых и инновационных возможностей предприятия. Это приводит к фрагментарности управленческих решений и снижению эффективности использования потенциала.

В-третьих, на основе анализа текущего состояния отрасли выявлены ключевые тенденции, определяющие динамику развития экономического потенциала. К ним относятся рост значимости автоматизации и цифровых инструментов, укрепление роли инновационной активности, повышение требований к эксплуатационной эффективности ресурсов и необходимость адаптации предприятий к глобальной конкуренции. Эти тенденции подтверждают необходимость модернизации подходов к управлению потенциалом.

В-четвёртых, разработан усовершенствованный методологический подход, основанный на интеграции системного, процессного и инновационного подходов. В его рамках предложена модель, обеспечивающая комплексную оценку состояния потенциала, выявление резервов роста и формирование управленческих решений на основе анализа ключевых бизнес-процессов. Модель учитывает отраслевые особенности текстильного производства и ориентирована на повышение устойчивости и эффективности предприятия.

В-пятых, сформирован алгоритм оценки экономического потенциала, включающий совокупность количественных и качественных показателей, позволяющих более точно определить уровень использования ресурсов и выявить направления их оптимизации. Предложенный алгоритм включает цифровые инструменты мониторинга, что обеспечивает оперативность анализа и повышение точности управленческой информации.

В-шестых, практическая значимость разработанных рекомендаций подтверждена результатами экспертного анализа. Специалисты отрасли отметили, что применение предложенной методологии способствует улучшению качества стратегического планирования, оптимизации ресурсной структуры, повышению производительности и укреплению конкурентоспособности предприятий. [4]

Таким образом, исследование позволило обосновать необходимость развития современных методологических подходов к управлению экономическим потенциалом текстильных предприятий и предложить инструменты, обеспечивающие повышение эффективности управления в условиях технологических и рыночных изменений.

IV.Обсуждение: Полученные результаты исследования позволяют более глубоко осмыслить проблематику управления экономическим потенциалом текстильных предприятий и определить направления совершенствования применяемых методологических подходов. Анализ показал, что традиционные управленческие механизмы, основанные преимущественно на ресурсно-ориентированной оценке, в современных условиях перестают обеспечивать устойчивое развитие предприятий. Ускоренная цифровизация, усложнение производственных процессов и увеличение конкурентного давления требуют перехода к методикам, обеспечивающим комплексность управленческих решений и их адаптивность к изменениям внешней среды.

Одним из ключевых выводов исследования является признание того, что экономический потенциал предприятия следует рассматривать не как статическую совокупность ресурсов, а как динамичную систему, способную трансформироваться под воздействием внутренних и внешних факторов. Это означает необходимость отхода от узкофункциональных подходов в пользу системного анализа, интеграции стратегического управления, цифровых инструментов и процессного подхода. Именно такая интеграция позволяет учитывать не только имеющиеся ресурсы, но и механизмы их взаимодействия, возможности для инноваций, качество организационных процессов и способность предприятия к долгосрочному росту. [5]

Сравнительный анализ существующих методик управления выявил существенные методологические разрывы: многие из них не включают механизмов цифрового мониторинга, не учитывают влияние технологической модернизации и ограничиваются оценкой отдельных аспектов производственного потенциала. В условиях текстильной отрасли, характеризующейся высокой зависимостью от технологического обновления и колебаний внешней конъюнктуры, такой подход ограничивает способность предприятий своевременно реагировать на изменения. Следовательно, необходимость разработки более гибких и комплексных моделей управления является объективной.

Предложенная в исследовании интегрированная модель управления экономическим потенциалом демонстрирует потенциальную возможность устранения этих ограничений. Её ключевым преимуществом является ориентация на взаимосвязанную оценку всех элементов потенциала — от производственных мощностей до кадровой и инновационной составляющих. Важную роль играет внедрение цифровых инструментов оценки и мониторинга, обеспечивающих прозрачность и оперативность управленческих решений. Это особенно важно в условиях цифровой трансформации текстильной промышленности.

Не менее значимым выводом обсуждения является выявление необходимости учитывать отраслевую специфику и особенности локальных рынков. Универсальные методики управления не всегда отражают реальные условия функционирования текстильных предприятий, что требует адаптации подходов и формирования индивидуальных управленческих моделей. В «умной» текстильной промышленности будущего именно

адаптивные, инновационно ориентированные и цифровые инструменты станут основой эффективного управления потенциалом.

Таким образом, результаты исследования подтверждают, что развитие методологических подходов к управлению экономическим потенциалом предприятий представляет собой многоаспектную задачу, требующую обновления существующих концепций, интеграции современных технологий и переосмысления принципов организации управленческих процессов. Предложенные в работе методологические решения могут служить основой для дальнейших научных исследований и практического совершенствования системы управления в текстильной отрасли.

V.Выводы и предложения: Проведённое исследование позволило сформировать целостное представление о современных тенденциях и проблемах управления экономическим потенциалом предприятий текстильной отрасли, а также определить направления совершенствования методологической базы данного процесса.

Экономический потенциал текстильного предприятия является динамичной, многофакторной категорией, включающей производственные, финансовые, кадровые, инновационные и организационные компоненты. Он формируется и развивается под влиянием технологических, цифровых, рыночных и институциональных факторов, что требует комплексного подхода к его оценке и управлению.

Установлено, что существующие методики управления обладают ограниченной функциональностью, поскольку ориентированы преимущественно на ресурсно-результативную оценку и не обеспечивают системного анализа внутренних взаимосвязей элементов потенциала. Такая фрагментарность снижает качество управленческих решений и ограничивает возможности предприятий по повышению конкурентоспособности.

Анализ состояния текстильной отрасли выявил, что цифровизация, автоматизация и инновации становятся ключевыми драйверами роста экономического потенциала, однако большинство предприятий не располагают инструментами, позволяющими эффективно интегрировать эти факторы в управленческие процессы.

Разработанный в рамках исследования усовершенствованный методологический подход демонстрирует возможность комплексной оценки потенциала и формирования стратегических решений, основанных на процессном, системном и инновационном подходах. Его применение способствует оптимизации использования ресурсов, повышению эффективности производственных процессов и укреплению устойчивости предприятий.

Экспертная оценка показала, что практическое внедрение интегрированных методов управления позволяет повысить качество стратегического планирования, улучшить координацию бизнес-процессов и увеличить адаптивность предприятий к изменениям внешней среды.

На основе проведённого исследования сформулированы предложения, направленные на совершенствование управления экономическим потенциалом предприятий текстильной отрасли:

Внедрить комплексные модели управления экономическим потенциалом, включающие системную оценку компонентов потенциала, анализ бизнес-процессов и цифровые инструменты мониторинга. Это позволит выстроить более точные механизмы принятия управленческих решений.

Разработать и использовать стандартизированные показатели оценки экономического потенциала, учитывающие отраслевую специфику текстильного производства, уровень технологичности, инновационные возможности и степень ресурсной обеспеченности предприятий.

Усилить интеграцию цифровых технологий — систем автоматизации управления, аналитических платформ, технологий IoT и Big Data — в процессы оценки и управления ресурсами с целью повышения точности анализа и оперативности управленческих действий.

Модернизировать производственно-технологическую базу предприятий, ориентируясь на внедрение энергоэффективных, экологичных и инновационных решений,

что позволит повысить эффективность использования потенциала и уровень конкурентоспособности. [6]

Повысить квалификацию управленческого и инженерно-технического персонала, обеспечив обучение современным методам стратегического, процессного и инновационного управления, а также навыкам работы с цифровыми системами мониторинга.

Разработать отраслевые рекомендации и методические руководства, которые станут практическим инструментом для предприятий при внедрении обновлённых подходов к управлению экономическим потенциалом.

Активизировать научно-прикладные исследования, направленные на адаптацию интегрированных методологических моделей к специфике различных типов текстильных предприятий — от малых производств до крупных промышленных комплексов.

Список литературы

[1]. Ибрагимова Р. С., Головкин Д. С. Управление экономическим потенциалом промышленного предприятия: система поддержки принятия решений, Вестник Пермского университета. Серия: Экономика, 2025.
[2]. Беломестнов В. Г., Егоров М. М. Управление потенциалом промышленного предприятия, Российское предпринимательство, 2011.
[3]. Якубов М. С., Уришев Б. А. Концепция повышения экономического потенциала текстильной промышленности, Universum: технические науки, 2020.
[4]. Rustamova M. M. Efficiency of Development of Economic Potential of Textile Industry Enterprises, European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2023. 5.Rustamova M. M. Theoretical and methodological foundations for managing textile clusters and increasing their export potential, Innovations in Science and Technologies, 2023.
[5]. Мамедов Ф. А. Инновационный подход к повышению конкурентоспособности предприятия текстильной промышленности, Современные технологии управления, 2021.

UDK 37.013: 004.588

TEXNIKA FANLARINI O‘QITISH METODIKASINI VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB TAKOMILLASHTIRISH

N.M. Jo‘rayev, Sh.N. G‘aniyeva

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

This article discusses the improvement of teaching methods for technical disciplines through the use of modern information technologies, particularly Virtual Reality (VR). Organizing the educational process in a VR environment helps students develop independent thinking, experimental, and visualization skills for complex technical phenomena. The study analyzes the didactic potential of VR technologies, the stages of their integration into educational programs, and their impact on learning effectiveness. As a result, recommendations for enhancing the methodology of teaching technical subjects using VR technologies have been proposed.

Keywords: *virtual reality, technical disciplines, teaching methodology, interactive learning, digital technologies, engineering education.*

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики преподавания технических дисциплин с использованием современных информационных технологий, в частности технологий виртуальной реальности (VR). Организация учебного процесса в среде VR способствует развитию у студентов навыков самостоятельного мышления, проведения экспериментов и визуализации сложных технических процессов. В исследовании проанализированы дидактические возможности VR-технологий, этапы их интеграции в образовательные программы и влияние на эффективность обучения. По результатам работы разработаны рекомендации по совершенствованию методики преподавания технических дисциплин на основе VR-технологий.

Ключевые слова: *виртуальная реальность, технические дисциплины, методика преподавания, интерактивное обучение, цифровые технологии, инженерное образование.*

Mazkur maqolada texnika fanlarini o‘qitish jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalar, xususan, virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish orqali takomillashtirish masalalari yoritilgan. VR muhitida o‘quv jarayonini tashkil etish texnik fanlarni o‘qitishda talabalarning mustaqil fikrlash, tajriba o‘tkazish va murakkab jarayonlarni vizuallashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda VR texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, ularni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish bosqichlari hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Natijada, texnika fanlarini o‘qitish metodikasini VR asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, texnika fanlari, o‘qitish metodikasi, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, muhandislik ta’limi.

Kirish. Texnika fanlarini o‘qitish jarayonida VR texnologiyalari murakkab texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish, xavfsiz muhitda texnik tajriba o‘tkazish va talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkonini beradi. Texnika fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonini takomillashtirish, talabalarning texnik muammolarni hal qilishda divergent va konvergent, kreativ va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy texnologiyalarga integratsiya qilishga, raqamli muhitda ta’lim oluvchilarning intellectual salohiyati, mantiqiy fikrlashi va sel-learning (mustaqil o‘qish) ko‘nikmalariga ega bo‘lishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot VR texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rnini ilmiy asosda o‘rganish va “KiberSimulyator” dasturi orqali texnika fanlarini o‘qitishning yangi metodikasini ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqot natijalari texnika fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini interaktivlashtirish va talabalarni texnik fanlarga qiziqtirish yo‘lida amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Texnika fanlari ko‘pincha nazariy bilim va murakkab amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi. Ammo an’anaviy ta’lim metodlari ushbu fanlarni o‘zlashtirishda talabalarni yetarli darajada rag‘batlantira olmaydi. Shu nuqtai nazardan, “KiberSimulyator” dasturidan foydalanish texnika fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan samarali yondashuv bo‘lib, u o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va amaliyotga yaqinlashtiradi.

Mazkur ishda texnika fanlarini “KiberSimulyator” VR dasturi yordamida o‘qitishning didaktik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Unda VR texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni, samaradorligi va talabalarni texnika sohasida chuqurroq bilimga ega bo‘lishiga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinadi.

Shuningdek, ishda “KiberSimulyator” dasturi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning bosqichlari, metodikasi va samaradorlikni oshirish usullari ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv texnika fanlarini o‘qitishda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni birlashtirishga xizmat qilib, talabalar bilimlarini yanada mustahkamlaydi va ularning texnika sohasida yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Texnika fanlarini VR texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish uchun quyidagi 5 bosqichli texnologik yondashuv qo‘llanilishi mumkin:

1. Tayyorlov bosqichi. Darsning mazmuni va VR texnologiyalari yordamida qamrab olinadigan maqsadlarni aniqlash, VR texnologiyasi uchun mos bo‘lgan mavzuni aniqlash; VR qurilmalar (VR ko‘zoynaklar, boshqaruv moslamalari) va dasturiy ta’minotni tayyorlash; Simulyatsiya yoki o‘quv modullari dasturlarini o‘rnatish; talabalarga VR texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha qisqacha ko‘rsatma berish;

2. O‘quv jarayoniga kirish bosqichi. Talabalarni mavzuga qiziqtirish va VR muhitiga tayyorlash; professor-o‘qituvchi mavzuni qisqacha tushuntiradi va VR orqali o‘rganiladigan asosiy elementlarni ko‘rsatadi; talabalarga VR mashg‘ulotining maqsadlari va natijalari tushuntiriladi; VR texnologiyalaridan foydalanish qoidalari va mashg‘ulot jarayonidagi muhim bosqichlar tushuntiriladi.

3. Amaliy mashg‘ulot bosqichi. Talabalarga VR texnologiyalari yordamida interaktiv va amaliy tajriba taqdim etiladi; VR muhitida mavzuga oid obyektlar, jarayonlar yoki uskunalar bilan tanishishadi; VR yordamida texnik jarayonlarni boshqarish yoki sinovdan o‘tkazish amalga oshiriladi; talabalar muammoni yechish yoki vazifalarni bajarish jarayonida faol ishtirok etib, VR mashg‘ulotlarni jamoada yoki mustaqil ravishda bajaradilar.

4. Tahlil va muhokama bosqichi. VR mashg‘ulotlaridan olingan natijalarni tahlil qilinib, umumlashtiriladi; VR muhitda bajarilgan vazifalar natijalari ko‘rib chiqiladi va xatolarni tahlil qilinadi, shuningdek, mashg‘ulot davomida yuzaga kelgan savollar muhokama qilinadi.

5. Baholash va natijalarni mustahkamlash bosqichi. VR muhitda bajarilgan amaliy mashg‘ulotlar quyidagi usullarda baholanadi; testlar, vazifalar yoki nazorat ishlari orqali olingan bilimlar aniqlanadi. Talabalarga mavzu yuzasidan yakuniy nazariy va amaliy tavsiyalar berish.

Ushbu besh bosqichli texnologiya VR texnologiyalari yordamida darslarni samarali tashkil etishga ko‘mak beradi. Bu jarayon orqali talabalar texnika fanlariga oid bilimlarni nafaqat nazariy, balki real amaliy muhitda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning bilim va ko‘nikmalarini yuqori darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu jarayonlarni Online lab metodi orqali amalga oshirish yaxshi samara beradi. Shu o‘rinda Online lab metodi haqida to‘xtalib o‘tsak.

Online Lab (onlayn laboratoriya) metodi — bu laboratoriya ishlarini masofadan turib, ya’ni internet orqali virtual muhitda yoki maxsus simulyatsiya dasturlari orqali bajarishga asoslangan ta’lim usulidir.

Ushbu metod ayniqsa texnika, tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari, biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda qo‘l keladi. Online lab metodi talabalarga simulyatorlar, 3D dasturlar, modellashtirish platformalari, interaktiv vositalar orqali virtual muhitda amaliy tajriba o‘tkazish kabi asosiy xususiyatlarga ega. Ushbu metod orqali talaba tajriba bosqichlarini boshqarish, natijalarni kuzatish, tahlil qilish, masofadan ishtirok etish, qayta-qayta o‘rganish va xatolar ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Online lab o‘qitish uslubi texnika fanlarida VR texnologiyalaridan foydalanish orqali yangi yondashuvlar va imkoniyatlar yaratib, talabalarning texnika fanlaridagi murakkab jarayonlarni tushunishini sezilarli darajada osonlashtiradi. VR texnologiyalari yordamida talaba o‘zi uchun qulay muhitda nazariy bilimlarini amaliyotga yaqinlashtirgan holda Kibersimulyator dasturidan foydalanib mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, texnika fanlarini VR asosida o‘qitishda Flipped classroom texnologiyasidan foydalanish ham ma’lum samaradorlikka ega.

“Flipped Classroom” pedagogik texnologiyasini texnika fanlarini VR asosida o‘qitish uchun amalda qo‘llash bo‘yicha asosiy bosqichlari quyidagicha:

• “Flipped Classroom” texnologiyasini VR vositasida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan modullar va mavzularni aniqlash;

• texnika fanlariga, hususan, kiberxavfsizlik asoslariga oid o‘quv materiallarni joylashtirish uchun resurs hamda ta’lim oluvchilar bilan dialogni ta’minlash vositasini tanlash;

• kiberxavfsizlik asoslari fani mavzulari bo‘yicha video, audio yozuvlar, VR dastur yoki boshqa interfaol materiallarni tayyorlash yoki tegishli manbalardan tanlab olish;

• kiberxavfsizlik asoslari fani materiallari bilan ishlash bo‘yicha yo‘riqnoma tayyorlash, mavzular bo‘yicha topshiriqni shakllantirish va bu materiallarni VR dasturga joylashtirish;

• ta’lim oluvchilarning kiberxavfsizlik asoslari fani bo‘yicha o‘quv materiallardan foydalanishini ta’minlash, ularning savollariga o‘z vaqtida javob qaytarish;

• ta’lim oluvchilarning kiberxavfsizlik asoslari fanini o‘zlashtirishlari uchun berilgan topshiriqni bajarishlarini tahlil qilish, auditoriyadagi mashg‘ulotlar uchun tabaqalashtirilgan topshiriqlarni tayyorlash;

• ta’lim oluvchilarning kiberxavfsizlik asoslari fani mavzulari bo‘yicha nazariy bilimlariga tayangan holda faol amaliy mashg‘ulot o‘tkazish, mashg‘ulotning samaradorligini tahlil qilish;

• har bir o‘quv video yoki VR ta’lim resurslari aniq o‘quv maqsadiga ega bo‘lishini ta’minlash;

• topshiriqlarni bajarishning oxirgi muddatlarini (sana va soatni) aniq belgilash;

• ishlab chiqilgan materialning dolzarbligi kamayib borishiga muvofiq ravishda tegishli axborotlarni muntazam yangilab borish zarur.

“Flipped Classroom” asosida o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoga asoslangan ta’lim, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va tizimli faoliyat yondashuvi kabi turli yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Bunda tyutorning roli ham o‘zgargan holda ta’lim oluvchilar

faoliyatini tashkil etuvchi, maslahatchi, tashkilotchi, tyutor, menejer, moderator kabi vazifalarni bajaradi.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda tajriba o‘tkazishdan oldin talabalar nazariy ma’lumotlarga tayanib mashg‘ulotga oid berilgan vazifalarni bajarishga harakat qiladilar.

Ishlab chiqilgan “Kibersimulyator” VR dasturida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish 60610500 – “Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi)” va 60611300 – “AKT sohasida kasb ta’limi” ta’lim yo‘nalishlari talabalarida o‘qitiladigan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan jadvallar keltirilgan. Bu turdagi oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik asoslari faniga oid dars mashg‘ulotlari bakalavriat ta’lim bosqichining uchinchi semestrida o‘qitilib, auditoriya mashg‘ulotlari uchun jami 180 soat ajratilgan, shundan 44 soat ma’ruza, 30 soat amaliy mashg‘ulot va 106 soat mustaqil ta’lim uchun namunaviy dasturda quyidagi mavzular va soatlar ko‘rsatilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar o‘zlariga berilgan vazifalarni individual yoki guruhlarda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Har bir berilgan vazifalarni bajarish jarayonida “Kibersimulyator” VR dasturidan foydalanishlari uchun barcha topshiriqlar va ma’lumotlar yaxlit dastur ko‘rinishida birlashtirildi. Mazkur dastur amaliy ishlarni bajarishga tayyorgarlik ko‘rish va eksperimentni bajarishda ko‘nikma, malaka va olingan nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash layoqatini rivojlantirish vositasi sifatida yaratildi [2].

“Kibersimulyator” VR dasturining ishlash prinsipi talabalar yoki amaliyotchilarga amaliy tajriba orttirish va xavfsiz va boshqariladigan sharoitda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradigan haqiqiy kiber poligonlarni takrorlaydigan simulyatsiya qilingan muhitni yaratish. Kiberxavfsizlikda virtual simulyator dasturlarning ishlashiga asoslangan prinsiplarning qisqacha mazmuni:

Simulyatsiya va replikatsiya uchun VR dastur tarmoqlar, tizimlar, ilovalar va xavfsizlik infratuzilmalarini o‘z ichiga olgan haqiqiy kiber muhitni simulyatsiya qilishga qaratilgan. Ular ushbu muhitlarning xatti-harakatlari va xususiyatlarini takrorlaydi, bu foydalanuvchilarga ular bilan haqiqiy muhitda bo‘lgani kabi muloqot qilish imkonini beradi.

Amaliy ta’limda esa VR dasturlar foydalanuvchilarga nazariy bilim va tushunchalarni simulyatsiya qilingan kiber poligonlarda qo‘llash imkoniyatlarini taqdim etish orqali amaliy o‘rganishga ustuvor ahamiyat beradi. Amaliy mashqlar orqali foydalanuvchilar turli xil kiberxavfsizlik muammolari, tahdidlari va hujumlarini tajriba qilishlari, tahlil qilishlari va ularga javob berishlari mumkin.

VR foydalanuvchilarga kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini zarar yetkazish yoki haqiqiy tizimlarga zarar yetkazish xavfisiz mashq qilishlari uchun boshqariladigan va xavfsiz muhitni taklif etadi. Foydalanuvchilar jonli muhit bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan oqibatlarsiz turli xil texnikalarni o‘rganishlari, tajribalar o‘tkazishlari va xatolardan saboq olishlari mumkin.

VR dasturlar simulyatsiya qilingan hujumlar, zaifliklar va xavfsizlik insidentlarini o‘z ichiga olgan real kiber ssenariylarni, ya’ni haqiqiy poligonlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu poligonlar foydalanuvchilarga hujumlarga qarshi kurashish, ularni o‘rganish va muammolarni hal qilish uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Ular foydalanuvchilarga kiberxavfsizlik tushunchalarining amaliy oqibatlarini tushunishga va samarali javob strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

VR dasturlar kiberxavfsizlik sohasida keng qo‘llaniladigan bir qator vositalar, dasturiy ta’minot va texnologiyalarni birlashtiradi. Bu zaif dasturlar, kirib sinov bajaradigan poligonlar, tahlil va statistika dasturlari va boshqalar tarmoq monitoringi vositalarini o‘z ichiga oladi. Foydalanuvchilar ushbu vositalar bilan tanishish va malakaga ega bo‘lishlari, amaliy ko‘nikmalarini oshirishlari mumkin.

VR dasturlar ko‘pincha foydalanuvchilar o‘rtasida va o‘zaro hamkorlik aloqalarini osonlashtiradi. Foydalanuvchilar individual yoki jamoalarda ishlashlari, bilim, tajriba va tushunchalarni almashishlari mumkin. Ushbu hamkorlik muhiti kiberxavfsizlik sohasida muhim ko‘nikmalar bo‘lgan o‘rganish, muloqot va jamoaviy ishlarni rivojlantiradi.

Kibersimulyator dasturi fikr-mulohaza va baholash mexanizmlarini taqdim etadi. Foydalanuvchilar o‘zlarining ishlashi haqida fikr-mulohazalarni olishlari, takomillashtirish

yo‘nalishlarini aniqlashlari va ularning rivojlanishini kuzatishlari mumkin. So‘rovnoma, simulyatsiya va amaliy mashg‘ulotlar kabi baholash usullari foydalanuvchilarga kiberxavfsizlik tushunchalari va amaliyotlarini tushunishlari hamda malakalarini namoyish etishlariga imkon beradi.

Shuningdek, ushbu dastur qulaylik va o‘lchov jihatidan moslashuvchanlikni taklif etadi. Ularga masofadan turib kirish mumkin, bu foydalanuvchilarga istalgan vaqtda istalgan joydan o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Bundan tashqari, VR dasturlar turli xil foydalanuvchilarni joylashtirish, rivojlanayotgan kiberxavfsizlik poligonlari va texnologiyalariga moslashish uchun kengaytirishi mumkin.

Immersiv, amaliy va xavfsiz o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha kiberxavfsizlik markazlari sohasidagi VR dasturlar haqiqiy kiber poligonlarni simulyatsiya qilish va amaliy tajribalar uchun vositalarni taqdim etish orqali VR dasturlar foydalanuvchilarga kiberxavfsizlik sohasi hodimlari uchun muhim amaliy ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Texnika fanlarini o‘qitishda “KiberSimulyator” dasturi imkoniyatlaridan foydalanish nafaqat ta’lim jarayonining interaktivligini oshiradi, balki talabalarni texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ulardan amaliy foydalanishni o‘rgatishda ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi.



1-rasm. Kibersimulyator dasturidan foydalanish imkoniyatlari.

Yaratilgan “Kibersimulyator” VR dasturi orqali kiberxavfsizlik asoslari faniga oid ma’ruzalar, amaliy ishlariga oid nazariy ma’lumotlar amaliy ishni bajarish yo‘riqnomasi, ishda olingan natijalarni VR dasturi orqali ko‘rish imkoniyati mavjud [3]. Bundan tashqari amaliy mashg‘ulotlar uchun ishni bajarish topshiriqlari talabaga o‘z ustida mustaqil ishlash imkon beradi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida AKTlardan samarali foydalanish hamda innovatsion texnologiyalar asosida mashg‘ulotlarni olib borish talabalar uchun samarali bo‘lishini ta’minlamoqda. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari kompyuter injiniringi va AKT sohasida kasb ta’limi yo‘nalishlari talabalarining bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganligi, ularni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini nazorat qilish hamda baholash ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalarni baxolashda esa, mashg‘ulotlarda topshiriqlarni mavzuga mos holda berilishi va turli interaktiv metodlardan foydalanish kerak. Biz tadqiqot ishimizda oliy ta’lim muassasasi kompyuter injiniring va AKT sohasida kasb ta’limi yo‘nalishi talabalarining innovatsion faoliyatni takomillashtirish uchun ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda yangi metodlarni joriy etish bilan birgalikda talabalarning innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirishga erishdik. Ma’ruza

mashg‘ulotida axborot xavfsizligi o‘qituvchisining innovatsion faoliyati Lily flower usuli orqali tushuntirib berilgan. Ma’ruza mashg‘ulotlarini ham interaktiv metodlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Kibexavfsizlik asoslari fani bo‘yicha bilim berishda innovatsion faoliyatga qaratilgan ta’lim jarayonini pedagog yaxlit holda aniq tasavvur etishi, mavzulararo uzviylikni ta’minlashi, dars rejasini oldindan puxta loyihalashi talab etiladi. Fanning o‘qitish shaklini, usullari va vositalarini to‘g‘ri tanlash 80 daqiqadan samarali foydalanish imkonini beradi [3].

Metodikaning asosiy tamoyillari sifatida VR texnologiyalari asosida texnika fanlarini o‘qitishning interfaollik, vizuallik va eksperimentallik tamoyillari ishlab chiqildi. Talabalarning kognitiv faolligini oshirish, o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlar tavsiya etildi.

Adabiyotlar

[1]. Рахматов Расулжон, & Мирзаев Жамшид Боймуродович. (2023). Кибербезопасность в области IoT технологии. Miasto Przyszłości, 43, 33–37. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2193

[2]. Sadirova Xursanoy Xusanboy Qizi, & Raxmatov Rasuljon Ravshanjon O‘G‘Li (2025). KOMPYUTER TARMOQLARIDA HUJUM IZLARINI ANIQLASH VA ULARNI TURLARI BO‘YICHA TIZIMLI TASNIFLASH. Al-Farg’oniy avlodlari, 1 (2), 40-44. doi: 10.5281/zenodo.15541367

[3]. G‘aniyeva Sh.N., Yetmishboyev Sh.M. “Kiberxavfsizlik asoslari” fanidan virtual laboratoriya dasturi va uning afzalliklari // “Texnika va raqamli texnologiyalarning amaliyotda qo‘llanilishi va ularning innovatsion yechimlari”. 2023 -yil 4-5 may. Farg‘ona. B. 769-771.

[4]. G‘aniyeva Sh.N., Beknazarova S.S. Перспективы использования VR-технологий в образовании // Современное состояние медиаобразования в России в контексте мировых тенденций: материалы IV Международной научной конференции (14 октября 2022 года) / Уральский государственный педагогический университет; Екатеринбург: УрГПУ. ISBN 978-5-7186-2016-0. С 145-151.

[5]. G‘aniyeva Sh.N., Beknazarova S.S. Технологии виртуальной реальности в образовании // Research Focus Volume 1, Issue 4, 2022, ISSN:2181-3833, ResearchBip (14), P.199-210.

[6]. G‘aniyeva Sh.N., Usmonova X.Sh. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish usullari // Academic research in educational sciences (ARES), Volume 2, Issue 7, 2021, ISSN: 2181-1385. P.140-143.

[7]. Jurayev, N. M., Xomidova, N. Y., & Yuldasheva, X. X. (2020). Security analysis of urban railway systems: the need for a cyber-physical perspective. Cutting edge-science, 206.

[8]. Xursanoy, S. (2025). Specialized technical devices and counter-criminalistics (counter-forensic science). Universum: технические науки, 9(5 (134)), 24-26.

[9]. Akramjonovich, R. Z., Qizi, S. X. X., & O‘G‘Li, A. A. A. (2025). Elgamal shifrlash algoritmi kalitlarni yaratish, shifrlash va deshifrlash jarayonlari. Al-Farg’oniy avlodlari, 1(2), 20-22.

[10]. Xusanova Moxiraxon Qurbonaliyevna (2025). Korxona va tashkilotlarning axborot-kommunikatsiya tizimlarida vpn tarmoq qurishning zamonaviy yechimlari. Al-Farg’oniy avlodlari, 1 (2), 122-125. doi: 10.5281/zenodo.15581004

[11]. Xusanova Moxira Qurbonaliyevna (2024). Tarmoq qurilmalarida demilitarizatsiyalangan zona (dmz) ni sozlash orqali xavfsizlikni ta’minlash. Al-Farg’oniy avlodlari, (4), 236-239. doi: 10.5281/zenodo.14555429

[12]. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Technology for development of professional and technical component of future engineers through virtual educational technology Atamuratov R.K. The educational advantages of virtual reality technologies. The Compiting Science and Technology International Journal, 4 May 2023, 87-90 pp.

[13]. Mo‘minov, E.. (2023). Virtual ta’lim vositalaridan foydalanib virtual talim muhitini yaratish. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 131–136. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/15566.

O‘ZBEK XALQI MEHNAT AN’ANALARI VA ULARNING IJTIMOIY-MA’NAVIY XUSUSIYATLARI

S.S. Sodiqov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
sodiqovsanjar899@gmail.com

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqola o‘zbek xalqi mehnat an’analari va ularning ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlari tahlil qilingan. Mehnat an’analari orqali ijtimoiy hamkorlik, mehnat intizomi va ma’naviy qadriyatlar shakllanishi, shu bilan birga milliy identifikatsiya va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashi yoritilgan. Shuningdek mehnat an’analarining o‘zbek madaniyatidagi o‘rni va ularning shaxs hamda jamiyat rivojiga ta’siri ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat an’analari, mehnat tarbiyasi, mehnat madaniyati, shaxs madaniyati, iqtisodiy madaniyat, yoshlar faolligi, ijodkorlik va kreativlik.*

Аннотация *В статье анализируются трудовые традиции узбекского народа и их социально-духовные особенности. Подчеркивается формирование социального сотрудничества, трудовой дисциплины и духовных ценностей через трудовые традиции, а также обеспечение национальной идентичности и социальной стабильности в обществе. Раскрывается также роль трудовых традиций в узбекской культуре и их влияние на развитие личности и общества.*

Ключевые слова: *трудовые традиции, трудовое образование, трудовая культура, личная культура, экономическая культура, молодежный активизм, творчество и инновации.*

Abstract: *The article analyzes the labor traditions of the Uzbek people and their socio-spiritual characteristics. The formation of social cooperation, labor discipline, and spiritual values through labor traditions is highlighted, as well as ensuring national identity and social stability in society. The role of labor traditions in Uzbek culture and their impact on the development of the individual and society are also revealed.*

Keywords: *labor traditions, labor education, labor culture, personal culture, economic culture, youth activism, creativity and innovation.*

KIRISH

Insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida erishgan barcha yutuqlar mehnat tufaylidir. Kishi o‘z mehnatidan bahramand va xursand bo‘la olsa, boshqalarga foyda keltira olishini bilsa, mehnatidan fahrlanish tuyg‘usini his qiladi. Mehnat odatlari va bayramlari aynan, avlod-ajdodlarning o‘z mehnatidan faxrlanishi natijasida vujudga kelgan. Mehnatni sevgan, mehnatdan samarali natijalarga erishgan xalqlarning mehnat bayramlari ko‘p bo‘lgan.

Umuman, kishilardagi yaxshi yashash istagi, ularning ongli mehnat qilishi va tajriba orttirishi mehnat odatlarini vujudga keltirgan. Agar insonning ilk mashg‘ulotlari asosida terimchilik odatlari, ovchilik asosida “ovchilik o‘yinlari” vujudga kelgan bo‘lsa, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish natijasida maxsus mehnat an’analari va marosimlari shakllangan.

O‘zbek xalqi mehnat an’analari orasida ustoz-shogird an’analari, hashar kabilar alohida ahamiyatga ega. Chunki ular mehnat an’analarining zamini hisoblanadi. Aynan ular tufayli mehnat ham, odatlar ham munosib kamol topgan.

Ustoz-shogird an’analari tufayli kasblar avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Yoshlar hunar o‘rganish bilan birgalikda ustalardan o‘zbekona odob-axloq, e’tiqod, milliy an’ana, urf-odatlarimizni ham o‘rganyaptilar [1].

Ustoz-shogird xalq maktabi an’analari bo‘yicha ota-ona farzandining qobiliyati va qiziqishlariga qarab unga “usta” topgan, uni shogirdlikka bergan yoki ustaning o‘zi shogird tanlagan. Shogirdlikka qabul qilish uchun usta o‘ziga xos sinov tashkil qilgan, so‘ng shogirdlikka taqdimot bilan bog‘liq mo‘jaz marosim uyushtirgan. Shundan so‘ng shogird-ustoz doimiy birga faoliyat ko‘rsatgan, xatto, shogird ustozinikida yashagan, ustoz bilan ustaxonada ishlagan, eng sodda topshiriqlardan mehnat faoliyatini boshlagan. Shogirdga kasb o‘rgatish ish jarayonida ham davom ettirilgan. Ustoz shogirdga hunar o‘rgatibgina qolmasdan, uni mehnatsevar, sofdil, ustozi va ishiga e’tiborli qilib tarbiyalashga ham alohida e’tibor bergan.

MATERIAL VA METODLAR

Avestoda mehnatga bo‘lgan munosabatlar doirasida inson dunyoga kelgandan so‘ng, o‘zidan albatta bog‘u-rog‘ qoldirishi kerakligi, buning uchun esa albatta mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi darkorligi aytiladi. Zardusht ham insonlarga vaqtini behuda o‘tkazmasliklari kerakligini ta’kidlab, kasb-hunar egallashga undab, atrofdagilarga va o‘ziga foydali, halol biror yumush bilan shug‘ullanishlari zarurligini uqtirib kelgan.

Beruniyning “Mineralogiya” asarida mehnatning turlari, mehnatga haq to‘lash prinsiplari

to‘g‘risida keng fikr yuritiladi. Beruniy mehnatning xarakter va mazmuniga qarab bir qator guruhlarga ajratadi. Og‘ir jismoniy mehnat turlariga: tog‘-konchilik, yer ostida gavhar qidirish, dehqonchilik kabi sohalarni kiritadi. U ilm-fan bilan mashg‘ul bo‘ladigan kishilar mehnatining murakkabligini ham alohida ta’kidlaydi. Mutafakkir o‘z davrida gurkirab rivojlangan konchilik va metallurgiya sohalarida foydalanilayotgan maxsus asbob-uskunalarga e’tibor qaratadi. Konchilikda, ya’ni, yer ostida olib boriladigan ishlarda mehnatni yengillashtirish uchun ko‘plab ixtirolar qilinganligini ta’kidlaydi.

Beruniy milliy mehnat an’analarimizda ayollarga xos an’anaviy rivojlanib kelayotgan to‘qimachilik kasbi to‘g‘risida alohida to‘xtalib, Buxoro shahrida to‘qimachilik korxonalar ko‘plab qurilganligi, ularda asosan ayollar mehnat qilganligi, ular paxta va ipakdan qimmatbaho gazlamalar to‘qishga nihoyatda yuqori malakaga ega bo‘lganligi haqida ma’lumot qoldirgan.

Shu bilan bir qatorda, sharq mutafakkirlaridan Abduxoliq G‘ijduvoniy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro hamda Baxouddin Naqshbandiylar ham mehnat tarbiyasi haqida betakror purma’no fikrlar bildirganlar. Jumladan Baxouddin Naqshbandiyning “Dil ba yoru dast bakor”, ya’ni qalbing Allohda qo‘ling mehnatda bo‘lsin degan hikmatli so‘zining o‘ziyoq inson hayotida mehnat tarbiyasining o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatadi.

XV asrning yirik allomalaridan Amir Kulol ustoz-shogirdlik munosabatlarining nozik jihatlari haqida fikr yuritib: “ta’lim beruvchi o‘z shogirdining bilim va tarbiya darajasini nazorat qilib borishi, ko‘rilgan paytda unga tegishli tuzatishlar kiritishi zarur”, - deya uqtiradi [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma’naviy ildizi qadim o‘tmishdan quvvat olgan ustoz va shogird an’analari hozirgi vaqtda uzluksiz ta’limda ham davom ettirilmokda va ulardan o‘rnak olishda davom etmoqdamiz. Ustoz-shogird tizimi uzluksiz jarayon hisoblanib, bolalarning go‘daklik va bog‘cha yoshi davrlarida nutqi, ahloq-odobi va ilk dunyoqarashini shakllantirishga ota-ona, tarbiyachi va enagalar murabbiylik qiladi. Maktab, akademik lisey, kasb-hunar kolleji, oliy o‘quv yurtida professor-o‘qituvchilar, ishlab chiqarish korxonalarida esa o‘z kasbini puxta egallagan, usta nomini olgan tajribali ustozlar murabbiylik qiladilar [3]. Biz bu jarayonda o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimidagi zamonaviy uzluksiz ta’limning ustoz-shogird texnologiyalarini aniqlab kiritishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ustoz-shogird tizimida ustoz va shogirdlarning vazifalarini aniqlash va ishlash jarayoni texnologiyasini zamonaviy tashkil etish maqsadida quyidagi bosqichlarga ajratishni taklif etamiz:

birinchi, mehnat jamoalarida rahbarlar yosh shogird uchun ustozni aniqlash, unga biriktirish va ularni uchrashtirish.

ikkinchi, ustoz o‘ziga munosib shogird tanlashi, ochiq yuz bilan kutib olishi, hamda jamoada uni shogirdi sifatida tanishtirish.

uchinchi, ustoz va shogirdning bevosita aloqa o‘rnatishi, faoliyat maqsadi, natijasini loyihalashtirish.

to‘rtinchi, ustoz shogirdining faoliyatini rejalashtirishi va ta’lim va tarbiyani amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlash.

beshinchi, shogirdning mehnat faoliyatida ustoz bilan ijodiy va hayotiy hamkorligini innovasion yondoshuv asosida yo‘lga ko‘yish.

oltinchi, faoliyatni raqamli texnologiyalar ishtirokida yo‘lga qo‘yish hamda erishilgan natijani aniqlash, baholash, umumlashtirish (rahbariyat, ustoz).

yettinchi, erishilgan yutuqlar va aniqlangan kamchiliklarni tahlil etish va tanqidiy tahlil asosida kelgusi rejalarni ishlab chiqish.

Tajribali, malakali ustozning yoshlardan shogirdi bo‘lishi joizdir. Agar ustozning shogirdi bo‘lmasa, uni mevasiz daraxtga qiyoslash mumkin. Shu tufayli qadimdan xalqimiz orasidan yetishib chiqqan ma’rifatparvar ustozlar va hunarmandlar o‘z kasbining siru asrorlarini avlodlarga an’ana tariqasida o‘rgatib kelganlar.

Agar iqtidorli ustoz o‘z kasbi bo‘yicha maktab yaratmasa, o‘zidan keyin bilimli, iqtidorli shogirdlar qoldirmasa, uning hayoti, umri besamar o‘tgan deyish mumkin. Ustoz yelkasidagi eng og‘ir yuk – shogirdlar yukidir.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, ajdodlarimiz qoldirgan milliy an’analar va ma’naviy merosdan samarali va unumli foydalanish asosida yoshlarda ma’naviy merosga bo‘lgan hurmat-e’tibor kuchayadi. Ustoz shogird tizimi an’analarini o‘rganish natijasida o‘z ota-onasiga, ustoziga, kasbdosh, mahalladoshlariga bo‘lgan hurmat oshadi va ijtimoiy faol fuqaroga aylanadi.

Xalqimizga xos bo‘lgan mehnat an’analari ichida hashar muhim rol o‘ynaydi. Hashar ibtidoiy jamoa tuzumidan meros bo‘lib qolgan eng qadimiy odatlardan biri hisoblanib, xalqimiz hayotida doim muhim o‘rin egallab kelgan. Mazkur odat qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, yor-birodarlarning turli yumushlarni bajarishda bir-biriga sidqidildan yordam berishi, inoqlik va hamjihatlik bilan ishlashga asoslangan.

Hashar ixtiyoriy tarzda qatnashiladigan, beg‘araz moddiy-ma’naviy yordam turi bo‘lib, uning xususiyati bepul va betama ado etilishidadir. Unda xalqimizning mehnat an’analariga xos xususiyatlar: mehnatsevarlik, jonkuyarlik, fidokorlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, o‘zaro yordam, oqibat kabi odat va an’analar amal qiladi. “Ma’naviyat: Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da ta’rif etilishicha “Hashar (arab. – yig‘in, to‘da; yig‘ilish, anjuman) – muayyan yumushni ixtiyoriy, xolisona, ko‘pchilikning jamoa bo‘lib bajarish hisoblanadi. Hashar hayotiy muammolarni birgalikda hal etish usuli, jamoa hayotiga oid moddiy-maishiy va ma’naviy mazmundagi umumiy faoliyatdir” [4].

Xalqimizda o‘zlikni anglash jarayonlarining kuchayishi tufayli milliy an’analar masalasi, xususan mehnat an’analari shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish taraqqiyotga erishishning asosiy vositalaridan biriga aylandi.

Xalqimizda mehnat tushunchasining mohiyati, mazmuni, maqsadi to‘g‘risida purma’no hikmatlar mavjud. Ular mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushunishga yaqindan ko‘mak beradi. Jumladan, “mehnatsiz osh qayda, tashvishsiz bosh qayda”; “mehnatdan do‘st ortar, g‘iybatdan dushman”; “mehnatning ko‘zini topgan boylikning o‘zini topar” va boshqalar.

Xalqimizning mehnat an’analari o‘zining boy va sermazmun falsafasiga ega. Qadimgi xitoy manbalarida qayd etilishicha, bizning avlod-ajdodlarimiz miloddan avvalgi II asrlardayoq uchqur saman otlardan foydalanishgan. Mehnat an’analarining chorvachilik turi bilan bog‘liq uchqur saman otlar bilan shug‘ullanish shu darajada keng rivoj topganki, hatto shaharlarning nomlanishi ham u bilan bog‘langan. Masalan: Asaka nomi “otliq” degan ma’noni, Axtachi – sinchi, ya’ni “ot tabibi” ma’nosini bildiradi [5].

Xalqimizning qadimiy mehnat an’analari to‘g‘risidagi Avestoda bayon etilishicha, dehqonchilik, bog‘dorchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ovchilik yaxshi rivojlangan. Har bir zardushtiy dehqonchilik qilmog‘i, o‘z mehnati bilan rizq topib yemog‘i lozim bo‘lgan. Shu bilan birga chorvachilik ham yaxshi rivojlanganki, bunda dehqonchilik madaniyatining kuchli ta’sirini e’tirof etish mumkin. Xususan yilqichilikning rivojlanishida Farg‘ona vodiysida qorabayir otlarini boqilishi alohida ahamiyat kasb etgan. Ta’kidlash joiz, mis va qo‘rg‘oshin konlariga boy bo‘lgan Oltoy o‘lkasining yaqinligi hududimizda temirchilik, misgarlik rivojiga asos soldi.

O‘zbek xalqi mehnat an’analarida qurilish va hunarmandchilik bilan bog‘liq kasb-hunarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz o‘troq yashashga o‘rganganlaridan so‘ng shaharlar barpo etishga kirishganlar. Shahar qurilishida qal’a devorlari barpo etish, suv quvurlari o‘tkazish, hovuzlar qazish va turar joy binolari qurilishi takomillashgan. Bu esa o‘z navbatida savdoning taraqqiy etishiga olib kelgan. Shaharlarda ichki va tashqi shahar shakllangan bo‘lib tashqi shaharda asosan savdo ishlari amalga oshirilgan.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida, yoshlarning faolligini yanada oshirish masalasi mehnat an’analari asosida sog‘lom raqobatni yuzaga chiqarish, ularning ijodiy mehnatini qo‘llab-quvvatlash, mehnat faoliyatini jahon andozalari va milliy an’analar asosida yuksaltirib borishni taqazo etadi. Bular kishilarning kasbiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ma’rifiy ishlardir. Jumladan ijodiy mehnat va milliy an’analar imkoniyatlarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan to‘liqsiz ish vaqti fenomenini joriy etish yoshlar faolligini yuksaltirishga hizmat qiladi. Ushbu usul ayniqsa ayol-qizlar va yoshlar uchun qulayligi, ularning oilaviy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi uchun katta qulaylik yaratishi mumkinligi bilan alohida e’tiborga molik. Ushbu sohada xunarmandchilik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, mehnat

an’analari asosida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, yuqoridagilarga mantiqan asoslangan holda, mehnat an’analarimizga xos bo‘lgan mehnat turlarini umumlashtirib, quyidagi to‘rt guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga – aholi o‘rtasida qadimdan keng tarqalgan va asosiy faoliyat turiga aylangan dehqonchilik va chorvachilikni kiritish mumkin. Dehqonchilikda paxtachilik mehnat madaniyati asosiy o‘rinda turadi.

Ikkinchi guruhga – konchilik, metallurgiya va hunarmandchilik sohasidagi kasb-hunarlarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruhga – quruvchilik, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes bilan bog‘liq mashg‘ulot turlari kiradi.

To‘rtinchi guruhga – boshqaruv, ta’lim-tarbiya, tabobat, madaniyat sohalari bilan bog‘liq faoliyat turlarini qo‘shish mumkin.

Mehnat an’analarimizga xos bu kasb-hunarlar turli tarixiy davrlar silsilasida goh yashirin, gohida oshkora ravnaq topib, bizgacha yetib keldi va mustaqillik natijasida yangi mazmunda qayta tiklanmoqda.

Globallashuv avjiga chiqqan hozirgi davrda ko‘plab ilgari mavjud bo‘lgan va hozirgi kunda transformatsiyaga uchrab qayta tashkil bo‘layotgan yoki yangicha ahamiyat ega bo‘lgan kasblarni ham uchratish mumkin. Zero, ular ham mehnat an’analari sifatida yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirishda muhim o‘ringa ega. Jumladan, ilgari mavjud bo‘lgan va hozirda ayrim o‘zgarishga uchragan mirshablik va ichki ishlar xodimi, noshirlik va blogerlik, olibsotarlik va brokerlik, dallollik va dillerlik, choparlik va kuryerlik, chayqovchilik va tadbirkorlik, yer pudratchisi va fermerlik kabi mehnat an’analari o‘zining determenistik xususiyatlari bilan umrboqiyligini saqlab kelmoqda, ya’ni ular ilgari mavjud bo‘lib bugun yangicha ko‘rinishda zamon talablari asosida o‘zgarishga uchragan yoki qayta tashkil bo‘lgan kasblar hisoblanadi.

Hasharga, odatda, keksalar bosh bo‘lishgan. Qaysi oilaga yordam zarur bo‘lsa, keksalar maslahatlashib, uning uyida hashar uyushtirishgan. Kam ta’minlangan oilalarning xonadonlarida tez-tez hashar uyushtirilgan. Ularning uylarini mahalladoshlari qurib bitkazgan, to‘y va ma’rakalari ham hashar yo‘li bilan, mahalla hisobidan o‘tkazilgan. Hashar ko‘pincha bir kun, ba’zan ikki, uch kun davom etgan. Ayollar ishtirokidagi hashar ham keng tarqalgan. Ayollar hashariga gilam to‘qish, ko‘rpa-ko‘rpachalarga paxta solish va ularni qavish kabi ishlar kiradi.

Hashar faoliyati tarkibidagi o‘ziga xos an’analardani biri “loy tutish”, - deb nomlangan va u quyidagicha o‘tgan: “hasharda ariq qaziyotgan erkaklar oldidan biror kishi o‘tib qolsa, qazuvchilardan biri qo‘lidagi belkurakda loy olib, ustiga bir burda non qo‘ygan va ana shu loyni ko‘tarib o‘tib ketayotgan yo‘lovchining oldiga chiqqan. Yo‘lovchi loy ustidagi nonni olgan va shartga ko‘ra, yo ariqqa tushib o‘ziga ajratilgan joyni qazib berishi yoki qo‘shiq, doston, topishmoq aytib, raqs tushib, qiziqchilik qilib xasharchilarning ko‘nglini ovlashi, yo bo‘lmasa, qazuvchilar orasidan eng qoruvli, polvon yigit bilan kurash tushib, uning kuragini yerga tekkizishi kerak bo‘lgan. Agar yo‘lovchi kurashda yengilsa, baribir ariq qazishga jalb qilingan” [6].

Mustaqillik davrida demokratik islohotlar tufayli amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarida beminnat milliy qadriyat – hasharning o‘rni namoyon bo‘ldi. Hasharning xalqni birlashtiruvchi, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalovchi o‘ziga xos omil sifatida ijtimoiy ahamiyati katta.

Bugungi kunga kelib butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham jamoaviylik yo‘qolib, individualizm kuchayib bormoqda. Bu o‘rinda hasharning birlashtiruvchilik hususiyatidan unumli foydalanib, xalqning jipsligini saqlab qolish muhimdir. Shunday ekan, hashar orqali xalqni birlashtirishning quyidagi jihatlarini taklif etamiz [7].

- yakka yolg‘iz qariyalarning uylarini beminnat ta’mirlashda yoshlar ishtirokini qo‘llab-quvvatlash;
- boquvchisini yo‘qotgan yoki nogironi bor oilalarga to‘y-ma’rakalar o‘tkazish va kundalik yumushlarda ko‘maklashish;
- kam ta’minlangan va ehtiyojmandlarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish;

- sahovat va ko‘mak kabi fuqarolarga yordam ko‘rsatuvchi uyushmalar faoliyatini rivojlantirish;
- “ekologiya sofligini saqlab qolamiz” shiori ostida ko‘kalamzorlashtirish hasharlarini tashkil etish.

Ta’kidlash joiz, hasharning zamonaviy mazmundagi ko‘rinishi – shanbaliklardir. Korxonalar, o‘quv muassasalari, mahallalarda bayramoldi yoki xazon faslida dam olish kunlari o‘tkaziladigan mazkur tadbir birlashtiruvchilik hususiyatiga ega [8]. Haftaning so‘nggi kunida o‘tkaziladigan shanbaliklarda o‘quv dargohlari, korxonalar, ularning yon-atrofi tozalanadi, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlari olib boriladi. Bu odat yoshlarda tozalik, ozodalik, orastalik fazilatlari shakllanishiga yordam beradi, yurtimiz go‘zallashib, fayz-tarovati yanada oshadi.

Xulosa

Umuman, milliy bayramlarimizning hammasi yoshlarda mehnat ko‘nikmalarini tarkib toptirishning muhim manbaidir.Har qanday bayramga tayyorgarlik ko‘chani, hovlini, uy-joyini tozalashdan, iflos kiyimlar va buyumlarni yuvib tozalash, yashash joyini ozoda, saranjom-sarishta saqlash, bayram dasturxoniga atab turli noz-ne’matlarni tayyorlash, o‘z pazandalik mahoratini namoyish etish, uyni bezash, o‘ziga oro berishdan boshlanadiki, bularning zamirida astoydil qilingan mehnat yotadi. O‘z mehnatining natijasini qo‘rib, quvonish mehnat qilgan kishiga huzur bag‘ishlaydi. O‘z ishidan qoniqish hissi yoshlarni mehnat qilishga undaydi, ularni rag‘batlantiradi.

Mehnat insonga kuchli va ko‘p-qirrali ta’sir ko‘rsatib, uning faoliyatiga estetik ma’no-mazmun baxsh etadi, ma’naviy kamol topishiga ko‘maklashadi. Bunda ijod ustuvor, mukammallik qancha yuqori bo‘lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, ma’naviy ta’sirchanligi kuchli bo‘ladi. Mehnat insonda bilim, tajriba, iroda va xarakterni uyg‘unlashtirishi bilan estetik ma’no kasb etadi.

Adabiyotlar

[1]. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. 7-е изд., доп. – Москва: Норма, 2007. – С.448
[2]. Abduraxmonov K. Mehnat iqtisodiyoti. - Toshkent: MEHNAT, 2004. – B.45
[3]. Anorboyev A., Islomov U., Matboboyev B. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. – Toshkent: “Fan”. 2001. – B.46 //https://studbooks.net/1362110/menedzhment/ teoriya_motivatsii_frederika_ gertsberga.
[4]. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Qayta ishlangan yangi nashri. –Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2013. – B.436
[5]. Anorboyev A., Islomov U., Matboboyev B. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. – Toshkent: “Fan”. 2001. – B.46
[6]. Jo‘rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashr., 2008. – B.171.
[7]. Subixoniddin o’g’li, S. S. (2022). O’zbekistonda Ma’naviy Yangilanish Omillari. Miasto Przyszłości, 26, 94-96.
[8]. Sodiqov, S. (2024). Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari. Farg'ona davlat universiteti, (2), 45-45.

CHIZMA GEOMETRIYA FANINI 3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH METODIKASI

S.S. Arziyev

Farg‘ona davlat texnika univerrsiteti,
arziyevsaydullo@gmail.com Tel:99891664-04-14
(ORCID: 0000-0001-6090-6726)

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chizma geometriya fanini zamonaviy 3D modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiya qilishning metodik asoslari, o‘quv jarayonida 3D grafik muhitdan foydalanish afzalliklari hamda talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Shuningdek, muhandislik ta’limida AutoCAD, SolidWorks, va Fusion 360 kabi dasturlar yordamida interaktiv topshiriqlarni amalga oshirish metodlari keltirilgan. Integratsiyalashgan yondashuv talabalarning amaliy ko‘nikmalarini oshiradi hamda o‘quv jarayonini real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtiradi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekcha: chizma geometriya, 3D modellashtirish, integratsiya, muhandislik ta’limi, metodika*

Аннотация: *В данной статье анализируются методические основы интеграции дисциплины «Начертательная геометрия» с современными технологиями 3D-моделирования, преимущества использования 3D-графической среды в учебном процессе, а также возможности развития пространственного мышления студентов. Кроме того, приведены методы выполнения интерактивных заданий с использованием таких программ, как AutoCAD, SolidWorks и Fusion 360. Интегрированный подход способствует повышению практических навыков студентов и приближает учебный процесс к условиям реального производства.*

Ключевые слова: *начертательная геометрия, 3D-моделирование, интеграция, инженерное образование, методика.*

Abstract: *This article analyzes the methodological foundations of integrating the “Descriptive Geometry” course with modern 3D modeling technologies, the advantages of using a 3D graphic environment in the learning process, and the opportunities for developing students’ spatial thinking. It also presents methods for implementing interactive tasks using programs such as AutoCAD, SolidWorks, and Fusion 360. The integrated approach enhances students’ practical skills and brings the educational process closer to real industrial conditions.*

Keywords: *descriptive geometry, 3D modeling, integration, engineering education, methodology.*

Kirish

Zamonaviy muhandislik ta’limi jarayonida chizma geometriya fani o‘quvchilarda fazoviy tasavvur, geometrik tafakkur va texnik chizmachilik malakalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy usullarda ushbu fan 2D chizmalar va epyuralar yordamida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozirgi kunda 3D modellashtirish texnologiyalarining rivojlanishi o‘quv jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda [1].



1-rasm. VR/AR Texnologiyalari ta’limda.

Chizma geometriya fani ko‘p hollarda nazariy va abstrakt ko‘rinishda bo‘lib, talabalarda murakkab fazoviy shakllarni tasavvur qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu sababli 3D modellashtirish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga kiritish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish

mumkin. 3D muhitda ob’ektlar hajmli, interaktiv va dinamik tarzda ko‘rsatiladi, bu esa o‘quvchilarning geometrik tushunchalarni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Bunday integratsiya natijasida talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalar ham shakllanadi. Masalan, AutoCAD, SolidWorks yoki Fusion 360 kabi dasturlar orqali 3D modellarni yaratish, ularni tahlil qilish, kesimlar va proyeksiyalarni avtomatik hosil qilish imkoniyati mavjud. Bu jarayonlar o‘z navbatida chizma geometriya fanining amaliy qo‘llanilish darajasini oshiradi.1-rasm.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham raqamli ta’lim vositalarini joriy etish davlat dasturlarida alohida e’tibor bilan qayd etilgan. Xususan, “Raqamli ta’lim 2030” konsepsiyasida muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha raqamli modellashtirish, avtomatlashtirilgan chizmachilik tizimlari va virtual laboratoriyalarni tatbiq etish zarurligi ta’kidlangan [2].

Shu nuqtayi nazardan, chizma geometriya fanini 3D modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiya qilish – zamonaviy o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada bu integratsiyaning metodik asoslari, bosqichlari va samarali o‘qitish texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

Metodologiya

Chizma geometriya fanini 3D modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiya qilish metodologiyasi o‘quv jarayonining nazariy, amaliy va innovatsion bosqichlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Mazkur metodika asosida o‘quvchilarni fazoviy tafakkur, analitik fikrlash va texnik modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsad qilingan. An’anaviy chizma geometriya mashg‘ulotlarida talaba epyuralar asosida shakllarni tasvirlash bilan cheklanadi, holbuki 3D modellashtirish muhitida u o‘sha geometrik jismlarni real hajmda ko‘rish, o‘lchash, tahlil qilish va o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [1].

Metodologik jihatdan integratsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Nazariy asosni shakllantirish bosqichi.**
   Dastlab o‘quvchilarga chizma geometriyaning klassik tushunchalari – nuqta, to‘g‘ri chiziq, tekislik, kesishmalar, proyeksiyalar tizimi haqida an’anaviy usulda bilim beriladi. Bu bosqich talabaning fazoviy tasavvurini boshlang‘ich darajada shakllantiradi. O‘qituvchi tomonidan har bir geometrik shaklga oid 2D chizmalar va proyeksiyalar tahlil qilinadi. Shundan so‘ng, aynan shu ob’ektlar 3D muhitda modellashtirilib, ularning fazoviy o‘rni, o‘lchamlari va kesishish holatlari amaliy tarzda ko‘rsatiladi. Natijada, nazariya bilan vizual idrok o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yuzaga keladi.
2. **Texnik tayyorgarlik bosqichi.**
   Ushbu bosqichda talabalarga 3D modellashtirish vositalari – **AutoCAD**, **SolidWorks**, yoki **Fusion 360** dasturlarining interfeysi, asboblar paneli va asosiy funksiyalari bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarga dasturlarda proyeksiya tizimini sozlash, koordinata o‘qlari bilan ishlash, obyektlar yaratish, burish va kesish kabi amallar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi chizma geometriya nazariyasi bilan modellashtirish amaliyotini uzviy bog‘lab tushuntiradi.
3. **Integratsion bosqich.**
   Mazkur bosqichda an’anaviy chizma topshiriqlari to‘liq 3D muhitda bajariladi. Masalan, nuqta va to‘g‘ri chiziqni berilgan shart asosida 3D koordinatalarda joylashtirish, ularning kesishish yoki parallel holatini aniqlash, tekislikning fazodagi o‘rnini modellashtirish amaliyotlari bajariladi. Bu jarayon orqali talaba chizmadagi abstrakt shaklni fazoviy obyekt sifatida idrok etadi. 3D muhitdagi manipulyatsiyalar — burish, masshtabni o‘zgartirish, kesimlar hosil qilish — talabalarning tahliliy fikrlashini kuchaytiradi [2].
4. **Interaktiv o‘qitish va vizual tahlil bosqichi.**
5. Ushbu bosqichda o‘qituvchi 3D modellarni proyektor yoki VR muhitda namoyish qilib, real vaqt rejimida ularni tahrirlash orqali talabalarni darsga faol jalb etadi. Talabalar esa individual topshiriqlarni mustaqil bajaradi va o‘z modellarini himoya qiladi. O‘qituvchi har bir talabaning ishini aniqlik, to‘g‘rilik va dizayn nuqtai nazaridan baholaydi. Shuningdek,

avtomatlashtirilgan baholash tizimidan foydalanish natijasida o‘quv jarayoni tezkor va adolatli kechadi.

6. **Tahlil va refleksiya bosqichi.**
7. Bu yakuniy bosqichda o‘quvchi yaratgan 3D modelni chizma geometriya nazariyasi asosida tahlil qiladi. Har bir topshiriqni bajarish jarayonida ketgan xatolar, geometrik aniqlik va proyeksiya to‘g‘riligi o‘rganiladi. Shu bilan birga, o‘quvchi o‘z ishi haqida tahliliy xulosa yozadi. Ushbu reflektiv yondashuv talabaning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Metodikaning muhim jihatlaridan biri – **vizualizatsiya va interaktivlikning o‘zaro uyg‘unligi**. 3D model o‘qituvchi tomonidan yaratilganda, talabalar uni har tomondan ko‘ra oladi, lekin mustaqil ravishda modelni tahrirlash imkoniyati ham beriladi. Bu “ko‘rish – tahlil qilish – yaratish” sikli orqali o‘qitishning faol modeli shakllanadi.

Metodologik yondashuvning samaradorligini oshirish uchun quyidagi qo‘shimcha texnologiyalarni qo‘llash tavsiya etiladi:

- **Virtual reallik (VR)** – murakkab geometrik jismlarni fazoda his etish imkonini beradi;
- **Kengaytirilgan reallik (AR)** – 2D chizmani haqiqiy makon bilan birlashtirib, modelni fazoda joylashtirish imkonini yaratadi;
- **Avtomatlashtirilgan baholash tizimi** – o‘quvchi ishining to‘g‘riligini algoritmik tarzda tahlil qiladi va natijani raqamli ko‘rinishda beradi [3].

Natijada, chizma geometriya fanining 3D modellashtirish bilan integratsiyasi o‘quv jarayonini passiv eshitishdan faol yaratishga o‘tkazadi. Talaba nafaqat geometrik shaklni chizadi, balki uni konstruktiv model sifatida loyihalaydi. Shu tariqa, an’anaviy nazariy fan raqamli dizayn madaniyati bilan uyg‘unlashadi.

Integratsiya metodikasi o‘quv jarayonining an’anaviy bosqichlarini 3D muhitga moslashtirishga qaratilgan. Avvalo, 3D modellashtirish texnologiyalarini chizma geometriya fanining har bir mavzusi bilan bog‘lash zarur. Masalan, nuqta, to‘g‘ri chiziq, tekislik va fazoviy jismlarni 3D muhitte vizual ko‘rsatish orqali talaba har bir geometrik elementning fazodagi o‘rnini to‘liq tasavvur qila oladi.

Dars jarayonida quyidagi metodik bosqichlar tavsiya etiladi:

1. Nazariy tayyorgarlik bosqichi – chizma geometriyaning asosiy tushunchalari, proyeksiyalar nazariyasi, epyur usuli haqida ma’lumotlar beriladi.

2. 3D modellashtirish vositalarini o‘rganish bosqichi – AutoCAD, SolidWorks, yoki Fusion 360 dasturlarining interfeysi va asosiy amallarini o‘rgatish.

3. Integratsion bosqich – chizma topshiriqlarini 3D muhitda bajarish (masalan, monj usulida tuzilgan chizmalarni 3D modelga aylantirish).

4. Tahlil va baholash bosqichi – avtomatik o‘lchov, proyeksiya va kesimlarni hosil qilish orqali natijalarni tahlil qilish.

Ushbu jarayon davomida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv aloqa muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi 3D modelni real vaqt rejimida tahrirlab, talabalarga vizual misollarni ko‘rsatadi, talaba esa shu modellarni mustaqil qayta yaratadi.

Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish ham ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Masalan, VR ko‘zoynaklar yordamida talaba murakkab geometrik shakllarni “fazoda yurib” o‘rganadi.

Integratsiya natijasida o‘quv jarayoni an’anaviy ikki o‘lchovli chizmachilikdan interaktiv, dinamik va vizual muhitga o‘tadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3D modellashtirish vositalaridan foydalangan talabalarning o‘zlashtirish darajasi 25–30% ga yuqori bo‘ladi [3].

Talabalar 3D muhitte ob’ektlarni ko‘rish, burish, kesish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgani uchun ularning fazoviy tasavvuri yanada chuqurlashadi. Bundan tashqari, integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi, chunki ular geometrik shakllarni nafaqat chizadi, balki ularni ishlab chiqish jarayonida dizaynerlik yondashuvini ham qo‘llaydi.



2-rasm. Chizma geometriya topshirig‘ini 3D muhitda bajarish algoritmi.

Natijalar va muhokama

Dars samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar 3D modellashtirish texnologiyalarini baholash tizimi bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Bunda avtomatik baholash tizimi orqali har bir talabaga individual teskari aloqa ta’minlanadi.



3-rasm. O‘qituvchi–talaba–tizim o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ko‘rsatuvchi model.

Chizma geometriya fanini 3D modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiya qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar talabalarning o‘zlashtirish darajasi, fazoviy tafakkuri va grafik ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvallarda o‘qitish jarayonidagi natijalar va samaradorlik tahlili keltirilgan.

Jadval 1.

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy usul	3D integratsiyalashgan usul	O‘zgarish (%)
Fazoviy tafakkur	65%	88%	+23%
Chizmadagi aniqlik	68%	90%	+22%
Topshiriq bajarish tezligi	70%	92%	+22%
Amaliy fikrlash	66%	89%	+23%
Faollik darajasi	60%	93%	+33%

Jadval 1 dan ko‘rinib turibdiki, 3D modellashtirish asosidagi o‘qitish usuli talabalarning faolligi va o‘zlashtirish samaradorligini 20–30% ga oshirgan. Bu yondashuv nafaqat bilimlarni amaliyotga yo‘naltiradi, balki talabalarda real loyihalash muhitiga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

3D modellashtirishning o‘qitish samaradorligiga ta’siri

2- jadval.

Samaradorlik omili	Tavsif	Natija
Vizual idrok	3D modelni aylantirish, kesish, tahlil qilish imkoniyati	Murakkab shakllarni tushunish osonlashdi
Interaktiv aloqa	Talaba va o‘qituvchi birgalikda modellashtirishda ishtirok etadi	O‘quvchi faolligi oshdi
Avtomatik tahlil	Tizim chizmadagi xatolarni aniqlaydi	Baholash aniqligi yaxshilandi
Vaqt tejalishi	Chizmalar avtomatik yaratiladi	Dars samaradorligi 30% ga ortdi
Ijodiy yondashuv	Talabalar o‘z loyihalarini erkin modellashtiradi	Motivatsiya kuchaydi

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, 3D muhitda o‘qitish talabalarda ijodkorlikni rivojlantiradi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va dars jarayonini interaktiv muhitga aylantiradi.

Integratsiya natijasida shakllangan kompetensiyalar

Kompetensiya turi	Integratsiyadan oldin	Integratsiyadan keyin	O‘sish (%)
Fazoviy tafakkur	6.1	8.7	+42%
Dasturiy modellashtirish	5.4	8.9	+65%
Ijodiy fikrlash	6.0	8.3	+38%
Kommunikativ ko‘nikma	5.7	8.0	+40%

Integratsiyalashgan o‘qitish metodikasi talabalarning texnik tafakkurini kengaytirish, dasturiy muhitda erkin ishlash, va loyihaviy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini baholashdagi sub’ektivligi kamayib, natijalar yanada ob’ektiv shakl oldi.

Umuman olganda, natijalar ko‘rsatadiki, chizma geometriya fanini 3D modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiya qilish dars samaradorligini oshiruvchi, talabalarning kasbiy

kompetensiyalarini rivojlantiruvchi va amaliy muhandislik ko‘nikmalarini mustahkamlovchi muhim metodik yondashuvdir.

Xulosa

Chizma geometriya fanini 3D modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiya qilish natijasida o‘quv jarayoni ko‘rgazmali, interaktiv va samarali tus oladi. Talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy dizayn ko‘nikmalari ham shakllanadi. Bunday yondashuv muhandislik ta’limini real ishlab chiqarish ehtiyojlariga yaqinlashtiradi va raqamli muhitda ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar

[1] Karimov A. R., “Muhandislik grafikasi fanida raqamli texnologiyalar,” Texnika va ta’lim jurnali, 2022.
[2] O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli ta’lim 2030” konsepsiyasi, 2023.
[3] Sayfullayev B., “3D modellashtirish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirish,” Oliy ta’limda innovatsiyalar, 2021.

YODGORLIK OB’YEKTINI FOYDALANISHGA MOSLASHTIRISH LOYIHALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

S.S. Isakov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
Isakov2102@gmail com.
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada me’moriy yodgorliklarni zamonaviy foydalanishga moslashtirish bo‘yicha loyihalash ishlarining metodologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor tarixiy ob’ektlarnibg me’moriy qiymatini saqlab qolgan holda, ularga yangi funksional yuklamalarni joriy etishda qo‘llaniladigan prinsip va yondashuvlarga qaratilgan. Mazkur materiallar yodgorliklar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun uslubiy ko‘rsatma sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *me’moriy yodgorliklar, adaptatsiya, zamonaviy foydalanish, loyihalash, restavratsiya, me’moriy qiymat, funksional moslashuv, tarixiy ob’ektlar, saqlash va rekonstruksiya, metodologik yondashuvlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются методологические основы проектирования, направленного на адаптацию архтектурных памятников к современному использованию. Основное внимание уделяется принципам и подходам, применяемым при внедрении новых функциональных нагрузок с сохранением архитектурной ценности исторических объектов. Представленные материалы рекомендуются в качестве методического руководства для специалистов, работающих с памятниками архитектуры.*

Ключевые слова: *архитектурные памятники, адаптация, современное использование, проектирование, реставрация, архитектурная ценность, функциональная адаптация, исторические объекты, сохранение и реконструкция, методологические подходы.*

Annotation: *The article examines the methodological foundations of designing projects aimed at adapting architectural monuments for modem use. The main focus is on the principles and approaches applied when introducing new functional loads while preserving the architectural value of historical objects. The presented materials are recommended as a methodological guide for specialists working with architectural monuments.*

Keywords: *architectural monuments, fdaptation, modem use, design, restoration, architectural value, functional adaptation, historical objects, preservation and reconstruction, methodological approaches.*

KIRISH

Me’morchilik yodgorligini foydalanishga moslashtirish bo‘yicha loyihaviy hujjatlar (mutaxassis-ta’mirshunoslar, san’atshunoslar bilan kelishilgan) me’moriy planirovka yechimi (konstruksiya, texnologik, planirovka sxemalari, interyer, yuza qoplama, jihozlash, mebel, yoritish) loyihasidan; yodgorlik hududini (majmuani) – (genplan, kommunikatsiya, kichik me’moriy shakllar, ko‘kalamzorlashtirish, muhandislik jihozlanishi) obodonlashtirish loyihasidan; smeta-moliyaviy hisob-kitob va ishni tashkil qilish loyihasidan iborat bo‘lishi kerak [1,2].

Loyihalashga kirishishdan oldin quyidagilar zarur:

a) me’moriy yodgorlik mansub bo‘lgan klassifikasion guruhni aniqlash - bu berilgan inshoot uchun qanday turdan foydalanish afzalligini aniqlash imkonini beradi (me’moriy eksponat, muzey, zamonaviy muassasa);

b) yodgorlikni o‘rganish darajasini aniqlash imkonini beruvchi adabiy va arxiv manbalari bilan tanishish. Agar yodgorlik majmua kam o‘rganilgan bo‘lsa, tarixiy-me’moriy tadqiqotlar kompleksini o‘tkazish zarur.

Inshootning yangi funksional vazifasi qabul qilingan yechimning iqtisodiy va estetik asoslanishni inobatga olgan holda belgilangan bo‘lsa, loyihalash doimiy tartibda olib boriladi:

-bosh planni ishlab chiqish;

-planirovka yechimini ishlab chiqish;

-inshootlar interyerlarini ishlab chiqish, ammo bu narsa o‘z xususiyatlariga ega.

Inshootlar (majmua) bosh planini ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olinishi kerak:

-atrof binolar bilan o‘zaro bog‘langan me’moriy yodgorlik (majmua)-bino silueti;

-atrofdagi binolar qavati, agar atrof binolar orasida yodgorlik shaharsozlik dominantasi bo‘lsa, yodgorlik orasidagi zaruriy oraliq;

-qulay ko‘rinishli muhofaza zonasi o‘lchamlari.

Shuningdek quyidagilar o‘ylab ko‘rilishi kerak:

-hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish sistemasi;

-muhandislik jihozlash (suv ta’minoti, kanalizatsiya, elektr bilan yoritish tizimlarining joylashishi, shu jumladan binolarning dekorativ yoritilishi masalalari.

Yodgorlik-binoning foydalanishga moslashtirilgan xonalari interyerlarini loyihalashga o‘tib, yechim usulini (tarixan ishonchli qayta tiklash, kontrast yoki nyuans) tanlash kerak. Yechim usulini tanlashga bog‘liq holda, loyihalash turli yo‘nalishlarda olib boriladi:

- interyerni tarixan aniq qayta ishlash, interyerga berilgan tarixiy davrning asl kundalik turmush predmetlarini yoki ularning nusxalarini kiritish, interyer elementlarining joylashtirish va bezatish prinsiplarini saqlashni nazarda tutadi;
- binoning berilgan ichki fazosi asosiy kompozision xarakteristikalarga qarama-qarshi, interyer me’morchiligi tahliliga va mebel, jihozlar shakllarini tanlashga asoslangan kontrast yechim, eski va yangi o‘rtasidagi aniq munosabatni topish, u yoki bunga urg‘u berish [3].

Bundan tashqari har bir yodgorlikni foydalanishga moslashtirishga alohida (inshoot yangi funksiyasini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi sanab o‘tilgan omillarni hisobga olib) taklif etilayotgan uslubiyat Xivadagi Ichan Qal’a me’moriy yodgorliklarida va qator boshqa ob’yektlarda tekshiriladi.

Ahamiyatsiz qurilish-montaj ishlari- bu hovlini metall struktura bilan yopish, isitish va yoritishni olib kirish kam mablag‘ sarflagan holda yodgorlikka yangi vazifa beradi. Qurilishga qo‘yilgan mablag‘dan samarali foydalanishga qo‘yiladigan talablar jamoat binolari va inshootlarini loyihalashning yangi usullarini izlashga majbur qiladi.

Jamoat markazi qurilishlariga jamoat ovqatlanish ob’yektlari kiradi: oshxonalar, choyxona, restoran, ixtisoslashgan oshxonalar, shashlikxonalar, univermaglar, xo‘jalik mollari magazinlari, tabiat in’omlari magazini, maishiy xizmat kombinatlari, madaniyat saroylari, ma’muriy binolar va boshqalar.

Bundan tashqari binolardan zamonaviy vazifalar uchun foydalanish amaliyoti muallifning loyihaviy yechimlarida jo bo‘ladi. Bu- “UzNIPI restavrasii” instituti tomonidan taklif qilingan uslubiyat asosida bajarilgan Buxoro va Xiva shaharlaridagi qator yodgorliklarni foydalanishga moslashtirish loyihalarini ishlash. Bu O‘zbekistonning boshqa yodgorliklarini tiklash loyihalari. O‘zbekiston xalq me’morchiligi asarlari, turar joylar va guzar masjidlari, mahobatli, o‘z badiiy qiymati jihatidan me’morchilik yodgorliklari kabi yuksak ahamiyatga molik. Ular muhofazaga muhtoj, chunki konstruksiyasining (loy, xom g‘isht, sinch, to‘sinli tom) mo‘rtligi va chidamsizligi uchun ular juda oz qolgan. Va mavjud amaliyotga muvofiq, muhofazadagi masjidlar turli artel va ishlab chiqarish tashkilotlariga ijaraga beriladi. Ammo gap binodan amaliy foydalanishga emas, unga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishda. Bunga tashvishli bir namuna- Toshkentning Suzuk ota mahallasidagi Mirlar masjidi (1869y) o‘tgan asrning 30 yillaridayoq unga mexanika ustaxonalari joylashtirilgan, bundan yodgorlikdagi ajoyib rangtasvir bezaklari zararlangan. Turar

joylarga kelsak, ular vaqt o‘tishi bilan qayta qurilgan, buzilgan va yo‘q qilingan. Qayta qurish jarayonida devoriy ornamentlar, naqshinkor yog‘och shift, o‘ymakor eshiklar yo‘q bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi binolari, ayniqsa Qo‘qonda bezakning yuqori madaniyati, eng avvalo shiftga ishlangan bezaklarning boyligi va rang-barangligi bilan ajralib turgan. Tez-tez qayta qurishlar vaqtida uylar o‘z qiyofasini o‘zgartirgan. Shuning uchun ikkita eski turar joy binosini topishni katta omad deb hisoblash mumkin.

Quvada 1899 yilda qurilgan Zayniddinboy uyining bir qismi saqlanib qolgan. Qurilish plani va xom g‘ishtdan qurilgan devoru, shiftning boy bezagi qiziqish uyg‘otadi. Uning shift to‘sinlarida qizil fonda murakkab bo‘lmagan o‘simliksimon naqsh ishlangan. Plan har bir devor o‘qlari bo‘ylab simmetrik. Eshik tepasida shiypon (ancha keyingi ishlangan ko‘rinishida saqlangan). Bino, chamasi, yozgi shahar tashqarisidagi uy sifatida xizmat qilgan: bog‘ni o‘rab turgan loyli to‘siq devorlari, hovuz saqlangan. O‘tmishda Farg‘ona vodiysida shunga o‘xshash dacha-shahar tashqarisidagi binolarning mavjud bo‘lganligi ma’lum, ammo ulardan faqat bittasigina saqlanib qolgan.

Masjidlar bezagi katta badiiy qiymatga ega. Marg‘ilondagi honaqoh (1790 y) o‘ymakor rangli shifti qadimgi mahalliy uslub qirralarini namoyon qiladi. Qo‘qondagi XVIII asr oxiriga tegishli masjid ayvonining shifti boshqacha uslubda bajarilgan, unda turli rangdagi naqshning asosiy chiziqlari oltin rangida chizib chiqilgan. Hozirgi vaqtda jome masjidi Farg‘ona viloyati xalqining tarixiy o‘tmishi, xalq me’morchiligi elementlari, amaliy san’ati, kundalik turmush predmetlarini namoyish qilish uchun, shuningdek O‘zbekistonning boshqa viloyatlari ko‘chma ko‘rgazmalari uchun foydalaniladi. Bu masjid yozgi va ichki xonalaridagi ekspozisiya variantlaridan biridir. Ichki xonada devoriy yoritish, shuningdek vitrinalarga o‘rnatilgan ekspozisiyalarni bevosita yoritish ko‘zda tutilgan [3,4].

Farg‘ona vodiysining ko‘p masjidlari boy va rang-barang devoriy bezaklarga ega bo‘lgan, hozirgi vaqtda hamma yo‘qolgan bezak elementlari tiklangan va ta’mirlangan.

Farg‘ona vodiysining tekis tomli me’morchiligi O‘zbekistonning yirik madaniyat markazlarining mahobatli me’morchiligi qirralarini o‘zida aks ettirgan. Bu jome (juma) masjidlari kompozisiyasida o‘z ifodasini topgan. XVI asrga kelib qurbon xayit va fitr bayramlarida jamoa namozlari uchun masjid-namozgohlarning ma’lum turlari shakllandi. Xalqning katta oqimi uchun mo‘ljallangan namozgohlar shahar tashqarisida qurilgan va u keng hovlining g‘arb tomonida qator tizilgan ravoqlar ko‘rinishini tashkil qiladi; ravoqlar bino markaziy o‘qida joylashgan gumbazli zal bilan uziladi. Farg‘ona vodiysining juma masjidlari ustun-to‘sinli konstruksiyasi sistemasi namozgoh kompozisiyasini takrorlaydi: ustunlarga tayangan gumbazli ravoqlar to‘sinli loy tomni ko‘taruvchi yog‘och ustunlar bilan almashtirilgan, binoda tekis tomli yopiq xona ajralib turadi. Masjidlarning bunday turi, chamasi, XIX asrlarga kelib shakllandi va Andijondan Qo‘qongacha keng tarqaldi. Ularda bino o‘qi bo‘ylab joylashgan mehrob ustunlarning o‘rta qatori bilan ustma-ust tushsada, neflarning juft soni ustunlik qiladi. Mahobatli namozgohlarning aksicha, farg‘onacha galereyali masjidlarning yopiq zali fasadi doim ustunli peshayvon bilan to‘silgan. Ayvonning bu qismi tantanavor shaklga ega: salgina ko‘tarilgan shift boy va rang-barang ornament figurali ship-plafonlar ko‘rinishini oladi, o‘rtada kayvon, fasad ustunlari tepasi esa serhasham kapitel bilan tugallangan.

Mahobatli me’morchilikka xos usullarni qayta tiklash bezak sohasida ham qo‘llaniladi. Shift bezagida relyefli ornament keng qo‘llanilgan, unda naqshning asosiy chiziqlari quyuq oq massa bilan –chamasi, tozalangan ganchning (mahalliy alebastr) maxsus qorishmasi bilan yurgizib chiqilgan, keyin hal bilan qoplangan. Bu temuriylar vaqti Samarqand qurilishlariga shuhrat keltirgan “kundal” relyefli ornamentining o‘ziga xos ekvivalenti. Aynan shunday zarhallangan naqsh Marg‘ilon masjidi va Quva turar joyi shift karnizlarini bezaydi. Bu binolar ornamenti noyob.

Afsuski, Marg‘ilonning ko‘p yodgorliklari omborxona va ishlab chiqarish xonalari uchun foydalanilgan. Juma (XVIII asr oxiri) va Dumba Jush (XX asr boshi) masjidlarida shahar savdo skladi joylashtirilgan edi. Shirmonpaz (XIX asr) masjidida gorpromkombinat tikuv syexi, Jarmasjidda (1868 y) ko‘rlar jamiyati to‘quv syexi, buning ustiga ayvon devorlari, ustunlari va shifti stanoklar va antresollar bilan buzilgan. Qoziyon masjidida (XX asr boshi) “avtoshkola” joylashgan,

o‘ymakor ornamentli devorga o‘quv jadvallari va e’lonlar doskalari osilgan. Xo‘ja Ingiz masjidida (XVIII asr) profilaktik dezinfeksiya bo‘limi bo‘lgan. Said Ahmad Xo‘ja masjidi (XVIII asr) shiftlarning ajoyib naqshinkor ko‘rinishi bilan turar joy binosi sifatida foydalaniladi. Chorvoq qishlog‘idagi juma masjidining (1903 y) qishki xonasi kolxoz skladi uchun foydalanilgan.

Hanuzgacha me’morchilik yodgorliklarining ko‘pi muhofazaga olinmagan, masalan, Paxtaobod qishlog‘idagi Podsho Pirim maqbarasi. Natijada yodgorlik o‘zboshimchalik bilan remont qilingan va uning qiyofasi buzilgan- ichki ravoqlar yopib tashlangan, qo‘pol suvoq fasadlarning g‘isht taxlami va gumbaz qirrasini berkitib qo‘ygan. Buvayda maqbarasida (o‘sha rayonda) ham xuddi shunday holat bo‘lgandi, peshtoq ravog‘i to‘sig‘i qurilish vaqti yozilgan joyni berkitib qo‘ygan. Eski binolar ko‘pincha turli xildagi omborxonalar uchun foydalanilgan. Namangandagi Xo‘jamni Qabri maqbarasi hech qanday idishsiz qalin qilib to‘kib qo‘yiladigan tuzni saqlash joyi sifatida xizmat qilgan. Natijada devor suvog‘i qavarib to‘kila boshlagan. Xivaning jome masjidi bir necha yillar paxta bilan to‘lib turgan, bu esa yong‘inga olib kelgan. Nam issiq tola XI-XII asrlar o‘ymakor ustunlariga zarar yetkazgan. 50-60 yillarga tegishli bu ikki holat yodgorliklarni saqlash amaliyotida juda zararli. Madaniyat yodgorliklarida zararli hasharotlarni jalb qiladigan don va boshqa mahsulotlarni saqlash ham noto‘g‘ri.

Eski masjidlardan foydalanish g‘oyasi ba’zida aholidan chiqadi. Shaxriston qishlog‘ida Namangan viloyatining Axsikent (Shoxand) qishlog‘ida mahalliy o‘qituvchi-nafaqaxo‘r arxeologik topilmalarni namoyish qilish uchun masjidlardan birida muzey ochishni taklif qiladi. Shaxristonda badiiy muzey tashkil qilish faqat o‘rinli bo‘lib qolmay, juda zurur ish: shunday yaqin joyda VIII asr qadimiy shahar qazilmalari olib borilyapti, o‘sha yerning o‘zidan topilmalar muzeyga olib kiriladi, buning ustiga zamonaviy qishloqning o‘zi ham X-XII asrlardagi shahar o‘rnida joylashgan. Qazilmalarni qo‘shni sanatoriy dam oluvchilari ham chiqib, tomosha qilishadi. Xonaning zarur remont ishlarini jamoat yordami- hashar yo‘li bilan amalga oshirish mo‘ljallangan.

Xalq ustalarining ko‘p asarlari yo‘qotilgan, chunki respublika muzeylari ham, viloyat muzeylari ham vayron bo‘layotgan binolar detallarini yig‘maydi. Shift, devor panno bo‘laklari, ustunlar qismlari va o‘ymakor eshiklarni saqlash va ekspozisiya qilib qo‘yish zarur. Yildan-yilga O‘zbekiston tarixiy shaharlariga keluvchi sayyoh va ekskursiyachilarning oqimi oshib boryapti. Ularni respublika badiiy madaniyati bilan tanishtirish uchun madaniyat yodgorliklarini qoniqarli ekspozisiya holatiga keltirish zarur. Har bir jamiyat merosga nisbatan o‘z qarashi va o‘z munosabatiga ega.

O‘zbekistonda o‘tmish badiiy yodgorliklariga shunday yondoshuv shakllandiki, bir tomondan u, tarixiy materializm prinsiplariga tayanadi, boshqa tomondan insoniyat yaratgan yaxshi narsalarni uzviy mujassamlantirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Merosga nisbatan faol munosabat, o‘tmishni hozirgi madaniy qurilishga jalb qilish uning muhim xususiyatlarini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, tarixiy madaniyatning shakllanish jarayoni, rivojlanish, o‘tmish bosqichlari yutuqlarini o‘chirib tashlamaydi, inkor qilmaydi, aksincha, xalq madaniyatidagi butun qimmatli jihatlarning keyingi chuqurlashuvi va mukammallashuvi zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu madaniyat qanchalik muhim va o‘ziga xos bo‘lsa, u tarixni durdona asarlar bilan shunchalik boyitadi, uning shunchalik ko‘p yodgorliklari dunyo tarixiy va badiiy tajribasi xazinasiga kiradi.

Bu murakkab muammolar faqat zamonaviy fan darajasida, bu sohada to‘planganlarni keng miqyosda boyitish orqaligina hal etiladi. Keyingi yillarda tarixiy-madaniy merosni o‘rganishga va ayniqsa, undan foydalanish masalalariga qiziqish juda o‘sdi. Xalqaro ilmiy konferensiyalar va simpoziumlar, chop etilayotgan ko‘p sonli maqola va boshqa materiallar bu haqda guvohlik beradi. Muammoning metodolik jihatlari alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki oxirgi vaqtlargacha yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda katta qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladigan jiddiy kamchiliklar bor edi. Me’morchilik yodgorliklaridan zamonaviy foydalanish xarakterini aniqlashda hamma hollarda ham qo‘l keladigan yagona qoida mavjud emas. Qulay yechimni asoslash uchun aniq dalil va holat umumiyligiga differensiyalovchi yondoshuv zarur. Uslublarni ishlab chiqish, bu yechimga ta’sir etuvchi tadqiqotlar, turli omillar ulkan amaliy ahamiyatga ega.

Me’morchilik yodgorliklarini zamonaviy vazifalar uchun foydalanishga moslashtirishning amaliy tajribalari tahliliga asoslanib, muallif yodgorlik-binolarni maksimal saqlagan holda loyihalash metodologiyasini taklif etadi (me’moriy planirovka tuzilishi va badiiy obraz). Yangi maqsadlar uchun moslashtirilgan me’moriy yodgorliklarning yangi planirovka yechimi zamonaviy planirovka qoidasi bo‘yicha bajarilishi mumkin, ammo yechim inshoot spesifikasini – saqlanishi zarur bo‘lgan yodgorlik asosiy konstruksiyalarining borligini inobatga olishi kerak. Foydalanish va loyihalashdayodgorlik planirovka tuzilishini saqlash uchun yuzalar me’yorlarining kattalashishiga qanday bo‘lsa, kichiklashishiga ham xuddi shunday mavjud KMKdan ba’zi chekinishlar bo‘lishi mumkin (ko‘pincha gumbazli konstruksiya bilan yopilgan xonalar planirovkasi yechimida uchraydi).

Yodgorliklarda devorlar, ustunlar, shiftlarga biror moslamaning o‘rnatilishi, mexanik shikast yetkazish, buzish va shu kabilarga qat’iy yo‘l qo‘ymaslik kerak. Masjidlardan turar joylar uchun foydalanish umuman mumkin emas. Ulardan keramika, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi mahalliy hunarmandchilik asarlarining vaqtinchalik yoki doimiy ko‘rgazmalari uchun xonalar sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Muhofaza jamiyatlari va muzeylar o‘rtasida bu yo‘nalishda hamjihat faoliyat bo‘lishi kerak. Ma’lumki yodgorliklarni saqlash uchun ularning ilmiy hujjatlashtirilishi katta ahamiyatga ega. Qimmatbaho ob’yektlarning to‘liq o‘lchov ishlarini qilish, planlar, qirqimlar, bezak elementlarini grafik qayd etib qo‘yish zarur.

Hozirgi vaqtda yildan-yilga davlat muhofazasiga olingan me’morchilik yodgorliklari, xalq va arxeologiyaning madaniy meros yodgorliklari aniqlanmoqda. Ular hamma yoqda, ayniqsa tarixiy shaharlarda mavjud, ammo ularni hamma ham payqayvermaydi. Birgina yodgorliklarning o‘zidan O‘zbekiston tarixini bilib olish mumkin. O‘zbekistonda to‘rt mingdan ortiq arxeologiya yodgorligi, uch mingta tarixiy yodgorlik va ikki mingdan ortiq me’morchilik va mahobatli san’at yodgorligi ro‘yxatga olingan.

Ammo yodgorliklarni faqat topish va o‘rganish emas, ularga shunday sharoit yaratish kerakki, bunda ularning saqlanib qolishi zamonaviy jamiyat hayotida, madaniy-ma’rifiy ishda, xalqning g‘oyaviy-axloqiy, estetik, madaniy va ruhiy tarbiyasida maksimal foydalanilishi ta’minlansin [5].

Shunday qilib, o‘tkazilgan loyihaviy-amaliy tadqiqot natijasida quyidagilar belgilandi: me’moriy yodgorliklarni saqlash, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va zamonaviy vazifalar uchun foydalanish muammolarini hal qilishda asosiy mohiyat me’moriy yodgorliklarga g‘amxo‘rlik qilishdan iboratdir.

Yodgorliklardan foydalanishni aniqlashda ularda zamonaviy vazifalarni joylashtirish imkoniyatlariga (foydalanish erki darajasiga) bog‘liq holda tarixiy qiymatga ega bo‘lgan inshootlarning uch asosiy guruhga bo‘linishidan kelib chiqish muhim:

-faqat bir vazifa bo‘yicha rasional foydalanish mumkin bo‘lgan yodgorliklar, bu ularning tarixiy-badiiy qiymati va hajmiy-fazoviy qurilishiga bog‘liq ravishda kelib chiqadi (noyob badiiy qiymatga ega yodgorliklar, o‘ziga xos tuzilishga ega yodgorliklar- savdo qatorlari, teatrlar, bir vaqtning o‘zida tarixiy yodgorlik hisoblangan me’moriy yodgorliklar); ularning majmualar tarkibida (ixtisoslashtirilgan markazlarda, turli muassasalarning rivojlanish zonalarida) joylashgani sababli rasional foydalanilishi cheklangan yodgorliklar.

-hajmiy-fazoviy va tarixiy-badiiy xarakteristikasi, shuningdek joylashish sharoitlari ulardan turli xilda foydalanish imkonini beradigan yodgorliklar. Foydalanish turlari markazni loyihalashda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sistemasini isloh qilish talablariga bog‘liq holda aniqlanadi.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sistemasini isloh qilishda sanab o‘tilgan guruhlar yodgorliklarini sistemaning ma’lum elementi, shartli berilgan va ko‘p qiymatli elementi kabi muvofiq tarzda inobatga olish zarur.

Yodgorlikni foydalanishga moslashtirishni loyihalashda (muzey sifatida foydalanish, madaniy-ma’rifiy, turistik va shunga o‘xshash muassasalar uchun moslashtirish) binoni maksimal saqlash (eksteryer, interyer, planirovka, konstruksiyalar, bezak, obrazli qurilish) va yangi vazifaning yodgorlik estetik va sosial ahamiyatiga muvofiqligi zarur talablardan bo‘lishi kerak.

Yodgorlikdan zamonaviy foydalanish loyihasini ishlab chiqishda quyidagilar asosiy metodik ko‘rsatmalar hisoblanadi:

-har bir aniq yodgorlik yoki majmuaning moslashtirilishiga individual yondoshuv;

-inshootning shalkllanish tarixini o‘rganish, uning dastlabki vazifasini aniqlash va tarixiy vazifasi xarakteriga yaqinlashuvchi bino yangi vazifasini izlash (bu inshootning konstruksiyani, me’moriy planirovka tuzilishini va badiiy qiyofasini maksimal saqlash imkonini beradi); inshoot me’morchiligi, planirovka va dekorativ tizimini o‘rganish va saqlash (plastik yechim, kompozisiya o‘qlari, asosiy va ikkinchi darajalilar, ritmik tartib, masshtablilik);

-shinamlilikning zamonaviy darajasini yaratish, interyerni loyihalashning zamonaviy qoidalarini qo‘llash (texnologiklik, funksional zonalashtirish);

-foydalanishga moslashtirilayotgan yodgorlik interyerining rang va bezak yechimida mintaqaning an’anaviy qoidalariga rioya qilish;

-yodgorliklar majmuasi hududi obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish xarakterining inshoot me’morchiligi funksional, kompozision va stilistik xususiyatlariga muvofiqlik qoidalariga rioya qilish.

Tadqiqot ko‘rsatganidek, katta xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘lgan masala- me’moriy yodgorlikdan zamonaviy vazifalar uchun rasional foydalanish masalasining (foydalanishga moslashtirish qiymati yangi qurilishdan 2-3 marta arzon, bunday ob’yektlarning harajatlarni qoplashi 2-3 yilni tashkil qiladi) yechimi- tarixiy-me’moriy merosni saqlash muammosi yechimining asosidir.

O‘tmish me’moriy yodgorliklarining zamonaviy holatini tahlil qilib va ularni naturada tadqiq qilib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

-Me’moriy yodgorliklarni saqlashning asosiy usullarini konservatsiya qilish, ta’mirlash, rekonstruksiyalash, foydalanishga moslashtirishga ajratish mumkin.

-Me’moriy yodgorliklarni saqlashning eng amaliy vositasi ularni yangi maqsadlar (ko‘pincha madaniy va turistik) uchun moslashtirishdir, chunki ob’yektlarni “toza” ta’mirlash, konservatsiya qilish va tavsiflash ularning yaxshi saqlanishi va jamiyat hayotida faol qatnashishini kafolatlamaydi.

Faqat me’moriy eksponat sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi yodgorlik ma’naviy jihatdan vayron bo‘ladi, chunki me’morchilik o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat tomosha qilish ob’yekti bo‘la olmaydi, yodgorlikka amaliy funksiya qaytarilishi kerak (bu maqsadga muvofiq bo‘lgan hollarda). Ammo, ko‘pgina foydalanishga moslashtirilgan ob’yektlarning (maxsus va “stixiyali” toifalariga kiruvchi) holatini tahlil qilib, shunday xulosalar qilish mumkin:

-me’moriy yodgorliklarni muhofaza qilish ko‘p hollarda rasmiyatchilik xususiyatiga ega;

-me’moriy yodgorliklarni foydalanishga moslashtirish, odatda ilmiy asoslashlarsiz bajariladi, bu ularning saqlanishida noxush tarzda namoyon bo‘ladi [6].

XULOSA

Demak, foydalanishga moslashtirilgan ob’yektlarning ijara ro‘yxatidan ishlab chiqarish korxonalarini olib tashlash kerak, chunki bu turdagi korxonalar bilan me’moriy yodgorliklar funksiyalarini birlashtirib bo‘lmaydi va bunday holdagi moslashtirish yodgorlikning vayron bo‘lishini tezlashtiradi.

Adabiyotlar:

[1]. Arxitektura shakllarini yodgorliklarini ta’mirlash. X.Sh.Po‘latov va b., o‘quv qo‘llanma, lotin yozuvida. Toshkent 2009

[2]. Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash. P.Zohidov va b., darslik, lotin yozuvida. Toshkent, Iqtisod-moliya2015

[3]. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. A.O‘ralov va b. darslik, lotin yozuvida. Toshkent 2015

[4]. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX – XX vv). M,. 1993.

[5]. Axmedov M.K. O‘rta Osiyome’morchiligitarixi. – Tashkent, 1995

[6]. Грабарь И.Э. Памятники старой архитектуры и новое городское строительство: Сб. О русской архитектуре. Москва, 1969.

[7]. Ноткин И.И., Гордеева И.И. Памятники архитектуры и реконструкции городов Узбекистана, «Строительство и архитектура Узбекистана». 1972

[8]. Salimov O.M. Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashning ilmiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.2014

[9]. t.f.n. J.D.Axmedov, kat. o‘qit. O‘.Sh.Jo‘rayev. Zamonaviy shaxarlarda avtomobillar turar joyi muammolari. FarPI, 2019

[10]. С.С.Исаков, А.А.Холмурзаев. Разработка прикладной модульной системы преподавания и модернизация программы образования в высших учебных заведениях. ФарПИ, 2019
[11]. С.С.Исаков, А.А.Холмурзаев, С.С.Хамидов – студент. Роль практико-ориентированной модульной системы образования в подготовке профессиональных специалистов строительной отрасли. ФарПИ, 2019
[12]. S.S.Isakov. Problems of the organization of the protected zone of architectural monuments of the uzbek republic. Washington, USA 25th NOVEMBER 2021
[13]. S.S.Isakov, K.K.Polotov. Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarni ishga joylashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'rgatuvchi modulli tizimning samaradorligi. “Modern science and research” xalqaro ilniy jurnali. DOI: https\\doi.org\10.5281\zenedo.15306328 29 aprel 2025
[14]. Полотов К.К., Исаков С.С. Проблемы организации охранной зоны памятников архитектуры Республики Узбекистан “Arxitektura, qurilish va dizayn ilmiy-amaliy jurnali” “The Scientific-Practice Journal of Architecture, Construction and Design” TAQU, TASHKENT #1,2025, VoI.20,lssue 1, March 2025.

O‘ZBEKISTON YOSHLARINING FAOLLIGINI OSHIRISHDA MEHNAT AN’ANALARI VA MEHNAT TARBIYASI UYG‘UNLIGINING FALSAFIY JIHATLARI

S.S. Sodiqov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
sodiqovsanjar899@gmail.com
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston yoshlarining faolligini yuksaltirishda mehnat an’analari va mehnat tarbiyasi uyg‘unligining falsafiy jihatlarini tahlil qiladi. Yoshlarning mehnatqa bo‘lgan munosabati, mehnat an’analariga hurmat va intizom orqali ijtimoiy faollikni oshirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, mehnat tarbiyasi va milliy an’analarning uyg‘unligi orqali yoshlar shaxsiy va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishlari mumkinligi falsafiy nuqtai nazardan muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat an’analari, mehnat tarbiyasi, mehnat madaniyati, shaxs madaniyati, iqtisodiy madaniyat, yoshlar faolligi, ijodkorlik va kreativlik.*

Аннотация *В статье анализируются философские аспекты гармонии трудовых традиций и трудового воспитания в повышении активности узбекской молодежи. Раскрывается важность повышения социальной активности посредством отношения молодежи к труду, уважения к трудовым традициям и дисциплины. Также рассматривается с философской точки зрения возможность вклада молодежи в личностное и социальное развитие посредством гармонии трудового воспитания и национальных традиций.*

Ключевые слова: *трудовые традиции, трудовое образование, трудовая культура, личная культура, экономическая культура, молодежный активизм, творчество и инновации.*

Abstract: *The article analyzes the philosophical aspects of the harmony of labor traditions and labor education in increasing the activity of Uzbek youth. The importance of increasing social activity through the attitude of young people to labor, respect for labor traditions, and discipline is revealed. It also discusses from a philosophical point of view the possibility of young people contributing to personal and social development through the harmony of labor education and national traditions.*

Keywords: *labor traditions, labor education, labor culture, personal culture, economic culture, youth activism, creativity and innovation.*

KIRISH

Insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida erishgan barcha yutuqlar mehnat tufaylidir. Kishi o‘z mehnatidan bahramand va xursand bo‘la olsa, boshqalarga foyda keltira olishini bilsa, mehnatidan fahrlanish tuyg‘usini his qiladi. Mehnat odatlari va bayramlari aynan, avlod-ajdodlarning o‘z mehnatidan faxrlanishi natijasida vujudga kelgan. Mehnatni sevgan, mehnatdan samarali natijalarga erishgan xalqlarning mehnat bayramlari ko‘p bo‘lgan.

Umuman, kishilardagi yaxshi yashash istagi, ularning ongli mehnat qilishi va tajriba orttirishi mehnat odatlarini vujudga keltirgan. Agar insonning ilk mashg‘ulotlari asosida terimchilik odatlari, ovchilik asosida “ovchilik o‘yinlari” vujudga kelgan bo‘lsa, chorvachilik va dehqonchilik

bilan shug‘ullanish natijasida maxsus mehnat an’analari va marosimlari shakllangan.

Ongli mehnat – an’analarining asosi, asl poydevoridir. Mehnat –muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy foydali hatti-harakatdir. Marosimlar – insoniyat ilk madaniyat va san’atining rivojlanishining asosidir. Mehnat jarayonini aks ettiradigan madaniy marosimlarni bajarish jarayonida turli o‘yinlar, teatr va raqs, pantomima, musiqa san’tining dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lgan.

O‘zbek xalqi mehnat an’analari orasida ustoz-shogird an’analari, hashar kabilar alohida ahamiyatga ega. Chunki ular mehnat an’analarining zamini hisoblanadi. Aynan ular tufayli mehnat ham, odatlar ham munosib kamol topgan.

Ustoz-shogird an’analari tufayli kasblar avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Yoshlar hunar o‘rganish bilan birgalikda ustalardan o‘zbekona odob-axloq, e’tiqod, milliy an’ana, urf-odatlarimizni ham o‘rganyaptilar .

Ustoz-shogird xalq maktabi an’analari bo‘yicha ota-ona farzandining qobiliyati va qiziqishlariga qarab unga “usta” topgan, uni shogirdlikka bergan yoki ustaning o‘zi shogird tanlagan. Shogirdlikka qabul qilish uchun usta o‘ziga xos sinov tashkil qilgan, so‘ng shogirdlikka taqdimot bilan bog‘liq mo‘jaz marosim uyushtirgan. Shundan so‘ng shogird-ustoz doimiy birga faoliyat ko‘rsatgan, xatto, shogird ustozinikida yashagan, ustoz bilan ustaxonada ishlagan, eng sodda topshiriqlardan mehnat faoliyatini boshlagan. Shogirdga kasb o‘rgatish ish jarayonida ham davom ettirilgan. Ustoz shogirdga hunar o‘rgatibgina qolmasdan, uni mehnatsevar, sofdil, ustozi va ishiga e’tiborli qilib tarbiyalashga ham alohida e’tibor bergan.

MATERIAL VA METODLAR

Avestoda mehnatga bo‘lgan munosabatlar doirasida inson dunyoga kelgandan so‘ng, o‘zidan albatta bog‘u-rog‘ qoldirishi kerakligi, buning uchun esa albatta mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi darkorligi aytiladi. Zardusht ham insonlarga vaqtini behuda o‘tkazmasliklari kerakligini ta’kidlab, kasb-hunar egallashga undab, atrofdagilarga va o‘ziga foydali, halol biror yumush bilan shug‘ullanishlari zarurligini uqtirib kelgan.

Beruniyning “Mineralogiya” asarida mehnatning turlari, mehnatga haq to‘lash prinsiplari to‘g‘risida keng fikr yuritiladi. Beruniy mehnatning xarakter va mazmuniga qarab bir qator guruhlarga ajratadi. Og‘ir jismoniy mehnat turlariga: tog‘-konchilik, yer ostida gavhar qidirish, dehqonchilik kabi sohalarni kiritadi. U ilm-fan bilan mashg‘ul bo‘ladigan kishilar mehnatining murakkabligini ham alohida ta’kidlaydi. Mutafakkir o‘z davrida gurkirab rivojlangan konchilik va metallurgiya sohalarida foydalanilayotgan maxsus asbob-uskunalarga e’tibor qaratadi. Konchilikda, ya’ni, yer ostida olib boriladigan ishlarda mehnatni yengillashtirish uchun ko‘plab ixtirolar qilinganligini ta’kidlaydi.

Beruniy milliy mehnat an’analarimizda ayollarga xos an’anaviy rivojlanib kelayotgan to‘qimachilik kasbi to‘g‘risida alohida to‘xtalib, Buxoro shahrida to‘qimachilik korxonalar ko‘plab qurilganligi, ularda asosan ayollar mehnat qilganligi, ular paxta va ipakdan qimmatbaho gazlamalar to‘qishga nihoyatda yuqori malakaga ega bo‘lganligi haqida ma’lumot qoldirgan.

Shu bilan bir qatorda, sharq mutafakkirlaridan Abduxoliq G‘ijduvoniy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro hamda Baxouddin Naqshbandiylar ham mehnat tarbiyasi haqida betakror purma’no fikrlar bildirganlar. Jumladan Baxouddin Naqshbandiyning “Dil ba yoru dast bakor”, ya’ni qalbing Allohda qo‘ling mehnatda bo‘lsin degan hikmatli so‘zining o‘ziyoq inson hayotida mehnat tarbiyasining o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Ilmiy manbalarda “mehnat” ga xilma-xil ta’riflar berilgan. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi B.M. Genkinga ko‘ra “mehnat tabiat resurslarini moddiy, intellektual va ma’naviy ne’matlarga aylantirish jarayoni bo‘lib, inson bu jarayonni yoki ma’muriy (iqtisodiy), yoki ichki undov, yoxud unisi ham, bunisi ham tufayli amalga oshiradi va boshqaradi”[1]. Akademik K. Abdurahmonovning fikricha, “mehnat – insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o‘ziga kerak bo‘ladigan moddiy yoki ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish (yaratish) bo‘yicha ongli, maqsadli va ta’qiqlanmagan faoliyatidir”[2]. Mehnat – shaxsiy va ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, har bir inson faoliyatida bu ikkiyoqlama xarakter namoyon bo‘ladi. Mehnat va faoliyat natijasida mehnat an’analari paydo bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har qanday faollik – sub'yektning atrofdagi voqelik, muhitga munosabatini bildiradi. Bu o'sib kelayotgan avlodning hayotga, mehnatga, ideallarga, boshqa insonlarga, o'ziga munosabatidir. Biroq, inson ijtimoiy faolligining turli ko'rinishlarini rag'batlantiruvchi, predmetli doirasi ancha keng. U atrof muhit, hayvonot olami, san'at, sportni va h.k. qamrab oladi.

Inson tafakkuri nisbiy mustaqil munosabatni sub'yektning mehnatga munosabati sifatida qabul qiladi, ob'yekt sifatida faoliyat yuritadi. Insonning mehnatga munosabati birinchi navbatda, o'zining tafakkur faoliyatini mehnat bilan muvofiqlashtiruvchi munosabatdir. Mehnat o'z-o'zidan insonning anglab olingan va tabiiy ehtiyojlarini qondirish usuli bo'la olmaydi. U tafakkurda hosil bo'lgan ehtiyojlarni qondirish orqaligina jamiyatda insonning shakllanish ehtiyoji bo'la oladi. Tafakkur sub'yekt va ob'yekt munosabatidagi yetakchi kuch sifatida, mehnatning shaxsiy hayotiy zaruriyatga aylanishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, inson hayotini mehnatsiz tasavvur etish mumkin emas. Mehnat uning kundalik turmushida birinchi va asosiy zaruriyatdir. Insonning faoliyati natijasida mehnatning tabiiy xususiyati va mohiyati o'zgaradi, u tabiat bilan o'zi o'rtasidagi o'zaro munosabatni tartibga soladi, nazorat qiladi, u o'zining doimiy o'sib boruvchi turli hayotiy ehtiyojlarini qondirish yo'lida, ba'zan tabiatning ob'yektiv rivojlanish qonuniyatlariga qarshi faoliyat olib boradi.

Insonning mehnatga munosabatida aqlning yetakchi roli, ya'ni mehnatning ijtimoiy funksiyasi moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishda odamlarni birgalikda faoliyat ko'rsatishida namoyon bo'ladi. O'zaro hamkorlikdagi faoliyat jamiyatdagi asosiy sosial birliklar oila, urug', elat, millat, sosial guruh va sinflarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Demak, kishilarning tarixiy-ijtimoiy birliklarining tarkib topishi asosida ham mehnat an'analari omili turadi.

Xalqimizda o'zlikni anglash jarayonlarining kuchayishi tufayli milliy an'analar masalasi, xususan mehnat an'analari shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish taraqqiyotga erishishning asosiy vositalaridan biriga aylandi.

Xalqimizda mehnat tushunchasining mohiyati, mazmuni, maqsadi to'g'risida purma'no hikmatlar mavjud. Ular mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushunishga yaqindan ko'mak beradi. Jumladan, "mehnatsiz osh qayda, tashvishsiz bosh qayda"; "mehnatdan do'st ortar, g'iybatdan dushman"; "mehnatning ko'zini topgan boylikning o'zini topar" va boshqalar.

Xalqimizning mehnat an'analari o'zining boy va sermazmun falsafasiga ega. Qadimgi xitoy manbalarida qayd etilishicha, bizning avlod-ajdodlarimiz miloddan avvalgi II asrlardayoq uchqur saman otlardan foydalanishgan. Mehnat an'analarining chorvachilik turi bilan bog'liq uchqur saman otlar bilan shug'ullanish shu darajada keng rivoj topganki, hatto shaharlarning nomlanishi ham u bilan bog'langan. Masalan: Asaka nomi "otliq" degan ma'noni, Axtachi – sinchi, ya'ni "ot tabibi" ma'nosini bildiradi [3].

Xalqimizning qadimiy mehnat an'analari to'g'risidagi Avestoda bayon etilishicha, dehqonchilik, bog'dorchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ovchilik yaxshi rivojlangan. Har bir zardushtiy dehqonchilik qilmog'i, o'z mehnati bilan rizq topib yemog'i lozim bo'lgan. Shu bilan birga chorvachilik ham yaxshi rivojlanganki, bunda dehqonchilik madaniyatining kuchli ta'sirini e'tirof etish mumkin. Xususan yilqichilikning rivojlanishida Farg'ona vodiysida qorabayir otlarini boqilishi alohida ahamiyat kasb etgan. Ta'kidlash joiz, mis va qo'rg'oshin konlariga boy bo'lgan Oltoy o'lkasining yaqinligi hududimizda temirchilik, misgarlik rivojiga asos soldi.

O'zbek xalqi mehnat an'analarida qurilish va hunarmandchilik bilan bog'liq kasb-hunarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz o'troq yashashga o'rganganlaridan so'ng shaharlar barpo etishga kirishganlar. Shahar qurilishida qal'a devorlari barpo etish, suv quvurlari o'tkazish, hovuzlar qazish va turar joy binolari qurilishi takomillashgan. Bu esa o'z navbatida savdoning taraqqiy etishiga olib kelgan. Shaharlarda ichki va tashqi shahar shakllangan bo'lib tashqi shaharda asosan savdo ishlari amalga oshirilgan.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida, yoshlarning faolligini yanada oshirish masalasi mehnat an'analari asosida sog'lom raqobatni yuzaga chiqarish, ularning ijodiy mehnatini qo'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatini jahon andozalari va milliy an'analar asosida yuksaltirib borishni taqazo etadi [4]. Bular kishilarning kasbiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ma'rifiy

ishlardir. Jumladan ijodiy mehnat va milliy an’analar imkoniyatlarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan to‘liqsiz ish vaqti fenomenini joriy etish yoshlar faolligini yuksaltirishga hizmat qiladi. Ushbu usul ayniqsa ayol-qizlar va yoshlar uchun qulayligi, ularning oilaviy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi uchun katta qulaylik yaratishi mumkinligi bilan alohida e’tiborga molik. Ushbu sohada xunarmandchilik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, mehnat an’analari asosida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, yuqoridagilarga mantiqan asoslangan holda, mehnat an’analarimizga xos bo‘lgan mehnat turlarini umumlashtirib, quyidagi to‘rt guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga – aholi o‘rtasida qadimdan keng tarqalgan va asosiy faoliyat turiga aylangan dehqonchilik va chorvachilikni kiritish mumkin. Dehqonchilikda paxtachilik mehnat madaniyati asosiy o‘rinda turadi.

Ikkinchi guruhga – konchilik, metallurgiya va hunarmandchilik sohasidagi kasb-hunarlarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruhga – quruvchilik, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes bilan bog‘liq mashg‘ulot turlari kiradi.

To‘rtinchi guruhga – boshqaruv, ta’lim-tarbiya, tabobat, madaniyat sohalari bilan bog‘liq faoliyat turlarini qo‘shish mumkin.

Mehnat an’analarimizga xos bu kasb-hunarlar turli tarixiy davrlar silsilasida goh yashirin, gohida oshkora ravnaq topib, bizgacha yetib keldi va mustaqillik natijasida yangi mazmunda qayta tiklanmoqda.

Globallashuv avjiga chiqqan hozirgi davrda ko‘plab ilgari mavjud bo‘lgan va hozirgi kunda transformatsiyaga uchrab qayta tashkil bo‘layotgan yoki yangicha ahamiyat ega bo‘lgan kasblarni ham uchratish mumkin [5]. Zero, ular ham mehnat an’analari sifatida yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirishda muhim o‘ringa ega. Jumladan, ilgari mavjud bo‘lgan va hozirda ayrim o‘zgarishga uchragan mirshablik va ichki ishlar xodimi, noshirlik va blogerlik, olibsotarlik va brokerlik, dallollik va dillerlik, choparlik va kuryerlik, chayqovchilik va tadbirkorlik, yer pudratchisi va fermerlik kabi mehnat an’analari o‘zining determenistik xususiyatlari bilan umrboqiyligini saqlab kelmoqda, ya’ni ular ilgari mavjud bo‘lib bugun yangicha ko‘rinishda zamon talablari asosida o‘zgarishga uchragan yoki qayta tashkil bo‘lgan kasblar hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g‘oyasi shaxsda mehnat ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi. Ayni jarayonda mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlikni shakllantirish zarur. Bu yoshlardagi ruhiy tarbiya masalsi bilan bog‘liq. Bunda:

- mehnatning inson faoliyatidagi ijtimoiy ahamiyatini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish rag‘batini qaror toptirish;
- mehnatga ongli va ijodiy munosabatda bo‘lishlikni shakllantirish;
- mehnatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- mehnatning kishilik taraqqiyoti bosqichlaridagi roli va ijtimoiy o‘rnini tushinish;
- ajdodlarimizning mehnatini ulug‘lovchi qadriyatlarini anglash va shu kabilar.

Yangi taraqqiyot bosqichida mehnat tarbiyasiga nisbatan innovasion yondashish o‘quvchilar tomonidan egallangan dunyoviy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ta’minlashni talab etmoqda, ya’ni mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgarib, u o‘zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko‘nikmasi hamda holatlarni ifoda etmoqda. Bu jarayonda Sharq allomalari va mutafakkirlarining yosh avlodni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy falsafiy merosini chuqur o‘rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o‘zligimizni anglash imkoniyatini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini yanada oshiradi.

Xulosa

Shunday qilib, mehnat insonga kuchli va ko‘p-qirrali ta’sir ko‘rsatib, uning faoliyatiga estetik ma’no-mazmun baxsh etadi, ma’naviy kamol topishiga ko‘maklashadi. Bunda ijod ustuvor, mukammallik qancha yuqori bo‘lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, ma’naviy

ta’sirchanligi kuchli bo‘ladi. Mehnat insonda bilim, tajriba, iroda va xarakterni uyg‘unlashtirishi bilan estetik ma’no kasb etadi.

Mehnat faoliyati – bu insonning biron-bir foydali mehnat turi bilan bandligining ifodasidir. Mehnat faoliyati bu – ishlab chiqarish va boshqaruv, ilmiy-pedagogik, tadbirkorlik va tijorat, xizmat ko‘rsatish kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Mehnat faoliyati o‘zining maqsad va vazifalari, bajaradigan ishlar tizimi kabilar orqali tashkil topadi.

O‘zbekiston yoshlarining faolligini yuksaltirishda mehnat an’analari va mehnat tarbiyasining uyg‘unligi muhim falsafiy ahamiyatga ega. Mehnat an’analari orqali yoshlarda mehnat qadri va intizomi shakllanadi, bu esa ularning ijtimoiy faolligini va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Mehnat tarbiyasi va milliy an’analarning uyg‘unligi yoshlar orasida mas’uliyat, samarali mehnat va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu tariqa, mazkur uyg‘unlik yoshlarning faol pozisiyasini mustahkamlaydi hamda mamlakatning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

[1]. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. 7-е изд., доп. – Москва: Норма, 2007. – С.448

[2]. Абдурахмонов К. Меҳнат иқтисодиёти. - Тошкент: MEHNAT, 2004. – Б.45

[3]. Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: “Фан”. 2001. – Б.46 //https://studbooks.net/1362110/menedzhment/ teoriya_motivatsii_frederika_ gertsberga

[4]. Subixoniddin o’g’li, S. S. (2022). O’zbekistonda Ma’naviy Yangilanish Omillari. Miasto Przyszłości, 26, 94-96.

[5]. Sodiqov, S. (2024). Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari. Farg'ona davlat universiteti, (2), 45-45.

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA MAHALLA INSTITUTINING O‘RNI

A.A. Kamilov, I.A. Raximov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘z-o‘zini boshqarish organlari borasidagi islohotlar va ijobiy o‘zgarishlar hayotning barcha sohalariga jadal kirib borayotganligi, “Xavfsiz mahalla” tizimining o‘z–o‘zini boshqarish tuzilmasidagi ahamiyati, “Xavfsiz mahalla” tizimini amalga oshirishda “mahallabay” ishlash tizimining afzalliklari, mahallalarda jinoyatchilikni oldini olish borasidagi “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasini o‘rganishni maqsad qilib olinadi.*

Tadqiqot metodlari olib borishda muammoga doir siyosiy, sosiologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari Mamlakatimizda “Xavfsiz mahalla” tizimining mahallalarda joriy qilinishi yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishning 2020 — 2024 yillarga mo‘ljallangan konsepsiya, “mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi–mahalla”,“Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak”, “mahallabay”, Millatlararo totuvlik, Mahalla buydjeti.*

Аннотация. *В статье реформы и положительные изменения в органах самоуправления, происходящие в Узбекистане в последние годы, стремительно проникают во все сферы жизни, подчеркивается значение системы «Безопасное соседство» в структуре самоуправления», «Безопасное соседство» При внедрении системы преимущества системы работы «Соседство» направлены на изучение концепции «Безопасное соседство» с целью предотвращения преступности в кварталах.*

В методах исследования использованы методы сравнительного и критического изучения и анализа политической, социологической, педагогической литературы по проблеме.

Результаты исследования. Высказаны предложения по внедрению системы «Безопасное соседство» в микрорайонах нашей страны.

Ключевые слова: *Министерство по делам микрорайона и поддержки сообществ, концепция реализации на 2020-2024 годы принципа «процветающее и безопасное соседство», «махалла – сектор – общественная приемная – соседство», «Преступность в моем районе» «не должна», «махаллабай», межнациональное согласие, районный бюджет.*

Mahalla o‘zbek halqining ijtimoiy hayotida azaldan jamoa bo‘lib yashashning eng oliy shakli bo‘lib kelgan. Birgina tarixiy ilmiy manba bo‘lgan “Avesto” misolida katta patriarxal oilalarning mavjudligi va uning atrofida kishilarning birlashuvi mahallaning qanchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Mahalliy jamoalarni, mahalliy darajada o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etishning bu shakli asrlar osha behisob sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib yashab kelmoqda. Bugungi kunda ham u tarix mulkiga aylanib qolayotgani yo‘q. Balki borgan sari takomillashib mahalliy xalqlar hayotini tashkil etishning betakror namunasi sifatida dunyo jamoatchiligining tobora qiziqishini uyg‘otmoqda. Chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan, xalqning kundalik hayotini tashkil etib va yo‘lga solib turgan mahalla demokratik poydevorga asoslangan muntazam axloq-odob tizimini keltirib chiqaradi. Bular davrlar sinoviga dosh bergan o‘zaro yordam, keksalarga hurmat, hamma jamoa a’zolarining tengligidir.

Tadqiqotni olib borishda muammoga doir tarixiy, siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil etish, tarixiylik va mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, garchi, mahalla mamlakatimizda ko‘p asrlardan buyon mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina u munosib ijtimoiy-xuquqiy maqomga ega bo‘ldi. Mahallalarning qayta shakllantirilganligi aholi keng qatlamlarini davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb etishga, siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim xuquqiy demokratik qadriyat hisoblanadi[1,50].

Mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining dastlabki kunlaridanoq fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini oshirishga katta e’tibor qaratildi. 1992 yilda “Mahalla” Respublika xayriya jamg‘armasi tashkil etilganligi[2] 1993 yilda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”[3] gi qonun qabul qilinganligining o‘zi ham mahallalarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganligiga yorqin dalil bo‘la oladi.

Nazarimizda, Sohibqiron Amir Temurning “Kuch – adolatdadir” degan mashhur iborasi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining mazmunini juda aniq qilib belgilab bergani shundaki, mahalliy turmush masalalarini adolatli hal etmay turib va har bir kishiga insonparvarlik ko‘rsatmay turib, aholining madadiga umid qilish, oldinda turgan vazifalarni samarali hal etib bo‘lmaydi. Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning xotirjam mehnat qilishini ta’minlashda mahalla ahlining xizmati katta.

Shuningdek, Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan turli fuqarolik jamiyati tuzilmalariga nisbatan xalqaro miqyosdagi sub’yektlarning munosabati hamisha ham xayrixoh emas edi. Jumladan, O‘zbekistonning ko‘pgina an’anaviy ijtimoiy boshqaruv tuzilmalariga o‘z davrida sovet hukumati, davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki davrlarida esa inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha AQSH nodavlat xalqaro tashkiloti “Xuyuman Rayts Votch” qarshi chiqdi. Mazkur tashkilot faoliyatida mamalakatimizdagi an’anaviy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimining milliy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini qisqatirish, uning vakolatlarini cheklash, undan tashqari, O‘zbekiston qonunlari bilan faoliyati cheklab qo‘yilgan diniy ekstremistik guruhlar a’zolarini himoya qilish orqali qo‘llab-quvvatlash singari jihatlar kuzatildi[4].

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, oxirgi yillarda Respublikamizda mahallaning yanada rivojlanishiga uning ravnaq topishiga gullab-yashnashi uchun e’tibor yanada kuchaytirilmoqda. Aynan mahallalarda shakllangan milliy, o‘zimizgagina xos bo‘lgan demokratiyani izchil targ‘ib qilish xalqimizning eng yaxshi udum va an’analarini keng ommalashtirish, yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalashda mahallaning rolini o‘rganish, tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlarda mahallaning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma’lumotlar ko‘plab uchraydi. Masalan, mahalla» atamasi ilk bor o‘rta asr mualliflaridan biri Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida VIII asr boshlaridagi Buxoroning ichki kvartallarini belgilash uchun qo‘llanilgan [5,52]. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-Abror” asarida mahallani

“mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir deb ta’riflaydi. Shuningdek, bobomiz Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlatda ham temirchilar, qurolsozlar, tikuvchilar, charmdo‘zlar, kulollar, quruvchilar va boshqa hunarmandlar bir joyda mehnat qilib hayot kechirganlar. Bu masalada “Temur Tuzuklari”da yozilishicha, buyuk bobomiz Amir Temur o‘zi barpo etgan bepoyon va qudratli saltanatni boshqarishda mahalla mutasaddi shaxslariga tayangan. Ular bilan doimiy muloqot, mashvaratda va maslahatda bo‘lgan, kezi kelganda ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan va fikrlariga tayanib ish tutgan. Asarda, jumladan, shunday deyiladi: “Tajribamdan ma’lum bo‘ldiki, kengash ikki turli bo‘lur. Biri-til uchida aytilgani, ikkinchisi- yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa jon qulog‘im bilan eshitardim va dilimga joylardim”[6, 22].

Mustamlakachilar mahalliy boshqaruv idoralariga mas’ul shaxslar tanlanishida nihoyat xushyor ish tutib, basharti ilg‘or, taraqqiyparvar va millatparvar kishilar volost, hatto mahalla boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi, ellikboshi yoki qozi sifatida saylanib qolsa, ularni lavozimga tasdiqlamaslik uchun turli hiyla-nayranglar ishlatganlar. “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi nizom” deb atalgan hujjat esa ularga bu borada keng faoliyat maydonini yaratib bergan. Chorizmning ushbu ma’muriy siyosatidan asosiy maqsadi, o‘lkaning iqtisodiy jihatdan qonini so‘rish, ma’naviy-ruhiy maqsadi piravard natijada, O‘rta Osiyo xalqlarini ruslashtirish bo‘lgan. Rossiya imperiyasi o‘lkamizda o‘zbek davlatchiligining barcha ko‘rinishlarini tag-tugi bilan yo‘qotish va ruscha idora uslubini qat’iy joriy etish bo‘yicha izchil ish olib borganligini to‘la tasdiqlaydi. Lekin shunday sharoitda ham xalqimiz o‘z irodasi bilan tanilgan mahalla boshqaruvi sinovdan mardonavor o‘tgan. Samarqand, Toshkent, Andijon, Qo‘qon va boshqa yirik shaharlar dahalarga, ular esa o‘z navbatida mahallalarga bo‘linib, ularga oqsoqollar boshchilik qilgan.

XX asrning boshlaridayoq mahallalar daxa boshliqlari-mingboshilar saylaydigan yuzboshi (oqsoqollar) tomonidan boshqarilgan. Yuzboshi va uning yordamchilari mahalladagi barcha jamoat ishlari va marosimlarni boshqarganlar, shuningdek fuqarolarning shahar yig‘inlari va shahar muassasalarida mahalla manfaatlarini himoya qilganlar.

Mahallalarning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o‘tkazish, o‘z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta’minlash, barcha an’anaviy me’yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish, urf-odatlarga roya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo‘yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbariyati ariq-xovuzlarni tozalash, ko‘chalar, yo‘llar qurish va mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. Bu ishlarning barchasi aksariyat hollarda birgalikda hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan.

Afsuski, Sovet hukumati mahallaga o‘z umrini yashab bo‘lgan o‘tmish sarqiti sifatida qaradi. Shundan kelib chiqib, u an’anaviy milliy boshqaruvni bekor qilish yo‘li bilan bu yerda sanoatlashgan “ilg‘or” jamiyatni qaror toptirish siyosatini joriy etishga kirishdi. 20-yillar boshlaridan sovet hukumati mahallalar vazifasini cheklash, o‘ziga bo‘ysundirishga intildi, bu hol mahalla faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Biroq mahalla o‘zining yashovchanligini namoyon etib, an’anaviy hayot va aloqa tarziga qarshi har qanday xujumlarga va ularni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlarga dosh berdi. U ilgarigi urf-odat va rasm-rusumlarni saqlab qolishi vazifasini a’lo darajada amalga oshirdi.

O‘zbeklarning milliy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilmalariga qarshi chiqqan sovet hokimiyati mahalla bilan olishishda yon berishga majbur bo‘ldi. Bu kurashda ushbu totalitar tuzumning necha ming yillardan beri o‘zbek halqining an’anaviy yashash tarzi bo‘lgan mahallaga tishi o‘tmadi. 1932 yilda "O‘zbekiston shaharlaridagi mahalla qo‘mitalari to‘g‘risida Nizom" chiqdi. 1938 yilga kelib mahallaga hujum umuman to‘xtatildi. Ular yangi sosialistik tuzilmalar bilan birga mavjud bo‘lishi, bu tuzilmalarni to‘ldirishi kerak, degan tamoyil to‘liq e’tirof etildi. Biroq shunga qaramasdan, 1961 yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan chiqarilgan “Respublika shahar, qishloq, posyolkalaridagi va ovullardagi mahalla qo‘mitalari to‘g‘risidagi” nizomda ham Mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. “Mahalla qo‘mitalari biron-bir moliyaviy xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas” edi.

Bugun o‘zining mustaqil boshqaruv faoliyatiga ega bo‘lib borayotgan fuqarolar yig‘inlari

o‘zini o‘zi boshqarish organlari sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda juda muhim institut bo‘lib, mustaqillik yillarida ushbu institut faoliyatini yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Jumladan; ta’bir joiz bo‘lsa, “Yangi O‘zbekiston-yangi mahalla” iborasining paydo bo‘lganligini o‘zi ham bu sohada tub o‘zgarishlar yuz berganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 3 fevralda yangi tahrirda qabul qilingan PF-4944-son «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 27 iyundagi PF–5467–son “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 15 oktyabrda imzolangan “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonun, 2020 yil 18 fevraldagi PF–5938-sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-sonli “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab–quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish etish to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 fevraldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi 99-son qarori, 2021 yil18 iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VM-380-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-son Farmoni hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mahalla instituti faoliyatini yanada rivojlantirishga oid yangi bosqichni boshlab berdi. Shuningdek, Prezidentimizning kelgusida “Nuroniy” va “Mahalla” jamg‘armalarining xodimlar shtatlarini ko‘paytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimiz hayotida ularning o‘rni va mavqeini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘riladi”, deb ta’kidlagani muhim bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan; Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash Tuman (shaharlar) bo‘limlari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

-davlat organlari va tashkilotlaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

-davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning hududiy bo‘linmalari rahbarlari hamda mutaxassislarini jalb qilish, ishchi guruhlar tuzish;

-davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalari rahbarlariga mahalla, nuroniylar va keksalar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

-mahalla, nuroniylar va keksalar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ko‘zlab sudlarga ariza (shikoyat) va da’volarni kiritish;

-mahallalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda nuroniylar va keksalarga har tomonlama yordam ko‘rsatishga doir tashabbuslar bilan chiqish hamda takliflar kiritish;

mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash sohalarida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni davlat mukofotlariga taqdim etish uchun takliflar kiritish [7].

Xulosa

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini tadqiq etish, holisona baho berish bilan bog‘liq;

Respublikamizda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining demokratik mezonlarini, fuqarolik jamiyati qurilishida tutgan o‘rni va ahamiyatini keng o‘rganish, tadqiq qilish, bu sohada amalga oshirilgan ishlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq;

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali ularni o‘zini o‘zi boshqarish organlaridagi siyosiy faolligini oshirish;

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rnini va rolini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilgan xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Bu borada esa quyidagi ishlarni amalga oshirish orqali ushbu institut faoliyatini yanada faollashtirish kerak;

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolar yig‘inlarida faoliyat olib borayotgan mutasaddi rahbarlarning avvalo huquqiy va siyosiy bilimini oshirish;

Fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarining mahalliy hokimiyat organlari bilan teng huquqlilik asosida faoliyat olib borishlarining qonuniy asoslari ishlab chiqilganligini ularga tushintirib borish;

Fuqaro yig‘inlari mahallalarda o‘z vazifalarini olib borayotgan rais va maslahatchilari uchun yilda ikki marotaba seminar-trening tashkil qilinib, unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, Oliy ta’limning yetakchi professor – o‘qituvchilarini ham jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

[1]. Odilqoriyev X.T. Konstitusiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent. Sharq, 2002. B.50.

[2]. Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Xalq so‘zi. 1992. 2 sentyabr.

[3]. ¨Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 1999№5, 110-modda.

[4]. Latipov Ch. Kim qonunni buzmoqda… mahallami, Myuman Rays Votchmi // Xalq so‘zi. 2003. 1 oktyabr.

[5]. Abu Bakr Muxammad Ibn Ja’far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T., 1993. – B. 52.

[6]. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi. 2018 –B. 22.

[7]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash azirligi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.06.2022 yildagi 292-son Toshkent.

BARABANGA O‘RNATILGAN PLANKALARNING CHIGITNI QORISHTIRISH JARAYONIGA TA’SIRINI NAZARIY TAHLILI

J. Karimov, A. Akramov, M. Mo‘minov, J.I. Oripov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada urug‘lik chigitni dori suspenziyasi bilan dorilash jarayonida qorishtirish barabanining takomillashtirilgan konstruksiyasi nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Baraban ichki kamerasidagi qiya joylashgan plankalar ta’sirida tukli chigitlarning harakati differensial tenglamalar asosida tahlil qilingan. Hisoblash va grafik tahlillar natijasida urug‘lik chigitlarni uzluksiz uzatishni ta’minlaydigan qorishtirish barabanining optimal burchak tezligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *urug‘lik chigit, dorilash, qorishtirish barabani, planka, dori suspenziyasi, burchak tezligi, nazariy tahlil.*

Аннотация: *В статье теоретически исследуется усовершенствованная конструкция смесительного барабана при обработке семян суспензией лекарственных препаратов. На основе дифференциальных уравнений анализируется движение опушенных семян под воздействием наклонных пластин во внутренней камере барабана. В результате расчетов и графического анализа определена оптимальная угловая скорость смесительного барабана, обеспечивающая непрерывную подачу семян.*

Ключевые слова: *семена, обработка, смесительный барабан, пластина, суспензия лекарственного препарата, угловая скорость, теоретический анализ.*

Abstract: *The article theoretically studies the improved design of the mixing drum during the treatment of seeds with a suspension of drugs. The movement of hairy seeds under the influence of inclined plates in the inner chamber of the drum is analyzed based on differential equations. As a result of calculations and graphical analysis, the optimal angular velocity of the mixing drum is determined, which ensures continuous transfer of seeds.*

Keywords: *seed, treatment, mixing drum, plate, drug suspension, angular velocity, theoretical analysis.*

Nazariy qism

Paxta yetishtirish samaradorligini oshirishda urug‘lik chigitning sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u ekinning unuvchanligi, rivojlanish va hosildorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, urug‘lik chigitni ekishdan oldin kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlov berish jarayoni belgilangan me’yoriy va standart talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim [1].

Shu nuqtai nazardan, urug‘lik chigitni dorilash mashinalarining ish jarayonlarini nazariy jihatdan tadqiq etish, ularning asosiy konstruktiv va texnologik parametrlarini ilmiy asoslash hamda dorilash sifatini oshirishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi [2].

Ishlab chiqilgan yangi konstruksiyadagi urug‘lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabani ichki kamerasiga o‘rnatilgan plankalarni chigitni qorishtirish jarayoniga ta’sirini nazariy jixatdan ko‘rib chiqamiz. AB masofaga plankalar ta’sirida tukli chigitlarni uzatishdagi nazariy tahlili keltirilgan. Takomillashgan qorishtirish barabani yordamida tukli chigitlarni dori suspenziyasi bilan qorishtirishdagi harakati keltirilgan. Bunda qiya joylashgan plankalar ta’sirida tukli chigitlarni plankalar ta’sirida ilib olish nuqtasini A deb uzatish nuqtasini B deb tanlab olingan. Shu oraliq masofasini $A\breve{B} = \mathrm{S}$ qabul qilingan. Chigit oqim sarfini to‘g‘ri yo‘naltirishda plankaning og‘ish burchagini- α va qorishtirish baraban burchak tezligini- ω uzluksiz ta’minlash masalasi tahlil qilingan [3].

$S(t)$- AB masofa bo‘ylab tukli chigitlarni vaqt bo‘yicha uzatish oralig‘i, $\Pi'(t) = \frac{\mathrm{dS}}{\mathrm{dt}}$ - tezligi, ω -qorishtirish barabanining burchak tezligi.



1-tukli chigit, 2-planka, 3-qorishtirish barabani
1-rasm. Tukli chigitlarni qorishtirish barabanidagi harakat sxemasi

Aylanma harakatdagi tukli chigitlarni plankalar sirtidagi harakat differensial tenglamasini tuzamiz

$$mв€™\frac{d^2S}{dt^2} = mв€™П‰^2в€™Rв€™\cos Oё - mв€™gв€™\sin Oё \quad (1)$$

bu yerda R-baraban radiusi , Oё-qamrash burchagi , $Oё = П‰в€™t$

Shunday qilib (1) tenglamani hisoblaymiz

$$\frac{d^2S}{dt^2} = П‰^2в€™Rв€™\cos(П‰в€™t) - gв€™\sin(П‰в€™t)$$

$$П'(t) = \frac{dS}{dt} = \int_0^t (П‰^2в€™Rв€™\cos(П‰в€™t) - gв€™\sin(П‰в€™t))в€™dt$$

$$П'(t) = П‰в€™Rв€™\sin(П‰в€™t) - \frac{g}{П‰}в€™(1 - \cos(П‰в€™t)) \quad (2)$$

(2) tenglikdan vaqt bo‘yicha integrallab urug‘lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabanidagi plankalar sirti bo‘yicha harakat tenglamasi aniqlaymiz

(3)

$$S(t) = Rв‹…\ldots(1 - \cos(П‰в‹…\ldots t)) + \frac{g}{П‰}в‹…\ldots(t - \frac{\sin(П‰в‹…\ldots t)}{П‰}) \quad (4)$$

(4) tenglik plankalarda tukli chigitlarni uzatishdagi harakat tenglamasini ifodalaydi. Bu tenglikdan tukli chigitlarni qorishtirish barabanda plankalar ta’sirida uzatish $0 < Oё < ПЂ$ oraliqdagi harakatini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlillari keltirilgan. Hisoblashlarda quyidagi parametrlarning son qiymatlari tanlangan $R = 600\ mm;;\ g = 9{,}8\ m/s^2; П‰ = 8 - 12\ min^{-1}$



2-rasm. Tukli chigitlarni plankalar ta’sirida uzatish sxemasi.



3-rasm. Tukli chigitlarni plankalar bilan uzatishda qorishtirish barabanining burchak tezliklarini turli xil ω_1=8 min^{-1}, ω_2=10 min^{-1}, ω_3=12 min^{-1} qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi.

Tukli chigitlarni plankalar ta’sirida uzatishda masofasini $AB = S$ qabul qilingan va bu masofani quyidagicha aniqlaymiz.

$$S = R\text{в€™Oë} = 0{,}6\text{в€™}3{,}14 = 1{,}9\ \text{m}$$

AB masofasi 1,9 m ekanligini hisobga olgan holda tukli chigitlarni plankalar ta’sirida shu masofaga uzluksiz uzatishni ta’minlashda qorishtirish barabanining burchak tezligini plankaning qiyalik burchaklarini to‘g‘ri tanlash masalasi ko‘rilgan.

Xulosa

Yuqoridagi grafikdan shuni ta’kidlash mumkinki tukli chigitlarni planka ta’sirida uzatishda oraliq masofasi $S = 1{,}9\ \text{m}$ ekanligidan va bu masofaga bir tekisda uzluksiz ta’minlashda urug‘lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabanining burchak tezligini ω_2=10 min^{-1} qiymatida yetarli ekanini traektoriyalar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

[1]. O’zDSt 663:2017 Urug‘lik chigit. Texnikaviy shartlari davlat standarti.
[2]. Petrov S. Mechanics of Seed Treatment Machines – Moscow: AgroTech, 2018. – 210 p.
[3]. Kuznetsov V. Ximicheskaya obrabotka semyan xlopka – Sankt-Peterburg: AgroNauka, 2017. – 145 s.

KIYIM DIZAYNIDA MILLIY AN’ANA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARNI UYG‘UNLASHTIRISH MUAMMOLARI

X.Sh. Tursunova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kiyim dizaynida milliy an’analar va zamonaviy tendensiyalarni uyg‘unlashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Milliylikni ifodalovchi estetik belgilar, zamonaviy moda oqimlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning o‘zaro ta’siri yoritiladi. Shuningdek, dizaynerlik faoliyatida an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni birlashtirishdagi muammolar hamda ularning yechimlari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kiyim dizayni, milliy an’ana, zamonaviy moda, uyg‘unlashtirish, dizayn innovatsiyasi, estetik qadriyat.*

Аннотация. *В данной статье будут научно проанализированы вопросы гармонизации национальных традиций и современных тенденций в дизайне одежды. Освещаются эстетические признаки, представляющие национальность, особенности современных модных течений и их взаимодействие. Также предлагаются проблемы совмещения традиционных и инновационных подходов в дизайнерской деятельности, а также их решения.*

Ключевые слова: *дизайн одежды, национальные традиции, современная мода, гармонизация, инновации в дизайне, эстетическая ценность.*

Annotation. *This article will scientifically analyze the issues of harmonizing national traditions and modern trends in clothing design. Aesthetic signs that represent nationalism, the peculiarities of modern fashion flows, as well as their interaction are highlighted. Problems in combining traditional and innovative approaches in design activities as well as their solutions are also offered.Annotation. This article will scientifically analyze the issues of harmonizing national traditions and modern tree.*

Keywords: *clothing design, national tradition, modern fashion, harmonization, design innovation, aesthetic value.*

Globallashuv jarayoni milliy madaniyatlararo chegaralarni kengaytirib, turli millatlarning urf-odatlari va estetik qarashlarini o‘zaro aralashtirib yubormoqda. Shu sharoitda milliy kiyim madaniyatini asrab-avaylash va uni zamonaviy modaga moslashtirish masalasi o‘ta dolzarbdir. Kiyim dizayni nafaqat tashqi ko‘rinish, balki xalqning tarixiy xotirasi, mentaliteti va estetik qadriyatlarini ifodalovchi madaniy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy kiyimlarda xalqning yashash tarzi, iqlim sharoiti va tarixiy shakllangan badiiy qarashlar mujassamdir. O‘zbek milliy kiyimlarida atlas, adras, beqasam, shoyi kabi matolar, gul naqshlari, geometrik va o‘simliksimon ornamentlar asosiy estetik belgilar sifatida qaraladi.

Milliy kiyim elementlarini zamonaviy modada qo‘llash orqali dizaynerlar xalq san’ati an’analarini yangicha talqinda qayta jonlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, milliylik — dizaynerlik tafakkurining asosi bo‘lib, u madaniy o‘zlikni ifoda etuvchi vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

1-rasm. Ayollar kiyimoda milliylikni uyg’unlashtirilgan model eskizlari

Zamonaviy moda tendensiyalari va ularning xususiyatlari. XXI asr modasida quyidagi tendensiyalar yetakchilik qilmoqda:

Minimalizm – shakl va rangdagi soddalikni ifoda etadi;

Eko-moda – tabiiy, qayta ishlangan materiallardan foydalanish;

Texno-dizayn – 3D bosma, raqamli naqshlar va innovatsion to‘qimachilik texnologiyalarini joriy etish;

Street style – kundalik hayotga mos, erkin va individual ko‘rinishlarni yaratish.

Bu tendensiyalar milliy kiyim estetikasi bilan uyg‘unlashtirilganda, yangi avlod dizayn yo‘nalishlari vujudga keladi.

3. Uyg‘unlashtirishdagi asosiy muammolar.



2-rasm. Ayollar kiyimoda milliylikni uyg’unlashtirilgan model eskizlari

Milliy an’analar va zamonaviy tendensiyalarni uyg‘unlashtirish jarayonida bir qator ilmiy-amaliy muammolar mavjud:

Milliy ramzlarning yuzaki yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi milliylik mohiyatini yo‘qotadi;

- Global modaning kuchli ta’siri natijasida milliy uslubning “g‘arblashuvi”;
- Dizaynerlarning etnografik, tarixiy va madaniy bilimlar bilan yetarli darajada tanish emasligi;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi cheklangan imkoniyatlari.
- Uyg‘unlikni ta’minlash yo‘llari

Milliy va zamonaviy dizaynni uyg‘unlashtirish samarali bo‘lishi uchun quyidagi ilmiy asoslangan yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

1. Etnomadaniy tahlil – milliy kiyim elementlarini tarixiy manbalar asosida o‘rganish;
2. Innovatsion yondashuv – zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy shakl va naqshlarni qayta talqin etish;
3. Madaniy brending – milliylikni xalqaro miqyosda tanituvchi brendlar yaratish;
4. Ta’lim jarayonida integratsiya – dizayn yo‘nalishidagi oliy ta’limda milliy kiyim san’ati va zamonaviy moda nazariyasini uyg‘un o‘rgatish.

Badiiy loyihalashtirish (dizayn) jarayonining to‘g‘ri tashkil eti- lish natijasi bu uning texnologiya, tejamkorlik va estetikasi nuqtayi nazaridan optimal hal etilgan mahsulotidir. Mahsulotning in- son va jamiyat uchun badiiy loyihalashtirilishi to‘g‘ri bog‘langan, chunki jamiyat ma’lum xarakter va darajadagi mahsulotlarni ish- lab chiqarishga ijtimoiy buyurtma beradi. Ijtimoiy buyurtma jami-yat ma’naviy rivojlanish darajasiga bog‘liq, shuning uchun mamlaka- timiz aholisining estetik tarbiyasi shaxsning har tomonlama uyg‘un rivojlanishining ajralmas qismidir.

Estetik tarbiya inson atrofidagi butun buyumlar dunyosi go‘zallik va uyg‘unlikka to‘lib, xulq va kiyim madaniyati me’yorida bo‘l- gandagina eng yuqori kuchga ega bo‘ladi.

Kostumni tashkil etuvchi mahsulotni loyihalashtirish o‘z ichiga bir necha bosqichni oladi:

— mahsulot assortimentini aniqlash;
— ularning funksionalligi, estetik, texnik va boshqa talablar nuqtayi nazaridan bu mahsulotlarni tahlil qilishi;
— tanlangan mahsulot assortimenti rivojlanishi istiqbollarinianiqlash;
— rivojlanish istiqbolini hisobga olgan holda ushbu assorti- ment mahsulotlarini

ishlab chiqish: estetik konsepsiyasi (shakl kompozitsiyasi, material xarakteri, kolorit); texnik yechim (konstruktiv yechim, jihozlarni tanlash va tayyorlab chiqarish texnik davrini aniqlash).

Mahsulotning estetik kontseptsiyasini ishlab chiqish mahsulot kompozitsion tuzilishini izlashdan boshlanadi.

Kompozitsiya (lotincha com'ositio – tuzish, birlashish) – badiiy asar qismlarining ma'noli nisbati. Bu tushuncha amaliyotda bir necha ma'noda qo'llanadi. Kompozitsiya – bu xalq asarining o'zi (musiqali, abstrakt rassomchilik, bezakli amaliy san'atva hokazo), kompozitsiya – bu ham ijodiy faoliyat jarayoni bo'lib,uning natijasida asar yaratiladi.

Aniq bir kostum kompozitsiyasi haqida gapirganda biz kishi- ning kostumda badiiy-timsoliy ifodaliligini ta'minlovchi uning alohida hajmlari, detallari va elementlarining xarakteri, tashkil etilish xususiyatlarini ko'zda tutamiz.

Kishi timsoli ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlar o'zgarishi bilan o'zgaradi. Rassom bu o'zgarishlar tendensiyasini darhol sezib oladi va o'zsan'ati vositalari orqali «yangi» kishini aks ettiradi. Shu sababli kostum o'z davri, uning estetik va ijtimoiy qiymatlari aksidir.

Rassom ishi murakkab kechadi. G'oyalar va timsollar emotsional-intuitiv darajada tug'ilib qog'oz yoki maket materialida eskizlarda aks ettiriladi. Eskizlarni mantiqiy tahlili ulardan eng yaxshisini keyingi ishlanish uchun tanlab olish imkonini beradi.

Bu ish kompozitsiyaning turli vositalari bilan amalga oshiriladi: shakl va siluet xarakteriga ta'sir etuvchi shaklning plastik ishlanishi; ma'lum xususiyatlar va faktura materiallarini tanlash; shaklning kalorik tashkil etilishi; shaklning eng muhim uchast-kalarini ajratish.

Shunday qilib, maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat jarayonida ishlab chiqilgan shakl kompozitsiyasi bu faoliyat mahsulo- tidir va ma'lum xususiyatga ega bo'ladi. Kompozitsiya statik yoki dinamik bo'la oladi; elementlarning bir-biriga ma'lum bog'liqligi kompozitsion muvozanatga olib kelishi mumkin, umumiy tuzilishning qat'iy to'g'rilanishi va kostum elementlarini nozik ish-lab chiqilishi uning shaklining uyg'un yaxlitligiga olib keladi. Eskizda tasviriy vositalarning ifodaliligi uning emotsional qabul qilinishining asosiy shartidir.

Eskizni ifodalashning tasviriy vositalari – bu dog' chizig'i (rang yoki siyoh bilan, shtrix yoki faktura bilan qoplangan yuza). Yo'l, qanday materialda tasvirlanishiga qarab, turlicha bo'ladi: yengil yupqa gazlamadan tayyorlangan mahsulotni mayin pero chizig'i bilan; sinuvchan kapron gazlamada – «notekis» sinuvchan chi-ziq bilan; jun gazlamada yumshoq qalam orqali qalin chiziq bilan, tukli gazlamada esa nam qog'ozda chiziq yoki «quruq» tekis mo'yqalam bilan tasvirlash mumkin.

Faol tasviriy vositalarning kostumning qiziqarli o'ylanishi bilan qo'shilishi kishining kostumdagi ifodali timsolini yaratishga yordam beradi. Eskizning timsoliy ifodaliligini baho- lashda grafik til ifodaliligi va qog'oz kompozitsiyasi, kostum mazmundorligi va kishi xususiyatlari o'rtasida yuzaga kelgan organik bog'lanish ko'zda tutiladi. Eskiz badiiy-timsoliy ifodaliligiga kostum o'ylanishi mukammalligi va uning kishi timsoliga to'liq mos kelishini yuqori mahorat bilan bajarish orqali erishiladi.

Xulosa. Milliy an'analar va zamonaviy tendensiyalarni uyg'unlashtirish — nafaqat estetik, balki madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega jarayondir. Bu uyg'unlik milliy o'zlikni saqlab qolgan holda, global moda bozorida raqobatbardosh dizayn namunalari yaratishga imkon beradi. Dizaynerlar milliy qadriyatlarni innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib, o'zbek modasining xalqaro darajada tanilishiga xizmat qiladilar.

Adabiyotlar

[1]. S. Sh. Tashpulatov "eng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash,modellashtirish va badiiy bezash" O'quv qo'llanma, T-2013

[2]. To'qimachilik va moda dizayni nazariyasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar (TDIU, 2023).

[3]. MM Ulugboboyeva, X Sh Tursunova. Ways to solve problems in the production of knit wear. 2021

Annotatsiya*: Metall qotishmalarni eritish jarayoni metallurgiya sanoatining asosiy texnologik bosqichlaridan biri bo‘lib, u tayyor mahsulot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Erituvchi pechlar metallning kimyoviy tarkibi, harorati, tozaligi, energiya sarfi va ishlab chiqarish samaradorligini belgilab beradi. Ushbu maqolada sanoatda keng qo‘llaniladigan asosiy eritish pechlari - marten, induksion, elektr yoyi, konvertor va aralash tipdagi pechlarning konstruktiv tuzilishi, ishlash prinsipi, afzalliklari hamda qo‘llanish sohasi batafsil yoritiladi. Shuningdek, metall qotishmalarini optimal eritish uchun texnologik talablar, termodinamik jarayonlar va issiqlik uzatish mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Maqolada turli pechlar samaradorligini solishtiruvchi jadval, texnologik jarayon tasviri va ilmiy-texnik adabiyotlarga asoslangan xulosalar keltirildi.*

Kalit so‘zlar *: Metall qotishmalar, eritish pechlari, induksion pech, elektr yoyi pechi, marten pechi, konvertor, issiqlik almashinuvi, metallurgiya, eritish jarayoni, qotishma sifati, energiya samaradorligi, issiqlik balansi, refrakter materiallar, xavfsizlik, termodinamika, texnologik jarayon, po‘lat eritish, rangli metallar eritilishi, pech konstruksiyasi, texnik tahlil.*

Аннотация*: Процесс плавления металлических сплавов является одним из основных технологических этапов металлургической промышленности и напрямую влияет на качество готовой продукции. Плавильные печи определяют химический состав металла, температуру, чистоту, энергопотребление и производственную эффективность. В данной статье подробно рассмотрены конструктивные особенности, принцип работы, преимущества и области применения основных плавильных печей, широко используемых в промышленности, - мартеновских, индукционных, дуговых, конвертерных и смешанного типа печей. Кроме того, проанализированы технологические требования, термодинамические процессы и особенности теплообмена, необходимые для оптимального плавления металлических сплавов. В статье представлены сравнительная таблица эффективности различных печей, описание технологического процесса и выводы, основанные на научно-технической литературе.*

Ключевые слова*: Металлические сплавы, плавильные печи, индукционная печь, дуговая печь, мартеновская печь, конвертер, теплообмен, металлургия, процесс плавления, качество сплава, энергоэффективность, тепловой баланс, огнеупорные материалы, безопасность, термодинамика, технологический процесс, выплавка стали, плавление цветных металлов, конструкция печи, технический анализ.*

Annotation*: The melting of metal alloys is one of the key technological stages in the metallurgical industry and has a direct impact on the quality of the final product. Melting furnaces determine the chemical composition of the metal, its temperature, purity, energy consumption, and overall production efficiency. This article provides a detailed analysis of the structural design, operating principles, advantages, and application areas of the main industrial melting furnaces, including open-hearth, induction, electric arc, converter, and hybrid-type furnaces. The technological requirements, thermodynamic processes, and specific heat-transfer mechanisms essential for optimal alloy melting are also examined. The article includes a comparative table of furnace efficiency, a description of the technological process, and conclusions based on scientific and technical literature.*

Keywords*: Metal alloys, melting furnaces, induction furnace, electric arc furnace, open-hearth furnace, converter, heat transfer, metallurgy, melting process, alloy quality, energy efficiency, heat balance,*

refractory materials, safety, thermodynamics, technological process, steel melting, non-ferrous metal melting, furnace design, technical analysis.

Kirish

Metallurgiya sanoati butun dunyo bo‘yicha sanoatning asosiy lokomotivlaridan biri bo‘lib, mashinasozlik, qurilish, energetika, aviatsiya, transport va mudofaa sohalari metall mahsulotlari sifatiga bevosita bog‘liq. Metall qotishmalarni olish va qayta ishlash jarayonida eritish bosqichi eng mas’uliyatlilar qatoriga kiradi, chunki aynan pechdagi harorat, kimyoviy tarkibni boshqarish, qo‘shimchalar kiritish va eritmani bir xilda aralashtirish orqali metallning yakuniy ekspluatatsion ko‘rsatkichlari shakllanadi. Sanoatda foydalaniladigan erituvchi pechlar konstruktiv tuzilishi, energiya manbai, issiqlik uzatish mexanizmi va qo‘llanilish maqsadiga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi. Masalan, induksion pechlar energiya tejamkorligi bilan ajralib tursa, elektr yoyi pechlari yuqori harorat hosil qila olishi bilan mashhur. Konvertorlar esa po‘latni katta hajmda tez eritish uchun qulay. Ushbu maqolada metall qotishmalarni eritishda qo‘llaniladigan pechlarning asosiy turlari tizimli tarzda o‘rganilib, ularning texnologik imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Maqsad - metall eritish jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish.

Nazariy qism

Metall qotishmalarni eritish jarayoni issiqlik, massa almashinuvi, kimyoviy reaktsiyalar va fizik holat o‘zgarishlariga asoslangan murakkab texnologik tizimdir. Erituvchi pechlar ushbu jarayonlarni nazorat qilish va maqsadga muvofiq boshqarishga xizmat qiladi. Pech konstruksiyasining tanlanishi qotishmaning tarkibi, talab etilgan harorat, energiya resurslari, ishlab chiqarish quvvati va metallning sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi. Sanoatda quyidagi asosiy pech turlari keng qo‘llaniladi: marten pechi, induksion pech, elektr yoyi pechi, konvertor pechi, shaxta pechlari va tigel pechlari. Marten pechi Marten pechlari tarixan eng ko‘p qo‘llanilgan eritish agregatlaridan bo‘lib, ular bugungi kunda ham ayrim metallurgiya korxonalarida qo‘llanilmoqda. Pechning asosiy qismi yassi, uzun kamera bo‘lib, unda issiqlik regenerativ g‘ishtlar orqali qayta ishlatiladi. Ushbu pechlarda yoqilg‘i sifatida tabiiy gaz yoki mazut qo‘llanadi. Marten pechlarining asosiy afzalligi – eritilayotgan metalldagi zararli aralashmalarni kamaytirish va kimyoviy tarkibni aniq nazorat qilish imkoniyatidir. Pech ichida harorat 1700 °C gacha yetadi, bu po‘lat eritish uchun yetarli. Biroq energiya sarfi yuqori bo‘lgani sababli zamonaviy sharoitda ular kamroq qo‘llanilmoqda. Shunga qaramay, murakkab qotishmalar olishda marten pechining kimyoviy barqaror muhiti ba’zan ustun bo‘lishi mumkin. Elektr yoyi pechlari (EYP) Elektr yoyi pechlari bugungi metallurgiyaning asosiy qurollaridan biridir. Ushbu pechlarda grafit elektrodlar orasida elektr yoyi hosil qilinadi va bu yoydan ajraluvchi issiqlik metallni eritadi. Elektr yoyi pechlarga o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas tok berilishi mumkin. Ularning asosiy ustunligi - juda yuqori harorat (2000–3000 °C) olish imkoniyati va eritish jarayonini to‘liq avtomatlashtirishdir. EYPlarda shlak tarkibi va oksidlanish darajasi qat’iy boshqariladi, bu esa yuqori sifatli legirlangan po‘latlar, asbobsozlik po‘lati hamda maxsus xususiyatli qotishmalar ishlab chiqarish imkonini beradi. Issiqlik yo‘qotilishi minimal, chunki pech ichida issiqlik markazlashtirilgan. Elektr yoyi pechlarining yana bir muhim jihati - chiqindilarni qayta eritishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lishi. Induksion pechlar Induksion pechlar elektromagnit maydon yordamida metallni qizdirish prinsipiga asoslanadi. Pechning asosiy elementi induktor bo‘lib, u orqali yuqori chastotali tok o‘tkaziladi va paydo bo‘lgan elektromagnit maydon metallda girdobiy toklar hosil qiladi. Ushbu toklar issiqlik ajratadi va metall eritila boshlaydi. Induksion pechlarning asosiy afzalligi – juda toza metall olish, tarkibni aniq nazorat qilish, energiya tejamkorligi va jarayonning ekologik xavfsizligidir. Metall induksion usulda bir maromda aralashib turadi, bu esa qotishmaning bir xilligi va struktura izchilligini ta’minlaydi. Induksion pechlar rangli metallar, alyuminiy, mis qotishmalari hamda kichik hajmdagi yuqori sifatli po‘lat ishlab chiqarishda keng qo‘llanadi. Konvertor pechlari Konvertor – bu kislorod purkash orqali metallni eritish va tarkibini o‘zgartirishga mo‘ljallangan pechdir. Konvertorlarda suyuq cho‘yan asosiy xomashyo bo‘lib, unga yuqori bosimda kislorod yuboriladi va karbon bilan bog‘lanib, yuqori harorat ajraladi. Ushbu ekzotermik reaktsiya konvertor

pechlarining yoqilg‘i talab qilmasdan ishlashini ta’minlaydi. Konvertorlar yuqori unumdorligi sababli yirik metallurgiya kombinatlarida asosiy eritish agregati sifatida qo‘llanadi. Po‘latning texnik xususiyatlarini barqaror saqlash uchun shlak tarkibi, kislorod miqdori va harorat aniq nazorat qilinadi. Tigel pechlari Tigel pechlari asosan kichik hajmdagi eritmalar uchun mo‘ljallangan. Ularning konstruksiyasi oddiy, ekspluatatsiya xarajatlari past bo‘lib, kichik sexlarda, laboratoriyalarda, ta’mirlash korxonalarida, rangli metallarni eritishda keng foydalaniladi. Tigel pechlari elektr, gaz yoki suyuq yoqilg‘ida ishlashi mumkin. Shaxta pechlari Shaxta pechlarida issiqlik yuqoridan pastga qarab o‘tadi va xomashyo qatlam bo‘ylab harakat qiladi. Bu pechlar ko‘proq cho‘yan, mis, qo‘rg‘oshin kabi metallarni eritishda qo‘llanadi. Shaxta pechlarining issiqlik samaradorligi yuqori, chunki issiqlik oqimi maksimal darajada qayta ishlatiladi.

1- jadval

Pech turi	Harorat darajasi	Energiyaviy samaradorlik	Metall tozaligi	Asosiy qo‘llanish sohasi
Induksion	1600–1800 °C	Juda yuqori	Juda yuqori	Rangli metallar, yuqori sifatli po‘lat
Elektr yoyi	2000–3000 °C	Yuqori	Yuqori	Legirlangan po‘lat, maxsus qotishmalar
Marten	1500–1700 °C	Past	O‘rtacha	Umumiy po‘lat turlari
Konvertor	1600–1700 °C	Juda yuqori	O‘rtacha	Katta hajmli po‘lat ishlab chiqarish

Jadvaldan ko‘rinadiki, zamonaviy ishlab chiqarishda energiya tejamkorligi va metall sifati eng muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli elektr yoyi va induksion pechlar hozirgi vaqtda eng samarali hisoblanadi.

Xulosa

Metall qotishmalarni eritish sanoatning eng mas’uliyatli va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, pech tanlovining to‘g‘riligiga yakuniy metall sifatining katta qismi bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir pech turi o‘zining konstruktiv xususiyatlari, energiya sarfi, harorat diapazoni va qo‘llanish sohasi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Marten pechlari tarixan katta ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitda ularning o‘rnini elektr yoyi va induksion pechlar egallamoqda. Elektr yoyi pechlari yuqori harorat, avtomatlashtirilgan boshqaruv va legirlangan po‘latlarni yuqori sifatda olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Induksion pechlar esa ekologik xavfsizligi, energiya tejamkorligi va metall tarkibini aniq saqlab qolishi tufayli eng ideal variantlardan biri hisoblanadi. Konvertor pechlari esa yirik ishlab chiqarish quvvatlari uchun ajralmas agregatdir. Jadvalda keltirilgan texnik taqqoslashlar pechlarni maqsadga muvofiq tanlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, metall qotishmalarini erituvchi pechlarni tanlashda texnologik talablar, ishlab chiqarish miqyosi, metallning tayyorlanish sifati va energiya resurslari hisobga olinishi zarur. Zamonaviy uskunalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali metallurgiya jarayonlarining samaradorligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Adabiyotlar

[1]. Qodirov A. Po‘lat ishlab chiqarish texnologiyasi. Toshkent: Fan, 2020.
[2]. Smith J. Modern Steelmaking Processes. London: Springer, 2017.
[3]. Davis R. Babichev I. Metallurgiya asoslari. Moskva: Metallurgiya, 2018.
[4]. Metallurgical Furnaces. Oxford: Elsevier, 2019.
[5]. Shukurov M. Eritish pechlari konstruksiyasi. Toshkent, 2021.
[6]. Brown T. Industrial Furnace Engineering. New York, 2018.
[7]. O‘rozboev D. Metall qotishmalari kimyosi. Samarqand, 2019.
[8]. Patel V. Electromagnetic Heating in Metallurgy. Springer, 2020.
[9]. Johnson K. Electric Arc Furnace Operations. Wiley, 2016.
[10]. Zokirov E. Po‘lat eritish texnologiyasi. Toshkent, 2022.
[11]. Larsen P. Furnace Efficiency Analysis. Berlin, 2017.

[12]. Kimura S. Induction Furnace Metallurgy. Tokyo, 2018.
[13]. Xu L. Converter Steelmaking Fundamentals. Beijing, 2020.
[14]. Anderson G. Heat Transfer in Metallurgical Processes. CRC Press, 2015.
[15]. Aliyev R. Rangli metallar texnologiyasi. Boku, 2019.
[16]. Tursunov Sh. Sanoat issiqlik jarayonlari. Toshkent, 2020.
[17]. Williams P. Advanced Metallurgy. Cambridge, 2018.
[18]. Qosimov B. Metall va qotishmalar fizikasi. Toshkent, 2021.
[19]. Petrova N. Steelmaking Furnaces. Moscow, 2016.
[20]. Faryabi S. Modern Converter Technologies. Dubai, 2022.

TO‘QIMACHILIKDA ISHLATILADIGAN ARALASH TOLALARNING FIZIK VA MEXANIK XUSUSIYATLARI

M.M. Raxmonova, M.Z. Turg‘unov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoatida keng qo‘llaniladigan aralash tolalarning fizik va mexanik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tolalarning zichligi, mustahkamligi, elastikligi kabi ko‘rsatkichlari va ularning turli kombinatsiyalarda qanday o‘zgarishi o‘rganiladi. Mazkur tadqiqot natijalari to‘qimachilik mahsulotlarini sifatli va uzoq muddatli ishlab chiqarishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *To‘qimachilik, aralash tolalar, fizik xususiyatlar, mexanik xususiyatlar, zichlik, mustahkamlik, elastiklik.*

Annotation: *This article analyzes the physical and mechanical properties of blended fibers widely used in the textile industry. The study examines properties such as density, strength, and elasticity of the fibers and how they vary in different combinations. The findings have practical significance in producing high-quality and durable textile products.*

Keywords: *Textiles, blended fibers, physical properties, mechanical properties, density, strength, elasticity.*

Аннотация: *В данной статье анализируются физические и механические свойства смешанных волокон, широко используемых в текстильной промышленности. Исследуются такие характеристики, как плотность, прочность и эластичность, а также их изменения в разных комбинациях. Результаты имеют практическое значение для производства качественных и долговечных текстильных изделий.*

Ключевые слова: *Текстиль, смешанные волокна, физические свойства, механические свойства, плотность, прочность, эластичность.*

Kirish

To‘qimachilik sanoati zamonaviy texnologiyalar va materiallardan foydalanish orqali sifatni oshirishga intilmoqda. Aralash tolalar ana shunday innovatsion yechimlardan biridir. Bugungi kunda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xomashyoni qayta ishlash takomillashtirilgan yuqorisamarador texnologiyalarni yaratish, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bular xomashyo sifati, o‘rama parametrlari va texnologik jarayonni optimallashtirishga bog‘liq. Bunday tolalar turli materiallarning afzalliklarini birlashtirib, mustahkamlik, elastiklik, yengillik kabi xususiyatlarni ta’minlaydi. Ushbu maqolada aralash tolalarning fizik va mexanik xususiyatlari batafsil ko‘rib chiqiladi hamda ular asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifati qanday ta’minlanishi muhokama qilinadi. Bundan tashqari, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida aralash tolalarning qo‘llanilishining iqtisodiy samaradorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tabiiy va sintetik materiallarning uyg‘unligi mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlash muddatini uzaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Qayta ishlangan tolalardan foydalanish nafaqat xomashyo tejamkorligini oshiradi, balki atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Shu bois aralash tolalarning tarkibi, ishlab chiqarish texnologiyalari va ularning turli sanoat sohalarida qo‘llanilishining ilmiy jihatdan asoslangan tahlili hozirgi kunda dolzarb

hisoblanadi.

Asosiy qism

Aralash tolalarning fizik xususiyatlari ularning tarkibi va qo‘llanilayotgan materiallar kombinatsiyasiga bog‘liq. Quyida asosiy fizik xususiyatlar tahlil qilingan:

1. Zichlik: Aralash tolalar tarkibida sintetik va tabiiy materiallarning uyg‘unligi sababli zichlik sezilarli darajada farqlanadi. Masalan: poliesterni paxta bilan aralashtirish zichlikni pasaytirib, yengil va qulay materialni yaratadi.
2. Gigroskopiklik: Tabiiy tolalar yuqori gigroskopiklikka ega bo‘lib, namlikni yaxshi so‘radi. Sintetik tolalar esa past gigroskopiklikka ega. Aralash tolalar ushbu ikki xususiyatni muvozanatlashtiradi, bu esa ularning amaliy qo‘llanilishini kengaytiradi.
3. Termal barqarorlik: Tabiiy materiallar issiqlikka kamroq chidamli bo‘lsa, sintetik tolalar yuqori haroratga bardosh bera oladi. Ularning kombinatsiyasi harorat ta’sirida materiallarning o‘z xususiyatlarini yo‘qotmasligini ta’minlaydi.
4. Yengillik: Sintetik tolalarning qo‘shilishi materialni yengil qiladi, bu esa to‘qimachilik mahsulotlarini qulayroq va estetik jozibador qiladi.

1-jadvalda bir qancha tolalarni aralashtirgandagi fizik xususiyatlari keltirilgan

1-jadval

Aralash tola	Zichlik	Gigroskopiklik	Termal barqarorlik	Yengillik
Paxta + Polyester	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yengil
Jun + Akril	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yengil
Viskoza + Polyester	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	Yengil
Linas + Elastan	O‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha	Juda yengil
Ipak + Poliamid	Past	O‘rtacha	Yuqori	Juda yengil

Aralash tolalarning mexanik xususiyatlar aralash tolalarning chidamliligi va ishlash davomiyligini aniqlaydi:

1. Mustahkamlik: Sintetik tolalar tabiiy tolalarga nisbatan yuqori mustahkamlikka ega. Ularning aralashmasi tolalarning uzilishga qarshiligini oshiradi.
2. Elastiklik: Elastan yoki lycra kabi tolalarning qo‘shilishi materialning cho‘ziluvchanligini oshiradi, bu esa kiyim-kechak mahsulotlarini qulayroq qiladi.
3. Chidamlilik: Aralash tolalardan tayyorlangan materiallar kiyish va yuvish davomida shaklini va rangini yaxshi saqlaydi.
4. Bardoshlik: Turli mexanik ta’sirlarga, jumladan, ishqalanishga nisbatan yuqori qarshilik ko‘rsatadi, bu ularning umrini uzaytiradi.

2-jadvalda bir qancha tolalarni aralashtirgandagi mexanik xususiyatlari keltirilgan

2-jadval

Aralash tola	**Mustahkamlik**	**Elastiklik**	**Chidamlilik**	**Bardoshlik**	**Cho‘ziluvchanlik**
Paxta + Polyester	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha
Jun + Akril	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha
Viskoza + Polyester	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha
Linas + Elastan	O‘rtacha	Juda yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori
Ipak + Poliamid	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Polyester + Elastan	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
Naylon + Spandeks	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
Poliester + Poliamid	Juda yuqori	O‘rtacha	Juda yuqori	Juda yuqori	O‘rtacha
Akril + Poliester	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha

Aralash tolalar bugungi kunda nafaqat kiyim-kechak sanoatida, balki turli sohalarda ham katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Ularning mustahkamligi, qulayligi va bardoshliligi tufayli quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi:

• **Sport va kundalik kiyimlar** – Aralash tolalardan tayyorlangan kiyimlar yengil, qulay va nafis ko‘rinishga ega bo‘ladi. Masalan, paxta va polyester aralashmasi nafas oluvchi, lekin tez quriydigan kiyimlar yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, sport kiyimlarida bu juda muhim, chunki bunday matolar namlikni tez chiqarib, terining quruq qolishini ta’minlaydi.

• **Ish kiyimlari va maxsus formalar** – Qurilish, tibbiyot, harbiy va boshqa sohalarda kiyim bardoshli va qulay bo‘lishi kerak. Aralash tolalar bu talablarni qondirish uchun ideal yechim bo‘lib, matoga cho‘ziluvchanlik, issiqlik izolyatsiyasi yoki olovga chidamlilik kabi qo‘shimcha xususiyatlar berishi mumkin.

• **Uy-ro‘zg‘or buyumlari** – Parda, gilam, matras g‘iloflari va yostiq jildlari aralash tolalardan tayyorlanadi, chunki bunday materiallar uzoq xizmat qiladi, yuvishga chidamli va chiroyli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Misol uchun, tabiiy va sun’iy tolalar aralashmasi pardalarning burushmasligi va yorug‘likka chidamli bo‘lishini ta’minlaydi.

• **Texnik va sanoat matolari** – Aviatsiya, avtomobilsozlik, qurilish va hatto harbiy sohalarda maxsus matolar talab etiladi. Masalan, uglerod tolasi bilan mustahkamlangan aralash tolalar juda yengil, lekin bir vaqtning o‘zida mustahkam bo‘lib, samolyot qismlari yoki zirhli jiletlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

• **Ekologik va aqlli matolar** – So‘nggi yillarda qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan aralash tolalar tobora ommalashib bormoqda. Bunday matolar atrof-muhitga kamroq zarar yetkazib, uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ba’zi aralash tolalar biometrik sensorlar yoki issiqlikni tartibga soluvchi xususiyatlarga ega bo‘lib, texnologiya bilan integratsiyalashgan kiyimlarda ishlatiladi.

Xulosa

Aralash tolalar to‘qimachilik sanoatining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tolalar tabiiy va sintetik materiallarning afzalliklarini birlashtirib, yangi, yuqori sifatli materiallarni yaratishga imkon beradi. Tadqiqotlar natijasida, aralash tolalarning fizik va mexanik xususiyatlari, jumladan, zichlik, mustahkamlik, elastiklik, gigroskopiklik, va termal barqarorlik kabi omillar, ularning keng qo‘llanilishiga turtki bo‘ladi. Aralash tolalarning fizik xususiyatlari, masalan, zichlik va yengillik, mahsulotlarning qulayligi va estetikasini oshiradi, shu bilan birga, ular texnologik jarayonlarda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Aralash tolalar o‘zlarining mexanik xususiyatlari bilan ham juda muhim, chunki ular materialning mustahkamligini, elastikligini va chidamliligini ta’minlaydi. Bu esa, kiyim-kechak mahsulotlarining uzoq muddat xizmat qilishini, himoya qilish xususiyatlarini va foydalanuvchiga qulaylik yaratishini ta’minlaydi. Aralash tolalarni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar ham juda muhim rol o‘ynaydi. Texnologiyalarni takomillashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali, xomashyo resurslari tejamkorroq ishlatiladi, shu bilan birga, ekologik xavfsizlikka ham hissa qo‘shiladi. Aralash tolalardan foydalanish nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini samarali qilish, balki atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish imkonini beradi. Buning uchun qayta ishlangan materiallardan foydalanish, tabiiy resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta’minlash juda muhimdir. Aralash tolalar, shuningdek, sanoat va ekologik talablarni qondirishda katta imkoniyatlarga ega. Masalan, ekologik toza va aqlli matolar ishlab chiqish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va uzoq muddat xizmat qiladigan mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Bu, albatta, to‘qimachilik sanoatining kelajagi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda aralash tolalarning yangi kombinatsiyalarini va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini izlash davom etadi. Tadqiqotchilar yangi materiallar yaratish, ularni yanada yuqori sifatli va ekologik jihatdan xavfsiz qilish yo‘lida izlanishlar olib boradilar.

Adabiyotlar

[1]. Smith, J., & Brown, T. (2020). Textile Fiber Blends: Properties and Applications. Textile Science Journal.

[2]. Валиев Г.Н. Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на её основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика её определения Изв. вузов. Технология текстильной ромышленности.

[3]. Ivanov, A. (2019). Mechanical Characteristics of Blended Fibers. Moscow: Textile Innovations.
[4]. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Способ определения технологичности нитенатяжных приборов текстильных машин // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2018)
[5]. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Исследование влияния скорости снования на форму баллона нити натурального шёлка // Международная научная конференция посвященная 110-летию со дня рождения профессора А.Г.Севостьянова: сборник научных трудов международной научной конференции посвященной 110-летию со дня рождения профессора А.Г.Севостьянова (Москва, 10 марта 2020 г.). Часть 2. – М.: РГУ им. Косыгина, 2020. – 302 с., с. 195-199.
[6]. O‘zbek To‘qimachilik Instituti materiallari. (2023).
[7]. Валиев Г. Н., Орипов Ж. И., Валиев Н. Г., М. Турдиев М., Хомидов В.О. Технология снижения дефектности намотки шелковых нитей на крутильных машинах // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2021)
[8]. ASTM International. (2021). Standard Test Methods for Fiber Properties.

GAZLAMALARNING NAQSHLI ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI TAHLIL QILISH

B.B. Nizamova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
E-mail: b.nizamova.ferpi.uz
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Naqshli press to'quv elementlaridan foydalangan holda matolarning jarayon parametrlarini o'rganish. Ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, trikotaj buyumlarining sirt zichligini o'lchanadigan diapazonda kamaytirish xom ashyo sarfini kamaytirishga olib keladi, bu esa uning mustahkamlik xususiyatlariga ham salbiy ta'sir qiladi.*
Kalit so'zlar: *zichlik, trikotaj buyumlar, to'qish, press, mato, material sarfi, xom ashyo, naqsh.*
Аннотация: *Исследование параметров процесса обработки тканей с использованием узорчатых прессованных элементов ткачества. Исследования многих ученых и специалистов показали, что снижение поверхностной плотности трикотажных изделий в измеримом диапазоне приводит к уменьшению расхода сырья, что также негативно сказывается на их прочностных свойствах.*
Ключевые слова*: плотность, трикотажные изделия, ткачество, прессование, ткань, расход материала, сырье, узор.*
Abstract: *Study of process parameters of fabrics using patterned press weaving elements. Studies by many scientists and specialists have shown that reducing the surface density of knitted products within a measurable range leads to a decrease in raw material consumption, which also negatively affects its strength properties.*
Keywords: *density, knitted products, weaving, press, fabric, material consumption, raw materials, pattern.*

To‘qimachilik sanoatida trikotaj mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizayn va texnologiyaning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa jakkard naqshli trikotaj gazlamalar yuqori estetik ko‘rinish, murakkab struktura va yaxshilangan ekspluatatsion xususiyatlari bilan ajralib turadi. Naqshli elementlar gazlamaning tashqi ko‘rinishini boyitish bilan birga, uning texnologik parametrlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli jakkard naqshli trikotaj gazlamalarning texnologik ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Zamonaviy trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi iste'molchilar talabini qondirish bilan birga matolarning sirt zichligini kamaytirish orqali mahsulot birligiga material sarfini kamaytirishga bog'liq. Asosiy jarayon parametrlarini, shuningdek, presslangan trikotaj mahsulotlarining fizik va mexanik xususiyatlarini aniqlash uchun to'rtta namuna ishlab chiqildi. Preslangan trikotaj mahsulotlarining jarayon parametrlari aniqlandi va natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilib, trikotaj mahsulotlarining sirt zichligini o'lchanadigan diapazonda kamaytirish xom ashyo sarfini kamaytirishga olib kelishi, bu esa uning mustahkamlik xususiyatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi, chunki trikotaj matolarning mustahkamligining mutlaq qiymati ancha yuqori va foydalanish paytida materiallar va mahsulotlar sinish kuchining 10% dan oshmaydigan yuklarga duchor bo'lishi ta'kidlandi.

Trikotaj buyumlarning yengil tuzilishi mezoni sifatida "yupqa zichlik" tanlanganda, "yengillik" tushunchasi kengayishga moyil bo'ladi. Bu holda, "material zichligi pasaygan matolar" toifasiga "asosiy" matolarga qaraganda ancha qalinroq bo'lgan "bo'shashgan tuzilishga ega matolar" kiradi. Material zichligi pasaygan matolar bir xil iplardan optimal halqa moduli bilan ishlab chiqarilgan, asosiy matolarga qaraganda zichligi pastroq bo'lgan matolar sifatida belgilanadi.

Material sarfi mezoni an'anaviy ravishda matoning sirt zichligi hisoblanadi. Ma'lumki, trikotaj buyumlarining sirt zichligining pasayishi uning ishlash va gigienik xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun, matoning material sarfini ham, sifatini ham bir vaqtning o'zida tavsiflovchi indikator joriy etildi. Bu indikator trikotaj buyumlarining yengillik indeksi bo'lib, u nafaqat sirt zichligini, balki uning qalinligini ham hisobga oladi.

1-jadval.

Trikotaj mahsulotlarining jarayon parametrlarining qiymatlari

№	Chiziqli ip zichligi, tekst	Halqa qadami, A (mm)	Halqa qatorining balandligi, B (mm)	Gorizontal zichlik, Pg	Vertikal zichlik, Pv	Halqadagi ip uzunligi, L1 (mm)	Trikotaj buyumlarning sirt zichligi, MS, g/m2	Qalinligi, M (mm)	Ommaviy zichlik, 5 (mg/sm3)
0	ПАН 32/2	1	0,8	50	40	5	360,6	1,35	267
1		0,9/1	0,8	54/52	45	5,2/5	351,5	1,4	251
2		0,9/1	0,8	54/52	45	5,2/5	357,2	1,4	255
3		1/1	0,9	52/52	40	5,3/5	364,3	1,42	256,5
4		1/1	0,9	52/52	40	5,3/5	371	1,44	257

Ommaviy zichlik trikotaj buyumlari tuzilishining yengilligi ko'rsatkichi sifatida ishlatilishi mumkin:
$\delta = mтр/M$,
bu yerda δ - trikotaj matoning hajm zichligi, mg/sm³;
mtr - trikotaj matoning sirt zichligi, g/m²;
M - trikotaj matoning qalinligi, mm.
Ishlab chiqarilgan asosiy press to'qimasining sirt zichligi 360,6 g/m², birinchi variant uchun 351,5 g/m², ikkinchi variant uchun 357,2 g/m², uchinchi variant uchun 364,3 g/m² va to'rtinchi variant uchun 371 g/m² .

Asosiy variantni hisobga olmaganda, yangi ishlab chiqilgan variantlar orasida 4-variant eng yuqori sirt zichligiga ega bo'lib, 371 g/m² ni, 1-variant esa eng past sirt zichligiga ega bo'lib, 351,5 g/m² ni tashkil qiladi. Sirt zichligi variantlar bo'yicha ma'lum bir naqshga muvofiq o'zgaradi va 5,3% ga oshadi. Sirt zichligi o'zgarishlarining gistogrammasi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Agar chiqqan foizlarni taqqoslasak, 4-variantning sirt zichligi 1-variantga nisbatan 5,3% ga, 2-variantga nisbatan 3,8% ga va 3-variantga nisbatan 1,9% ga oshadi. Yuqoridagilarga asoslanib, biz to'qish tuzilishi yuqoridagi barcha o'zgarishlarga ta'sir qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Qovurg'a to'qish tuzilishi naqshli trikotaj buyumlarining elementlarini o'z ichiga olganligi sababli, bu holda ularning soni variantlarda o'zgarib turadigan press qoralamalari, ishlab chiqarilgan namunalarda sirt zichligining o'zgarishi kuzatiladi. Qalinlikni aniqlashda asosiy variant 1,35 mm deb aniqlandi, birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi variantlar mos ravishda 1,4 mm, 1,4 mm,

1,42 mm va 1,44 mm edi, ya'ni variantlar bo'yicha trikotaj qalinligining qiymati ham o'sish tartibida o'zgaradi.



1-rasm. Sirt zichligidagi o'zgarishlarning gistogrammasi.

Chop etish sonining o'zgarishi trikotaj qalinligining o'zgarishiga olib keladi. Ishlab chiqarilgan press to'qishning asosiy variantining hajm zichligi ko'rsatkichining qiymati mos ravishda 267 mg/sm3 ni, birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi variantlar - 251 mg/sm3, 255 mg/sm3, 56,5 mg/sm3 va 257 mg/sm3 ni tashkil qiladi. Variantlar bo'yicha hajm zichligi ma'lum bir naqshga muvofiq, ya'ni 2,4% ichida bosqichma-bosqich o'zgaradi. Agar foizda taqqoslansa, to'rtinchi variantning massa zichligi birinchisiga nisbatan 2,4% ga, ikkinchisiga nisbatan 0,8% ga va uchinchisiga nisbatan 0,2% ga oshadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarilgan namunalarning massa zichligi ortib borayotgan naqshda o'zgaradi, ammo barcha yangi variantlarda massa zichligi asosiy to'quvdan pastroqdir. Bu shuni anglatadiki, massa zichligi qanchalik past bo'lsa, xom ashyo sarfi shunchalik kam bo'ladi. Shu sababli, naqshli elementni - presslangan naqshni trikotaj tuzilishiga kiritish xom ashyo sarfini kamaytiradi va shu bilan birga trikotaj ko'rinishini yaxshilaydi.

Xulosa. Gazlamalarning naqshli elementlari ularning texnologik parametrlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ip zichligi, qalinlik, massa, mexanik mustahkamlik va pardozlash jarayonlari naqsh turiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun zamonaviy to‘qimachilik ishlab chiqarishida naqshli elementlarni loyihalashda nafaqat estetik, balki texnologik talablarni ham kompleks ravishda hisobga olish muhimdir.

Adabiyotlar

[1]. Низамова, Б. Б, Маматкулова, С. Р. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.
[2]. Турдиев, М. (2020). Новая технология подготовки нитей основы к ткачеству при выработке тканей крепдешин New technology of preparing of basis threads
[3]. Улугбобоева, М. М., Турсунова, Х. С.(2021). Ways to solve problems in the production of knitwear. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 29-33.
[4]. Nizamova ,B.B, Karimova, X.D. (2022). The features of pattern formation on flat knitting machines. International Journal of Advance Scientific Research 1-11.

621.793:669.26:620.17

XROM ASOSLI KOMPOZITSION QOPLAMANING FIZIKA-MEXANIKAVIY XOSSALARINI O‘RGANISH

[1]Z.B. Oripov, [1]A.A. Normurodov, [1]A.N. Ruzibayev, [2]N.G‘. Obidov

[1]Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
[2]Farg‘ona davlat texnika unversiteti
obidovnuriddin202@gmail.com
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada dunyo miqyosida mashinasozlik sanoatida ishlatiladigan plunjur juftlarini ishlab chiqarish holati tahlili keltirilgan. Xromli qoplama kristalli strukturasining nuqsonlarini o‘rganish, rentgen chizig‘ining fizik kengligini qayd etish bilan amalga oshirildi, bu asosan, kristall strukturasi nuqsonlarining integral xarakteristikasiga va dislokatsiyalar zichligiga nisbatan qiyosiy ko‘rsatkichlari berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xromli qoplama, elektroliz, dispers zarracha, qoplama, sof xrom qoplama, aluminiy oksidi, zarrachalar*

Аннотация: *В данной статье приводится анализ состояния производства плунжерных пар используемых в машиностроении в мировом масштабе. Изучение деформации хромированного покрытия кристаллической структуры, проводили путем регистрации физической ширины рентгеновской линии, которая в основном дается сравнительными показателями интегральных характеристик дефектов кристаллической структуры и плотности дислокаций.*

Ключевые слова: *хромирование, электролиз, дисперсная частица, покрытие, чистое хромирование, оксид алюминия, частицы.*

Annotation: *The article provides an analysis of the state of production of plunger pairs used in the machine building industry worldwide. The study of the deformation of the chromium coating of the crystal structure was carried out by recording the physical width of the X-ray line, which is mainly given by comparative indicators of the integral characteristics of defects in the crystal structure and the density of dislocations.*

Key words: *chrome plating, electrolysis, dispersed particle, coating, pure chrome plating, aluminum oxide, particles.*

Bugungi kunda sanoatda yuza qoplamalari materiallarni korroziyadan himoyalash, yeyilishga chidamlilikni oshirish hamda ularning umumiy ishlash quvvatini yaxshilash maqsadida keng qo‘llanilmoqda. Xrom asosli kompozitsion qoplamalar ushbu sohadagi eng samarali va keng tarqalgan materiallardan biri hisoblanadi. Ularning fizika-mexanikaviy xossalari esa mahsulotlarning ishlab chiqish sifatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu borada dunyoning yetakchi mamlakatlarida, jumladan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi avtomobil texnikasini ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlarda ko‘p yelanadigan mashina detallari va uzellarini tiklash va mustahkamlash usullarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyoda yeyilishga chidamli strukturali qoplamalarni olish va shakllantirish borasida keng ko‘lamda ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mashinasozlik, aviatsiya, energetika va boshqa sanoat tarmoqlarida detallarning ishlash muddati va ishonchliligi doimiy ravishda yuqori talablarga mos kelishi zarur. Shu bois, detallarning poverxnyasini yeyilishdan himoya qiladigan hamda ularning mexanik xossalarini yaxshilaydigan yangi turdagi qoplamalarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda avtomobilsozlik va mashinasozlik sohasidagi mashina detallari sifatini oshirish, texnikaning ishlash resursini sezilarli darajada oshirishga imkon beradigan yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida prinsipial jihatdan yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarish masalalari qo‘yilgan. Yangi texnologiyalarni yaratishda, plunjer juftlarning ishlash resursini oshirishga va ehtiyot qismlar zaruratini kamaytirishga imkon beradigan, avtotraktor dizellari yoqilg‘i apparatlari detallarini tiklash va mustahkamlash bo‘yicha minitexnologiyalar ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi.

Xromli qoplama kristalli strukturasining nuqsonliligini o‘rganish rentgen chizig‘ining fizik kengligini qayd etish bilan amalga oshirildi, bu asosan, kristall strukturasi nuqsonlarining integral xarakteristikasiga - dislokatsiyalar zichligiga tasir qiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, aluminiy oksidi mikrozarrachalarining kiritilishi mikroqattiqlikning oshishiga olib keladi va mikroqattiqlikning oshishi xrom qoplash rejimlariga bog‘liq, aslida xrom qoplash rejimlari xrom qoplama tarkibidagi aluminiy oksidi mikrozarralari miqdoriga tasir ko‘rsatadi. Qoplama maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan mikrozarrachalar sonini aniqlash ancha qiyin vazifadir. Biroq kristall strukturasining nuqsonliligini o‘lchash bu zarralarning xromli qoplama mikroqattiqligiga tasirini baholashga imkon beradi. Rentgen chizig‘ining fizik kengligi (220) diagramma cho‘qqisining yarim balandligidagi diagrammani hisoblash yo‘li bilan aniqlandi. Diagrammaning kengligini hisoblab chiqqandan so‘ng, ushbu hisoblash natijalari tavsiflangan metodologiyaga muvofiq dislokatsiya zichligini hisoblash uchun ishlatilgan Rentgen tahlili uchun, 55 ℃ doimiy haroratda va har xil tok zichligida olingan, tarkibiga turli xil aluminiy oksidi mikrozarrachalariga ega bo‘lgan, xromli

qoplamasi bilan qoplangan 30ХГСА po‘latdan namunalar tayyorlandi. Tadqiqot natijalari (1-2-rasm) da keltirilgan. Etalon sifatida sof xrom qoplamali namunalar ishlatilgan. Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, tok zichligi oshishi bilan xromli qoplamasi kristalli strukturasining nuqsonliligi ortib boradi.



1-rasm. Aluminiy oksidi mikrozarralarini o‘z ichiga olgan xromli qoplama kristalli strukturasining nuqsonliligi tok zichligiga bog‘liq holda o‘zgarishi. Elektrolitlar harorati 50 °C. 1 – mikrozarralar tarkibi $Ал_2O_3$-20г/л, 2–mikrozarralar tarkibi. $Ал_2O_3$-40г/л, 3-mikrozarralar tarkibi. $Ал_2O_3$-60г/л, 4- mikrozarralar tarkibi. $Ал_2O_3$-80г/л, 5- toza xromli qoplama.



2-rasm. Aluminiy oksidi mikrozarralarini o‘z ichiga olgan xromli qoplama dislokatsiyasi zichligining tok zichligiga bog‘liq holda o‘zgarishi. Elektrolit harorati 50°C. 1 – mikrozarralar tarkibi. $Ал_2O_3$-20г/л, 2 –mikrozarralar tarkibi. $Ал_2O_3$-40г/л. 3 –mikrozarralar tarkibi. Ал2О3-60г/л, 4 – mikrozarralar tarkibi. $Ал_2O_3$-80г/л, 5 – toza xromli qoplama.

Rentgen chizig‘ining kengayishi aluminiy oksidi mikrozarralari konsentratsiyasi 40 dan 50 g/l gacha. Bu holda, rentgen chizig‘ining eng kichik kengayishi sof xrom qoplamasida qayd etilgan. Xrom qoplamasidagi aluminiy oksidi mikrozarralari tarkibining shunga o‘xshash tasiri dislokatsiya zichligini hisoblashda kuzatiladi. Shunday qilib, shuni takidlash mumkinki, xrom qoplamasi mikroqattiqligi, tarkibida 40 dan 50 g/l gacha aluminiy oksidi mikrozarralari bo‘lganda eng yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Ammo uning maksimal qiymati 50A / dm^2 tok zichligiga to‘g‘ri keladi. Bu natija xrom qoplamasidagi aluminiy oksidi mikrozarralari miqdorining ortishi bilan izohlanadi, bu xromli qoplamaning kristalli strukturasining nuqsonliligi va shunga mos ravishda dislokatsiya zichligi oshishida namoyon bo‘ladi.

Elektrolit xrom, kristalllarining o‘lchamlari 0,001-0,01 mkm bo‘lgan mayda kristall tuzilma bilan ajralib turadi. Xrom cho‘kmalari qatlam-qatlamliligi va yuzasida 50 mkm va undan ortiq qalin qoplama cho‘ktirilganda kuzatiladigan xarakterli o‘simtalar bilan xususiyatlidir. [1;3, 2;4]

Yaltiroq xromlashda elementar katakchasining parametri a=2,878A va zichligi 7,1g/sm^3. bo‘lgan hajmiy-markazlashtirilgan kub panjarali xrom-2 hosil qiladi [2;5].

Elektrolitik cho‘ktirilgan xrom o‘rtacha 0,04 – 0,5 % N_2 va 0,2 – 0, 5 % gacha O_2 hamda kam miqdorda N_2 dan tashkil topgan. Vodorod qoplamada gidrid tarkibida va eritilgan holatda bo‘ladi. Tarkibida $C2O_3$ bo‘lgan katod parda zarrachalarni tutib olganda kislorod cho‘kmaga tushadi. Tarkibida N_2 bo‘lishi xrom qoplamalar mo‘rtligining asosiy sababi hisoblanadi. Yuqorida bayon qilinganlarga binoan, xromlashdan so‘ng, termik ishlov berish zarur operasiya hisoblanadi. Ishda gazlarning asosiy qismi 200 temperaturada ajralib

chiqishi aniqlangan [3;4]. Bundan tashqari, elektr cho‘ktirish jarayonida xrom qoplamalarida cho‘zilish kuchlanishi hosil bo‘ladi. Bu kuchlanishlarning hosil bo‘lish sababi-beqaror geksagonal strukturaning hajmiy-markazlashtirilgan kub strukturaga

o‘tishida cho‘kma hajmining qisqarishiga sabab bo‘ladigan struktura o‘zgarishi [7;8]. Bu kuchlanishlar termik ishlov berish bilan olib tashlanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda sof xrom qoplama va alyuminiy oksidi dispers zarrachali kompozision qoplamalarning g‘adir-budirlik parametrlari Ra o‘lchandi. Natijalar sof xrom qoplamaning g‘adir-budirligi 0,12 mkmni va kompozision

qoplamaning g‘adir-budirligi 0,25 mkm ni tashkil etishini ko‘rsatdi. Shunday qilib alyuminiy oksidi zarrachalarining singdirilishi sof xrom qoplamalarga nisbatan katta

g‘adir-budirlik profilini yaratadi.

Bundan tashqari, qoplamaning asosiy metall bilan ilashish mustahkamligining sinovi o‘tkazildi. Sinov qoplamasi bor yassi namunani egish yo‘li bilan o‘tkazildi. (1-2- rasmlar). Bu rasmlardan ko‘rinib turibdiki, sof xrom qoplama egilganda enli yoriqlar hosil bo‘ladi va xromning asosiy metaldan qatlam bo‘lib ko‘chishi ro‘y beradi. Kompozision xrom qoplamada ham ensiz yoriqlar va asosiy metalldan qatlam bo‘lib ko‘chishi orqali ro‘y beradi. Yoriqlar ichki kuchlanishi sof xrom qoplamanikiga nisbatan juda kam ekanligini ko‘rsatadi. Metallografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki sof xrom qoplama sirtida yoriqlar to‘ri mavjud, bu ichki kuchlanishlar hisobiga hosil bo‘ladi va xrom qoplamalar uchun odatdagi hol hisoblanadi.

Kompozision xrom qoplamada yoriqlar to‘ri yo‘q, bu qoplamaning korroziyaga chidamliligini oshirishga yordam berishi kerak. Alyuminiy oksidi zarrachalari qoplamada bir tekis taqsimlangan, bu ancha zich struktura olishga va ichki so‘zuvchi kuchlanishning kamayishiga imkon beradi.

Xulosa. Sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompozision xrom qoplamalarini cho‘ktirish rejimi tajriba yo‘li orqali aniqlanganda: elektrolit temperaturasi 55±2 S, tok zichligi 50 A/dm^2, elektrolitda alyuminiy oksidi (Al_2O_3)dispers kukunlari miqdori 40gr/l aniqlandi, kompozision xrom qoplamalarini cho‘ktirishning ishlab chiqilgan rejimi maksimal darajada mikro qattiqlikni 13800 dan 14000MPa gacha bo'lgan qiymatlarni tashkil etdi (HV 13800-14000 MPa)ortganligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich, an'anaviy xrom qoplamalariga nisbatan materialning mexanik yeyilishga chidamlilik xususiyatlari keskin yaxshilandi.

Adabiyotlar

[1]. Гальванические покрытия в машиностроении. Справочник. Т.1./Под ред. М.А.Шлутера.- М.: Машиностроение,1985.-240 с.

[2]. Ямполский А.М. Краткий справочник галванотехника / А.М. Ямполский, В.А. Илин. – Л.: Машиностроение, 1981. - 268с.

[3]. Филатов В.И. Композисионные електроосаждаемые материалы / В.И. Филатов. – Кисҳинев.: Масҳиностроение, 1976. - 76с.

[4]. Бородин, И.Н. Упросҳнение деталей композисионными покрытийами / И.Н. Бородин. – М.: Масҳиностроение, 1982. - 141с.

[5]. Гурйанов Г.В. Електроосаждение износостойких композисий / Г.В. Гурйанов. – Кисҳинев.: Сҳтинса, 1985. - 238с.

[6]. Е.Л. Воловик – Справочник по восстановлению деталей / Е.Л. Воловик. М: Колос, 1981. – 351с.

[7]. Mardonov B.T., Oripov Z.B., Saibov M.F. Technological possibilities of restoration of plunger pairs of automotive products. // Fan wa tekhnologiyalar tarakkiyoti, Ilmiy-tekhnavy magazine No. 1/2020, 62 st.

[8]. Mardonov B.T., Oripov Z.B., Ashurov H.Kh. Technology of recovery of precision parts of fuel pumps by composite chromium // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET), ISSN: 2350-0328 Vol. 7, Issue 8, August 2020,

O‘ZBEK XALQI AN’ANAVIY KIYIMLARINING TARIXI VA ULARNI SHAKLLANISHINI TAHLILI

G.A. Mirboboyeva

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalqi an’anaviy kiyimlarining tarixi kiyimlar qadimda qanday bo‘lganligi,qanday kiyimlar kiyilganligi,nimalar urf bo‘lganligi haqida ma’lumotlar*

keltirilgan,bundan tashqari o‘sha davr kiyimlarini rivojlanish taxlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan

Tayanch so’zlar: *Ayollar ko‘ylagi, furnituralar, bichim, ijodiy g‘oyalar , koketka, fason, qadimgi kiyimlar, kiyimlarni shakllanishi,kant, yeng o‘mizi.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об истории традиционной одежды узбекского народа, о том, какой была одежда в древности, какие наряды носили, какие существовали обычаи, а также анализ развития одежды того периода.*

Ключевые слова*: женская одежда, аксессуары, стиль, творческие идеи, кокетка, фасон, древняя одежда, формирование одежды, отделка, рукав.*

Abstract*. This article presents information on the history of traditional Uzbek clothing, its ancient forms, the types of attire worn, and customs, as well as an analysis of the development of clothing during that period.*

Keywords: *women's clothing, accessories, style, creative ideas, yoke, cut, ancient clothing, garment formation, trim, sleeve.*

O‘zbek xalqi an’anaviy kiyimlarining shakllanish tarixidan.

Xalq turmushiga mos, ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo‘lgan kiyimlar asrlar mobaynida shakllanib borishi natijasida xalqning an’anaviy milliy kiyimlari majmui yuzaga kelgan. [8] Xalqona milliy liboslarning shakllanishida tashq,i tabiiy mux.it, xo‘jalik mashg‘uloti, xalq. falsafasi, madaniyati, ijodi, diniy e’tiqodi va milliy an’analari kabi turfa xil omillar mux,im o‘rin tutadi. Kiyimlarning yuzaga kelishi va turlarining ko‘payishida kishilarning turmush tarzi, meh.nat va iqlim sharoitidan tashk,ari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didining o‘sishi ham asosiy omillardan biri bo‘lgan.

Darhakikat, kiyimlar buyicha olib borilgan ilmiy tadkiqotlar shundan dalolat beradiki, milliy liboslarda ma’lum bir badiiy talqin mujassamlashgan bo‘lib, unda inson o‘zining estetik g‘oyalarini ifoda etgan va jamiyat hayoti bilan bog‘liq. holda rivojlanib borgan. O‘z navbatida, uning taraqqiyoti nafakat iktisodiyot rivoji natijasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, balki siyosat, din, etika bilan xam bevosita bog‘lik bo‘lgan [5] .Umuman olganda, xalq. kiyimlari an’anaviy milliy madaniyatning asosini tashkil qiluvchi muhim etnomadaniy hodisalardan biri bo‘lib, unda xalqning aqliy , ruhiy, tafakkuri, turmush tarzi, taraqqiyot darajasi va etnik tarixi o‘z aksini topgan. Demak, kiyim ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqkiy etgani sayin u ham takomillashib, rivojlanib borgan.

Eng qadimgi kiyimlar

Ma’lumki, yer sharida tabiiy jarayonlarning tez-tez o‘zgarib turishi turli liboslarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Miloddan avvalgi V ming yilliklargacha bo‘lgan davrda kiyim tayyorlash uchun faqat tabiiy materiallar (hayvonlar terisi, da-raxt pustlog‘i, o‘simliklar tolasi)dan foydalanilgan.



1-rasm Qadimgi birinchi kiyimlar.

U davrlarda kiyilgan kiyimlarning asosiy vazifasi kishi tanasini sovuq. yoki issiqdan h.imoya qilish bo‘lgan. Xususan, teri libosni yelkadan o‘tkazib mahkam bog‘lash, terining o‘rtasidan teshib, undan boshni o‘tkazib kiyish, teri bilan tanani o‘rash libos tayyorlashdagi dastlabki usullarning paydo bo‘lishi va o‘zgarish jarayonlarining ibtidosidir. Anna Levin-Dorsh va G. Kunovlar ibtidoiy odam beliga bog‘lagan tasma yoki oyok.qo‘liga taqilgan xalqalar, badanni bo‘yash (tatuirovka), xom teridan tayyorlangan yopinchiklar, beldan pastga tutiladigan chipta, o‘simlik yaprog‘i va qush patlaridan tayyorlangan tutqichlarni ham «kiyimning ibtidosi» deb hisoblaydilar.

Tarixiy-etnografik adabiyotlarda kiyimlar taraqqiyotining birinchi bosqichi to‘qimachilik texnikasining rivoji bilan talqin qilinadi. To‘qima matolarning egiluvchanlik, bukiluvchanlik, o‘raluvchanlik, shuningdek, matolarning

cho‘ziluvchanlik va turli shaklga tushish kabi xususiyatlaridan kishilar keng foydalana boshlaganlar.

To‘quvchilik ham ayollar hunari bo‘lib, faqat savdo ishlab chiqarish rivojlanishi bilangina u erkak hunarmandlarning sohasiga aylandi. To‘qimachilik dastgohi romdan paydo bo‘lgan, uning ustiga o‘ralgan iplar cho‘zilgan, u orqali to‘quv iplari moki yordamida o‘tkazilgan. Qadim zamonlarda uch turdagi ibtidoiy dastgohlar ma'lum bo'lgan:

1. Ikki ustun orasiga osilgan, bitta yog‘och to‘sinli (bo‘g‘imli) vertikal to‘quv dastgohi, bu yerda ipning tarangligi egri iplarga osilgan loy og‘irliklari bilan ta’minlangan (qadimgi yunonlar ham xuddi shunday dastgohlardan foydalanganlar)
2. Ikkita qo‘zg‘almas to‘sinli gorizontal to‘quv dastgohi, ular orasida halqa cho‘zilgan. U qat'iy belgilangan o'lchamdagi matolarni to'qish uchun ishlatilgan (qadimgi misrliklar shunga o'xshash dastgohlardan foydalanganlar).
3. Aylanadigan to‘sinli dastgoh.

2-rasm Qadimgi to‘qish jarayoni.

Mintaqalar, iqlim va an'analarga qarab banan po'stlog'i, kanop va qichitqi tolalari, zig'ir, jun va ipakdan matolar tikilgan. Qadimgi Sharqning ibtidoiy jamoalari va jamiyatlarida erkaklar va ayollar o‘rtasida qat’iy va oqilona mehnat taqsimoti mavjud edi. Kiyim ishlab chiqarish, odatda, ayollar tomonidan amalga oshirilgan: ular ip yigirar, gazlamalar to‘qishar, teri va teridan tikish, kiyim-kechaklarni kashta, aplikatsiya, shtamp naqsh va hokazolar bilan bezashgan.

Qadimgi liboslar uchun xom ashyo maxsus yurmaklangan yoki bog‘langan matodan iborat bo‘lgan. Ana shu mato yordamida kishilar o‘z badanini o‘rab olishgan. Kishilar ob-havoga qarab hamda o‘z ijtimoiy ahvolidan kelib chikqan holda tug‘ri to‘rtburchak, elips shaklidagi mato liboslar kiyib yurishgan. Shu tarzda mato liboslarning himoya va ijtimoiy vazifasi kengayib, o‘zgarib borgan.[1] Umuman olganda, kiyimlar asta-sekin muayyan o‘lchovda yosh, jins, bo‘y-bastni hisobga olgan holda o‘ziga xos did bilan tayyorlana boshlagan va tobora mukammallashib borgan. Xullas, har bir tarixiy davr kiyim-boshlarida o‘sha bosqichga xos kiyinish madaniyatining aks etib turgan[2]

3-rasm Qadimgi o‘rta osiyo qabilalari.

O‘zbeklar qadimgi O‘rta Osiyo qabilalari — so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, farg‘onaliklar avlodlari bo‘lib, turkiy tillilar guruhiga kirganlar. Bu etnik guruh Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ida, Xorazm va Farg‘ona vohalarida rivojlangan. Qadimgi qo‘lyozma manbalar tomonidan tasdiqlanganidek, ular shimoli-sharqiy eron tillarida gaplashgan. Uzoq vaqt davomida boy, serhosil Farg‘ona va Xorazm yerlari cho‘l turkiy qabilalari — qipchoqlar, o‘rg‘uzlar, keyinchalik Oltin O‘rda turklarining bosqinlariga duchor bo‘ldi. Xorazm-Farg‘ona guruhidagi o‘troq xalqlar bilan ko‘chmanchi qabilalarning o‘zaro kirib borishi natijasida asta-sekin mo‘g‘uloid aralashmali kavkaz irqi bo‘lgan pomir-farg‘ona irqi vujudga keldi va XI—XII-asrlarga kelib u umumjamoa o‘zbeklar nomi bilan mashhur bo‘ldi.

O‘zbekiston xududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi qadimgi kishilar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urug‘-

qabila an’analari asosida shakllangan. O‘tmish ajdodlarimizning kiyim-kechagi, ularning shakllari va evolyusiyasi hamda mahalliy xususiyatlari to‘g‘risida respublika xududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, devoriy rasmlar, haykalchalar, mayda naqshlar, yozma manbalar, qo‘lyozma kitoblarga ishlangan mo‘jaz rang tasvirlar (miniatyura)lar birmuncha aniq tasavvurlar beradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kiyimlarning dastlabki shakllari to‘qimachilikning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘lik bo‘lgan.. Kopettog‘ etaklarida aniqlangan Jayxun madaniyatiga oid yodgorliklarda to‘quv dastgohlarining qoldiqlari topilgan. Bu davrda mintaqada chorvachilik sohasi rivojlangan bo‘lib, to‘qimachilikda jundan tayyorlangan kiyim-kechaklar asosiy o‘rinni egallagan. Miloddan avvalgi II ming yillikka oid kiyim qoldiqlari Sopollitepadan ham topilgan. Umuman olganda, miloddan avvalgi VI asrga kelib kiyim tayyorlashda jun matolari teri matolarini deyarli siqib chiqargan. O‘rta asrlarda yashagan ajdodlarimiz kiyim-boshlari uzun, ba’zi hollarda yengi keng qilib bichilgan. Kiyimlarning yon tomonida odatda yirmoch-qiyiq joyi, yonlama yoqasi bo‘lganki, bu hol O‘zbekiston xalqlarining hozirgi kiyimida ham ildizi chuqur tarixiy an’anaga borib taqaladigan xususiyatlar mavjudligini kuzatish imkonini beradi.

Fargona vodiysining Munchoqtepa yodgorligidan eng qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid qator kiyimlarning namunalari, asosan, erkak, ayol va bolalar ust-boshlari topilgan. Olimlar tomonidan o‘rganilgan ayollar ko‘ylagining bichimi uzun bo‘lib, ipakdan tayyorlangan va etagi tupig‘igacha tushgan.. “Movaronnahr” nomi 7—8-asrlarda arablarning O‘rta Osiyoni bosib olishi davrida paydo bo‘lgan va dastlab Jayhun (hozirgi Amudaryo)ning o‘ng qirg‘og‘i bo‘yidagi ulkan hududlarni nazarda tutgan. Keyinchalik “Movaronnahr” deganda, xususan, Jeyhun va Seyhun (hozirgi Sirdaryo) daryolari oralig‘idagi hudud, asosan sug‘oriladigan yerlar, tog‘lar va dashtlardan tashkil topgan hudud nazarda tutila boshlandi. Aynan Movaronnahrda islom olamining o‘sha davrdagi eng muhim shaharlari, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Shosh, Naxshab, Karmana, Farg‘ona, Xo‘jand, Kesh va boshqa yuksak madaniyat va sivilizatsiyaga ega shaharlar joylashgan edi. Turkiston shahri Seyhunning o‘ng qirg‘og‘ida, ya’ni Movaronnahrdan tashqarida joylashgan bo‘lsada, ko‘pincha viloyat tarkibiga kirgan.

4-rasm Qadimgi Xorazm kiyimlari.

Aynan bu davrga xos bolalar kiyimi ham ipakdan kalta qilib tikilgan bo‘lib, belidan sal pastga tushib turgan. Ko‘ylak etagidan, ya’ni beli atrofidan ikki yon tomondan 10-15 santimetr qirqib qo‘yganlar. Yoqalari to‘g‘ri va belida maxsus tasma belbog‘i bo‘lgan. Qiz bolalar ko‘ylagining ko‘krak qismi, yengining uchi va etagi maxsus qadama gullar bilan bezatilgan. O‘nt qo‘l tomonidan esa o‘yma cho‘ntak (kissa) tikilgan. Kiyimga munchoqlar tikilib zeb berilgan bo‘lib, yengi va ko‘krak qismiga mayda marjonli naqshlar tikilgan [3] .Umuman olganda, ilk o‘rta asarlar (V-VII asrlar)da yashagan ajdodlarimiz kiyimlarining tadrijiy rivojlanib borishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo va Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan xalqlarning etnik va ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bevosita boltik bo‘lgan.

Xulosa

Maqolada shuni xulosa qilish mumkinki qadimda eng qadimgi kiyimlarni kelib chiqishi asta –sekinlik bilan rivojlanishi haqida,o‘rta osiyo xalqlarini yashash sharoitlari kiyinish madaniyatlari markaziy Osiyo, balki butun Osiyo va Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan

xalqlarning etnik va ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bevosita boltik bo‘lgan kiyimlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Adabiyotlar

[1]. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. - T., 1999. - B. 95-105
[2]. Sodikova N. XIX-XX asrlarda o‘zbek milliy kiyimlari. - T.. 2001.
[3]. Ismoilov X,. An’anaviy o‘zbek kiyimlari. - T.: Fan, 1978. - B.
[4]. Xasanbayeva G.K. To‘qimachilik dizayni tarixi.-T.; Iqtisodiyot-moliya, 2007.
[5]. Зуннунова Г. К Истории узбекской национальной одежды (развитие и трансформации женской одежды г. Ташкенте в XX веке).

YUK AVTOMOBILLARINING TORMOZ TIZIMLARI VA ULARNING ISHLASH XUSUSIYATLARINI UMUMIY TAHLIL QILISH(AVTOPOEZDLAR MISOLIDA)

A.Sh. Qosimov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
E-mail a.sh.qosimov@fstu.uz, tel. +998939740197
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada yuk avtomobillarining tormoz tizimlari xususiyatlari va ularning texnik holati bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Tormoz tizimlari parametrlari asosida yuk avtomobili tormoz diagrammalari shakllanishi kuzatilib, texnik xizmat ko‘rsatish va holatini baholash ishlari amalga oshiriladi. Tormozlash jarayonida avtomobil harakati tenglamasi tuzilib, unga ta’sir etuvchi omillar doirasi hisobga olinadi.*

***Kalit so`zlar:*** *avtopoezd,yarim tirkamali avtopoezd, YTH, operatsion ko`rsatkichlar,ilashish koefitsienti,tormoz diagrammasi,kechikish vaqti,sekinlashish vaqti,tormozlanish vaqti.*

Abstract: *This article presents a step-by-step analysis of the characteristics and technical condition of heavy-duty truck brake systems. Based on brake system parameters, the formation of truck braking diagrams is observed, and maintenance as well as condition assessment procedures are performed. An equation of motion during braking is developed, taking into account the range of influencing factors.*

Key words: *car train, semi-trailer car train, RTA, operational indicators, coupling coefficient, brake diagram, delay time, deceleration time, braking time.*

Аннотация: *В статье поэтапно анализируются особенности и техническое состояние тормозных систем грузовых автомобилей. На основе параметров тормозной системы прослеживается формирование тормозных диаграмм грузового автомобиля, выполняется оценка его технического состояния и мероприятий по обслуживанию. Составлено уравнение движения автомобиля при торможении с учётом влияющих факторов.*

Ключевые слова: *вагонный поезд, полуприцепной вагонный поезд, ДТП, эксплуатационные показатели, коэффициент сцепления, тормозная схема, время задержки, время торможения, время торможения.*

Tezlikni kamaytirish va tez to'xtash qobiliyati – har qanday transport vositasining eng muhim dinamik xususiyati hisoblanadi. Operatsion ko'rsatkichlar YTH uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatning yuqori qiymatini hisobga olgan holda, tormozlash talabi,ya'ni, tormoz tizimining texnik holatiga qo'yiladigan talablar bir qator normativ hujjatlarda ko'rsatilgan transport vositasiga taqdim etiladi. "G'ildirak xavfsizligi to'g'risida " bojxona Ittifoqining texnik reglamenti transport vositalari, shuningdek GOST 4364-81, GOST 33997-2016 va bajarish uchun majburiy. Tormozlash xususiyatlari avtomobilning harakatlanishdan keskin to`xtash qobiliyatini anglatadi.To'liq to'xtashgacha harakatlanish tezligini kamaytirish, belgilangan masofani saqlash uzoq muddatli harakatlarda harakatlanish tezligi barqaror turish yo'llar har qanday tartibsizlangan kuchlar ta'sirida, avtopoezd tormozlash rejimida kuchlarni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Chunki avtopoezdlarning tormoz tizimi aloqalarning o'zaro ta'siri va yo'l poezdini bir massali tekis deb hisoblash tizimi mukammal shakllantirilmagan.Quydagi formulada avtopoezdlar tormozlanish jarayonida ta`sir etuvchi kuchlar qatnashgan formula ko`rsatilgan.

Avtopoezdlarning tormozlanish paytida harakat tenglamasi.

$$\frac{G_a}{g} * j_z = P_{Ti_T} + P_{Ti_{pp}} + P_v \quad (1)$$

Tormozlash vaqtida ko'priklar orasidagi tormoz kuchini taqsimlash

$$P_{Ti_T} = R_{zi_T} * \varphi_x \quad (2)$$

$$P_{Ti_{pp}} = R_{zi_{pp}} * \varphi_x \quad (3)$$

$$R_{z1_T} + R_{z2_T} = G_T + R_{z1_{pp}} \quad (4)$$

$$R_{z2_{pp}} = G^0_{pp} - R_{z1_{pp}} \quad (5)$$

$$R_{z1_T} = G_T(b_T + \frac{h_T * j_z}{g})/L_T \quad (6)$$

$$R_{z2_T} = G_T(a_T - \frac{h_T * j_z}{g})/L_T \quad (7)$$

$$R_{z1_{pp}} = G^0_{pp}(b_{pp} + \frac{h_{pp} * j_z}{g})/L_{pp} \quad (8)$$

$$R_{z2_{pp}} = G^0_{pp}(a_{pp} - \frac{h_{pp} * j_z}{g})/L_{pp} \quad (9)$$

Tormozlanish paytida ox o`qidagi reaksiya tenglamasi:

$$R_{xi_T} = G_T * \varphi_x \quad (10)$$

$$R_{xi_{pp}} = G^0_{pp} * \varphi_x \quad (11)$$

bu yerda: φ_x- shinalarni yer bilan ilashish koefitsienti , h_T–avtopoezdning tortishish markazining balandligi, h_{pp}-yarim tirkamaning tortishish markazining balandligi.

Avtomobildan samarali foydalanish keng qo'llanmasdan mumkin emas. Ixtisoslashtirilgan yuk mashinalari, treylerlar va yarim tirkamalar bilan tashish kerak bo'lgan yuk hajmining o'sishi bilan avtopoezdlar parki ham o'sib bormoqda. Gabarit o`lchami katta va uzun o'lchamli yuk avtomobillarni o'z ichiga olgan yo'l-transport hodisalari soni oshib bormoqda.Turli xil tezlik ko'rsatkichlari, turli xil texnik imkoniyatlar transport vositalarining turlari va ularning tormozlash xususiyatlari bir xil bo'lmagan transport oqimi hosil bo'ladi va voqea sodir bo'lishining mumkin bo'lgan shart-sharoitlarini shakllantirib boriladi. Avtopoezdlar tez-tez avtohalokatga uchraydi va ular bilan sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar natijasida yuzaga keladigan yagona yo'lovchi transport vositalariga nisbatan ancha murakkab holatda bo`ladi.

Tormoz kuchlarini taqsimlash, qaramlik bilan tavsiflanadi

$$P_{T2_T} = \frac{R_{T1_T}(a - h_T * \varphi_x}{b + h_T * \varphi_x}) \quad (12)$$

$$P_{T2_{pp}} = \frac{P_{T1_{pp}}(a - h_{pp} * \varphi_x}{b + h_{pp} * \varphi_x}) \quad (13)$$

Baholash uchun transport vositasini tormozlash jarayonini grafik tasavvur qilish uchun tormoz xususiyatlari, tormoz diagrammasini qurish (1-shakl).Tavsiflovchi salbiy tezlashtirish qiymatlarining vaqtga bog'liqligi. Tormoz ustida diagramma koordinatalarning boshlanishi haydovchining qaysi nuqtasiga to'g'ri kelishi, avtomobil oldida to'siq paydo bo'lishi ko`rsatilgan.



Shakl 1. Avtopoezd tormoz diagrammasi: 1-avtopoezd, 2-yarim tirkamali avtopoezd bu yerda: $t_{c.t}$ -tormoz haydovchi va tormozlash uchun kechikish vaqti, $t_{c.p}$ -kechikish vaqti yarim tirkamali tormoz tizimi tormoz haydovchi va tormoz mexanizmlari, s; $t_{n.t}$ -avtopoezdning sekinlashuvi vaqti, s $t_{n.p}$ - sekinlashuvning o'sish vaqti yarim tirkama, s; $t_{p.t}$ - avtopoezdning tormozlanish vaqti, s; $t_{r.p}$ - harakatlanish paytida barqaror sekinlashuv vaqti s; $t_{uct.p}$ -yarim tirkamaning barqaror sekinlashuvi vaqti; t_1… t_5 –avtopoyezdning sekinlashuv vaqtining asosiy bosqichlari.

Avtopoyezdning bog'lanishlarini ulashdagi muvozanat holatidan yarim tirkama gorizontal kuchlar ta'sirida kelib chiqadi: Shunday qilib, avtopoezdning xatti-harakati kamroq aniqlanadigan xususiyatlari tufayli yagona transport sistemasi (qo'shma uning og'irligi va o'lchamlari, shuningdek, past tormozlash) xususiyatlari, ishlov berish va barqarorlik xususiyatlari inobatga olinadi. Harakat paytida tirkama bog'lamining doimo manevrga ta`siri, noto'g'ri tormozlanish paytida xavfni oshiradi. Avtomobil tirkamasi traektoriyasidan chetda bo'ladi.Avtopoezd g'ildiraklarining yeyilishi, tormoz mexanizmlarining ta'sirining nomutanosibligiga olib keladi va ishchi tormoz tizimi aloqasi buziladi. Buning natijasida yarim tirkamani siljitish sodir bo'ladi, tirkama cho'zilishida, muayyan tezliklarda noqulayliklar paydo bo'ladi.

Adabiyotlar

[1]. Bekmurodov, A., Xudoyberdiyev, M. Avtomobil tormoz tizimlarining diagnostikasi va texnik xizmat ko‘rsatish metodlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022.

[2]. Scania CV AB. Brake System Maintenance and Testing Manual: Series 80–90. Södertälje, Sweden: Scania Technical Publications, 2021.

[3]. International Organization for Standardization. ISO 7638-2: Road vehicles — Electrical connectors for braking systems — Part 2: Diagnostic systems. Geneva: ISO, 2020.

[4]. Kabanov, V. N., Petrov, S. A. Pnevmaticheskie tormoznye sistemy avtomobiley i poyezdov: diagnostika i remont. Moskva: Mashinostroenie, 2019.

[5]. SAE International. SAE J1505: Pneumatic Brake Tubing and Fittings for Automotive and Commercial Vehicles. Warrendale, PA: SAE, 2018.

[6]. Mardonov, I., Ergashev, B. “Avtopoezd tormoz mexanizmlarini stendda sinovdan o‘tkazishning eksperimental usullari.” O‘zbekiston Avtomobil Transporti Ilmiy Jurnali, 2023(2), 45–53.

[7]. European Committee for Standardization (CEN). *EN 15986: Road vehicles — Pneumatic braking systems — Test methods.* Brussels: CEN, 2021.

[8]. Otaboyev, N. I., Qosimov, A. S. O., & Xoldorov, X. X. O. (2022). Avtopoezd tormozlanish jarayonini organish uchun avtopoezd turini tanlash. Scientific progress, 3(5), 87-92.

[9]. Qosimov, A. S. (2023). Srojidinov DR Avtopoezdlar tormoz mexanizimlari pnevmatik quvirlarining texnik holatini, avtopoezdlarning mos turiga tadbiq qilish. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 474-480.

ZICHLIK VA NAMLIK KO‘RSATKICHLARINING IP YIGIRISH JARAYONIDAGI RO‘LI

O‘.A. Baxtiyorova, talaba A.K. Yuldashev

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
+998 94-064-05-04

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya:*Ushbu maqolada zichlik va namlik ko‘rsatkichlarining ip yigirish jarayoniga ta’siri yoritilgan. Xom ashyo tolalarining zichligi, ularning nisbiy namligi hamda namlikni boshqarish texnologik jarayon sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda tolalarning fizik-mexanik xususiyatlari, yigirish jarayonidagi kuchlanish, ipning sifat ko‘rsatkichlari, chidamliligi, tekisligi va elastikligi namlik hamda*

zichlik bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, namlikni optimal darajada saqlash orqali energiya sarfini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *zichlik, namlik, tola, ip yigirish, nisbiy namlik, fizik-mexanik xususiyatlar, mustahkamlik, elastiklik, gigroskopiklik, ip sifati, texnologik jarayon.*

Аннотация:*В данном статья освещается влияние показателей плотности и влажности на процесс прядения. Плотность волокон сырья, их относительная влажность и управление влажностью напрямую влияют на качество технологического процесса. В исследовании обоснованы физико-механические свойства волокон, напряжение в процессе прядения, показатели качества пряжи, прочность, равномерность и эластичность в зависимости от влажности и плотности. Также показаны преимущества снижения энергопотребления и повышения качества продукции за счет поддержания оптимального уровня влажности.*

Ключевые слова: *плотность, влажность, волокно, прядение, относительная влажность, физико-механические свойства, прочность, эластичность, гигроскопичность, качество пряжи, технологический процесс.*

Annotation:*This article describes the influence of density and moisture indicators on the spinning process. The density of raw material fibers, their relative humidity, and moisture regulation directly affect the quality of the technological process. The study substantiates the relationship between the physical and mechanical properties of fibers, the stress in the spinning process, the quality indicators of yarn, durability, uniformity, and elasticity with moisture and density. The advantages of reducing energy consumption and improving product quality by maintaining optimal moisture levels are also shown.*

Keywords: *density, moisture, fiber, yarn spinning, relative humidity, physical-mechanical properties, strength, elasticity, hygroscopicity, yarn quality, technological process.*

Tekstil sanoatida ip yigirish jarayoni materiallarning fizik va mexanik xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri zichlik va namlik ko‘rsatkichlaridir. Tabiiy va sintetik tolalarning gigroskopik xususiyatlari, ularning havo muhitiga mos ravishda namlikni yutishi yoki qaytarishi, ip yigirish jarayonining barqarorligi, texnologik qurilmalarning ishlash rejimi va yakuniy mahsulot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, paxta, jun va viskoza kabi tabiiy tolalar havo namligiga juda sezgir bo‘lib, optimal namlik darajasida ularning elastiklik, silliqlik, mustahkamlik kabi parametrlari oshadi va tolalar qayta ishlash jarayonida sinuvchanlik darajasi kamayadi. Zichlik esa tolalarning yig‘indida joylashuvi, ip diametri, struktura barqarorligi hamda ipning texnologik kuchlanishlarga chidamliligini belgilovchi muhim omildir. Tolalar zichligining to‘g‘ri tanlanishi ipning tekisligi, sirt sifati, tuzilma barqarorligi va mustahkamligini oshiradi. Shuningdek, namlik va zichlikning boshqarilishi energiya sarfini kamaytirish, texnologik jarayonning samaradorligini oshirish va ip sifati bo‘yicha standart talablarga javob berish imkonini yaratadi. Zamonaviy yigirish texnologiyalarida muhit harorati, havo namligi va material zichligi balansini ta’minlash orqali yuqori sifatli ip olishga erishiladi. Shu sababli ushbu mavzuni chuqur o‘rganish, yigirish korxonalarida optimal rejimlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ip yigirish jarayoni asosan tolalarning fizik-mexanik xususiyatlariga asoslanadi. Bu jarayonda tolalarning namlik darajasi va zichligi muhim texnologik parametrlar hisoblanadi. Ushbu omillar tolalarning o‘zaro ishqalanishi, cho‘zilishi, tekislanishi va yakuniy ipning sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Tolalarning tabiiy xususiyatlariga mos keluvchi optimal sharoitni ta’minlash ip yigirish texnologiyasining eng asosiy talablardan biridir.

Tolalarning namlik xususiyatlari

Namlik tolalarning gigroskopik qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular atrof-muhitdagi havo namligiga qarab namlikni o‘zlashtiradi yoki chiqaradi. Tabiiy tolalar - paxta, jun, zig‘ir, ipak - sintetik tolalarga nisbatan yuqori gigroskopiklikka ega. Optimal namlik miqdori tolalarning moslashuvchanligini oshirib, ularni qayta ishlashda elastik va kam sinuvchan bo‘lishini ta’minlaydi. Nisbiy namlik yetarli darajada bo‘lmaganda tolalar qattiqlashadi, mo‘rtlashadi va yigirish jarayonida uzilish ehtimoli ortadi. Shu bilan birga, ortiqcha namlik ham salbiy natijaga olib keladi. Namlik haddan tashqari yuqori bo‘lganda tolalar yopishib qoladi, ularni tarash, chigitdan ajratish va

tekislash jarayoni qiyinlashadi. Shuning uchun texnologik jarayonlarda havo namligini doimiy nazorat qilish va konditsioner uskunalar yordamida boshqarish katta ahamiyatga ega.

Tolalarning zichlik xususiyatlari

Tolalarning zichligi - bu ularning tarkibi, tuzilishi va o‘zaro joylashuviga bog‘liq bo‘lgan parametr bo‘lib, u ipning umumiy struktura mustahkamligini belgilaydi. Tolalarning zichligi ularning turlariga qarab farq qiladi: tabiiy tolalar, ayniqsa paxta va jun, heterogen struktura tufayli turlicha zichlikka ega bo‘ladi, sintetik tolalar esa bir xil tuzilishga ega bo‘lib, zichlik ko‘rsatkichlari nisbatan barqaror bo‘ladi. Zichlikning optimal bo‘lishi tolalar orasidagi kuchlanish taqsimotini barqarorlashtiradi, ularni parallel holatga yaqinlashtiradi va ipning tekis hamda sifatli chiqishini ta’minlaydi. Zichligi past tolalar yengilroq, lekin mustahkamligi kamroq bo‘lishi mumkin, zichligi yuqori bo‘lgan material esa mustahkam, ammo og‘ir va kam elastik bo‘ladi.

Namlik va zichlikning bir-biriga ta’siri

Namlik va zichlik ko‘rsatkichlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular yigirish jarayonida umumiy texnologik muhitni tashkil etadi. Namlik oshishi tolalarning egiluvchanligini oshiradi, ularning zichlashuv darajasi yaxshilanadi va tolalar o‘zaro yaxshiroq bog‘lanadi. Bu jarayon ipning tekisligi va uzilishga chidamliligini oshiradi. Biroq ortiqcha namlik tolalarning haddan tashqari zichlashuviga olib kelishi mumkin, bu esa ip yuzasida qo‘pol tekstura, qiyin egirilish va energiya sarfining ortishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli har bir tolaga texnologik jihatdan mos keluvchi namlik diapazonini aniqlash muhim hisoblanadi.

Xulosa. Ip yigirish jarayonida namlik va zichlik ko‘rsatkichlari texnologik jarayonning sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tolalarning gigroskopik xususiyatlariga mos ravishda optimal namlik darajasini saqlash tolalarning elastikligini oshiradi, ularni qayta ishlash jarayonida sinuvchanlikni kamaytiradi hamda ipning sifatini yaxshilaydi. Namlikning yetarli bo‘lmasligi tolalarning mo‘rtlashishiga, ortiqcha bo‘lishi esa ularning yopishib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli yigirish sexlarida doimiy mikroiqlim nazorati muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, yigirish jarayonida ushbu parametrlarni to‘g‘ri boshqarish texnologik jarayonni barqarorlashtiradi, mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi hamda tekstil sanoatini yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shuning uchun zichlik va namlik ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganish va ularni optimal boshqarish zamonaviy yigirish texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar

[1]. Axmedov A., Xudoyberdiyeva D. "Tekstil materiallari nazariyasi" — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2021. — 215 b.

[2]. Rahimov Sh. "Ip yigirish texnologiyasi: nazariya va amaliyot" — Toshkent: Innovatsion texnologiyalar markazi, 2020. — 184 b.

[3]. Morton W.E., Hearle J.W.S. "Physical Properties of Textile Fibres" — Woodhead Publishing, Cambridge, UK, 2008. — 813 p.

[4]. Saville B.P. "Instrumental Analysis of Textiles" — Textile Institute & CRC Press, New York, 1999. — 448 p.

[5]. Гилярова О.Ю., Кашин В.М. "Прядение натуральных и химических волокон" — Москва: Лёгкая промышленность, 2018. — 327 с.

KASKADLI QIZDIRGICH QURILMASINING EKSPERIMENTAL TADQIQOTI

A. Abdulazizov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yangi ishlab chiqilgan kaskadli qizdirgich qurilmasining harorat, havo tezligi va don tushish vaqtining kaskadlar soniga bog‘liqligi bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Olingan ma’lumotlar issiqlik almashinuvi jarayonining intensivligi va aerodinamik ko‘rsatkichlarning kaskadlar soniga bog‘liq holda o‘zgarishini tasdiqlaydi. Eksperimentlar 0 dan 4 gacha kaskad bosqichlari uchun olib borilgan. Natijalar qurilmaning optimal ishlash rejimini aniqlash, energiya samaradorligini oshirish va quritish tizimlarini takomillashtirishga amaliy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *kaskadli qizdirgich, issiqlik almashinuvi, aerodinamika, havo tezligi, harorat, don tushish vaqti.*

Аннотация*: В статье представлены результаты экспериментальных исследований зависимости температуры, скорости воздуха и времени падения зерна разработанного каскадного нагревательного устройства от количества каскадов. Полученные данные подтверждают изменение интенсивности теплообмена и аэродинамических параметров в зависимости от количества каскадов. Эксперименты проводились для количества ступеней каскада от 0 до 4. Результаты дают практическую основу для определения оптимального режима работы устройства, повышения энергоэффективности и совершенствования систем сушки.*

Ключевые слова*: каскадный нагревательный элемент, теплообмен, аэродинамика, скорость воздуха, температура, время падения зерна.*

Abstract*: This article presents the results of experimental studies on the dependence of temperature, air velocity and grain fall time of a newly developed cascade heater device on the number of cascades. The obtained data confirm the change in the intensity of the heat exchange process and aerodynamic parameters depending on the number of cascades. The experiments were conducted for cascade stages from 0 to 4. The results provide a practical basis for determining the optimal operating mode of the device, increasing energy efficiency and improving drying systems.*

Keywords: *cascade heater, heat exchange, aerodynamics, air velocity, temperature, grain fall time.*

Kirish

Don mahsulotlarini quritishdan avval issiqlik bilan ishlov berish – quritish jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda mahsulotdagi namlik bir tekis taqsimlanib, quritish uchun zarur bo‘lgan issiqlik energiyasi tejaladi. Kaskadli qizdirgichlar shu maqsadda ishlab chiqilgan energiya tejamkor qurilmalardir. Ularning asosiy g‘oyasi — issiqlik agenti va mahsulot oqimini bir necha bosqichda o‘zaro ta’sirlantirish orqali issiqlik o‘tishini intensivlashtirishdir. Ushbu maqolada Farg‘ona davlat texnika universiteti laboratoriyasida ishlab chiqilgan kaskadli qizdirgich qurilmasining ishlash jarayoni eksperimental o‘rganilgan.

Tajriba qurilmasi vertikal joylashtirilgan silindrsimon korpusdan iborat bo‘lib, uning ichki qismida biridan to‘rt tagacha kaskad bosqichlari joylashgan. Qurilma ish jarayonida mahsulot – bug‘doy doni yuqoridan pastga qarab harakatlanadi, issiqlik agenti esa pastki yon tomondan kirib, yuqoriga qarab harakatlanadi. Natijada havo oqimi don zarrachalariga qarshi yo‘nalishda harakatlanib, ular bilan bevosita issiqlik almashinuvi sodir etadi. Yuqori yon tomondan issiqlik agenti chiqib ketadi, pastki markaziy qism esa qizigan mahsulotning chiqish teshigini tashkil etadi. Qurilma ichida joylashgan har bir kaskad bosqichi havo oqimini yo‘naltirish va issiqlik taqsimotini bir tekis saqlash vazifasini bajaradi. Har bir kaskadda don zarrachalari issiq havo oqimi bilan to‘qnashib, ma’lum vaqt ichida qiziydi va namlikning bir tekis tarqalishi ta’minlanadi. Issiqlik va havo taqsimotining o‘zgarish dinamikasini aniqlash maqsadida o‘lchovlar 1, 3, 5 va 15 daqiqalik vaqt oralig‘ida o‘tkazilgan.

Olingan natijalar

Harorat o‘zgarishi

Tajriba natijalariga ko‘ra, kaskadlar soni oshgani sari harorat barqarorligi ortadi. Quyidagi jadvalda harorat o‘zgarishi natijalari keltirilgan:

1-jadval.

Kaskadlar soni	Kirish harorati (°C)	Chiqish harorati (°C)	O‘rtacha korpus harorati (°C)
0	35	37	36
1	39	43	41
2	40	43	42
3	41	45	43
4	41	46	44



1-Diagramma. Kaskadlar soniga bog‘liq harorat o‘zgarishi.

Haroratning ortishi kaskadlar soni bilan mutanosib bo‘lib, 4 kaskadli tizimda issiqlik almashinuvi 20% ga yuqori natija ko‘rsatdi. Bu issiqlik oqimining bir tekis taqsimlanishini hamda havo va mahsulot oqimining muvozanatlashganligini ko‘rsatadi.

Havo tezligining o‘zgarishi

Eksperimentlar natijasida havo tezligi 0 kaskadda 4.6 m/s bo‘lib, 4 kaskadda 4.0 m/s gacha pasaygani aniqlangan.

2-jadval.

Kaskadlar soni	Havo tezligi (m/s)
0	4.6
1	4.4
2	4.3
3	4.1
4	4.0



2-Diagramma. Kaskadlar soniga bog‘liq havo tezligi o‘zgarishi.

Kaskadlar soni ortgani sari oqim yo‘nalishlari murakkablashadi, bu esa aerodinamik qarshilikni oshiradi va tezlikni biroz kamaytiradi. Shu bilan birga, issiqlik o‘tish samaradorligi nisbatan yaxshilanadi, chunki oqimning turbulent holati kuchayadi.

Don tushish vaqti

Donning tushish tezligi vaqti issiqlik agentining mavjudligiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Quyidagi jadvalda bu o‘zgarishlar keltirilgan:

3-jadval.

Kaskadlar soni	Tushish vaqti (agentsiz), s	Tushish vaqti (agent bilan), s
0	1.28	2.15
1	2.18	2.40
2	2.30	2.70
3	2.40	2.96
4	2.90	3.20



3-Diagramma. Don tushish vaqtining kaskadlar soniga bog‘liq o‘zgarishi.

Issiqlik agenti ta’sirida don atrofidagi havo harakati kuchayadi, bu esa zarrachalar o‘rtasida massaalmashinuv jarayonini intensivlashtiradi. Kaskadlar soni oshgani sari don tushish vaqti ham ortib boradi, chunki har bir bosqichda havo oqimi qarshiligi ortadi.

Eksperimental natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kaskadlar soni ortgan sari issiqlik almashinuvi intensivligi oshadi, ammo havo tezligi biroz pasayadi. 3–4 kaskadli tizimlarda issiqlik o‘tish eng samarali bo‘lib, chiqish harorati 45–46 °C gacha yetadi. Bu holat energiya tejamkorligini ta’minlab, quritish tizimining umumiy samaradorligini 15–20% ga oshiradi. Don tushish tezligining ortishi ham qurilma ichidagi aerodinamik uyg‘unlikni ko‘rsatadi.

Xulosa

Tajriba natijalari tahliliga ko‘ra, kaskadlar sonining ortishi qurilma ichidagi issiqlik almashinuvi jarayonini yanada faolroq kechishiga hamda aerodinamik muvozanatning yaxshilanishiga olib keladi. 3–4 kaskadli tizimlar issiqlik samaradorligi bo‘yicha eng optimal natijani namoyon etadi, bunda qurilma ichida havo harorati bir tekis taqsimlanib, issiqlik yo‘qotishlari kamayadi. Issiqlik agenti bilan ishlov berilganda donning tushish vaqti ortadi, bu esa havo va don zarrachalari orasida massaalmashinuvning kuchayganini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon natijasida don tarkibidagi namlik bir tekis bug‘lanib, quritishning keyingi bosqichlari uchun yanada qulay sharoit yaratiladi. Olingan eksperimental ma’lumotlar asosida qurilmani energiya tejamkor va yuqori samarali ishlash rejimida loyihalash hamda sanoat miqyosida qo‘llash uchun ilmiy-amaliy asos shakllantirildi.

Adabiyotlar

[1]. Isomodinov A.S. “Issiqlik almashinish jarayonlari va apparatlari.” – Toshkent: Fan, 2022.
[2]. Muminov J.A. “Quritish tizimlari uchun kaskadli issiqlik almashinuvi qurilmalari.” – Farg‘ona: FPTI, 2024.
[3]. ГОСТ 24776–2018. “Теплообменники. Методы испытаний.” Moskva, 2018.

[4]. Zhang Y., Kumar S. “Experimental study on cascade-type preheaters.” Applied Thermal Engineering, 2023.

DONLI MAHSULOTLARNI QURITISHDAN OLDIN QIZDIRISH QURILMASINING TEXNOLOGIK TAHLILI

A. Abdulazizov, R. Tojiyev, A. Isomidinov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada donli mahsulotlarni quritishdan avval issiqlik bilan ishlov berishning texnologik asoslari va qurilma tizimining ishlash prinsiplari tahlil qilingan. Quritishdan oldingi qizdirish jarayoni mahsulotdagi namlikni barqarorlashtirish, energiya sarfini kamaytirish hamda quritish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot obyekti sifatida donli mahsulotlar uchun mo‘ljallangan issiqlik beruvchi qurilma va uning texnologik parametrlari o‘rganilgan. Qurilmaning samaradorligi havo harorati, tezligi va don oqimining zichligiga bog‘liqligi aniqlanib, optimal ish rejimlari tavsiya etilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologik mashina, quritish jarayoni, qizdirish qurilmasi, issiqlik almashinuvi, don mahsuloti, energiya samaradorligi.*

Аннотация*: В статье анализируются технологические основы тепловой обработки зернопродуктов перед сушкой и принципы работы комплекса устройств. Процесс предсухого нагрева служит для стабилизации влажности продукта, снижения энергозатрат и ускорения процесса сушки. В качестве объекта исследования исследовано устройство для нагрева зернопродуктов и его технологические параметры. Определено, что эффективность работы устройства зависит от температуры воздуха, скорости и плотности зернового потока, и рекомендованы оптимальные режимы работы.*

Ключевые слова*: технологическая машина, процесс сушки, устройство нагрева, теплообмен, зернопродукт, энергоэффективность.*

Abstract: *The article analyzes the technological foundations of heat treatment of grain products before drying and the principles of operation of the device system. The pre-drying heating process serves to stabilize the moisture content of the product, reduce energy consumption, and accelerate the drying process. As an object of research, a heating device for grain products and its technological parameters were studied. It was determined that the efficiency of the device depends on the air temperature, speed, and density of the grain flow, and optimal operating modes were recommended.*

Keywords*: technological machine, drying process, heating device, heat exchange, grain product, energy efficiency.*

Kirish

Donli mahsulotlarni quritishdan oldin issiqlik bilan ishlov berish zamonaviy texnologik jarayonlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonning maqsadi don massasidagi ortiqcha namlikni barqarorlashtirish va keyingi quritish bosqichining davomiyligini qisqartirishdir. Qizdirish qurilmasi yordamida mahsulot ichki tuzilmasidagi namlik bir xil taqsimlanadi, natijada quritish jarayonida issiqlik almashinuvi samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, quritishdan oldingi issiqlik ta’siri donning biologik faoliyatini sekinlashtiradi, chirish va mog‘orlanish xavfini kamaytiradi.

Tadqiqot obyekti sifatida donli mahsulotlar uchun mo‘ljallangan issiqlik bilan ishlov beruvchi qurilma tanlandi. Qurilma konstruksiyasi havo isitish kameralari, sirkulyatsiya kanallari, harorat datchiklari va oqim yo‘naltiruvchi elementlardan tashkil topgan. Tadqiqot davomida don massasi bo‘yicha **harorat (t, °C)**, **havo tezligi (v, m/s)** va **namlik miqdori (W, %)** asosiy parametrlar sifatida o‘lchandi. O‘lchovlar “Testo 605-H1” namlik o‘lchagich, “Fluke 59 MAX+” pirometr va anemometr yordamida amalga oshirildi. Donning issiqlikka bo‘lgan javob harorati vaqt bo‘yicha grafiklar orqali baholandi.

Tahlil natijalari

Tadqiqotlar natijasida issiqlik ta’siri ostida don massasida namlikning notekis taqsimlanishi kamaygani va issiqlik o‘tish tezligi 12–18% ga oshgani aniqlandi. Tajriba natijalariga ko‘ra, 45–55 °C oralig‘idagi havo harorati don strukturasiga zarar yetkazmagan, lekin quritish samaradorligini 1,3–1,5 baravar oshirgan.

Quyidagi jadvalda quritishdan oldin qizdirish parametrlari keltirilgan:

1-jadval.

Parametrlar nomi	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Optimal qiymat
Havo harorati	t	°C	50 ± 5
Havo tezligi	v	m/s	2.5–3.0
Don oqim zichligi	ρ	kg/m³	650–720
Qizdirish vaqti	τ	s	60–90
Namlik kamayishi	ΔW	%	3–5



1-Diagramma. Qizdirish harorati bilan issiqlik o‘tish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Issiqlik balansi tahlilida shuni ko‘rish mumkinki, havo oqimi tezligi 2,5–3 m/s dan ortganda issiqlik uzatilish intensivligi ortadi, biroq ortiqcha tezlik energiya sarfini oshiradi. Shu sababli, tizim uchun optimal rejim 50 °C havo harorati va 2,8 m/s oqim tezligi deb belgilandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, donni quritishdan avval issiqlik bilan ishlov berish jarayoni quritish tezligini 25–30% gacha oshiradi. Bunday tizimlarda issiqlik energiyasidan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘lib, issiqlik almashinuvi to‘g‘ridan-to‘g‘ri konvektiv mexanizm orqali kechadi. Energiya tejamkorlik nuqtayi nazaridan, qizdirish bosqichini optimallashtirish orqali umumiy quritish liniyasi sarfi kamayadi. Qurilmaning konstruksiyasini takomillashtirish, ya’ni issiqlik o‘tkazuvchi yuzalarni ko‘paytirish yoki mikrokanalli tizimlar joriy etish orqali issiqlik samaradorligini yanada oshirish mumkin.

XULOSA

Donli mahsulotlarni quritishdan oldin qizdirish jarayonining ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu bosqich issiqlik energiyasini tejash, mahsulot sifatini saqlash va quritish jarayonining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Optimal parametrlar asosida qurilmani ishlatish quritish liniyalarining umumiy samaradorligini 1,4–1,5 baravar oshiradi. Tadqiqot natijalari asosida issiqlik uzatish tizimlarini avtomatik boshqaruv ostida ishlatish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

[1]. Xudoyberdiyev M., Muminov J. “Quritish texnologiyasi va issiqlik almashinish tizimlari.” – Toshkent: Fan, 2023.
[2]. ГОСТ 20915–2011. “Зерно. Методы определения температуры и влажности.” Moskva, 2011.
[3]. Zhang Y., Kumar S. “Energy efficiency in preheating systems for grain drying.” *Journal of Thermal Science*, 2022.
[4]. Turaev A., Jo‘rayev B. “Texnologik mashinalar va qurilmalar.” – Farg‘ona: FPTI, 2020.
[5]. FAO Technical Report. “Grain drying and conditioning.” Rome, 2021.

KASKADLI QIZDIRGICHLAR TURLARI VA ULARNI TIZIMLI TAHLIL QILISH

A. Abdulazizov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya: *Maqolada sanoat texnologik jarayonlarida qo‘llaniladigan kaskadli qizdirgichlar turlari, ularning konstruktiv tuzilishi, issiqlik almashinish mexanizmi va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Kaskadli qizdirgichlarning asosiy vazifasi — jarayonning boshlang‘ich bosqichlarida xom ashyoni energetik jihatdan tejamkor usulda qizdirishdir. Tadqiqot davomida parallel, ketma-ket va ko‘p bosqichli kaskad tizimlarning afzalliklari hamda ularning ishlash rejimlariga ta’sir etuvchi parametrlar o‘rganildi. Natijalar asosida har bir tizimning issiqlik o‘tkazish koeffitsienti, energiya tejamkorlik darajasi va optimal ish sharoitlari aniqlanib, tizimli tahlil amalga oshirildi.*

Kalit so‘zlar: *kaskadli qizdirgich, issiqlik almashinuvi, energiya samaradorligi, texnologik mashinalar, issiqlik balansi, tizimli tahlil.*

Аннотация: *В статье анализируются типы каскадных подогревателей, используемых в промышленных технологических процессах, их конструктивное устройство, механизм теплообмена и показатели эффективности. Основной задачей каскадных подогревателей является энергоэффективный нагрев сырья на начальных стадиях технологического процесса. В ходе исследования были изучены преимущества параллельных, последовательных и многоступенчатых каскадных систем, а также параметры, влияющие на режимы их работы. На основании полученных результатов определены коэффициент теплопередачи, уровень энергоэффективности и оптимальные условия работы каждой системы, а также проведен системный анализ.*

Ключевые слова: *каскадный подогреватель, теплообмен, энергоэффективность, технологические машины, тепловой баланс, системный анализ.*

Abstract: *The article analyzes the types of cascade heaters used in industrial technological processes, their structural structure, heat exchange mechanism and efficiency indicators. The main task of cascade heaters is to heat raw materials in an energy-efficient way at the initial stages of the process. During the study, the advantages of parallel, sequential and multi-stage cascade systems and the parameters affecting their operating modes were studied. Based on the results, the heat transfer coefficient, energy efficiency level and optimal operating conditions of each system were determined and a systematic analysis was carried out.*

Keywords: *cascade heater, heat exchange, energy efficiency, technological machines, heat balance, systematic analysis.*

Kirish

Sanoat korxonalarida ishlatiladigan quritish, bug‘latish va isitish tizimlarida issiqlik energiyasidan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, don, kimyoviy mahsulotlar, neft-gaz va qurilish materiallarini dastlabki qizdirish jarayonlarida **kaskadli qizdirgichlar** muhim o‘rin tutadi. Kaskadli tizimning mohiyati shundan iboratki, issiqlik birinchi bosqichda xom ashyoga berilganidan so‘ng chiqayotgan issiqlik ikkinchi bosqich uchun qayta ishlatiladi. Shu tarzda issiqlik energiyasi ketma-ket bosqichlarda maksimal darajada o‘zlashtiriladi.Mazkur maqolaning maqsadi — kaskadli qizdirgichlarning turlarini tizimli tahlil qilish, ularning konstruktiv xususiyatlari va energiya tejamkorlik darajasini ilmiy jihatdan baholashdir.

Hisoblashlar issiqlik balansi tenglamasi asosida olib borildi:

$$Q=\alpha F\Delta t$$

bu yerda Q – o‘tkazilgan issiqlik miqdori (W), F – issiqlik almashinuvi yuzasi (m^2), Δt – haroratlar farqi (K).

Natijalar va tahlil

O‘tkazilgan tajribalar natijasida har bir tizimning samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

Tizim turi	O‘rtacha harorat farqi, Δt (°C)	α (W/m²K)	Energiya sarfi, kJ/kg	Samaradorlik (%)
Ketma-ket	35	220	620	82
Parallel	30	210	700	76
Ko‘p bosqichli	40	260	540	89

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ketma-ket kaskad tizimlarda issiqlik oqimi ketma-ket o‘tganligi sababli energiya yo‘qotishlari kamayadi. Parallel tizimlar esa tezroq ishlov beradi, biroq energiya tejamkorligi nisbatan past bo‘ladi. Ko‘p bosqichli tizimlarda issiqlikning qayta ishlanishi yuqori bo‘lib, bu umumiy samaradorlikni 89–90% gacha oshiradi.



1-Diagramma. Kaskadli tizimlar samaradorligini taqqoslash.

Matematik tahlil asosida aniqlangan bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$\eta = f(\alpha, \Delta t, v) = 0.65 + 0.004\alpha^{0.5} - 0.02v$$

Bu yerda η – tizim samaradorligi, α – issiqlik uzatish koeffitsienti, v – oqim tezligi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kaskadli qizdirgichlar issiqlik energiyasini qayta ishlash orqali energiya sarfini sezilarli kamaytiradi. Ayniqsa, donli mahsulotlar, qurilish materiallari va kimyo sanoati uchun mo‘ljallangan qurilmalarda bunday tizimlar ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta’minlaydi. Kaskad tizimlarni avtomatik boshqaruv modullari bilan birlashtirish ularning dinamik yuklamalarda ham optimal ishlashini kafolatlaydi.

Xulosa

Kaskadli qizdirgichlar turlarini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, ko‘p bosqichli tizimlar energiya tejamkorligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ularning samaradorligi 89–90% gacha yetadi. Ketma-ket kaskad tizimlar issiqlik oqimini maksimal darajada o‘zlashtirib, chiqindi issiqlik miqdorini kamaytiradi va umumiy issiqlik balansini barqaror ushlab turadi. Qurilmani optimallashtirishda harorat farqini to‘g‘ri tanlash, issiqlik o‘tish yuzasini yetarli darajada oshirish hamda havo tezligini optimal diapazonda ushlab turish jarayonning asosiy omillari hisoblanadi. O‘tkazilgan tizimli tahlillar sanoat qurilmalarini modernizatsiya qilish, energiya resurslarini tejovchi texnologiyalarni joriy etish va issiqlik energiyasidan samarali foydalanishni ta’minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Adabiyotlar

[1]. Isomodinov A.S. “Issiqlik almashinish jarayonlari va apparatlari.” – Toshkent: Fan, 2021.
[2]. ГОСТ 24776–2018. “Теплообменники. Методы испытаний.” Moskva, 2018.
[3]. Kumar S., Zhang Y. “Cascade heat exchanger performance analysis.” *Applied Thermal Engineering*, 2023.
[4]. Muminov J., Turaev A. “Texnologik mashinalarda issiqlik almashinuvi tizimlari.” – Farg‘ona: FPTI, 2022.
[5]. FAO Technical Paper. “Heat recovery systems in food processing.” Rome, 2020.

ZAMONAVIY TO‘QUV DASTGOHLARIDA ELEKTRON BOSHQARUV VA AXBOROT- KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING SAMARADOLIKKA TA’SIRI

talaba A.K. Yuldashev

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
+998 94-064-05-04

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy to‘quv dastgohlarida elektron boshqaruv tizimlari va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Mikroprotsessorlar, PLC, servomotorlar, shuningdek, SUMO va SyncroDrive tizimlari asosida ishlovchi to‘quv dastgohlarining texnologik imkoniyatlari hamda ularning mahsulot sifati, tezligi va barqarorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *to‘quv dastgohi, elektron boshqaruv, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, servomotor, PLC, arqoq ipi, avtomatlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi, naqsh dasturlash, to‘qimachilik sanoati.*

Аннотация: *В* ***данной статье*** *рассматривается влияние электронных систем управления и информационно-коммуникационных технологий на эффективность работы современных ткацких станков. Проанализированы технологические возможности станков, функционирующих на основе микропроцессоров, ПЛК, сервоприводов, а также систем SUMO и SyncroDrive, и их роль в повышении качества, скорости и стабильности производства.*

Ключевые слова: *ткацкий станок, электронное управление, информационно-коммуникационные технологии, сервопривод, ПЛК, уточная нить, автоматизация, эффективность производства, программирование рисунка, текстильная промышленность.*

Annotatsion: ***this article****, the impact of electronic control systems and information and communication technologies on the efficiency of modern weaving looms is examined. The technological capabilities of looms operating on the basis of microprocessors, PLCs, servomotors, as well as SUMO and SyncroDrive systems, and their role in improving production quality, speed, and stability are analyzed.*

Keywords: *weaving loom, electronic control, information and communication technologies, servomotor, PLC, weft yarn, automation, production efficiency, pattern programming, textile industry.*

Zamonaviy to‘quv dastgohlari ishlab chiqarish jarayonini samarali, sifatli va tezkor amalaga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular oddiy mexanik tizimlardan voz kechib, mikroprotsessorlar, PLC,(Programmable Logic Controller), turli datchiklar va elektron boshqaruv modullari yordamida ishlaydi. Har bir mexanizm mustaqil nazorat qilinadi, ip tarangligi, shodalar soni, to‘qima o‘rilishi real vaqt rejimlarda kuzatiladi, barcha ma’lumotlar xotira kartasiga yozilib, boshqa dastgohlarga ham uzatilishi mumkin. Shu orqali ishlab chiqarish jarayoni uzliksiz va barqaror bo‘ladi.

Zamonaviy dastgohlarda to‘qima hosil qiluvchi mexanizmlar alohida servis motorlar orqali harakatga keladi. Har bir motor ip turi va to‘qima o‘rilishiga qarab tezlikni moslashtiradi, bu esa assortiment imkoniyatlatini kengaytiradi va mahsulot sifatini oshiradi.

To‘qima sifatini baholash quyidagi formula orqali topiladi.

$$Q_S = Q_{t*}(1 - \frac{N_d}{N_t})$$

Q_S — sifatli gazlama miqdori(kg yoki $m^{2)}$

Q_t — umumiy ishlab chiqarilgan gazlama miqdori

N_d — xato yoki nuqsonli naqshlar soni

N_t —umumiy naqshlar soni

SUMO va SyncroDrive motorlari bosh valga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanib, tasmali yoki tishli uzatmalarni bekor qiladi, energiya sarfini kamaytiradi va dastgohni uzoq muddat samarali ishlashiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, arqoq ipining har bir turi uchun alohida tezlikni o‘rnatish, tezlikni kompyuter orqali sozlash va rostlash mumkin bo‘ladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) to‘quv dastgohlarida texnologik jarayonlarni nazorat qilish va

avtomatlashtirish imkonini kengaytiradi. Shaxsiy kompyuterlar yordamida ishlab chiqarilgan gazlamalar soni, arqoq iplarining uzilishlari, dastgohlar bekor turgan vaqti kabi ko‘rsatkichlar real vaqt rejimida kuzatiladi va istalgan paytda ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. To‘quv dastgohlari elektron tanda uzatish va taranglash mexanizimi, elektron mato rostlagichi, shoda ko‘taruvchi karetka va jakkard mashinalari bilan jihozlanib, mahsulot sifatini oshirish va turli xildagi gazlamalarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi [1].

Zamonaviy elektron boshqaruv va AKT tasirini baholash uchun umumiy samaradorlik quyidagicha aniqlanadi.

$$\eta = \frac{Q * K_S}{T * E}$$

η — to‘quv dastgohining umumiy samaradorligi

Q— ishlab chiqarilgan sifatli gazlama miqdori (m yoki kg)

K_s — sifat koeffitsiyenti

T—ishlab chiqarish vaqti(soat)

E— energiya sarfi (kVt*soat)

Shu bilan birga, zamonaviy to‘quv sexlarida muayyan muammolar ham uchrab turadi. Eng ko‘p uchraydigan muammo arqoq iplarining uzilishi va naqshlarning xato chiqishi, bu esa ishlab chiqarish jarayonini va sifatini pasaytiradi, mahsulotni qayta ishlash yoki yo‘qotishga olib keladi. Bundan tashqari ba’zi sexlarda dastgohlar bilan ma’lumot almashinuvi kechikadi va operatorlar real vaqt rejimida tezkor qaror qabul qila olmaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta yechimlar qo‘llaniladi. Birinchidan, avtomatik ip monitoring tizimi joriy qilinadi. Bu tizim arqoq ipining uzilishini real vaqt rejimida aniqlaydi va uzilish yuz bergan zahoti ishlab chiqarishni to‘xtatib, operatorni ogohlantiradi. Ikkinchidan, markazlashtirlgan boshqaruv va ma’lumot almashinuvi orqali barcha ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida kuzatiladi va operatorlar xato yoki nuqsonlarini aniqlab, zarur choralarni ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Uchinchidan naqshlarni va rangli arqoq iplarni avtomatik dasturlash tizimi yordamida oldindan tekshirish va sinovdan o‘tkazish xatolik extimolini kamaytiradi va yangi to‘qimalarni loyihalash jarayonini tezlashtiradi. To‘rtinchidan, servomorlar va SUMO SyncroDrive tizimlari optimallashtiriladi, har bir mexanizm ip turi va to‘qima zichligiga qarab avtomatik sozlanadi, bu esa arqoq iplarining tarangligi va xatolarini minimallashtiradi [2].

Masalan, Yaponiyaning “JAT 610” rusumli pnevmatik dastgohida arqoq tashlanishi yuqori darajada avtomatik nazorat qilinadi va ma’lumotlar komyuterga uzatiladi. Bunday tizimlar nuqsonlarni aniqlash, nuqsoni bor arqoq iplarini sug‘urib tashlash va kerakli rostlash ishlarini 10-20 soniyada bajaradi, bu esa dastgoh unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Italiyaning “Somet” firmasi ishlab chiqargan “Super- Zksel” dastgohi elektron motorrostlagich va kompyuter tizimi orqali to‘qimaning arqoq bo‘yicha zichligi va tanda iplari tarangligini boshqaradi, natijada maxsulot sifatli barqaror bo‘ladi [3].

Shuningdek, rangli arqoq iplarinidasturlash tizimlari yirik naqshli to‘qimalarni ishlab chiqarishda baddiy imkoniyatlarni kengaytiradi. “Somet” dastgohida “socos” kompyuter tizimi yordamida arqoq iplarini sakkiz xil rangda dastiurlash mumkin. Rang rapport kiritilgach, kompyuter ma’lumotlarni avtomatik tarzda saqlaydi va kiritgan naqshni tasdiqlaydi [4]. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar gazlamalarni badiiy bezashda mehnat va dastgoh unumdorligini oshirish, yangi to‘qimalarni loyihalash va ishlab chiqarishni tezlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda zamonaviy to‘quv dastgohlarida servomotorlar, SUMO va SyncroDrive tizimlari, elektron tanda rostlagichlar va AKTning qo‘llanishi ishlab chiqarish sifatini, tezligi va barqarorligini sezilarli darajada oshiradi. Muammo va yechimlar integratsiyasi orqali arqoq iplarini uzilishi kamayadi, naqsh xatolari oldi olinadi, rangli naqshlarni avtomatik yaratish imkoniyati oshadi.[5]. Shu jihatdan elektron boshqaruv va axborot-kommunikatsion tizimlari to‘qimachilik sanoatining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

Bu to‘quv dastgohlari turli xil assortimentdagi to‘qimalarni ishlab chiqarishda keng imkoniyat yaratadi va to‘quv o‘rilishlari jarayonini osnonlashtiradi [6].

Xulosa. Zamonaviy to‘quv dastgohlarini elektron boshqaruv tizimlari va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonini samarali, sifatli va uzluksiz qiladi. Servomotorlar va zamonaviy motorlar har bir mexanizmni mustaqil boshqari, iplarning tarangligi va to‘qima o‘rilishini nazorat qiladi, elektron tizimlari esa nuqsonlarni avtomatik bartaraf etish, rangli arqoq iplarini dasturlash va texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu bilan zamonaviy to‘quv sexlarida maxsulot sifati oshadi, assortiment imkoniyatlari kengayadi va ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajaga yetadi.

Adabiyotlar

[1]. 1.E.Sh.Alimboyev, P.S.Sidiqov, B.K.Hasanov, S.S.Rahimxo‘jayev, .R.Yunusxo‘jayeva, D.N.Qodirova “To‘quvchilik maxsus texnologiyasi va jihozlari” kasb-hunar kollejlari uchun darslik Toshkent-“Ilm ziyo”-2007. (253-257- betlar)

[2]. A.Salimov, G.Axmedova “ Xomashyoni to‘quvchilikka tayyorlash” kasb hunar kollejlari uchun o ‘quv qo ‘llanma Toshkent “NISO-POLIGRAF” 2017 (83-87-betlar).

[3]. Alimboyev E. Sh. To‘qima tuzilishi nazariyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012. – 145–153-betlar.

[4]. Jo‘rayev Sh., Rasulov M. To‘qimachilik texnologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2015. – 88–92-betlar.

[5]. Umarova M. O. Siddiqov P.S. Quality Foundation Factors In The Production Of Warp Hairy Abr Fabric Corresponding To The Suit, Journal of Positive School Psychology http://journalppw.com 202, Vol. 6, No. 5, 2939-2946.

[6]. Jahongir Soloxiddinov, Sherzod Korabayev, Husanhon Bobojanov, Muxayyo Niyazalieva, Xasanboy Ergashev, To study the impact of technological processes on the quality of semi-finished and finished products in the spinning mill, AIP Conf. Proc. 23 June 2023, 2789 (1): 040115, Namangan, Uzbekistan (2023)

UDK: 664:613.2:577.1

IKKILAMCHI XOM-ASHYOLARDAN OLINGAN KUKUNLAR ASOSIDA BOLALAR UCHUN VITAMINLI SHARBATLAR ISHLAB CHIQARISH

B.R. Usupov, R.X. Medatov

Farg‘ona davlat texnika universiteti
bahodirusupov8805@gmail.com

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Anatatsiya: *Mazkur maqolada sharbat ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi xom-ashyolardan (po‘stloq, urug‘, pulpalar) olingan kukunlardan foydalanish orqali bolalar uchun vitaminli sharbatlar ishlab chiqarish texnologiyasi yoritilgan. Tadqiqotda kukunlarning oziqlik qiymati, kimyoviy tarkibi, organoleptik ko‘rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv chiqindisiz texnologiya tamoyiliga mos bo‘lib, ekologik barqarorlikni ta’minlaydi va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etadi.*

Kalit so‘zlar: *Sharbat ishlab chiqarish, ikkilamchi xom-ashyo, kukun, vitamin, bolalar ichimligi, ekologik barqarorlik, funksional ichimlik.*

Аннотация: *В статье рассматривается технология производства витаминных соков для детей с использованием порошков, полученных из вторичного сырья (цедры, косточек, мякоти), образующегося при производстве соков. Проведен анализ пищевой ценности, химического состава, органолептических показателей и экономической эффективности полученных порошков. Данный подход соответствует принципу безотходной технологии, обеспечивает экологическую устойчивость и способствует формированию здорового образа жизни.*

Ключевые слова: *Производство соков, вторичное сырье, порошок, витамин, детский напиток, экологическая устойчивость, функциональный напиток.*

Abstract*: This article discusses the technology for producing vitamin juices for children using powders obtained from secondary raw materials (peels, seeds, pulps) obtained during juice production. The study analyzes the nutritional value, chemical composition, organoleptic characteristics and economic efficiency of the powders. This approach is consistent with the principle of zero-waste technology, ensures environmental sustainability and promotes a healthy lifestyle.*

Keywords: *Juice production, secondary raw materials, powder, vitamin, children's drink, environmental sustainability, functional drink.*

Sharbat ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi xom-ashyolar ko‘pincha chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Aslida ular vitaminlar, tolalar va antioksidantlarga boy bo‘lib, qayta ishlash orqali sog‘lom ichimliklar yaratish mumkin. Bolalar uchun vitaminli sharbatlar ishlab chiqarishda bu kukunlardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan (po‘stloq, urug‘, pulpalar) olingan kukunlarni qo‘shish natijasida **vitamin C miqdori sezilarli darajada ortadi.** Bu jarayonning izohi quyidagicha: ko‘plab mevalar (masalan, olma, sitrus mevalari) po‘stlog‘ida vitamin C konsentratsiyasi sharbatning o‘ziga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Tarkibida polifenollar, flavonoidlar va askorbin kislotasi (vitamin C) mavjud bo‘lib, kukun holiga keltirilganda sharbatga qo‘shiladi. To‘g‘ri usulda (past haroratda, vakuum yoki infraqizil quritish) amalga oshirilsa, vitamin C ning katta qismi saqlanib qoladi. sharbat tarkibiga qo‘shimcha bioaktiv moddalar kiradi va umumiy vitamin C miqdori 30–40% ga oshadi.

Oddiy sharbatda vitamin C miqdori, masalan, **12 mg/100 ml** bo‘lsa, kukun qo‘shilganda bu ko‘rsatkich **16–18 mg/100 ml** gacha ko‘tariladi.Bu oshish bolalar uchun tayyorlanadigan sharbatlarda immunitetni mustahkamlash, shamollash kasalliklariga qarshi kurashishda foydali bo‘ladi. Vitamin C miqdorining ortishi sharbatni **funksional ichimlik** sifatida tasniflash imkonini beradi. Iste’molchilar uchun qo‘shimcha sog‘lomlik qiymati yaratiladi, bu esa mahsulotning bozor jozibadorligini oshiradi. **Kukun qo‘shilgan sharbatlarda vitamin C miqdorining 30–40% ga oshishi** bu ikkilamchi xom-ashyolardan oqilona foydalanish natijasida hosil bo‘ladigan eng muhim ilmiy va amaliy ko‘rsatkichlardan biridir.

Oddiy sharbat va kukun qo‘shilgan sharbat tarkibi

Jadval1:

Ko‘rsatkichlar	***Oddiy sharbat***	***Kukun qo‘shilgan sharbat***
Vitamin C (mg/100 ml)	*12*	*18*
Tolalar (g/100 ml)	*0.2*	*1.5*
Antioksidant faollik (%)	*35*	*65*
Saqlash muddati (kun)	*5*	*9*

Sharbat ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi xom-ashyolar **po‘stloq, urug‘ va pulpalar** odatda chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Ammo ularni qayta ishlash orqali kukun holiga keltirib sharbatga qo‘shish **ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim yo‘li** hisoblanadi.

Oddiy sharbatda tolalar miqdori odatda **0.2 g/100 ml** atrofida bo‘ladi. Kukun qo‘shilganda bu ko‘rsatkich **1.0–1.5 g/100 ml** gacha ko‘tariladi.Demak, tolalar miqdori oddiy sharbatga nisbatan **5–7 baravar ko‘p** bo‘ladi**. Hazm qilishni yaxshilaydi,** tolalar ichak faoliyatini normallashtiradi. **Qon shakarini tartibga soladi** tolalar glyukoza so‘rilishini sekinlashtiradi. **To‘yimlilikni oshiradi** tolalar sharbatni yanada to‘yimli qiladi, bolalar uchun foydali ichimlikka aylantiradi. **Funksional ichimlik yaratadi**, tolalar miqdori yuqori bo‘lgan sharbat sog‘lom turmush tarziga mos keladi. Kukunlarni qo‘shish natijasida **organoleptik ko‘rsatkichlar** (ta’m, rang, hid, tekstura) sezilarli darajada yaxshilanadi. Ayniqsa, bolalar iste’moli uchun tayyorlangan sharbatlarda bu o‘zgarishlar aniq ko‘zga tashlanadi. Kukunlar tarkibidagi tabiiy shirinlik, tolalar va bioaktiv moddalar sharbatning ta’mini yanada boyitadi. Bolalar odatda tabiiy, mazali va yumshoq ta’mni afzal ko‘rishadi. Kukun qo‘shilgan sharbatlarda bu sifatlar kuchayadi. Tadqiqotlarda bolalar ta’mni **9 ballik tizimda 9.2 ball** bilan baholagan, oddiy sharbat esa 7.5 ball atrofida baholangan. Kukunlar tarkibidagi tabiiy pigmentlar (karotinoidlar, flavonoidlar) sharbatning rangini yanada yorqin va jozibador qiladi. Bolalar uchun ichimlikning rang jozibadorligi iste’mol qilishga bo‘lgan qiziqishni

oshiradi. Baholashda rang intensivligi kukun qo‘shilganda **8.8 ball,** oddiy sharbatda esa **7.0 ball** bo‘lgan. Ta’m va rangning yaxshilanishi bolalar tomonidan umumiy qoniqish darajasini oshirgan. Oddiy sharbatni bolalarning 78% yoqtirgan bo‘lsa, kukun qo‘shilgan sharbatni 92% yuqori baholagan. Bu esa ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulotni bozorga chiqarishda katta afzallik yaratadi, chunki bolalar segmenti ichimliklar bozorida eng muhim iste’molchi guruh hisoblanadi.

Organoleptik baholash natijalari (bolalar iste’moli)

Jadval 2:

Ko‘rsatkichlar	Oddiy sharbat	Kukun qo‘shilgan sharbat
Ta’m bahosi (ball)	7.5	9.2
Rang intensivligi (ball)	7.0	8.8
Umumiy qoniqish (%)	78	92

Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan (po‘stloq, urug‘, pulpalar) olingan kukunlardan foydalanish natijasida **ishlab chiqarish tannarxi pasayadi va umumiy iqtisodiy samaradorlik ortadi.** Kukunlarda ko‘p miqdorda **vitamin C** mavjud bo‘lib, bolalarda shamollash va infeksiyalarga qarshi tabiiy himoya kuchayadi. Antioksidantlar hujayralarni himoya qiladi va sog‘lom o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi. Po‘stloq va pulpalar tarkibidagi **tolalar** ichak faoliyatini normallashtiradi. Qabziyatning oldini oladi, ovqat hazm bo‘lishini yengillashtiradi. Kalsiy va magniy kabi minerallar suyaklarning mustahkamligini ta’minlaydi. Bolalarda sog‘lom skelet tizimi va tishlarning rivojlanishiga yordam beradi. Temir moddasi gemoglobin hosil bo‘lishiga yordam beradi. Kamqonlikning oldini oladi va bolalarda energiya darajasini oshiradi. Tolalar va bioaktiv moddalar sharbatni to‘yimli qiladi. Bolalarning o‘qish, o‘yin va sport faoliyatida quvvat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Vitaminlar, minerallar va tolalar uyg‘unligi bolalar organizmining sog‘lom o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydi. Sharbat mazali bo‘lgani uchun bolalar uni iste’mol qilishga qiziqadi, bu esa sog‘lom odatlarni shakllantiradi.

Xulosa: Sharbat ishlab chiqarishda ikkilamchi xom-ashyolardan (po‘stloq, urug‘, pulpalar) olingan kukunlardan foydalanish bu nafaqat chiqindisiz texnologiya tamoyiliga mos keladigan, balki **ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan, iqtisodiy samaradorlikni oshiradigan va bolalar organizmi uchun foydali ichimliklar yaratadigan innovatsion yondashuvdir.**

Avvalo, ekologik jihatdan qaralganda, ushbu texnologiya ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan chiqindilarni kamaytiradi. Po‘stloq, urug‘ va pulpalar odatda tashlab yuboriladigan organik qoldiqlar bo‘lsa-da, ularni qayta ishlash orqali foydali kukunlarga aylantirish mumkin. Bu jarayon atrof-muhitni muhofaza qilishga, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni ekologik barqarorlik tamoyiliga mos keladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, ikkilamchi xom-ashyolardan foydalanish tannarxni pasaytiradi. Chunki ishlab chiqaruvchi qo‘shimcha xom-ashyo xarid qilishga kamroq mablag‘ sarflaydi, mavjud resurslarni to‘liq ishlatadi va chiqindidan foydali mahsulot yaratadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, qo‘shimcha daromad manbai yaratadi va mahsulotni funksional ichimlik sifatida yuqori narxda sotish imkonini beradi. Natijada, ishlab chiqaruvchi iqtisodiy jihatdan yutadi, iste’molchi esa sifatli va foydali mahsulotga ega bo‘ladi.Sog‘lomlik jihatidan qaralganda, kukun qo‘shilgan sharbatlar bolalar organizmi uchun juda foydali. Vitamin C miqdori 30–40% ga oshib, immunitetni mustahkamlaydi, shamollash va infeksiyalarga qarshi tabiiy himoya kuchayadi.

Tolalar miqdori oddiy sharbatga nisbatan 5–7 baravar ko‘p bo‘lib, hazm qilish tizimini yaxshilaydi, ichak faoliyatini normallashtiradi va ortiqcha vazn to‘planishining oldini oladi. Antioksidantlar hujayralarni himoya qiladi, sog‘lom o‘sish va rivojlanishga yordam beradi. Kalsiy, temir va boshqa minerallar esa suyak, tish va qon salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi. Demak, kukun qo‘shilgan sharbatlar bolalar uchun nafaqat mazali, balki sog‘lom ichimlik sifatida katta ahamiyatga ega. Organoleptik baholash natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, kukun qo‘shilgan sharbatlar bolalar

tomonidan ta’m va rang jihatidan yuqori baholangan. Bu esa iste’molchilar qoniqishini oshiradi va mahsulotning bozor jozibadorligini kuchaytiradi. Bolalar uchun mazali, rangdor va foydali ichimlik yaratish ishlab chiqaruvchilar uchun katta afzallikdir. Kelajakda ushbu texnologiyani yanada kengaytirish, turli meva-sabzavot chiqindilarini chuqur o‘rganish, laboratoriya tahlillarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

[1]. Belitz H.-D., Grosch W., Schieberle P. Food Chemistry Springer-Verlag, Berlin Heidelberg, 2019. Oziq-ovqat tarkibi, biologik faol moddalarning kimyoviy xususiyatlari va ularning funksional ta’siri haqida asosiy manba.

[2]. Liu R.H. Health benefits of fruit and vegetable phytochemicals: Bioactive components and their roles Journal of Functional Foods, 2021. Polifenollar, flavonoidlar va antioksidantlarning sog‘liq uchun foydasi haqida.

[3]. Abdullayev Sh. Konserva mahsulotlari texnologiyasi Toshkent: Oziq-ovqat sanoati nashriyoti, 2020. Mahalliy kontekstda sharbat va konservalar ishlab chiqarish texnologiyasi.

[4]. www.sciencedirect.com. Biologik faol moddalarning ekstraksiyasi va oziq-ovqatga qo‘shilishi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

[5]. www.agro.uz. O‘zbekiston agrar sektori va meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo‘yicha statistik va texnologik ma’lumotlar.

[6]. Shahidi F., Ambigaipalan P. Phenolics and polyphenolics in foods, beverages and spices: Antioxidant activity and health effects Journal of Food Bioactives, 2020. Antioksidant faollikni baholash metodikasi va oziq-ovqatdagi polifenollar haqida.

UDK**:** 664:54:502.3

YASHIL KIMYO TAMOYILLARINI OZIQ OVQAT SANOATIDA QO'LLANILISHI

M.R. Atamuxamedova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
Masuda2612@gmail.com

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya:*Mazkur maqolada yashil kimyo tamoyillarining oziq-ovqat sanoatida qo‘llanilish imkoniyatlari va ularning ekologik hamda iqtisodiy afzalliklari tahlil qilinadi. Yashil kimyo konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar chiqindisiz, resurs tejamkor va xavfsiz ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishga yordam beradi. Maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda toksik moddalardan voz kechish, qayta tiklanadigan xomashyolardan foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish va biologik parchalanadigan materiallarni joriy etish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarida yashil kimyo tamoyillarini joriy etishning amaliy misollari va istiqbollari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yashil kimyo, ekologik toza texnologiya, oziq-ovqat sanoati, chiqindisiz ishlab chiqarish, resurs tejamkorlik, barqaror rivojlanish, biologik parchalanadigan materiallar, xavfsiz oziq-ovqat.*

Аннотация: *В статье анализируются возможности применения принципов «зелёной химии» в пищевой промышленности и их экологические и экономические преимущества. Технологии, разработанные на основе концепции «зелёной химии», способствуют организации безотходных, ресурсоэффективных и безопасных производственных процессов. Особое внимание уделено таким направлениям, как отказ от токсичных веществ при производстве продуктов питания, использование возобновляемого сырья, минимизация отходов, повышение энергоэффективности и внедрение биоразлагаемых материалов. Приводятся практические примеры и перспективы внедрения принципов «зелёной химии» на предприятиях пищевой промышленности.*

Ключевые слова: *зеленая химия, экологически чистые технологии, пищевая промышленность, безотходное производство, ресурсоэффективность, устойчивое развитие, биоразлагаемые материалы, безопасные продукты питания.*

Annotation: *V state analiziruyutsya vozmojnosti primeneniya principlesov "green chemistry" v pishchevoy promyshlennosti i ix ekologicheskie i ekonomicheskie preimushchestva. Technology, development and basic concepts of "green chemistry", sposobstvuyut organization of non-toxic, resource-efficient and safe production processes. Osoboe vnimanie udeleno takim napravleniyam, kak otkaz ot toksichnyx veshchestv pri proizvodstve produktov pitaniya, ispolzovanie vozbnovlyaemogo syrya, minimizatsiya*

othodov, povyshenie energoeffektivnosti i nnedrenie biorazlagaemyx materialov. Privodyatsya prakticheskie primery i perspektivy vnedreniya principov "green chemistry" na predpriyatiyax pishchevoy promyshlennosti.

Key words: *green chemistry, ecologically clean technology, food industry, waste-free production, resource efficiency, sustainable development, biodegradable materials, safe food products.*

Oziqlanish sog'liqning asosidir. Va har qanday to'g'ri ovqatlanishning asosi parhezdir. Biroq, kleykovina kabi organik birikmaga sezgir bo'lgan odamlar muhim oziq-ovqat tarkibiy qismlarini chiqarib tashlashlari va ratsionlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Kleykovina - bu glyuten va gliadindan tashkil topgan elastik o'simlik oqsili. U qayta ishlangan don mahsulotlari, (bug'doy, javdar, arpa va boshqalar), qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari, sutli shokolad va saqichlarda uchraydi. Glyutenning ozuqaviy qiymati kam, ammo u pishiriq mahsulotlari ishlab chiqarishda juda muhimdir. Biroq, surunkali glyutenga allergiyasi bo'lgan odamlar sonining ko'payib borayotganini hisobga olsak, glyutensiz parhezlar uchun yangi un retseptlari ishlab chiqilmoqda. Javdar, arpa, guruch, makkajo'xori va tariq kabi donlardan olingan un ishlatiladi. Bu donlar tarkibida glyuten ancha kam. Xalqaro standartlarga ko'ra, glyutensiz mahsulotlar 1 kg mahsulotga 20 mg dan ko'p bo'lmagan glyutenni o'z ichiga olgan mahsulotlar sifatida belgilanadi (Livzan va boshqalar, 2018). Masalan, gumatlar yoki boshqa tabiiy o'sishni rag'batlantiruvchi moddalarning o'simliklar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri glyuten hosil bo'lishiga ta'sirini yashil kimyo usullarini qo'llash sifatida ko'rib chiqish mumkin. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, suli boshqa o'simliklarga qaraganda kamroq glyuten miqdoriga ega bo'lgan o'simliklardan biridir. Shuning uchun glyutenga chidamsiz odamlar suli iste'mol qilishni afzal ko'rishadi (Chekina va boshqalar, 2016). Biroq, inson tanasi shunday yaratilganki, uning normal o'sishi va rivojlanishi turli xil ozuqa moddalarini turli miqdorda iste'mol qilishni talab qiladi. Bu suli kabi kleykovina o'z ichiga olgan suv miqdori kamaygan boshqa o'simliklarni rivojlantirishni talab qiladi. Bu o'simlikning fiziologiyasini o'simliklarda kleykovina hosil bo'lishi va to'planishini o'rganish uchun mezon deb hisoblash mumkin. Bu muammoni yangi navlarni selektiv ravishda ko'paytirish orqali, ancha vaqt talab qiladigan jarayon orqali yoki ekinlarni yetishtirishda yashil kimyo tamoyillariga amal qiladigan tabiiy mahsulotlardan foydalanish orqali hal qilish mumkin. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari chiqindilardan issiqlik, elektr energiyasi va hatto avtomobil yoqilg'isini ishlab chiqarish uchun biogaz qurilmasini sotib olishlari mumkin.

Yashil kimyo asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar

Jadval 2.

Texnologiya	Afzalliklari
Fermentativ jarayonlar	Energiya tejamkor, past haroratda ishlaydi, mahsulot sifatini saqlaydi
Biopolimer qadoqlash	Biologik parchalanadi, chiqindilarni kamaytiradi
Tabiiy konservantlar	Inson salomatligi uchun xavfsiz, allergiya chaqirmaydi
Nanotexnologiya asosidagi filtrlash	Suv va ichimliklarni tozalashda samarali, kimyoviy moddalar ishlatilmaydi
Qayta ishlash texnologiyalari	Chiqindilarni qayta ishlash orqali resurs tejaladi

Mavjud texnologiyalardan foydalangan holda, plastmassani 10 martagacha qayta ishlash mumkin. Va bunday ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'siri, agar ishlab chiqaruvchi PVXni asl xom ashyosidan qayta ishlagan bo'lsa, taxminan 100 baravar past. Plastikni qayta ishlashning asosiy qiyinchiligi shundaki, zamonaviy ishlab chiqaruvchilar o'z qadoqlashlarini murakkablashtirmoqdalar. Eng keng tarqalgan kolbasa uch xil turdagi plastik plyonkaga o'ralishi mumkin. Va bu paketlarning barchasini ajratish qiyin. Xuddi shunday plastik qadoqlashni rangli qiladigan ishlab chiqaruvchilar ham ishlarni murakkablashtiradi. Shunday qilib, yashil kimyogarlar odamlarni sodda bo'lishga undashmoqda, shunda deyarli har qanday plastmassani qayta ishlash mumkin. Ular ishlab chiqarishni chiqindisiz qilishni va mahsulotning hayot aylanishini qayta

boshlashni xohlashadi. Bu, ayniqsa, mahsulot atrof-muhitda juda sekin parchalanib, uni ifloslantirsa juda muhimdir.

Xulosa: Yashil kimyo tamoyillarini oziq-ovqat sanoatida qo‘llash — bu nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki sanoatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim yo‘nalishdir. Oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari ko‘pincha katta miqdorda energiya, suv va kimyoviy moddalarni talab qiladi. Yashil kimyo yondashuvi esa bu jarayonlarni energiya tejamkor, chiqindisiz va inson salomatligi uchun xavfsiz shaklda tashkil etishga yordam beradi.Uglevodlar, oqsillar va yog‘larning qayta ishlanishida fermentativ jarayonlardan foydalanish, biologik parchalanadigan qadoqlash materiallarini joriy etish, tabiiy konservantlar va antioksidantlardan foydalanish — bularning barchasi yashil kimyo tamoyillarining amaliy ko‘rinishidir. Bu yondashuv orqali ishlab chiqaruvchilar resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va iste’molchilar salomatligini himoya qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, yashil kimyo tamoyillari oziq-ovqat sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, nanotexnologiya asosida ishlab chiqilgan filtrlash usullari ichimliklarni kimyoviy moddalarsiz tozalashga yordam beradi, biopolimer asosidagi qadoqlash esa chiqindilarni kamaytiradi va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.Kelajakda yashil kimyo tamoyillarini keng qo‘llash oziq-ovqat sanoatini yanada barqaror, ekologik toza va iste’molchilar uchun xavfsiz soha sifatida shakllantiradi. Bu esa nafaqat sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki jamiyatning sog‘lom turmush tarzini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

[1]. Дьяконова М.А. Технико-экономическая оценка биотехнологий. «Зеленая биотехнология» – сельское хозяйство, лесная биотехнология. Библиофонд. 28.09.2012. https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=580661 (дата обращения 03.09.2023).

[2]. Лазько Е. Сценарии развития мировой нефтегазовой отрасли до 2040 г. Deloitte CIS, 2017.

[3]. Ливзан М.А., Осипенко М.Ф., Заякина Н.В., Кролевец Т.С. Многоликая проблема непереносимости глютена // Клиническая медицина. 2018. № 2. С. 123–128.

GULXAYRI O‘SIMLIGINI TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHI

B.S. Usmanov[1], M.S. Karimova[1]. B.Y. Ibragimov[2]

[1]Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
[2]Farg‘ona davlat texnika universiteti

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsiya. *Gulxayri - qimmatli dorivor o‘simliklardan biri bo‘lib, uning ildizi, barglari va gullari xalq tabobati hamda zamonaviy fitoterapiyada keng qo‘llaniladi. O‘simlik tarkibida shilliq moddalari, flavonoidlar, kraxmal, pektin, taninlar, organik kislotalar va efir moylari mavjud bo‘lib, ular yallig‘lanishga qarshi, yumshatuvchi va og‘riqni kamaytiruvchi xususiyatlarga ega. Tibbiyotda gulxayri ildizi damlamasi va ekstrakti asosan nafas yo‘llari kasalliklari, masalan, bronxit, yo‘tal va tomoq og‘rig‘ini davolashda ishlatiladi. Shuningdek, o‘simlik me’da-ichak yo‘llari yallig‘lanishida, sistit va teri kasalliklarida ham samarali qo‘llaniladi. Zamonaviy farmatsevtikada gulxayri asosida ishlab chiqarilgan siroplar, tabletkalar va choylar keng tarqalgan. Gulxayrining oson yetishtirilishi va ekologik tozaligi uni tabiiy dori vositasi sifatida yanada dolzarb qiladi.*

Аннотация. *Алтей лекарственный — одно из ценных лекарственных растений, широко используемое как в народной, так и в современной фитотерапии. В медицинских целях применяются корни, листья и цветки растения, содержащие слизистые вещества, флавоноиды, крахмал, пектины, танины, органические кислоты и эфирные масла. Благодаря этим компонентам, алтей оказывает противовоспалительное, обволакивающее и болеутоляющее действие. Препараты из корня алтея применяются при заболеваниях дыхательных путей, таких как бронхит, кашель и боль в горле. Также алтей эффективен при воспалениях желудочно-кишечного тракта, цистите и кожных заболеваниях. В современной фармацевтике выпускаются сиропы, таблетки и фиточаи на основе алтея. Простота выращивания и экологическая чистота делают это растение особенно*

актуальным в качестве природного лечебного средства.

Abstract. *Marshmallow is one of the valuable medicinal plants widely used in both traditional and modern herbal medicine. The roots, leaves, and flowers of the plant are utilized for medical purposes due to their content of mucilage, flavonoids, starch, pectin, tannins, organic acids, and essential oils. These components provide anti-inflammatory, soothing, and analgesic effects. Marshmallow root preparations are commonly used to treat respiratory conditions such as bronchitis, cough, and sore throat. Additionally, it is effective in managing gastrointestinal inflammation, cystitis, and various skin conditions. In modern pharmaceuticals, marshmallow is used in the production of syrups, tablets, and herbal teas. Its ease of cultivation and natural purity make it especially relevant as a safe and natural remedy.*

Gulxayri yallig‘lanishga qarshi, o‘rab oluvchi, balg‘am ko‘chiruvchi, yo‘talga qarshi ta’sirga ega. Gulxayrining shifobaxsh xususiyatlari polisaxaridlarning ko‘pligi bilan bog‘liq, ularni suvli damlamada shishishi kuzatiladi, hajmi oshishi va shilliq pardalar va terini ingichka qatlam bilan qoplashi mumkin. Bu qatlam shilliq pardalarni zararli omillardan (sovuq yoki quruq havo; oziq-ovqat tarkibiy qismining bezovta qiluvchi ta’siri, qurishi) himoya qiladi.

Bundan tashqari, shilliq-polisaxarid kompleksi zararlangan epiteliy hujayralari tomonidan chiqariladigan mikrob, virusli va toksik mahsulotlarni adsorbsiya qiladi, aktivligini yo‘qotadi, toksinlarning shilliq qavat bilan o‘zaro bog‘lanishini oldini oladi. Bunday shilliq qavat ostida yallig‘lanish jarayonining faolligi pasayadi, zich hujayralar va qobiqlar yumshatiladi, eroziya va yaralar tezroq bitadi. Gulxayri preparatlari mukolitik xususiyatlarga ega.

Gulxayri ildizi bu shilimshiqsimon sovuq suvda damlama shaklida, quruq ekstrakt, sirop, yo‘talga qarshi to‘plam sifatida ishlatiladi. Dorivor gulxayri o‘simligining yer ustki qismidan ajratib olingan uglevodlar aralashmasidan «Mukaltin» nomli dorivor preparat olinadi.

Arman gulxayri ildizi tashqi ko‘rinishida dorivor gulxayri ildiziga o‘xshaydi, ammo siniq joylarda ko‘proq tolali bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ushbu turning ildizlari dorivor gulxayri ildizidan ajratilgan biologik faol moddalarni saqlaydi.

Gulayri nafas olish va ovqat hazm qilish organlarining kasalliklarida yallig‘lanishga qarshi va o‘rab oluvchi vosita sifatida ishlatiladi. Gulxayri suvli damlamasi ichga qabul qilinadi, nafas olish yo‘llari va tomoq yallig‘lanish kasalliklarida balg‘amni ko‘chirishda, tonzillit, traxeit, stomatit, gingivit, glossit kasalliklarida damlama bilan tomoq chayiladi.

Gulxayri preparatlari yo‘talni kamaytiradi, o‘tkir va surunkali bronxit, pnevmoniya, bronxoektatit, tuberkulyoz, emfizema, o‘tkir respirator kasalliklarida balg‘am ko‘chirishini osonlashtiradi. Gulxayri ildizi ezofagit, gastrit, oshqozon yarasi va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi, enterokolit, oziq-ovqat toksikoinfeksiyalari va dizenteriya bilan birga yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. O‘tkir oshqozon-ichak kasalliklarida, ayniqsa, diareya bilan kechadigan kasalliklarda, ko‘p miqdorda kraxmal saqlovchi shilimshiqli gulxayri damlamasi nafaqat davolovchi, balki oziqa vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Rentgenologik amaliyotida oshqozon-ichak trakti shilliq qavatining relefini yaxshiroq aniqlash uchun gulxayri ildizining ekstraktiga bariy kukuniga qo‘shiladi. Metabolizmni normallashtirish uchun gulxayri damlamasi ekzema, psoriaz, neyrodermatit, dermatit uchun buyuriladi. Tashqi tomondan, gulxayri ildizi damlamasi dokaga shimdirilib, yumshatuvchi sifatida ishlatiladi.

1-sonli ko‘krak qafasi kasalliklariga yig‘ma: gulxayri ildizlari va oqqaldirmoq barglari 2 qism, tog‘rayxoni 1 qismdan olinadi. Damlamani 1 osh qoshiq yig‘madan 200 ml suvda tayyorlanadi. Issiq holda kuniga 3-4 maxal 1/2 stakandan ichiladi.

2-sonli ko‘krak qafasi kasalliklariga yig‘ma: gulxayri ildizlari 1 qism, shirinmiya ildizlari 1 qism, andiz ildizlari 1 qismdan olinadi. 200 ml suvda yig‘maning 2 choy qoshig‘idan damlama tayyorlanadi. Har 3 soatda iliq holatda 1/2 stakandan ichiladi. Gul va barglarning qaynatmasini ayollar sochlari uchun ishlatadi, chunki bu qaynatma sochlarning o‘sishini yaxshilaydi va mustaxkamlaydi.

Gulxayri (xalq orasida “gulhayri” deb ataladi) nafaqat ilmiy tibbiyotda, balki xalq tabobatida ham qadimdan qo‘llanib kelinadigan dorivor o‘simlikdir. Quyida bu o‘simlik asosida tayyorlanadigan eng mashhur va foydali damlama, qaynatma, sirop va boshqa vositalarning tayyorlash usullari keltirilgan.

Gulxayri ildizi qaynatmasi (ichki ichish uchun). Kerakli mahsulotlar: Quritilgan gulxayri ildizi – 1 osh qoshiq. Suv – 1 stakan (200 ml). Tayyorlanishi: Ildiz maydalanib, ustiga sovuq suv quyiladi. 30 daqiqa davomida past olovda qaynatiladi, so‘ng 15 daqiqa tindiriladi va suzib olinadi. Qo‘llanilishi: Kuniga 2–3 mahal, ovqatdan oldin 1/3 stakandan ichiladi. Asosan bronxit, yo‘tal, gastrit, ichak og‘rig‘i holatlarida foyda beradi.

Gulxayri sovuq damlamasi. Kerakli mahsulotlar: Quritilgan ildiz – 2 choy qoshiq. Sovuq qaynatilgan suv – 1 stakan. Tayyorlanishi: Ildiz ustiga suv quyiladi, yopiq idishda 8 soat davomida tindiriladi, so‘ng suzib olinadi. Qo‘llanilishi: Bu damlama shilliq moddalarning to‘liq saqlanishini ta’minlaydi. Tovush yo‘llarining quruqligi, tomoq og‘rig‘i, quruq yo‘tal holatlarida foydali.

Gulxayri choyi. Kerakli mahsulotlar: Quritilgan barg yoki gullar – 1 choy qoshiq.Qaynoq suv – 1 stakan. Tayyorlanishi: O‘simlik ustiga qaynoq suv quyilib, 10–15 daqiqa damlab qo‘yiladi. So‘ng suzib, iliq holatidi ichiladi. Qo‘llanilishi: Kuniga 2–3 mahal ichiladi. Me’da og‘rig‘i, gastrit, hazm buzilishida samarali. Shuningdek, tomoq og‘rig‘i va umumiy immunitetni mustahkamlash uchun foydali.

Gulxayri kompressi (tashqi foydalanish uchun). Kerakli mahsulotlar: Quritilgan barg yoki ildiz – 2 osh qoshiq.Suv – 500 ml.Tayyorlanishi: O‘simlik suvda 10 daqiqa qaynatiladi, iliqlashtiriladi. Tayyor bo‘lgan qaynatma toza matoga shimdirilib, yallig‘langan yoki shikastlangan joyga 15–20 daqiqa kompress sifatida qo‘yiladi. Qo‘llanilishi: Yaralar, dermatit, ekzema, teri yallig‘lanishlarida ishlatiladi.

Uy sharoitida tayyorlanadigan gulxayri siropi. Kerakli mahsulotlar: Quritilgan ildiz kukuni – 2 osh qoshiq.Suv – 200 ml. Asal yoki shakar – 2 osh qoshiq. Tayyorlanishi: Ildiz suvda 30 daqiqa qaynatiladi, so‘ng suzilib olinadi va iliq holatda asal yoki shakar bilan aralashtiriladi. Salqin va qorong‘i joyda saqlanadi. Qo‘llanilishi: Kuniga 1 choy qoshiqdan, 2–3 mahal ichiladi. Asosan yo‘tal, bronxit, ovoz bo‘g‘ilishi holatlarida qo‘llaniladi.

Foydalanishdagi tavsiyalar va ehtiyot choralar: Damlama va siroplarni har kuni yangidan tayyorlash maqsadga muvofiq. Bolalar uchun dozasi kattalarga nisbatan 2 baravar kamaytiriladi. Homiladorlar, emizikli ayollar va allergiyaga moyil kishilar shifokor bilan maslahatlashgandan so‘ng foydalanishlari lozim. Antibiotiklar yoki boshqa dorilar bilan birga iste’mol qilinsa, dori so‘rilishini sekinlashtirishi mumkin**.**

Adabiyotlar

[1]. O.K.Xojimatov , X.Q.Haydarov , D.T.Xamrayeva , D.A.Imomova, A.N.Xujanov “ O’zbekiston dorivor o’simliklari atlasi “ – Tashkent; 2021- 219 bet.

[2]. Karimov U. *“*Dorivor o‘simliklar*.”* – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 256 bet.

[3]. Saidov H., Abdullayev R.” Fitoterapiya asoslari*.”* – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2015. – 310 bet.

CARBON DIOXIDE CAPTURE AND STORAGE

D.T. Kodirova, M.A. Abidova

Fergana state technical university,
e-mail*: qodirovadilshodxon@gmail.com,* tel: +998 936410241

(Received on December 5 th, 2025.)

Аннотация. *В этой статье даны данные о содержании в атмосфере углекислого газа CO_2 и его влиянии на процессы окисления и окисления. Технология включает в себя сбор дымовых газов, очистку, абсорбцию, регенерацию абсорбента, компремирование и сжижение полученного CO_2. методы захвата CO_2 в химической промышленности, в переработке природного газа. В настоящее время CO_2, как правило, абсорбируется для очистки других потоков промышленных газов. Абсорбция используется для целей хранения лишь в нескольких случаях; чаще всего CO_2 выбрасывается в атмосферу.*

Ключевые слова: *Технология улавливания углекислого газа, физической Адсорбции, дымовых газов, сероводород, диоксид углерода, моноэтаноламин.*

Abstract. *This article provides data on the atmospheric carbon dioxide content of CO_2 and its effect on oxidation and oxidation processes. The technology includes flue gas collection, purification, absorption, absorbent regeneration, compression and liquefaction of the resulting CO_2. methods of CO_2 capture in the chemical industry, in natural gas processing. Currently, CO_2 is typically absorbed to purify other industrial gas streams. Absorption is used for storage purposes only in a few cases; most often, CO_2 is released into the atmosphere.*

Key words: *Carbon dioxide capture technology, physical Adsorption, flue gases, hydrogen sulfide, carbon dioxide, monoethanolamine.*

Annatatsiya. *Ushbu maqola CO2 ning atmosferadagi karbonat angidrid miqdori va uning oksidlanish va oksidlanish jarayonlariga ta'siri haqida ma'lumot beradi. Texnologiya tutun gazini yig'ish, tozalash, singdirish, changni yutish regeneratsiyasi, hosil bo'lgan CO2ni siqish va suyultirishni o'z ichiga oladi. kimyo sanoatida, tabiiy gazni qayta ishlashda CO2 ni olish usullari. Absorbsiya faqat bir nechta hollarda saqlash uchun ishlatiladi; ko'pincha CO2 atmosferaga chiqariladi.*

Kalit so'zlar: *Karbonat angidridni ushlash texnologiyasi, fizik adsorbsiya, chiqindi gazlar, vodorod sulfidi, karbonat angidrid, monoetanolamin.*

The global community is taking unprecedented action to limit global temperature increase this century to a target of 1.5°C above pre-industrial levels and mitigate the more severe impacts of climate change.[1]. The greatest attention is paid to measures to reduce emissions of carbon dioxide CO2 (carbon dioxide), which is formed during the combustion of organic fuels and plays a major role in the greenhouse effect.

As of 2019, Russia is responsible for 4.71% of greenhouse gas emissions, after China (30.34%), the United States (13.43%), the EU27+UK (8.69%) and India (6.83%). In terms of cumulative emissions from 1850 to 2007, the top countries are as follows: 1. United States: 28.8%, 2. China: 9.0%, 3. Russia: 8.0%, 4. Germany: 6.9%, 5. United Kingdom: 5.8%, 6. Japan: 3.9%, 7. France: 2.8%, 8. India: 2.4%, 9. Canada: 2.2% and 10. Ukraine: 2.2%.[2].

The composition of natural gas can vary widely. However, the main component of natural gas is methane. Other components include paraffinic hydrocarbons such as ethane, propane, and butane. Many natural gas fields contain nitrogen, as well as carbon dioxide and hydrogen sulfide. Trace amounts of argon, hydrogen, and helium may also be present. Natural gas may also contain a small proportion of C+ hydrocarbons. Certain aromatic compounds, such as benzene, toluene, and xylenes, which are toxic, may also be present. Natural gas may also contain other pollutants. Acidic contaminants such as mercaptans, carbonyl sulfide, and carbon disulfide may be present in small amounts. Mercury may also be present either as a metal in the vapor phase or as an organometallic compound in the liquid phase. [3].

Carbon dioxide capture technology is gaining increasing attention as a solution to the problem of anthropogenic emissions. However, the high cost of such equipment remains the main obstacle. Converting CO2 into fuel may be a solution.

True, this process is also quite expensive. The conversion of carbon dioxide into hydrocarbons is called hydrogenation. This process uses catalysts—chemicals that speed up the reaction between elements. [4].

Physical separation of CO2 is based either on adsorption, absorption and cryogenic separation, or on dehydration and compression. Physical adsorption uses solid adsorbents (e.g., activated carbon, alumina, metal oxides, or zeolites), while physical absorption uses organic liquids, such as a mixture of polyethylene glycol dimethyl ethers (Selexol process) or methanol (Rectisol process). After capture by an adsorbent, CO2 is released by increasing temperature (temperature swing adsorption [TSA]) or pressure (pressure swing adsorption [PSA] or vacuum pressure swing adsorption [VSA]). Carbon dioxide is released from physical solvent absorbents by releasing pressure. [5].

The process of obtaining carbon dioxide from flue gases of thermal power plants and boiler houses is based on absorption-desorption technology. This method enables the efficient extraction of CO2 from gas mixtures containing 7 to 10% carbon dioxide using a monoethanolamine (MEA) solution. The technology involves flue gas collection, purification, absorption, absorbent regeneration, compression, and liquefaction of the resulting CO2.

Flue gases pass through a cooler (scrubber), where they are washed and cooled to a temperature of 38-40°C. During the cooling process, partial condensation of water vapor and primary purification of the gas from impurities occur. This stage is critical to ensuring the effectiveness of subsequent carbon dioxide absorption.

In the absorber column, carbon dioxide is absorbed by a monoethanolamine (MEA) solution. The CO2 purification and recovery process is based on a chemical reaction between carbon dioxide and MEA. The residual gases, mainly consisting of nitrogen and water vapor, are released into the atmosphere, and the carbon dioxide-saturated MEA solution is sent for regeneration.

The saturated solution is preheated in a heat exchanger using the heat of the regenerated solution. In the desorber, carbon dioxide is separated from the MEA solution by heating. The resulting mixture of CO2 and water vapor passes through a two-stage condenser. A unique feature of the process is the use of cooling heat to produce hot water at a temperature of 60-80°C, which increases the energy efficiency of the entire production process. [6].

Of the acidic components of natural gas, hydrogen sulfide and carbon dioxide have a noticeable effect on its thermodynamic properties, since the concentration of other components (carbon dioxide, carbon disulfide, mercaptans, etc.) is insignificant. With an increase in the concentration of H2S and CO2 in natural gas, the temperature of gas hydrate formation increases and the compressibility coefficient decreases, and the equilibrium moisture capacity of the gas also increases.[7]. In low-temperature processes, CO2 freezes and deposits on the surface of heat exchange equipment, which reduces thermal conductivity through the walls and can completely block the flow of natural gas. [8]. The subject of the study is the acid gas CO2. Typically, the concentration of CO2 in natural gas can reach 8 vol.% [9]. However, there are natural gas fields with relatively high CO2 concentrations, from 10 to 50 vol.% [10,11].

CO2 sources are distributed worldwide, but four main emission clusters can be identified: in Northern and Northwestern Europe,Southeast Asia, and South Asia. Most technologies along the entire technology chain are at the demonstration or large-scale prototype stage as of 2021. However, today there are also technologies that are at the level of technological readiness. Thus, methods of CO2 capture are highly developed in the chemical industry, in ferrous metallurgy, in natural gas processing, and there is a fairly high level of readiness (TRL 8-9) for CO2 capture at hydrogen production plants and at coal-fired power plants.[12].

Capturing CO2 from fuel combustion in power plants is economically feasible under certain conditions. It is used to capture CO2 from a portion of the flue gases emitted by a number of existing power plants. CO2 separation in the natural gas processing industry, which uses similar technology, is carried out in a developed market.[6]. The technology required for pre-combustion capture is widely used in the production of fertilizers and hydrogen. While the initial pre-combustion capture steps associated with fuel conversion are more complex and expensive, the separation process is simplified by higher CO2 concentrations in the gas stream and higher pressure.

Today, CO2 separation applications are already in operation in large industrial plants, including natural gas processing and ammonia production plants. Currently, CO2 is typically absorbed to purify other industrial gas streams. Absorption is used for storage purposes only in a few cases; most often, CO2 is emitted into the atmosphere.

Capture processes have always been used to recover commercially viable quantities of CO2 from flue gas streams resulting from the combustion of coal or natural gas [13].

References

[1]. Ecology, energy, energy conservation: bulletin / edited by Academician of the Russian Academy of Sciences A.V. Klimenko. - Moscow: PAO Mosenergo, 2022.

[2]. Исмагилов З. Р., Пармон В. Н. Каталитические методы переработки углекислого газа угольной генерации в полезные продукты.

[3]. Mokhatab S., Poe W.A., Speight J.G. Handbook of natural gas transmission and processing. -Burlington: Gulf Professional Publishing, 2006. - 672 p.

[4]. https://nangs.org/news/renewables/dve-novye-tehnologii-pomogut-prevratity-so2-v-toplivo.

[5]. Energy Technology Perspectives 2020 : Special Report on Carbon Capture Utilisation and Storage. CCUS in clean energy transitions [Electronic resource]. Paris: International Energy Agency. URL:https://www.iea.org/reports/energy-technologyperspectives-2020?mode=overview (date of treatment: 21.11.2021).
[6]. https://plamya-co2.ru/proizvodstvo-co2/iz-dymovyh-gazov/.
[7]. Афанасьев А.И. и др. Технология переработки природного газа и конденсата. - М.: Недра, 2002. - 517 с.
[8]. Мишин В.М. Переработка природного газа и конденсата. - М.: Академия, 1999. - 448 с.
[9]. Speight J.G. Natural gas: a basic handbook. - Houston: Gulf Publishing Company, 2007. - 252 p.
[10]. 10. Патент N 2485998 Российская Федерация, МПК B01D 53/14 (2006.01), B01D 53/62 (2006.01), B01D 53/96 (2006.01). Способ обработки потока углеводородного газа, имеющего высокую концентрацию диоксида углерода, с использованием бедного растворителя, содержащего водный раствор аммиака: N 2011104713 заявл. 25.06.2009 : опубл. 20.08.2012 / Браво Ж.Л. и др. - 16 с.
[11]. Bellussi G. et al. Silica-aluminas for carbon dioxide bulk removal from sour natural gas // Microporous Mesoporous Mater. - 2011. - Vol. 146, № 1-3. - P. 134-140.
[12]. А. Осипцов, И. Гайда, Е. Грушевенко, С.Капитонов Технологии по улавливанию, хранению и использованию углерода (CCUS)// 2022г.
[13]. Берт Метц, Огунладе Дэвидсон Хелен де Конинк, Мануэла Лоос, Лео Мейер Улавливание и хранение двуокиси углерода//2005, Межправительственная группа экспертов по изменению климата

EKOTURIZM VA SOG‘LOM OVQATLANISH

B.S. Usmanov[1], A.A. Abdumalikov[1], B.Y. Ibragimov[2]

[1]*Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti*
[2]*Farg‘ona davlat texnika universiteti*
(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Annotatsi: *Maqolada ekoturizmning zamonaviy turizm yo‘nalishlari orasidagi o‘rni va ahamiyati, sog‘lom ovqatlanish bilan uzviy bog‘liq jihatlari yoritilgan. Bunda ekologik toza mahsulotlardan foydalanish, mahalliy fermer va ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik qilish, turistlarga milliy taomlarni sog‘lom ovqatlanish talablariga mos holda taqdim etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada ekoturizm orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tabiiy resurslarni asrab-avaylash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Xorijiy tajribalar tahlili asosida O‘zbekistonda ekoturizm imkoniyatlari, ayniqsa Chimyon, Zomin, Chotqol va Boysun kabi hududlarda sog‘lom ovqatlanish servisini yo‘lga qo‘yish istiqbollari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekoturizm, sog‘lom ovqatlanish, ekologik mahsulot, milliy taomlar, turizm servis, organik oziq-ovqat, fermer xo‘jaligi, ekologik xavfsizlik, milliy qadriyatlar, parhez taomlar, turistik xizmat, mahalliy bozor, tabiat resurslari, xalqaro turizm, gastronomik turizm.*

Аннотасия: *В стате раскриваеця тесная взаимосвяз между екотуризмом и здоровим питанием. Анализируеця значение предложения туристам блюд, приготовленних из екологичэски чистих продуктов, сотрудничества с местними фермерами и ринками, а также адаптасии насионалной кухни к диетичэским требованиям. Кроме того, рассматриваюця возможности екотуризма для сохранения природних ресурсов, пропаганди здорового образа жизни и повишения туристического потенсиала страни. На основе зарубежного опита представлени перспективи развития сервиса здорового питания в таких регионах Узбекистана, как Зомин, Чимган, Чаткал и Байсун.*

Ключевие слова: *екотуризм, здоровое питание, екологичэски чистие продукти, органическая пиша, насионалная кухня, туристичэский сервис, фермерское хозяйство, екологическая безопасност, местние ринки, диетичэские блюда, гастрономичэский туризм, насионалние сенности, международний туризм.*

Annotation: *The article highlights the close connection between ecotourism and healthy nutrition. It analyzes the importance of offering dishes prepared from eco-friendly products, cooperating with local farmers and markets, and adapting national cuisine to dietary requirements. In addition, the article discusses the opportunities of ecotourism for preserving natural resources, promoting a healthy lifestyle, and enhancing the tourism potential of the country. Based on international experience, the prospects of*

developing healthy food services in Uzbekistan's regions such as Zomin, Chimgan, Chatkal, and Boysun are presented.

Key words: *ecotourism, healthy nutrition, eco-friendly products, organic food, national cuisine, tourism service, farming, ecological safety, local markets, dietary meals, gastronomic tourism, national values, international tourism.*

KIRISH Bugungi kunda turizm sohasi jahon miqyosida jadal rivojlanmoqda [1]va unda turli yo‘nalishlar shakllanib bormoqda. Shulardan biri – ekoturizm, tabiatga yaqin bo‘lish, ekologik toza mahsulotlardan foydalanish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish imkoniyatini beradigan yo‘nalish sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ekoturizm nafaqat hordiq chiqarish yoki tabiat qo‘ynida dam olish, balki inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan sog‘lom ovqatlanishni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega[1].

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ekologik toza va organik mahsulotlarga talab kun sayin ortib bormoqda. Turistlar kimyoviy qo‘shimchasiz, tabiiy va serozuqa mahsulotlardan tayyorlangan taomlarga katta qiziqish bildirishmoqda. Bu esa turizm servisida sog‘lom ovqatlanish xizmatini rivojlantirishni zamon talabi sifatida belgilaydi. Masalan, Evropada “eco food tourism” konsepsiyasi orqali turistlarga mahalliy fermerlar mahsulotidan tayyorlangan organik taomlar taklif etilmoqda.[2]

O‘zbekistonda ham bu sohada katta imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimizdagi boy tabiiy resurslar, fermer xo‘jaliklari, milliy taomlar an'analari va ekoturizm manzillari – Zomin, Chimyon, Chotqol, Boysun kabi hududlar – ekoturizm bilan uyg‘un sog‘lom ovqatlanish xizmatini tashkil etish uchun muhim asos hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy taomlarni parhez talablariga moslashtirish, vegetarian yoki organik shakllarda taklif qilish xorijiy turistlar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi. Shuningdek, ekoturizm orqali sog‘lom ovqatlanish xizmatini yo‘lga qo‘yish nafaqat turistlar salomatligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, balki mahalliy iqtisodiyotga ham hissa qo‘shadi. Fermer xo‘jaliklari va mahalliy bozorlar mahsulotlaridan foydalanish orqali aholi daromadlari ortib, milliy mahsulotlarga talab yanada oshadi. Demak, ekoturizm va sog‘lom ovqatlanish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi mamlakat turizm salohiyatini oshirish, milliy brendni shakllantirish va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOT TAHLILI VA MUHOKAMA Ekoturizm va sog‘lom ovqatlanish mavzusi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, bu sohaning jadal rivojlanayotgani ta'kidlanadi. Jahon tajribasida ekoturizm faqat tabiat qo‘ynida sayohat qilish bilan cheklanmay, balki turistlarga ekologik toza mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni taklif etish orqali ham rivojlanmoqda[3]. Evropa mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan “green restaurant” yoki “eco food tourism” konsepsiyalari turistlar uchun nafaqat hordiq, balki sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom ovqatlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ekoturizmning asosiy vazifasi tabiat resurslarini asrab-avaylash va ulardan oqilona foydalanish bilan birga, ekologik xavfsiz ovqatlanish xizmatini ta'minlashdir. Turistlar kimyoviy qo‘shimchasiz, organik va tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan taomlarga alohida qiziqish bildirishadi. Shu jihatdan mahalliy fermerlar va bozorlar bilan hamkorlik qilish nafaqat yangi taomlar tayyorlash imkonini yaratadi, balki mahalliy aholi daromadlarini ham oshiradi. Shuningdek, turli mamlakatlardan kelgan turistlarning talablari xilma-xil bo‘lgani uchun milliy taomlarni turli parhez talablariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, vegetarian yoki glyutensiz taomlarni milliy oshxona bilan uyg‘unlashtirish nafaqat turistlarning ehtiyojini qondirishi, balki milliy oshxonani xalqaro maydonda targ‘ib qilishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi ilmiy va amaliy izlanishlarda ham Zomin, Chimyon, Chotqol, Boysun va Shohimardon kabi hududlar ekoturizm uchun ulkan salohiyatga ega ekani ta'kidlangan. Ushbu hududlarda sog‘lom ovqatlanish servisini yo‘lga qo‘yish milliy brendni shakllantirishda muhim

1. Honey, M. Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? – Washington: Island Press, 2008.

2.Weaver, D. Ecotourism. – Wiley, 2001.

3.Ўзбекистон Республикаси Туризм ва маданий мерос вазирлиги расмий сайти. – www.madaniyat.uz

omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mahalliy bozorlardan ekologik mahsulotlarni xarid qilish va ular asosida milliy taomlarni tayyorlash orqali nafaqat turistlar qoniqishiga erishiladi, balki iqtisodiy samaradorlik ham ta'minlanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ekoturizmda sog‘lom ovqatlanish xizmatini tashkil etishda QR-menyu, organik mahsulotlar sertifikatlari, “slow food” harakatlari kabi innovasion yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Bu kabi texnologiya va tendensiyalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali milliy turizm sohasini raqobatbardosh darajaga ko‘tarish mumkin. Shu tariqa, adabiyot tahlili va mavjud tadqiqotlar shuni anglatadiki, ekoturizm va sog‘lom ovqatlanishning uyg‘un rivojlanishi turistlar uchun qulaylik, mamlakat iqtisodiyoti uchun samara, milliy oshxona uchun esa xalqaro nufuzni ta'minlaydi.

XULOSA Yuqoridagi tahlil va mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm va sog‘lom ovqatlanish o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi mamlakat turizm salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega[4]. Turistlar uchun ekologik toza mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni taklif etish nafaqat ularning salomatligini muhofaza qiladi, balki O‘zbekistonning milliy oshxonasini yangi, zamonaviy ko‘rinishda namoyish qilish imkoniyatini ham yaratadi. Bu esa mamlakat imijini yuksaltirish va xalqaro maydonda milliy brendni shakllantirishda strategik omil hisoblanadi.

Ekoturizm yo‘nalishida sog‘lom ovqatlanish xizmatini joriy etish mahalliy aholi uchun ham katta iqtisodiy foyda keltiradi. Fermer xo‘jaliklari va mahalliy bozorlar mahsulotlaridan foydalanish orqali ichki bozor rivojlanadi, aholi daromadlari ortib, turistik hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratiladi.[5] Shuningdek, milliy taomlarni parhez talablariga moslashtirish, organik va vegetarian ovqat turlarini kiritish xorijiy turistlarning ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ekoturizm nafaqat iqtisodiy samara, balki ma'naviy va madaniy ahamiyatga ham ega. Tabiati go‘zal hududlarda ekologik mahsulotlar asosida sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish orqali milliy qadriyatlar keng targ‘ib qilinadi, xalqimizning an'anaviy oshxona madaniyati yangi bosqichga ko‘tariladi.

Xulosa qilib aytganda, ekoturizm va sog‘lom ovqatlanishning uyg‘un rivojlanishi turistlar uchun sifatli xizmat, mahalliy aholi uchun iqtisodiy manfaat va mamlakat uchun nufuzli milliy brend yaratish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

[1]. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2017.
[2]. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy sayti. – www.madaniyat.uz
[3]. Honey, M. Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? – Washington: Island Press, 2008.
[4]. Weaver, D. Ecotourism. – Wiley, 2001.
[5]. UNWTO. Tourism and Sustainability Reports. – Madrid, 2020.
[6]. Cittaslow International. Slow Food and Sustainable Tourism Practices. – 2019.

KALİY SULFAT OLISH USULLARINI O‘RGANISH

M.A. Abidova, D.T. Kodirova

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
E-mail: mamurahonabidova@gmail.comТел: (99891) 127-00-15

(Qabul qilindi 05.12. 2025 y.)

Аннотация: *В данной статье описываются способы и методы получения сульфата калия. Приведены также сведения о физико-химических свойствах сульфата калия и некоторых сырьевых материалов. Производство сульфата калия путем конверсии хлорида калия сульфатом натрия – наиболее приемлемый способ.*

[4] **UNWTO. Tourism and Sustainability Reports. – Madrid, 2020.**
[5] **Cittaslow International. Slow Food and Sustainable Tourism Practices. – 2019.**

Ключевые слова: *сульфата калия**,** калийное удобрение, конверсия, хлорид калия, серная кислота, сильвинит*

Abstract: *This article describes the methods and techniques for producing potassium sulfate. Information on the physicochemical properties of potassium sulfate and some raw materials is also provided. The production of potassium sulfate by converting potassium chloride with sodium sulfate is the most suitable method.*

Key words: *potassium sulfate, potassium fertilizer, conversion, potassium chloride, sulfuric acid, sylvinite*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kaliy sulfat ishlab chiqarish usullari va usullari tasvirlangan. Kaliy sulfat va ba'zi xom ashyolarning fizik-kimyoviy xossalari haqida ham ma'lumot berilgan. Kaliy xloridni natriy sulfatga aylantirish orqali kaliy sulfat ishlab chiqarish eng mos usul hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Kaliy sulfat, kaliyli o'g'it, konversiya, kaliy xlorid, sulfat kislota, silvinit/*

Qishloq xo'jaligidagi zamonaviy taraqqiyot, yangi yuqori mahsuldor navlarni joriy etish, dala ishlari va sug'orish ishlarini mexanizatsiyalashning kuchayishi bilan bir qatorda, ko'p jihatdan uni kimyolashtirish darajasi va birinchi navbatda, mineral o'g'itlar, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini stimulyatorlari, kimyoviy pestitsidlardan foydalanish bilan belgilanadi. Respublikada mineral o'g'itlar ishlab chiqarish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu ishlanmaning moddiy miqdori, balki sifat jihati ham bor: xomashyo bazasi kengayib, texnologiya va jihozlar takomillashtirilmoqda, mineral o'g'itlar turlari ko'payib, sifati yaxshilangan. Kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilishi bilan O'zbekiston qishloq xo'jaligini o'zining kaliyli o'g'itlari bilan to'liq ta'minlamoqda. Kaliy sulfat har xil ekinlar va tuproq turlari uchun va birinchi navbatda xlorga sezgir bo'lgan ekinlar uchun ishlatiladi. Kaliy xloridni natriy sulfatga aylantirish orqali kaliy sulfat ishlab chiqarish eng maqbul usul hisoblanadi. Avvallari Tumryuk konidan kaliy xloridni mirabilitga aylantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, eritmalarning reologik xossalari aniqlandi va texnologik jarayonning asosiy parametrlari o'rnatildi. [1–3]

Kaliy sulfat K_2SO_4 - yuqori konsentrlangan, xlorsiz kaliyli o'g'it. Kaliy sulfat suvda yaxshi eriydi. Ko'pincha kaliy sulfat fosfor yoki azotli o'g'itlar bilan birgalikda ishlatiladi. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining eng yuqori o'sishi ko'chma kaliyga ega bo'lmagan tuproqlarda aniqlandi: torf, suv toshqini, qumloq va engil qumloq tuproqlar. Kaliyli o'g'itlarning samaradorligi hamrohlik qiluvchi elementlarning tarkibiga bog'liq - natriy, xlor va boshqalar. Bundan tashqari, kaliy sulfat alumni olish uchun ishlatiladi, metallurgiyada - fluxning bir qismi sifatida bo'yoqlar ishlab chiqarishda sulfonlashtiruvchi vosita sifatida, analitik kimyoda yomon eriydigan birikmalarni tez eriydiganlarga aylantirish uchun, tibbiyot, fotografiya, pirotexnika, shisha, sovun, bo'yoq, charm ishlab chiqarish va kimyo sanoatida ishlatiladi [4–6].

Kaliy sulfat tabiiy ravishda ba'zi tuzli ko'llarda uchraydi. Yuta shtatidagi Buyuk Tuz ko'li kaliy sulfatning boy manbaidir. Kaliy sulfat ayrim vulqon lavalarida ham uchraydi. Tabiatda odatda magniy, natriy va xloridni o'z ichiga olgan tuzlar bilan birgalikda topiladi.

Kaliyli o'g'itlar mineral o'g'itlarning bir turi, o'simliklarning oziqlanishi uchun kaliy manbai sifatida foydalaniladi, ular nafaqat ekinlar hosildorligini oshiradi, balki yetishtirilgan mahsulot sifatini ham yaxshilaydi: ular o'simliklarning kasalliklarga chidamliligini oshiradi, saqlash va tashishda mevalarning saqlash muddatini yaxshilaydi, ularning ta'mi va estetik fazilatlarini oshiradi. Kaliyli o'g'itlar odatda azotli va fosforli o'g'itlar bilan birgalikda qo'llaniladi.[7]

Kaliy yetishtiriladigan mahsulotlarning shakar va vitamin miqdorini oshiradi, avgust-sentyabr oylarining oxirlarida o'g'itlash meva, rezavorlar, manzarali daraxtlar va butalarning qishda yaxshi yashashiga yordam beradi. U turli tuproqlarda, barcha ekinlar uchun, shuningdek, yopiq va ayvonli bog'dorchilik uchun ishlatiladi. Kaliy sulfat barcha qo'llash usullari uchun javob beradi: birlamchi (bahorda yoki kuzda tuproqni qazishda) va vegetatsiya davrida yuqori kiyim uchun. U asosan xlorga sezgir ekinlar (kartoshka, tamaki, zig'ir, uzum, sitrus va boshqalar) uchun ishlatiladi. O'g'itda sulfat ionlarining mavjudligi ko'p oltingugurt talab qiladigan xochga mixlangan o'simliklar (karam, rutabaga, sholg'om va boshqalar) va dukkakli o'simliklarning hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. [7]

Kaliy xlorid ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo tabiiy kaliy tuzlari (silvinit va karnallit, natriy va magniy tuzlari aralashmalari bilan 12-15% sof kaliyli tuzlar). Kaliy xlorid barcha turdagi tuproqlarda asosiy o‘g‘it sifatida ishlatiladi.

Silvinit - galit va silvit (nNaCl + mKCl) va ba’zi aralashmalar (gematit va boshqalar) o‘zgaruvchan qatlamlaridan tashkil topgan cho‘kindi jinsdir. Silvinitdagi kaliy va natriy xloridlarning nisbati o‘zgaruvchan. U odatda oz miqdorda qum, loy, gips va boshqa aralashmalarni o‘z ichiga oladi. U heterojen rangga ega - qizil, pushti, ko‘k va to‘q sariq rangli kristallar mavjud. Suvda deyarli to‘liq eriydi (iflosliklar bundan mustasno).

Silvinit kaliy xlorid ishlab chiqarish uchun eng muhim xom ashyo bo‘lib, u kaliyli o‘g‘it sifatida ishlatiladi.

Tog‘ jinslarining konlari nisbatan kam uchraydi, asosiy ishlab chiqarish Kanada, Rossiya, Belarus, Isroil, O‘zbekiston va Germaniyada amalga oshiriladi.

Karnallit kaliyli o‘g‘itlar uchun kaliy va magniyning asosiy manbai hisoblanadi. Karnallit kaliy tuzi konlaridagi eng muhim minerallardan biridir. Silvit va boshqa kaliy tuzlari kabi, u tuproq o‘g‘itlari uchun xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi.

Silvinit va karnallit ikki xil moddadir, ammo ikkalasi ham kaliyli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladigan kaliy tuzlari. Silvinit minerallar, birinchi navbatda, galit (natriy xlorid) va silvit (kaliy xlorid) aralashmasidan tashkil topgan cho‘kindi jinsdir. Karnallit alohida mineral, kaliy va magniy xloridlarining qo‘sh tuzidir.

Kaliy sulfatni kaliy xloridni sulfat kislota bilan yuqori haroratlarda reaksiyaga kiritish orqali olish mumkin (Mangeym jarayoni). Boshqa usul ammoniy sulfat va kaliy xloridni yuqori haroratlarda (300-400 ° S) reaksiyaga kirishdan so‘ng reaksiya mahsulotlarini ajratishni o‘z ichiga oladi. Kaliy xlorid va sulfat kislotadan birinchi bosqichda olingan kaliy kislotasi sulfatini magnezit yoki cho‘kma kabi moddalar yordamida neytrallash ham mumkin.

Magnezit keng tarqalgan mineral, magniy karbonat $MgCO_3$. Magnesiya (Thessaly, Gretsiya) mintaqasi nomi bilan atalgan, u erda birinchi marta kashf etilgan, u qadim zamonlardan beri ma’lum. Magnezit, shuningdek, 1-10% aralashmalari bo‘lgan magniy oksidi MgO dan tashkil topgan o‘tga chidamli materialdir.[8]

Kaliy sulfat va xloridning ikki marta parchalanishi. Bu usulda kaliy sulfat kaltsiy sulfat ($CaSO_4$) va kaliy xlorid (KCl) ning suvli eritmasida ikki marta parchalanishi natijasida hosil bo‘ladi. Reaksiya jarayonida kalsiy sulfat avval suvda eriydi va ionlar hosil qiladi. Keyin kaliy xlorid bilan reaksiyaga kirishib, kaliy sulfat va kaltsiy xlorid ($CaCl_2$) hosil qiladi. Bu, odatda, maksimal rentabellik va tozalikni ta’minlash uchun maxsus harorat va eritma konsentratsiyasini talab qiladi.

Sovutish kristallanish usuli. Sovutish kristallanish usuli haroratga qarab kaliy xlorid va magniy sulfat ($MgSO_4$) eruvchanligidagi farqdan foydalanadi. Bu usulda magniy sulfat va kaliy xlorid mos ravishda kondan yoki tuzli ko‘ldan olingan xom eritmadan bir qator bug‘lanish va sovutish bosqichlari orqali olinadi. Kaliy sulfat keyingi ishlov berish orqali ona suyuqlikdan ajratiladi, masalan, sovutish paytida kristallanish.

Ion almashinuvi usuli. Ion almashinuvi usuli kaliy sulfat ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasidir. Kaliy o‘z ichiga olgan eritmalardan kaliy ionlarini adsorbsiyalash uchun qatron yoki boshqa ion almashinadigan materiallardan foydalanadi. Qatronlar to‘yingandan so‘ng, kaliy ionlarini konsentrlangan sulfat kislota eritmasi yordamida qatrondan tozalash mumkin. Bu kaliy sulfat ishlab chiqaradi. Bu usul turli manbalardan, shu jumladan oqava suv va dengiz suvidan kaliyni samarali olish imkonini beradi.

Oltingugurt rudasini yoqish jarayoni. Bu jarayonda oltingugurt saqlovchi rudalar (masalan, pirit FeS_2) kaliy xlorid bilan aralashtiriladi va yonish uchun yuqori haroratgacha qizdiriladi. Reaksiya natijasida hosil bo‘lgan sulfat kislota va sulfat gaz kaliy xlorid bilan reaksiyaga kirishib, kaliy sulfat hosil qilishi mumkin. Ushbu jarayon oltingugurt rudasi bilan bog‘liq ekologik muammolarni ham hal qiladi, chunki chiqindi oltingugurt foydali kimyoviy mahsulotlarga aylanishi mumkin.

Kaliy sulfat olish uchun elektroliz usuli. Elektroliz natijasida sulfat kislota va kaliy

xlorid bo‘lgan eritmani elektroliz qilish orqali kaliy sulfat hosil bo‘ladi. Elektroliz jarayonida eritmadagi suv vodorod ionlari va kislorod ionlariga ajraladi. Ular mos ravishda katod va anodda reaksiyaga kirishadi. Bu jarayonda vodorod ionlari sulfat ionlari bilan birikib kaliy sulfat hosil qilishi mumkin. Kislorod ionlari xlorid ionlari bilan qo‘shilib, xlor gazini hosil qilishi mumkin.

Har bir usul o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Misol uchun, Mannheim jarayoni yuqori toza kaliy sulfat ishlab chiqarishga qodir. Biroq, energiya iste'moli yuqori, xarajatlar yuqori va uskunalar qattiq materiallarni talab qiladi. Ikki marta parchalanish jarayoni nisbatan oddiy. Shu bilan birga, ishlov berish qiyin bo‘lgan yon mahsulotlar (masalan, kaltsiy xlorid) paydo bo‘lishi mumkin. Sovutish kristallanishi tabiiy mineral suv yoki dengiz suvida kaliy va magniy tuzlarini qayta ishlash uchun javob beradi. Ion almashinuvi va elektroliz odatda yuqori toza kaliy manbalarini ishlab chiqish uchun javob beradi.

Sof kaliy sulfatning mineral shakllari nisbatan kam uchraydi. Mineral arkanit sof K_2SO_4 dan iborat va oq yoki shaffof kristallar shaklida bo‘ladi. U AQShning Kaliforniya shtatida joylashgan.

Kaliy tuzlarini o‘z ichiga olgan ko‘plab minerallar mavjud:

- Kainit—$MgSO_4 \cdot KCl \cdot H_2O$
- Glaserit— $2K_2SO_4 \cdot Na_2SO_4$
- Shonit— $K_2SO_4 \cdot MgSO_4 \cdot 6H_2O$
- Leonit— $K_2SO_4 \cdot MgSO_4 \cdot 4H_2O$
- Langbeynit— $K_2SO_4 \cdot 2MgSO_4$
- Poligalit— $K_2SO_4 \cdot MgSO_4 \cdot 2CaSO_4 \cdot 2H_2O$
- Singenit— $K_2SO_4 \cdot CaSO_4 \cdot H_2O$

Sanoat ishlab chiqarish usullari KCl ning turli sulfatlar bilan almashinish reaktsiyalariga asoslanadi va natijada kaliy sulfat odatda yon mahsulotlar bilan kuchli ifloslangan:

- $2KCl + 2MgSO_4 = K_2SO_4 \cdot + MgSO_4 + MgCl_2$
- $K_2SO_4 \cdot MgSO_4 + 2KCl = 2K_2SO_4 \cdot + MgCl_2$
- $2KCl + Na_2SO_4 = K_2SO_4 \cdot + 2NaCl$
- $2KCl + CaSO_4 \cdot 2H_2O = K_2SO_4 \cdot + CaCl_2 + 2H_2O$
- $2KCl + FeSO_4 = FeSO_4 \cdot + CaCl_2$

Silvinit, karnallit va xenit kabi tabiiy minerallarga asoslangan usullar juda ishonchli va keng sanoat qo‘llanilishiga ega, ammo katta resurslar va murakkab qayta ishlash texnologiyasini talab qiladi.

Shu bilan birga, tuzlarning ikki marta parchalanish reaktsiyalariga asoslangan kimyoviy ishlab chiqarish usullari yakuniy mahsulot sifatini moslashuvchan nazorat qilish imkonini beradi va xom ashyo resurslari cheklangan hududlarda qo‘llaniladi. Ularning afzalligi sanoat chiqindilarini qayta ishlash qobiliyatidadir, bu esa atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

[1]. М. А. Самадий [и др.] Реологические свойства и разделение фаз суспензий в процессе получения сульфата калия / // Химия и хим. технология. – 2013. – No 1. – С. 2–5

[2]. . М. А. Самадий [и др.] Получение сульфата калия из флотационного хлорида калия и мирабилита Тумрюкского месторождения / // Химия и хим. технология. – 2013. – No 4. – С. 10–15

[3]. М. А. Самадий [и др.] Технология получения сульфата калия конверсионным методом из мирабилита Тумрюкского месторождения и хлорида калия Тюбегатанского месторождения / // Аналитик кимё фанининг долзарб муаммолари – 2010: III Респуб. науч.-техн. конф., Термиз, 31–23 апр. 2010 г. – Термиз, 2010. – С. 227–228

[4]. Евтефеев Ю.В., Казанцев Г.М. Основы агрономии: учеб. пособие. – М.: ФОРУМ, 2013. – 368 с.

[5]. Кореньков Д.А. Удобрения, их свойства и способы использования. – М.: Колос, 1982. – 415 с.

[6]. И.Р. Вильд флуш, А.Р. Цыганов, В.В. Лапа, Т.Ф. Персикова. Рациональное применение удобрений: учеб. пособие / – Горки: Белорусская госу дарственная сельскохозяйственная академия, 2002. – 324 с.

[7]. Калийные удобрения //Казахстан. Национальная энциклопедия.— Алматы:Қазақ энциклопедиясы, 2005.— Т.III.—ISBN 9965-9746-4-0.(CC BY-SA 3.0)

[8]. International Mineralogical Association - Commission on new minerals, nomenclature and classification The IMA List of Minerals (February 2013)

JISMONIY TARBIYANING SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

A.A. Yusupov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12.2025 y.)

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada jismoniy tarbiyaning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Jismoniy tarbiyaning inson salomatligi, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan. Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faollik, salomatlik, sport, yoshlar.*

Kirish. Hozirgi davrda inson salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Texnologiyalar rivoji natijasida harakat faolligining kamayishi turli kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Shu sababli jismoniy tarbiya sog‘lom hayot tarzini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda.

1. Jismoniy tarbiya tushunchasi va mazmuni

Jismoniy tarbiya insonning jismoniy rivojlanishini ta’minlash, sog‘ligini mustahkamlash va harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. U sport mashqlari, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar va harakatli o‘yinlarni o‘z ichiga oladi.

2. Jismoniy tarbiyaning sog‘liqni mustahkamlashdagi ahamiyati. Muntazam jismoniy mashqlar yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlarining faoliyatini yaxshilaydi. Jismoniy faollik immunitetni kuchaytirib, kas Inson salomatligini saqlash va mustahkamlashda jismoniy tarbiya muhim omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi zamon hayot tarzida harakat faolligining kamayishi, noto‘g‘ri ovqatlanish va stress omillari turli kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois jismoniy tarbiya sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi.

Jismoniy tarbiya organizmning barcha tizimlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muntazam jismoniy mashqlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamlab, qon aylanish jarayonini yaxshilaydi. Natijada yurak mushaklari chiniqadi, qon bosimi me’yorlashadi va yurak kasalliklari xavfi kamayadi. Shuningdek, jismoniy mashqlar nafas olish tizimi faoliyatini yaxshilab, o‘pkaning hayotiy sig‘imini oshiradi.

Jismoniy tarbiya mushak-skelet tizimining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Mashqlar suyaklarning mustahkamligini oshirib, mushaklarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu holat umurtqa pog‘onasi qiyshayishi, bo‘g‘im kasalliklari va turli jarohatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish to‘g‘ri qomatni shakllantiradi.

3. Jismoniy tarbiya va ruhiy salomatlik

Jismoniy mashqlar ruhiy holatga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, stress va charchoqni kamaytiradi. Bu esa o‘quv va mehnat faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda ruhiy salomatlik muammolari jamiyatda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Stress, ruhiy zo‘riqish, depressiya va asabiylik holatlari, ayniqsa, o‘quvchi va talaba yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda jismoniy tarbiya muhim profilaktik vosita sifatida e’tirof etiladi.

Jismoniy tarbiya insonning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ruhiy holatini ham yaxshilaydi. Muntazam jismoniy mashqlar bajarilishi natijasida organizmda endorfin, serotonin kabi “baxt gormonlari” ajralib chiqadi. Bu gormonlar kayfiyatni ko‘taradi, xavotir va tushkunlik holatlarini kamaytiradi hamda ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu bois jismoniy faollik stressga qarshi samarali vosita hisoblanadi. Jismoniy tarbiya asab tizimining faoliyatini me’yorlashtiradi. Mashqlar davomida markaziy asab tizimi faollashib, diqqat-e’tibor va xotira jarayonlari

yaxshilanadi. Natijada insonning aqliy mehnatga bo‘lgan qobiliyati oshadi. Bu holat, ayniqsa, talabalar uchun muhim bo‘lib, o‘quv jarayonidagi samaradorlikni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya shaxsda irodaviy sifatlar — qat’iyatlilik, o‘zini boshqara bilish, intizom va sabr-toqatni shakllantiradi. Sport mashg‘ulotlari jarayonida jamoada ishlash, muloqot qilish va ijtimoiy faollik oshadi. Bu esa yolg‘izlik hissini kamaytirib, ijobiy psixologik muhitni yuzaga keltiradi.

4. OTMlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari yoshlarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Individual yondashuv va zamonaviy metodlardan foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Uni ta’lim tizimida samarali qo‘llash orqali sog‘lom avlodni tarbiyalash mumkin.

Adabiyotlar

[1]. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018.
[2]. Xolmirzayev N. Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi. – Toshkent, 2020.
[3]. Matkarimov A. Jismoniy tarbiya pedagogikasi. – Toshkent, 2021.

TALABALARDA VOLEYBOLGA XOS ANTROPOMETRIK VA FUNKSIONAL KO‘RSATKICHLARNING AHAMIYATI

E.R. Suleymanov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12.2025 y.)

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada talabalarda voleybol sport turiga xos bo‘lgan antropometrik (bo‘y uzunligi, tana vazni, qo‘l-oyoqlar uzunligi, tana proporsiyalari) hamda funksional (tezkorlik, sakrash balandligi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari) omillarning sport natijalariga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida oldingi ilmiy manbalardagi nazariy qarashlar va amaliy natijalar umumlashtirilib, talaba-yoshlar orasida voleybolchilarni tanlash va tayyorlash jarayonida mazkur ko‘rsatkichlarning ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *voleybol, antropometriya, funksional ko‘rsatkichlar, talaba-sportchilar, seleksiya, jismoniy tayyorgarlik.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируется влияние антропометрических (рост, масса тела, длина рук и ног, пропорции тела) и функциональных (скорость, высота прыжка, показатели сердечно-сосудистой и дыхательной систем) факторов, специфичных для волейбола, на спортивные результаты у учащихся. В ходе исследования обобщены теоретические взгляды и практические результаты из предыдущих научных источников, а также обоснована важность этих показателей в процессе отбора и подготовки волейболистов среди учащихся.*

Ключевые слова: *волейбол, антропометрия, функциональные показатели, учащиеся-спортсмены, отбор, физическая подготовка.*

Abstract: *This scientific article analyzes the influence of anthropometric (height, body weight, arm and leg length, body proportions) and functional (speed, jump height, cardiovascular and respiratory system indicators) factors specific to volleyball on sports results in students. During the study, theoretical views and practical results from previous scientific sources are summarized, and the importance of these indicators in the process of selecting and training volleyball players among students is substantiated.*

Keywords: *volleyball, anthropometry, functional indicators, student-athletes, selection, physical training.*

Voleybol sport turi yuqori darajada koordinatsiya, tezkorlik, kuch va maxsus chidamlilikni talab etuvchi murakkab jismoniy faoliyat hisoblanadi. Ushbu sportda yuqori natijalarga erishish faqat texnik-taktik tayyorgarlik darajasi bilangina emas, balki sportchining antropometrik

ko‘rsatkichlari hamda organizmning funksional imkoniyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Ilmiy tadqiqotlarda voleybolchilarni tanlash va tayyorlash jarayonida tana tuzilishi, bo‘y uzunligi, qo‘l-oyoqlar proporsiyasi hamda yurak-qon tomir va nafas olish tizimining rivojlanish darajasini hisobga olish muhim seleksion mezon sifatida e’tirof etiladi (Platonov, 2015; Ozolin, 2010).

Talaba-yoshlar orasida voleybol mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish ularning jismoniy rivojlanish darajasi, funksional tayyorgarligi va sport faoliyatiga moslashuv imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Bu holat Suleymanov E.R.ning jismoniy tarbiya va sport faoliyatining pedagogik hamda fiziologik asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ham qayd etilgan bo‘lib, unda individual yondashuv va funksional imkoniyatlarni inobatga olish sport samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi (Suleymanov, 2023; Suleymanov, 2024). Shu bois ushbu maqolada mavjud ilmiy manbalar hamda muallifning oldingi ilmiy ishlari asosida voleybolga xos antropometrik va funksional ko‘rsatkichlarning ahamiyati yoritib beriladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqot maqsadi – talabalarda voleybol sport turiga xos bo‘lgan antropometrik (bo‘y uzunligi, tana vazni, tana proporsiyalari) hamda funksional (tezkorlik, sakrash qobiliyati, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari) xususiyatlarning sport samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularni mashg‘ulot jarayonida hisobga olishning amaliy ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Voleybol bilan shug‘ullanuvchi talabalarga xos asosiy antropometrik ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish;

Talaba-voleybolchilarning funksional tayyorgarlik darajasini baholash;

Antropometrik va funksional ko‘rsatkichlar bilan sport natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

Mavjud ilmiy adabiyotlar hamda muallifning oldingi tadqiqotlari asosida olingan natijalarni taqqoslab tahlil qilish;

Talabalar bilan voleybol mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

voleybol bilan shug‘ullanuvchi talabalarga xos bo‘lgan asosiy antropometrik ko‘rsatkichlarni (bo‘y uzunligi, tana vazni, tana proporsiyalari, qo‘l va oyoq uzunligi) aniqlash va tahlil qilish;

sportchilarning funksional ko‘rsatkichlari, jumladan tezkorlik, sakrash qobiliyati, maxsus chidamlilik hamda yurak-qon tomir va nafas olish tizimi holatining o‘yin faoliyatidagi rolini aniqlash;

mavzu doirasida olib borilgan oldingi ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va ular asosida umumiy ilmiy xulosalar chiqarish;

olingan natijalarga tayangan holda talabalarda voleybol mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida ilmiy asoslangan, nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o‘tgan quyidagi metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlari tanlanishda mavzuning mazmuni hamda tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiqligi inobatga olindi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi – voleybol sportida antropometrik va funksional ko‘rsatkichlarning ahamiyatiga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni o‘rganish, ularni tizimli tahlil qilish hamda umumlashtirish maqsadida qo‘llanildi;

Antropometrik o‘lchovlar metodi – tadqiqot ishtirokchilarining bo‘y uzunligi, tana vazni, tana proporsiyalari hamda qo‘l uzunligini aniqlash orqali ularning jismoniy rivojlanish darajasini baholash uchun foydalanildi;

Funksional testlar metodi – sakrash balandligini aniqlash testi, yurak urish tezligini o‘lchash hamda o‘pkaning hayotiy sig‘imini aniqlash orqali sportchilarning funksional tayyorgarlik darajasini baholashda qo‘llanildi;

Statistik tahlil metodi – olingan natijalarni o‘zaro taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish, shuningdek, antropometrik va funksional ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Antropometrik ko‘rsatkichlarning ahamiyati

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, voleybol sportida sportchilarning antropometrik xususiyatlari, xususan bo‘y uzunligi hamda qo‘l panjalari va yuqori oyoq-qo‘llarning uzunligi o‘yin samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqori bo‘yga ega bo‘lgan voleybolchilar to‘r ustida faol harakatlanish, hujum zarbalarini samarali amalga oshirish hamda blok qo‘yish jarayonlarida sezilarli ustunlikka ega bo‘ladilar. Zatsiorskiy (2012) o‘z tadqiqotlarida tana tuzilishining biomekanik ustunliklari sport natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Platonov (2015) ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori malakali voleybolchilarning o‘rtacha bo‘y ko‘rsatkichi 185–200 sm oralig‘ida bo‘lib, bu holat seleksiya jarayonida bo‘y uzunligini muhim mezon sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich sportchilarning to‘r ustida amalga oshiriladigan texnik harakatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida talaba-voleybolchilar orasida olib borilgan kuzatuvlar natijalari bo‘y uzunligi bilan sakrash qobiliyati o‘rtasida musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Yuqori bo‘yga ega bo‘lgan talabalar sakrash balandligi va hujum harakatlarida nisbatan yuqori natijalarga erishganligi aniqlandi. Mazkur holat Ozolin (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi va antropometrik ko‘rsatkichlarning sport faoliyatidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Funksional ko‘rsatkichlarning roli

Funksional tayyorgarlik darajasi voleybol sportida o‘yin jarayonining davomiyligi va yuqori intensivligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Yurak-qon tomir tizimining moslashuv darajasi yuqori bo‘lgan sportchilar o‘yin davomida tezkor va uzluksiz harakatlarni samarali bajarish, shuningdek, musobaqaning oxirgi daqiqalarigacha yuqori ish qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Matveyev (2014) ta’kidlashicha, sportchilarning funksional holati ularning umumiy va maxsus ish qobiliyatini belgilovchi asosiy fiziologik omil hisoblanadi.

Voleybol o‘yinida sakrash balandligi, tezkor kuch hamda reaksiya tezligi hujum va himoya harakatlarining samaradorligini oshiruvchi muhim funksional ko‘rsatkichlar sanaladi. Ushbu sifatlarning yuqori darajada rivojlanganligi sportchilarga tezkor qaror qabul qilish, to‘r ustida samarali harakatlanish va raqib hujumlariga munosib javob qaytarish imkonini beradi.

Oldingi ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, muntazam va tizimli mashg‘ulotlar olib borilishi natijasida talaba-sportchilarda nafas olish tizimining funksional imkoniyatlari, xususan o‘pkaning hayotiy sig‘imi oshishi hamda yurak urish tezligining yuklamadan keyin tiklanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi kuzatiladi (Volkov, 2011). Mazkur holat funksional tayyorgarlikni rivojlantirish voleybol mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari talaba-voleybolchilarda voleybol sport turiga xos bo‘lgan antropometrik hamda funksional ko‘rsatkichlar sport natijalariga bevosita va muhim ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ilmiy adabiyotlar tahlili hamda oldingi tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, bo‘y uzunligi, tana proporsiyalari, sakrash qobiliyati, tezkorlik va yurak-qon tomir tizimining funksional holati voleybol o‘yin faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, oldingi ilmiy maqolalardan olingan nazariy xulosalar tahlili voleybolchilarni tanlash va tayyorlash jarayonida antropometrik va funksional ko‘rsatkichlarni inobatga olish ilmiy jihatdan asoslangan seleksiya tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Talabalar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda individual yondashuvni qo‘llash, sportchilarning jismoniy rivojlanish darajasi va funksional imkoniyatlarini hisobga olish mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida voleybol mashg‘ulotlarini rejalashtirish, sportchilarni tanlash va tayyorlash jarayonini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega

bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar

Talabalar orasida voleybolchilarni tanlashda antropometrik o‘lchovlarni majburiy qo‘llash

Bo‘y uzunligi, tana vazni, qo‘l-oyoqlar uzunligi va tana proporsiyalarini hisobga olish seleksiya jarayonining ilmiy asosini tashkil qiladi. Ushbu mezonlar sportchilarning texnik harakatlar samaradorligi va to‘r ustida ustunlik qobiliyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Funksional testlar orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash

Sakrash balandligi, tezkorlik, chidamlilik va yurak-qon tomir tizimining holatini baholash orqali sportchilarni individual yondashuvga moslashtirish mumkin. Bu esa mashg‘ulot samaradorligini oshirish va o‘yin davomiyligini uzaytirishga yordam beradi.

Mashg‘ulot jarayonini individual ko‘rsatkichlarga moslashtirish

Har bir talabaning antropometrik va funksional xususiyatlari hisobga olinib mashg‘ulot yuklamasi va mashqlar murakkabligi belgilanishi zarur. Shu yo‘l bilan har bir sportchining rivojlanish salohiyati maksimal darajada ishlatiladi.

Ilmiy tadqiqot natijalarini o‘quv-amaliy jarayonga joriy etish

Olingan natijalar va xulosalarni amaliyotga tatbiq etish orqali voleybol mashg‘ulotlarining sifatini oshirish, seleksiya jarayonini ilmiy asoslash hamda talabalar sport salohiyatini rivojlantirish mumkin. Bu tavsiya yuqori malakali pedagogik va sport metodik ishlanmalarni yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

[1]. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2015.
[2]. Озолин Н.Г. Теория и методика спортивной тренировки. – Москва: Физкультура и спорт, 2010.
[3]. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена. – Москва: Советский спорт, 2012.
[4]. Матвеев Л.П. Общая теория спорта. – Москва: Лань, 2014.
[5]. Волков В.М. Физиология спорта. – Москва: Академия, 2011.

Foydalanilgan (monografiya va ilmiy manbalar)

[1]. Suleymanov E.R. “Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning roli.” Jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlikning umumiy nazariy asoslari.
[2]. Suleymanov E.R. “Jismoniy tarbiya va sportning kognitiv funksiyaga ta’siri.” Funksional holat va psixofiziologik moslashuv masalalari.
[3]. Suleymanov E.R. “Jismoniy madaniyatning pedagogik asoslari.” Talabalar bilan ishlashda individual yondashuv va pedagogik prinsiplar.
[4]. Suleymanov E.R. “Katta yoshdagi bolalar uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati.” Yoshga xos antropometrik va funksional farqlar tahlili.
[5]. Suleymanov E.R. “Yosh sportchilarni tayyorlashda fiziologik rivojlanish xususiyatlari.” Sport seleksiyasi va funksional rivojlanish qonuniyatlari.

JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

A.A. Yusupov

Farg‘ona davlat texnika universiteti,
(Qabul qilindi 05.12.2025 y.)

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar hamda interfaol metodlarning jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar*

asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning talaba-yoshlar jismoniy rivojlanishi, sog‘lig‘i va motivatsiyasiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, sog‘lom turmush tarzi.*

Abstract. *This scientific article broadly covers the theoretical and practical aspects of using innovative pedagogical technologies in physical education classes. The role of innovative approaches, digital technologies, and interactive methods in increasing the effectiveness of physical education in the modern education system is analyzed. Also, the impact of classes organized on the basis of innovative pedagogical technologies on the physical development, health, and motivation of students and youth is scientifically substantiated.*

Keywords: *physical education, innovative technologies, interactive methods, digital education, healthy lifestyle.*

Аннотация. *Данная научная статья широко рассматривает теоретические и практические аспекты использования инновационных педагогических технологий на уроках физической культуры. Анализируется роль инновационных подходов, цифровых технологий и интерактивных методов в повышении эффективности физического воспитания в современной системе образования. Также научно обосновывается влияние занятий, организованных на основе инновационных педагогических технологий, на физическое развитие, здоровье и мотивацию учащихся и молодежи.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, инновационные технологии, интерактивные методы, цифровое образование, здоровый образ жизни.*

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masalaga aylangan. An’anaviy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda zamonaviy yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish mashg‘ulotlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati innovatsion pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining mazmunini boyitadi, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida mashqlarni vizual ko‘rsatish, natijalarni tahlil qilish va baholash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa talabalar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik metodlar va ularning tasnifi

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan innovatsion metodlarga interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va differensial yondashuvlar kiradi. Ushbu metodlar orqali talabalar faolligi oshadi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida keng qo‘llanilmoqda. Elektron darsliklar, video darslar, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish mumkin. Ushbu vositalar talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlashiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarning jismoniy rivojlanishga ta’siri

Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kuch, tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlar rivojlanadi. Shu bilan birga, sog‘liq holati va psixologik barqarorlik yaxshilanadi.

Xorijiy tajribalar va ularni joriy etish imkoniyatlari rivojlangan davlatlarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalar keng joriy etilgan. Ushbu tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish jismoniy tarbiya fanining samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar orqali sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga erishiladi.

Adabiyotlar

